

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Qahhorjon YO'LCHIYEV

BADIIY TAHLIL ASOSLARI

Darslik

"INFOKAPITALBOOKS"
TOSHKENT – 2026

UDK: 821.09:81'42(075.8)

KBK: 83.3ya73

Y 85

Yo'lchiyev.Q

Badiiy tahlil asoslari [Matn] Darslik / Yo'lchiyev.Q. – T.: "INFOKAPITALBOOKS" nashriyoti, 2026. – 212 b.

Mas'ul muharrir:

Akbarali Sabirdinov, professor, filologiya fanlari doktori.

Taqrizchilar:

1. Islomjon Yoqubov, professor, filologiya fanlari doktori.
2. Komiljon Abdullayev, pedagogika fanlari doktori, dotsent.
3. Siddiqjon Xo'jayev, dotsent, filologiya f.b. falsafa doktori(PhD).

Mazkur darslik o'quv rejaning ikkinchi blok, 2.03 raqamida BTAT304 malakaviy kod bilan qayd etilgan. Jami auditoriya soatlar hajmi 60 soat (30 soat ma'ruza, 30 soat seminar) etib belgilangan. Shu reja asosida ishlab chiqilgan, tegishli tartibda tasdiqlangan fan o'quv dasturidagi ma'ruza mashg'ulotlari ketma-ketligida berilgan.

Darslik oliy ta'lim muassasalari filologiya fakulteti talabalari, shu fandan dars beruvchi professor-o'qituvchilar, doktorant va mustaqil izlanuvchilar, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari hamda badiiy asar tahliliga qiziquvchi keng ommaga mo'ljallangan.

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan № 8860-9569-254c-3cb6-d539-9849-9641 raqam bilan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan. QR kod:7518

ISBN 978-9910-8043-7-3

© Q.V. Yo'lchiyev, 2026.

© "INFOKAPITALBOOKS" nashriyoti, 2026.

KIRISH

Adabiyotshunoslik fanlari orasida adabiyot nazariyasi, mumtoz tarixiy poetika, nazariy poetika, adabiyot tarixi, xalq og'zaki poetik ijodi, adabiy jarayon, adabiy tanqid tarixi, adabiyot o'qitish metodikasi bilan chambarchas bog'liq holda badiiy tahlil asoslari degan alohida soha ham taraqqiy etib kelmoqda. Garchi ushbu tarmoq nisbatan yosh hisoblansa-da, uning tarixiy ildizlari, badiiy asarni o'rganish genezisi ijtimoiy taraqqiyotning mifik davridan boshlangan, deyishga asos bor. Ibtidoiy odam g'orda jamoa bo'lib yashab, termachilik, ovchilik bilan kun kechirgan vaqtida ov yoki terim jarayonida sodir bo'lgan biror voqeadan qattiq ta'sirlanib uni boshqalarga qayta gapirib bergan. Rivoyat qilingan voqea-hodisani boshqa bir guvohi ham qayta so'zlashi va bunda avvalgi aytilgan rivoyatga munosabat bildirib aytishi ilk tahlil, tanqiq namunasi sifatida olinishi mumkin. Keyinchalik yozuv paydo bo'lib, aniq badiiy asar, adabiy tur va janrlar shakllangach, bu jarayon tizimli ilmiy o'rganish tusini olgan.

Xususan, badiiy tahlil tamoyillari haqidagi ilk mulohazalarni Aflotunning "Davlat" nomli asarida uchratishimiz mumkin. Buyuk mutafakkir adabiyotning ikki turi haqidagi faslda adabiyotning og'zaki va yozma turi borligini aytadi. Suhbat davomida bolalarga, avvalo, rivoyatlar aytib berilishi, har qanday ishda muhim narsa ibtido ekanligi, shuning uchun bola tarbiyasida hushyor bo'lish kerakligini aytib, *"Har xil odamlar tomonidan har qanaqasiga o'ylab topilgan, ko'pchilik bolalar balog'atga*

yetgach ularda bo'lishi kerak deb hisoblaydigan fikrlarimizga zid bo'lgan har qanday rivoyatni bizning bolalarimiz jon deb eshitishlari va ulardan ta'sirlanishlariga osonlikcha yo'l qo'yamizmi?" kabi muammoli savolni qo'yadi¹. Qadimgi greklar farzandlariga eng kerakli, katta bo'lganda ularga foyda bo'ladigan rivoyatlarni tinglab katta bo'lishlari kerakligi haqidagi muammoni olib chiqar ekan, badiiy asarning yaxshi va yomonini ajrata bilish uchun asarni o'qib tahlil qilish zarurligi haqidagi fikrni ilgari suradi. So'ngra davom etib, quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: "Avvalo, biz rivoyatlarning ijodkorlariga qarashimiz kerak: agar ularning asarlari yaxshi bo'lsa – qabul qilamiz, yomon bo'lsa – rad etamiz. Bolalarning jismini qo'l bilan shakllantirishdan oldin, rivoyatlar yordamida ularning ruhini shakllantirish jara-yonida biz enagalar va onalarni faqat tan olingan rivoyatlarni aytib berishga ko'ndiramiz. Ular hozir aytib berayotgan rivoyatlaridan ko'pini yo'qotish zarur"².

Demak olim bir nechta masalani olib chiqqan:

- 1) bola tarbiyasida badiiy asarning o'rni;
- 2) bolaga tavsiya qilinayotgan rivoyat (asar)ning yaxshi bo'lishi shartligi;
- 3) rivoyat yaratuvchilar ham jamiyat badiiy-estetika ideali-ga javob berishi;
- 4) ana shunday yetuk shaxslarni tarbiyalashda badiiy asarni saralash va ularni turli aspektlardan tahlil va talqin etish orqali amalga oshiriladi.

Qadimgi Sharqda ham kishilar faoliyati tadqiq etilib, ularni tahlil etib yaxshi yoki yomonga ajratish an'anasi mavjud bo'lgan. "Avesto" muqaddas yodgorligi, "Qutadg'u bilig" kabi manbalar fikrimiz dalili bo'la oladi. Shu tariqa qadim davrlardayoq

¹ Афлотун. Давлат. Таржимон Урфон Отажон. Масъул муҳаррир Ш. Мансуров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б.84 (464).

² Yuqoridagi manba. – Б.84-85.

badiiy asarni o'rganish, tahlil qilish metodologiyasi, tadqiq usullari ishlab chiqilgan.

Yangi davr o'zbek adabiyotshunosligida voqelikni badiiy idrok etish va uni ifodalash, badiiy-ijodiy jarayoni, ijodkor psixologiyasi, badiiy asar tushunchasi, badiiy asar funksiyalari, asar tahlili, talqin etish usul va vositalari hamda qator poetik tomonlarini aniqlashni o'rgatish masalalariga yondashuv o'zgardi. Bu esa: "Badiiy tahlil asoslari" degan maxsus predmetning shakllanishi va nazariy asoslarini yangi davr nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqish zaruratini yuzaga chiqardi. Zero, "Bugun jonajon O'zbekistonimiz: Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan ustuvor g'oya asosida o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo'ymoqda" ekan, adabiy ta'lim o'z oldiga badiiy asarni badiiy-estetik, ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy doirada o'qitish maqsadini ham qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabr-dagi PQ-60-son "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda vazirning 2022-yil 22-avgustdagi 284-son buyrug'ida o'quv adabiyotlarini tayyorlash tartibi hamda o'quv adabiyotlarini yaratish hamda ulardan foydalanishga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan. Xususan, darslik muayyan o'quv fanining mavzulari tizimli, chuqur va to'liq yoritilgan, tegishli fan mazmunini belgilangan hajmda mukammal o'zlashtirishga qaratilgan, mazmunan va shaklan ta'lim turlari (bakalavriat, magistratura)ga moslashtirilgan, talabalarda shu fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlari rivojlanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan asosiy o'quv nashri bo'lishi ta'kidlangan.

Yaratilayotgan o'quv adabiyotlarining mazmuni ta'lim olish, mustaqil fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan izlab topish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi va ta'minlanishi belgilangan. O'quv adabiyoti tushunarli, sodda va ravon tilda yozilishi, ma'lumotlar talabalar tomonidan imkon darajasida oson va qiyinchiliksiz qabul qilinadigan, xotirada yaxshi saqlanadigan tarzda berilishi hamda talabalarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish imkoniyatini yaratishi lozimligi ko'rsatilgan. Ana shu talablardan kelib chiqqan holda mavzular dastur asosida mantiqiy izchil, quyidan yuqoriga, soddadan murakkablikka tamoyili asosida yaratildi. Dastlab mavzu, keyin mavzuni mantiqiy izchil va oson o'zlashtirish uchun reja ishlab chiqilgan. So'ngra tayanch so'z va iboralar, keyin asosiy matn berilgan. Matn oxirida esa mavzu yuzasidan savol va mustaqil ta'lim topshiriqlari ko'rsatilgan. Oxirida esa oxirgi yillarda jahon va mamlakatimiz olimlari tomonidan ajratilgan adabiyotlar ro'yxati mavjud. Darslik oxirida nazorat uchun test savollari hamda adabiyotshunoslik terminlarining qisqacha lug'ati ilova qilingan.

Har bir mavzu, umuman olganda, darslik yaratishda talabada quyidagilarni shakllantirishga e'tibor berildi:

1) voqelikni badiiy-estetik tushunish, uni idrok etish va badiiy ijod qilish iste'dodini his etish, anglash kabi ko'nikmalarni paydo qilish;

2) badiiy asar ijtimoiy ong shakli sifatida xalq, jamiyat dunyoqarashi, umuminsoniy g'oyalar, milliy qadriyatlar, an'analar-ni o'zida ifoda etishi orqali xalq botiniy olamining ko'rsatkichi ekanligi, bunda tahlilning ahamiyati muhimligi haqida ma'lumot berish;

3) badiiy tahlil asoslarining boshqa fanlar bilan aloqadorligini o'rgatish;

4) poetik masalalar: dispozitsiya, kompozitsiya (fabula, syujet), obrazlar kompozitsiyasi, nuqtai nazar kompozitsiyasi, an'ana va novatorlik, makon va zamon, asar tili, shakl va mazmun birligi kabi jihatlarni anglash;

5) yetuk asarlarni o'qish va ularda ifodalangan badiiy g'oya, muammo, kechinma, mavzularni aniqlash va tushunish;

6) epik, lirik va dramatik turdagi asarlarni tahlil qila bilish;

7) badiiy asarlarni tahlil etish orqali adabiy jarayonni baholab borish masalalarini o'rganish va shu kabilar.

Talabada yuqorida sanalgan vazifalarni bajarish uchun fan bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar bo'ladi. Darslik ana shulardan kelib chiqib yaratildi. Avvalo, badiiy asar tahlili kursining ilmiy-nazariy asosi keltiriladi. Bunda shu paytgacha mavjud bo'lgan tajribalarga, yetuk olimlar ishlariga tayanildi. So'ngra amaliy ishlarga o'tiladi.

Darslikdan oliy ta'lim muassasalari filologiya fakulteti talabalari, shu fandan dars beruvchi professor-o'qituvchilar, doktorant va mustaqil izlanuvchilar, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari hamda badiiy asar tahliliga qiziquvchi keng omma foydalanishi mumkin.

1-MAVZU: KIRISH. ADABIYOTSHUNOSLIKDA TAHLILNING ILMIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Reja:

1. Badiiy asar – soʻz sanʼati mahsuli
2. Kursning maqsad va vazifalari
3. Badiiy asar mohiyati
4. Badiiy tahlilning tarixiy-ilmiy asoslari
5. Badiiy asar tahlilining obyekti

Tayanch soʻz va iboralar: *asar, badiiylilik, badiiy tahlil, badiiy idrok, ilmiy-metodologiya, soʻz sanʼati.*

Aslida “Badiiy tahlil asoslari” degan atamaning mazmuni “tahlil” soʻzining lugʻaviy maʼnosiga qurilgan. “Tahlil” umumfal-safiy tushuncha boʻlib, “uning yordami bilan narsa va hodisalar fikrda yoki amaliyotda boʻlib (ajratib), ularning ayrim qismlari, belgilari va xususiyatlari” haqida fikr yuritiladi... Tabiat va ja-miyatdagi bilim va tajribalar inson tomonidan oʻzlashtirilishi” tahlildan boshlanadi³. Demak adabiyotdagi u yoki bu hodisani, masala, asar, janr va h.k.larni tahlil qilish orqali u haqdagi bi-lim, tushunchalarimizni boyitamiz. Tahlil oldidagi “badiiy” soʻ-zi arabchadan oʻzlashtirilgan va “betakror goʻzallik” maʼnosini beradi. “Badiiy tahlil asoslari” betakror goʻzallikni oʻrganish va oʻzlashtirishning asosi degan maʼnoni anglatadi. Fan bevosita badiiy asarni oʻqish va uning mohiyatini anglash orqali badiiy-estetik did, saviyani oshirish, maʼnaviy-axloqiy tajriba orttirish,

³ Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.25.

ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarimizni kengaytirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, badiiy asar san'at shakllari orasida badiiy so'zdan foydalanish va go'zallik qonuniyatlariga asoslangani bilan ajralib turadi. Xususan, ijodkor voqelikni badiiy so'z yordamida tasvirlar ekan, obraz va obrazli ifoda yordamida fikr yuritadi. Masalan, qadimgi odamlar *"quyosh chiqdi"*, *"shamol keldi"* kabi so'z birikmalarini qo'llaganda quyosh yoki shamolni obrazga aylantirib, xuddi kishining qorong'u g'ordan yorug'likka chiqishi, shamolni esa odam kelishi kabi paytlarda yuz beradigan hissiy-falsafiy kechinmalarga o'xshatgan. Bu jumlar o'z davrida katta badiiy topilma sifatida ilk odam ruhiyatiga ta'sir etgan bo'lishi tabiiy.

Badiiy so'z, umuman olganda, so'z olamining asosi sanaladi. Muqaddas kitoblarda olamning yaratilishiga Allohning birgina *"Bo'l"* degan so'zi asos bo'lgan deyiladi. *"So'zning sehrli, mo'jizali va fusunkor kuchi uning tasavvurlar va obrazlarni yuzaga keltirish qobiliyatida aks etadi. U beshta sezgi orqali idrok qilindigan narsa, voqea, hodisalarning ko'zga ko'rinmas vakilidir"*⁴. Demak, kishi borliqni so'z orqali idrok etadi.

Adabiy jarayonda faol ijodkor hayotiy materialni saralab oladi-da, o'z ijodiy laboratoriyasida qayta ishlab, unga o'z ijodiy konsepsiyasini kiritadi. Natijada barchaga ma'lum bo'lgan material badiiy yangilik darajasiga ko'tariladi. Bu esa ijodkor mansub xalq yoki zamon kishilarining dunyoqarashi, botiniy olamini ifodalaydi. Zero, badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakli sifatida kishining ichki olamidagi evrilishlar, o'zgarishlar hamda intilishlarni teran ifodalaydi. Shuning uchun badiiy adabiyotni

⁴ Парандовский, Ян. Сўз кимёси: бадиа-эссе. Тарж. О.Шарафиддинов, М.Акбаров. – Т.: Янги асп авлоди, 2022. – Б.195

tahlil qilish shu yo'l bilan xalq intilishi, ma'naviy dunyosi, madaniyatini tekshirish mumkin. Mazkur fasl ana shu maqsadni nazarda tutadi.

Unda talaba voqelikni badiiy idrok etish va uni ifodalash, badiiy-ijodiy jarayon, ijodkor psixologiyasi, badiiy asar tushunchasi, badiiy asar funksiyalari, asarni tahlil va talqin etish usullari, vositalari hamda qator poetik masalalarni aniqlashni o'rganadi. Mazkur maqsaddan kelib chiqib esa quyidagi vazifalar belgilangan:

- badiiy-estetik tushunish, idrok, anglam va badiiy ijod haqidagi tushunchalarni shakllantirish;
- badiiy asar jamiyat botiniy olamining ko'rsatkichi ekanligi va bunda tahlilning ahamiyati haqida ma'lumot berish;
- badiiy tahlil asoslarining boshqa fanlar bilan aloqadorligini o'rgatish;
- badiiy tahlil asoslari fanining o'rganilishi hamda bu boradagi yutuq va kamchiliklar;
- poetik masalalar: dispozitsiya, kompozitsiya (fabula, syujet), arxitektonika, obrazlar kompozitsiyasi, nuqtai nazar kompozitsiyasi, asar tili, shakl va mazmun birligi kabi jihatlarni anglash;
- yetuk asarlarni o'qish va ularda ifodalangan badiiy g'oya, muammo, kechinma, mavzularini aniqlash va tushunish;
- epik, lirik va dramatik turdagi asarlarni tahlil qila bilish;
- badiiy asarlarni tahlil etish orqali adabiy jarayonni baholab borish masalalarini o'rganish va boshqa qator nazariy masalalar talqinidan iboratdir.

Fan bo'yicha talaba quyidagilarni bilishi kerak bo'ladi:

- badiiy tahlil asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari, tadqiq usullariga tegishli bo'lgan bilimlarga ega bo'lish;

- adabiyotshunoslik nazariyasi, adabiyot tarixi va hozirgi adabiy jarayonga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy masalalarni hal qilishda fanning o'rnini bilish;

- badiiy asarga estetik baho berish, adabiy jarayonni ilmiylik asosida baholash kabi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish;

- badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil va talqin qila bilish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Badiiy tahlil asoslari bo'yicha chuqur nazariy bilimga ega bo'lish, badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qilish, badiiy asarga estetik baho berish, adabiy jarayonni ilmiylik asosida baholash ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Badiiy asar adabiyotshunoslikning asosiy tadqiqot obyekti bo'lib, ma'lum bir asar umumiy adabiyotning kichik qismi sanaladi. O'zining tuzilishiga ko'ra badiiy asar mazmunan tugallangan, shaklan yaxlit tuzilishga ega bo'ladi. Unda ma'lum makon va davrdagi voqea-hodisalar umuminsoniy badiiy g'oyalar asosida bayon qilinadi. Natijada asar butun insoniyatga xos muammo tasviri yoki yechimiga bag'ishlangan bo'ladi.

Shu o'rinda "badiiy asar" haqida tushunchaga ham aniqlik kiritish kerak bo'ladi. "Badiiy asar" birikmasidagi birinchi so'z doimiy yangidek turuvchi topilma, yangilik degan ma'nolarni bildiradi. Asar esa "iz", "belgi" demakdir. Badiiy asar esa iste'dod egasining ma'lum ruhiy-ijodiy faoliyati mahsuli bo'lib, olamni anglash, badiiy idrok etish jarayonida ijodkorning ruhiy olami va borlig'ini yaxlitlik bilan aks ettiradigan noyob hodisa sanaladi. Masalan, Alisher Navoiy, Lutfiy, Atoiy, Bobur, Ogahiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Mirtemir, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf, Nurali Qobul kabi yetuk ijodkorlar asarlari haqiqiy badiiy asar deyishga loyiqdir.

Betakror ma'naviy go'zallik ulashuvchi, mazmuni eskirmaydigan, salmoqdor va original asar badiiy asar sanaladi. Ana shunday asargina tahlilning tadqiqot obyekti bo'la oladi. Afsuski, adabiy jarayonda haqiqiy badiiy asardan ko'ra saviyasi pastroq, badiiyligi o'tmasroq asarlar ko'p uchraydi. Shuning uchun badiiy tahlil qilishdan avval, kerakli asarni tanlay bilish ham alohida masala. Buning uchun adabiyotshunos yoki tahlilchining badiiy didi yetuk, saviyasi baland bo'lishi lozim.

Badiiy asarni tahlil qila bilishning ijtimoiy, estetik hamda tarbiyaviy ahamiyati mavjud bo'lib, tahlilchi asar mohiyatini teran tushunishi, asar mazmunidan anglashiladigan ideal g'oya, mavzu, kechinma, ijtimoiy muammo kabilarni tushunish orqali o'zidagi his-tuyg'u, fikr, axloqlarni ijtimoiy foydali yo'nalishda qayta shakllantiradi. Bu esa sekin astalik bilan butun xalq dunyoqarashi, turmush tarzi, axloqi kabilarni aniq maqsad sari yo'naltirish imkonini beradi.

“Badiiy asar tahlili” deganda odatda murakkab ijodiy-ruhiy faoliyat mahsuli bo'lgan, bir qancha qism, unsur, qatlamlardan iborat murakkab tizimlarning yaxlitlikdagi shaklini o'rganish nazarda tutiladi. Sodaroq aytganda, badiiy asar tahlili deyilganda adabiy-badiiy asarning mazmuni va shaklini tushunish, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi mutanosiblik va bog'liqlikni anglash, mazmuniy qatlamlarini ko'rsatish bilan bog'liq ilmiy-tahliliy faoliyat tushuniladi. Tahlil atamasi “analiz” (yunon – parchalash, qismlarga ajratish)⁵ so'zining ma'nodoshi bo'lib, biror bir yaxlit tuzilishga ega asarni, narsani intellektual yoki amaliy jihatdan qismlarga ajratib ilmiy o'rganish yo'li, tadqiqot metodi hisoblanadi. Tahlil keng tushuncha bo'lib ilm-fanning barcha (tilshunoslik, fizika, matematika, psixologiya, falsafa

⁵ Словарь иностранных слов. – Москва: Русский язык, 1981. – С.36.

kabi) sohalarida qo'llaniladi. Bunda asar qismlarga ajratilgan holda o'rganilib, uning mohiyati yoritib beriladi.

Adabiyotshunoslik fanida tahlilning tarixiy-ilmiy asoslari Forobiy, ibn Sino, Atoulloh Husayniy, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur, Ogahiy, Furqat singari mutafakkirlarning asarlarida badiiy tahlilga doir qarashlarning aks etgani bilan izohlanaadi. Xususan, Forobiy Arastu "Poetika"siga bildirgan sharhida quyidagilarni yozadi: "... Ma'noni bildiradigan so'zlar sodda va murakkab bo'ladi. Murakkab so'zlar biror mulohazani anglatadi yo anglatmaydi. Mulohazani anglatadiganlarining qat'iy jamziligini va jamzsizi bo'ladi"⁶. Abu Nasr Forobiy bu yerda so'z va uning badiiy kontekstdagi ahamiyatini ko'rsatar ekan, har qanday so'z ma'lum ma'no kasb etishi shartligini to'g'ri ta'kidlaydi. Lekin ular qat'iy yoki bo'shroq bo'lishi ham ko'rsatilgan.

Boshqa bir mutafakkir, Ali Abu ibn Sino esa quyidagilarni yozadi: "She'r odatda obrazli so'zlardan iborat bo'lib, u bir-biriga teng hamda vaznli tuziladi...". Obrazli qilib aytilgan so'z kishi ruhini o'ziga bo'ysundiradigan bir holat kasb etadi.⁷

Darhaqiqat, badiiy so'z tinglovchining ichki olamiga ta'sir etadi. O'zi ko'rmagan bilmagan voqeasi esa uning xayolida qayta shakllanib, ruhiyatiga estetik zavq beradi. Ana shu jihat badiiy asarning estetik ta'siri hisoblanadi. To'g'ri, Forobiy va Ibn Sino estetik qarashlarida antik mutafakkirlar ta'siri ko'proq, lekin masalaning boshqa bir jihati muhim. Har ikki olim ham umuminsoniy darajadan turib fikr yuritishgan.

Badiiy asar tahlili, asarni o'rganish va uning kishiga foydasi haqida maxsus shug'ullanib keladigan kishilar – adabiyotshu-

⁶ Форобий. Шоирлар санъати ҳақида (Абдусодиқ Ирисов таржимаси) / Аристотель. Поэтика. – Тошкент: АСН6 1980. – Б.64

⁷ <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/she'riyat> 392.html Шеър санъати. Абу Али ибн Сино

noslar, tahlilchilar, tanqidchilar, deb ataladi. Turkiy manbalarga oid lugʻatda esa “tiliklik” izlanuvchi, qidiruv olib boruvchi demak. (Tək mən huintso no [mluy] nom tikliklig kūsūš üzä [tinliý]larqa keñürü asiy tusu qıl [yalı] saqınćın keli teginim erd[im]) *“Faqat men, Syuan-Tszan, tirik mavjudotlarga koʻproq foydam tegishi maqsadida taʼlimot haqidagi kitob ustida ishlash uchun keldim”*⁸. Mazkur parchadan anglashiladiki, qadimgi turkiy xalqlar ham ilmiy tadqiqot va uning kishilarga foydali tomonlarini yaxshi bilishgan. Syuan ismli odam ilm orqali kishilarga yaxshilik qilishni maqsad qilib olgani va buni amalga oshirish uchun taʼlimot ustida ilmiy izlanish olib borishni maqsad qilgani koʻrinadi. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqadiki, biror badiiy asarni teranroq tushuntirish, sharhlash va kishilarga asar mazmunini yetkazish muhim sanaladi. Chunki shu yoʻl bilan odamlar hayotni teranroq tushunadilar, hayotiy masala va muammolarni yechishni oʻrganadilar, Zero, badiiy asarni tushunish orqali odamning idroki, ruhi va hissiyoti tarbiya topadi. Shuning uchun qadimdan ajdodlarimiz badiiy asar tahliliga alohida eʼtibor berishgan. Buning uchun “tiliklik” degan maxsus atama ham qoʻllashgan.

Manbaalarga koʻra, Atoulloh Husaynning asarida shakl va mazmunga oid qimmatli maʼlumotlar borligi aniqlangan. Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogʻa” asarida: Islomiy estetikaga xos jihatlarning yorqin aks etganligi, roʻy berganligi, tasvir mahorati ortib borgani sari ifodada taʼsirchanlik va tabiiylik kuchayganligi aytiladi.

Adabiyotshunoslar “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiyot tarixi”, “Tilshunoslik”, “Falsafa”, “Estetika”, “Psixologiya”, “Mantiq” kabi fanlar bilan uzviy bogʻliqlikda badiiy asarni tushunishni oʻrgati-

⁸ Древне тюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 561.

shadi. Bunda insoniyatning badiiy-estetik ideali, umuminsoniy g'oya va qadriyatlarga tayanadi.

Umuman olganda, har bir fan sohasida bo'lgani kabi badiiy tahlil jarayonida ham shu paytgacha ishlab kelgan, o'ziga xos metodologiya mavjud.

Yuqoridagilardan anglashilmoqdaki, badiiy so'z, badiiy asar tahlil obyekti sifatida adabiyotshunos diqqat markazida bo'lishi kerak. Badiiy so'z ijodkor botiniy olami, u anglagan tushuncha, g'oyani ifodalasa, badiiy asar ana shu jarayonni o'ziga xos tizim, tugal struktura sifatida yuzaga chiqishini ta'minlaydi. Masalan, Yo'lliq Tegin yozib qoldirgan tosh-bitigi, Aprinchur Tegin she'rlari orqali turkiy xalqlar turmush tarzi, botiniy olami haqida bugungi kun o'quvchilari tasavvurga ega bo'ladi.

Ilk turkiy shoir sifatida tanilgan Aprinchur Teginning bizga yetib kelgan she'rida ajdodlarimizning dunyoqarashini kuzatishimiz mumkin:

*Yaruk tengriler yarlikazun
Yavaşbirle
Yakişipan birliştiler küç birzüm
(Yoruq Tangrilar yarlaqasin,
Sekin-astalik birla
Yaqinlashib kelar katta guruh)*

*Küçülüg biriştirle küçbirzüm
Közi karam birle
Külüşügin oluralim
(Kichiklar birlashib katta bo'ldik.
Mehr ko'zi birla xayrli yasharmiz).⁹*

⁹ Nihat Sami Banarlı. Resimli Türk edebiyati tarihi. – İstanbul: Milli Eğitim Basımi, 1987, 1-jild, – S.48 (640 s).

Bu she'rdagi lirik subyekt oydinlikka, yorug'likka ishonadi, u kishilarni birlashib, ahil, hamdam, do'st bo'lib yashashini bayon etgan. Uning bosh g'oyasi hayotsevarlik, insonparvarlikdir. Shuningdek, Nihat Sami Banarli aytganidek, bu *“Şiirin ilk mühim husüsiyati uç misrali kit'alarla söylenmiş olmasidir... Gerçekten, eski Turk şiirinde, az kullanılmakla beraber uç misrali kir'alarla tertiplenen bir nazım şekli vardır. Bu, belki de Türkiye Türkçesi edebiyatında uçleme deneneşeklin başlangıcıdır”*¹⁰. (Bu she'rning ilk muhim xususiyati uch misrali ekanligidadir. Haqiqatan ham turk she'riyatida kam qo'llangan bo'lsa-da, uch misrali she'rlar bor. Bu balki zamonaviy turk adabiyotidagi “uchleme” degan shaklning boshlang'ichidir).

Ko'rinadiki, badiiy asar va uning mazmuni asrlar o'tsa ham o'z mohiyatini yo'qotmaydi. Yuqoridagi she'rda xalqlar birligi, niyat yaxshiligi haqidagi g'oyalar ilgari surilgan. Demak, asar hayot mohiyatini anglatmoqda.

Haqiqiy badiiy asar yillar o'tsa ham asl mohiyati, ya'ni o'quvchi qalbida hayotga muhabbat, hayratlanish, ongida nekbinlik, ruhiyatida esa qudrat qoldirib, uni shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xullas, badiiy asar tahlilini bilish uchun adabiyotshunos adabiyot nazariyasi, tilshunoslik, estetika, falsafa, mantiq kabi fanlarni bilishi, eng muhimi, ilmiy mushohada yuritishi lozim bo'ladi. Chunki “hayot maktabi” (N.G.Chernishevskiy) degan nom berilgan adabiyot mustaqil tadqiqot predmetiga, o'z ichki qonun-qoidalariga, ijtimoiy ahamiyatiga ega.

Mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. “Badiiy tahlil asoslari” deganda nimani tushunasiz?
2. “Badiiy tahlil asoslari” kursining maqsadini ayting.

¹⁰ Yuqoridagi manba, o'sha joy.

3. Fanning vazifalarini sanab berolasizmi?
4. Qanday asar badiiy asar hisoblanadi?
5. Badiiy tahlilning tarixiy-ilmiy asoslarini bilasizmi?
6. Abu Nasr Forobiyning “Shoirlar san’ati qonunlari haqida” risolasini mazmunini so’zlab bering.
7. Abu Ali ibn Sinoning “She’r san’ati” risolasi haqida nimalarni bilasiz?
8. Badiiy asar tahlili obyektini ayting.
9. Badiiy asarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

1. Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” (– T.: O’qituvchi, 2005) darsligini o’qish va konspektlash.
2. O’zingiz yoqtirgan hikoyani mazmun va shakl birligi nuqtai nazaridan yozma ravishda tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Афлотун. Давлат. Насрий достон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015 – 464 б.
2. Йўлдош, Қозоқбой. Йўлдош, Муҳайё. Бадий асар таҳлил асослари. – Тошкент: Kamalak, 2016 – 464 б.
3. Sulton, Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2005. – 256 б.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева З. Адабиётшунослик лугати. Қайта нашр. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 406 б.
6. Парандовский, Ян. Сўз кимёси: бадиа-эссе. Тарж. О.Шарафиддинов, М.Акбаров. – Т.: Янги аср авлоди, 2022. – 464 б.
7. Форобий. Шоирлар санъати ҳақида (Абдусодиқ Ирисов таржимаси) / Аристотель. Поэтика. – Тошкент: АСНб 1980. – Б.64
8. <http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/she'riyat> 392.html Шеър санъати. Абу Али ибн Сино

2-MAVZU: BADIY ASARNI ILMIY O'RGANISH VA UNING VAZIFALARI

Reja:

1. Badiiy tahlilning nazariy asoslari
2. Badiiy tahlil turlari
3. Ilmiy tadqiq
4. O'quv (didaktik) tahlil
5. Badiiy tahlil tamoyillari

Tayanch so'z va iboralar: *tamoyil, qissa, she'r, obraz, tadqiqot predmeti, ilmiy tafakkur, badiiy asar, ilmiy (filologik) tahlil, didaktik tahlil.*

Badiiy tahlilda, ayniqsa, adabiyot ta'limi, badiiy asarning o'quv tahlilida sohaga doir ilmiy-nazariy qarashlarni oxirgi yillarda yaxlit tizim sifatida anglash kuchayib bormoqda. Xususan, professor Q.Yo'ldoshev shunday yozadi: "Badiiy tahlil adabiy asarning hayotiy va badiiy mantig'i hamda estetik jozibasini anglashga yo'naltirilgan ilmiy faoliyatidir"¹¹. Bu yerda olim badiiy tahlilning ikki muhim jihati: 1) badiiy asar talaba (kitobxon) uchun hayot maktabi hamda badiiy-estetik did, saviyani shakllantiruvchi vosita ekanligiga urg'u bergan. Ana shu ikki ustun badiiy tahlilni ilmiy faoliyatga aylantiradi. Adabiyotshunos K.Abdullayev esa "Badiiy asarni o'qish, matn ustida ishlash, tahlil jarayonida badiiy asardagi ayrim tushunilishi qiyin bo'lgan so'z, iboralarga izoh berish, lug'at

¹¹ Қозоқбой Йўлдош. Жиловланмаган тафаккур маҳсули. – Тошкент: Tafakkur, 2023. – Б.147

bilan ishlash o'quvchilarning o'rganilayotgan asarning g'oyaviy mazmunini chuqur anglab olishiga, so'z boyligini oshirishga, turmush haqidagi tushunchasini rivojlantirishga, borliqni idrok qilish qobiliyatini kamol toptirishga yordam beradi", deya qayd etgan¹².

Ma'lumki, badiiy asar tahlilida kitobxon – matn – muallif mushtarakligi alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlilchi badiiy matn va uning tarkibiy qismlari, asar janri, mazmuni, syujeti, kompozitsiyasi, muallif pozitsiyasi, niyati kabilarni teran idrok qilishi zarur bo'ladi. Bunda tahlilchi badiiy asarni to'la o'qib chiqishi shart bo'ladi. Shundagina tahlilchi asar mohiyatiga singib boradi. O'zi ham muallif aytmoqchi bo'lgan asosiy gapni, asar mohiyatini teran anglab, asardagi subyekt kabi fikrlay boshlaydi. Bu esa obyektning subyektlashuvi deyiladi. Bunda badiiy matndagi dalillar va tasviriy ifodalarning mantiqan to'g'ri tuzilganligi, xolis va obyektiv yoritilgan bo'lishi, umuminsoniy g'oya va tamoyillarga asoslanganligi hamda shartlanganini aniqlash muhimdir. Chunki badiiy matn tahlil objekti sifatida tahlilchiga turli vaqtda turlicha ta'sir etishi mumkin. Bu esa badiiy matndagi mazmun, tahlilchining hissiy va falsafiy anglashi o'rtasidagi bog'liqlikning subyektiv bo'lishini bildiradi. Chunki badiiy matn kimgadir hissiy jihatdan ko'proq ma'qul kelsa, ba'zi tahlilchilarga sovuqqonligi va teran falsafiy xususiyatlari, uchinchi bir odamga esa tabiat tasviri yoki axloqiy tomonlari bilan ma'qul kelishi mumkin. Shuning uchun tahlil jarayonida badiiy matnni yaxlit tizim sifatida ko'rish, imkon qadar turli aspektlardan (badiiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy, badiiy-psixologik, biografik, tarixiy-madaniy, ilmiy-fantastik va h.k.) tahlil etish yaxshi samara beradi.

¹² Abdullayev K. A. Adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalalanishning ilmiy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2024. – B.21.

Bunda tahlilning mazmuni va maqsadini atroflicha anglab olish, tushunish kerak bo'ladi. Ayniqsa, asarni o'rganuvchining millati, diniy mansubligi, yoshi, tajribasi ham chetda qolmasligi lozim.

Xullas, badiiy tahlil jarayonida tahlilning:

1) keng qamrovliligi;

2) teranligi;

3) aniqligi;

4) xolisligi kabi xususiyatlarga ega bo'lishi badiiy asardagi ilgari surilgan badiiy-estetik konsepsiyaning umuminsoniy g'oya va qadriyatlarga mosligini yetuk ekanligini ilmiy isbotlaydi.

Avvalgi mavzuda qayd etilganidek, badiiy asar tadqiqot obyekti bo'lib, tahlil ikki:

1) ilmiy (filologik);

2) o'quv (didaktik) maqsadlarda amalga oshiriladi.

Agar yozuvchining iste'dodi, yozuvchilik mahoratini ilmiy asoslash kerak bo'lsa, yaratilgan asarning yuksak badiiy-estetik tamoyillarga qanchalik yaqin kelganini aniqlash shart bo'lsa, bunda, albatta, filologik tahlildan foydalaniladi. Unda asar ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik ilmi nuqtai nazaridan teran va atroflicha tahlil etiladi. Buni ko'proq taniqli olimlar dissertatsiyasi, monografiyalarida kuzatishimiz mumkin. Masalan, yozuvchi Nurali Qobulning hikoyalaridagi shakl va mazmun birligi, mazmun salmoqdorligi, obraz va obrazlilik, asar tili, syujet va kompozitsiyasiga oid ilmiy o'rganishlar asarning ilmiy (filologik) tahlili sanaladi. Bunday turdan ilmiy maqsadda, masalan, ilmiy maqola, dissertatsiyaning biror fasli yoki monografiya yozish kabi jarayonlarda foydalaniladi.

Fikr isboti uchun Xurshid Do'stmuhammadning bir qissasini tahlil qilamiz. Ma'lumki, uning asarlarida Yevropa adabiyotiga xos modernizm yo'nalishining elementlari, ifoda usullari,

badiiy psixologik tahlil, psixologik tasvir yetakchilik qiladi. Ularda personajning turli hayotiy vaziyat va og'ir holatdagi fikrlashi, o'zini tutishi sovuqqonlik bilan va ishonarli tarzda ochib berilgan. Ayniqsa, "Nigoh" qissasida tramvay haydovchisi bo'lgan Bek ismli odamning tramvayda mashina bilan halokat sodir etganligi sahnasi bor. Asarda ana shu og'ir vaziyatda Bekning ruhiy-psixologiyasidagi mantiqiy tahlili, personajning iztirobi, kechinmalari, o'zini o'zi tahlil qilishi orqali insonning hayotdagi ahamiyati va o'rni ochib berilgan. Qissa biz ko'nikkan an'anaviy tasvirdan emas, balki butunlay boshqacha tarzda, o'quvchiga kuchli psixologik ta'sir qiladigan holat tarzidagi voqealar oqimi bilan boshlanadi:

"Kimdir chinqirib yubordi. Loaqal shu chinqiriqni eshitgani zahoti tormoz dastagini tortishi, tramvayni to'xtatishga ulgurishi mumkin edi. Ha, edi. Lekin tramvayning tezligi susaymadi, u qo'qqisdan to'xtagan "Volga"ga taraqlab urildi. "Volga"ning orqa o'rindig'ida o'tirgan ayol jon achchig'ida sapchib, ters o'girildi, uning qinidan chiqib ketayotgan katta-katta ko'zlari tramvay haydovchisining ko'zlari bilan to'qnashdi.

Bek ayol ko'zidagi dahshat alomatini ko'rgachgina nima ish qilib qo'yganini fahmladi. Chap qo'li bilan tutib kelayotgan temir tutqichni siltab tortmoqchi bo'ldi. Tramvay esa, boya – ayol o'girilib qaragandayoq to'xtagan. Chunki vagon "Volga"ga qarsillab urilgan zamoni Bekning qo'li g'ayriixtiyoriy ravishda "vazifasi"ni o'tagan edi..."¹³

"Nigoh" qissasidan olingan mazkur parchadagi holatning o'zi qissaning ruhiy-psixologik yo'nalishda yozilganini bildirsa, undagi "kimnidir chinqirib yuborgani", "qo'qqisdan to'xtagan", "jon achchig'ida sapchib ters o'girilish", "qinidan chiqib ketayozgan ko'zlar", "g'ayriixtiyoriy ravishda" kabi so'z, ibora va

¹³ Дўстмуҳаммедов Х. Қиссалар. Тошкент: Sharq, 2011. – Б. 4.

jumlalar zahirida voqea ishtirokchilarining ruhiy-psixologiya-sidagi zo'riqish, mexanik harakat va albatta, hayot maromining izdan chiqishi haqida badiiy ma'lumot berilgan. Bu ma'lumotda avvalo, roviy tili va personaj holati orqali har ikkisining ham ruhiy holati haqida so'zsiz tasvir bor.

Roviy tilidan bayon qilingan tafsilotda bo'lar ish bo'lib o'tgani, vagonda qiy-chuv, to's-to'polon ko'tarilgani, ko'chada tumonat odam yig'ilgani bayon etiladi. Chunki yuqoridagi ekspozitsiyadan keyin shunday bo'lishi mexanik tarzda bayon qilinmasa, asarning haqqoniylik talabi buzilgan bo'ladi. Biroq, qizig'i, keyinroq sodir bo'ladi, tramvay bexosdan to'xtaydi, kabina eshigi sharaqlab yopiladi. Aslida bunday holatda haydovchi eshikni ochib tashqariga chiqib, voqeani o'rganishi, sodir bo'lgan hodisadan ruhiy-fojeaviy holatini baqirib yoki boshqa holatda ifodalashi kerak bo'lishiga ko'nikkanmiz. Biroq, qissada bu narsa sodir bo'lmaydi. Bek eshikni yopib kabinada yolg'iz qoladi. *"Kabina jimjit bo'lib qoldi. Bek voqeaga zarracha aloqasi yo'q odamdek pinagini ham buzmad. Qoziqdan otilib oyog'i ostiga tushgan xaltasiga, undan yarmi ko'rinib qolgan qora muqovali kitobga beparvo qaradi..."* Bosh qahramonning mazkur holati tashqi tomondan qaraganda tinch, beparvo tasvirdek berilgan. Odatda, normal psixologik kayfiyatda bo'lgan kishi ehtiyot qilib qo'ygan xaltasi tushib, oyog'i ostiga sochilib ketsa, uni darhol qo'liga olib, yana joyiga yoki boshqa o'ringa qo'yadi. Biroq bekning ruhiy-psixologik holati shu darajada og'ir ediki joyidan jilolmay qoldi. Buni biz uning kabina eshigini yopib jim o'tirishi hamda avtomobilga to'qnashib ketganda mashinadagi ayolning ko'zida qotib qolgan dahshatni eslab qolgani, aynan shunday dahshatni u kabina eshigi oynasiga tumshug'i bilan kelib urilgan o'rta yoshlardagi semiz kishining nigohida ham kuzatadi. Natijada

yo'lovchining "o'takasi yorilib, joni bo'g'ziga tiqilib" turganini tomosha qilishi va og'ir jilmayganida ko'ramiz. Aslida ruhiy-psixologik qoida bo'yicha badiiy obraz inson ko'nglida dunyo bilan aloqa ta'sirida paydo bo'lgan kechinmalarning tashqariga chiqishida, detallarning moddiylashuvi, degan mulohaza bor. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Bekning dahshatli ko'zni kuzatishida, avvalo, o'z qo'rquvini ko'rishi, yo'llovchilarning dod-voyi, baqir-chaqirini eshitmasdan, pashshaning zing'illab uchishini eshitishi esa undagi anormal psixik jarayonni anglatadi.

Xullas, bu qissasida yozuvchi bosh qahramonning ongidan badiiy asarni qayta (reprezentatsiyalash) yaratish maydoni o'rnida foydalanadi. Insonning ongi, tafakkuri badiiy asar uchun mazmun va shakl, makon va zamon vazifasini bajaradi. "Nigoh" qissasida adib Bekning ichki olamini aks ettiruvchi ko'zgu ko'z va undagi rostgo'ylikni oshkora qilish qobiliyatini mohirona tasvirlagan. Qissa *"... har kim umr bo'yi qandaydir nigohlar kuzatuvida yuradi, ularni unutgan damda imonidan ayriladi, qadr qimmatini oyoq osti qilgan odamgina ulardan qochadi"* degan g'oyani ilgari suradi. Bu biz yuqorida keltirilgan tasvirlardagi nigoh, personajlar ko'ziga diqqat etilganini, bu orqali esa bekning ruhiy olamidagi holatni ko'rdik. Qissaning keyingi qismlarida Bekning ertalab pashshaningmi yoki ariningmi oynaga urilib g'o'ng'illashidan uyg'onishi, erinibgina yotishi, yigirma kundan oshibdiki ishga chiqmayotgani, har kuni bu paytda tramvay haydayotgan bo'lishi, sahar turib qorong'uda timirskilanib kiyinib, ovqatlanmasdan tong qorong'usida ishga ketadigan odam va uning zerikishi beriladi. Ana shu tasvirlarda roviy Bekning xarakteriga xos jihatlarni sanab ko'rsatar, tasvirlar ekan roviyning o'zi ham kuzatuvchiga aylangandek bo'ladi.

Ilmiy tahlilning bunday tarzini biz istalgan she'riy asarda ham amalga oshirishimiz mumkin. Fikr isboti uchun Zebo Mirzoning quyidagi she'rini tahlil qilamiz:

*Umrinni o'tkinchi saboga berdim,
Eng so'nggi chaqamni gadoga berdim,
Bu telba ruhimni Xudoga berdim...*

*Sabo olib bordi, gadoga berdi,
Gado yig'ib bordi, Xudoga berdi,
Xudo meni senga xatoga berdi,
Sen meni kimlarga berding, Azizim?*

She'rga diqqat bilan razm solinsa, uning shakli ham o'zgacha: avvalgi ikki band uch qator, so'ng esa asosiy g'oyani ochib beruvchi satr kelmoqda. Birinchi bandda sabo gado Xudo, ikkinchi banda esa sabo gado Xudo xato mazmuniy tizimi ko'zga tashlanadi. Lirik qahramonning hissiy dialektikasi birinchi bandda uch detal – obraz bilan yuzaga chiqyapti. Keyingi bandda esa ularning yoniga to'rtinchi detal – xato qo'shilgan. She'r so'ngida esa alohida qatorda ritorik so'roqning kelishi va unda konkret shaxs uchun ishlatiladigan badiiy murojaat vositasi (Azizim)ning borligi she'r mazmuni va poetik g'oyasiga aniqlik kiritgan.

Shoira o'z poetik maqsadini ifodalash uchun tovushlardan, xususan, “o” tovushining estetik ta'siridan juda unumli foydalanган. Qofiya uchun olingan so'zlarning “o” tovushi bilan tuga-shi o'quvchiga estetik zavq beradi. “O” tovushi kontekstda turli vazifa bajarishi mumkin. Zamirida lirik qahramonning dardi, huzur-halovati yashirin. Shoira satrlarning asosiy urg'u tushadigan o'rnida “o” tovushini qo'llash bilan lirik qahramonning

ichki kechinmasi, dardi, soʻz bilan aytib boʻlmaydigan hissiyotini ifodalayapti.

Bu yerdagi sabodan murod, shunchaki, tonggi shabada emas, balki umrni oluvchi oʻtkinchi sabo – bu yoshlikning hoyu-havaslari, amalga oshmaydigan orzu-umidlarni ortidan quvish kabi maʼnolarni ham anglatadi. Gado – umr, baxt, muhabbat soʻrab keluvchi. Chaqa – esa umid, muhabbat, tuygʻu, omad, baxt kabi poetik maʼnolarni anglatadi. Lirik qahramon oʻzining eng aziz tuygʻu, umid, muhabbatini gadoga berdi. Lekin gado undan taskin oldi-yu, baxt bermadi. Gado ham oxirida uni tashlab ketdi va lirik qahramon Xudoning taqdiriga tashlab qoʻyildi. Endi u Xudo bilan qoldi. Yolgʻiz Xudogina unga taskin va umid bermoqda. Shu yerda lirik qahramon, oʻz zimmasidagi vazifani anglamoqda: Xudo meni senga xato(qilish)ga berdi. Shoiri Momo Havoning yaratilishi bilan bogʻliq mifga murojaat qilgan. Yaʼni, odam olim qilib yaratildi, farishtalar obid. Ana shu olimning olimligi isbotlanishi uchun unga hayotiy izlanishlar olib borish kerak. Odam xatolar qilib asl haqiqatni, idealini, Allohni anglaydi. Ana shu xatoni qilishga sabab-vosita kerak. Lirik qahramon oʻzining sevgani uchun vosita qilib yaratilganini biladi.

Bir qarashda lirik qahramon oʻzining amalga oshmagan sevgisi va erta uzilgan baxti uchun qaygʻurayotgandek tuyulyapti. Bu toʻgʻri, lekin kontekstda boshqa ikkinchi mazmun ham bor. Eng avvalo bu qaygʻu, oshiq yoki idealning zimmasidagi vazifani, mohiyatni ochilmay qolishidan xavfsirash qaygʻusidir. Ana shu qaygʻu lirik qahramonni boshqarmoqda. U kelajakda oʻz oshigʻini yoki idealidagi kishining maqsadsiz qolishidan choʻchiyapti. Ana shuni anglash yoʻlidagi iztiroblarini qogʻozga tushiryapti.

Kelajakni koʻrish, tushunish — bu qandaydir amalda bilish degani hamdir. Tushunish esa doimo muhitga bogʻliq boʻladi.

Shoira uchun bunday muhit uning she'rlaridadir. Shoira she'rlaridagi muhit, zamon – bu his etish, bilish, anglash, kurashish va doimo olg'a borish manbaidir.

Shuning uchun, bizning tushunchamiz kontekstga bog'liq. Chunki, kontekstdagi odam(lirik qahramon)ning mavjudligi o'z-o'zini loyihalashtiruvchi borliqdir. Shuning uchun, she'rda bizga ko'rinib turgan badiiy voqelikdan katta va ulkandir. Uning o'tgan zamoni, hozirgi kuni va kelajagi bir she'rda namoyon bo'ladi. Aynan hozirgi zamoni orqali lirik qahramon o'z oshig'i, undan umr, baxt so'rab kelgan gado, u bilan o'tkazgan va o'tkinchi saboga sovurgan yillari, so'ngra undan ayrilgan daqiqasidagi kechinmalari va kelajagini tasvirlagan.

Diqqat qilinsa, shoira sanayotgan lahzalar o'z ichiga yillarni sig'dirgan. Bunday xulosalar lirik qahramonning she'rdagi voqelik va detallarga munosabatidan anglanmoqda. Birinchi satrda sabo detal sifatida kelyapti. Keyingi bandda esa sabo obraz darajasiga olib chiqilgan. Saboning go'zal va kishiga xush yoqishi bilan uning bag'rida lirik qahramonning baxtli daqiqalari ham borligi ochilgan. Gadoning chaqani olishi va uni yig'ib borib Xudoga berishida ham lirik qahramon o'z ideali bilan yashagan. Chunki, nimanidir yig'ish uchun lirik qahramon tasvirlagan gadoga vaqt kerak. Ana shu vaqt ichida esa gado baxtli edi, lekin u o'z baxtini boy berishga mahkumdur. Shu o'rinda inson bir vaqtning o'zida ham baxtli ham baxtsizdir degan tamoyilga amal qilingani oydinlashyapti. Chunki, lirik qahramon birinchi bandning so'ngida o'z ruhining "telba"ligini va uni Xudoga berganini tan olyapti. Oshiq yoki idealga esa faqat jism qolyapti. U ham bir kuni ruh kabi xudoga qolmoqda.

Xullas, mazkur she'rda lirik obraz (qahramon) va uning asardagi boshqa detal-obrazlar bilan munosabati tahlil qilindi.

Bunda asar mohiyatini ochishda she'rdagi lirik qahramon va badiiy so'zning kontekstdagi badiiy-estetik vazifasini teran anglash va ularni ilmiy asoslash, badiiy mantiq va ilmiy mantiq birligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Badiiy asarning didaktik tahlili ham asar mohiyatini anglashga xizmat qiladi.

Ilmiy tahlilda aniq tahlilchining ilmiy-nazariy faoliyati yetakchi bo'lsa, o'quv (didaktik) tahlilda jamoaning o'rni, guruhning pedagogik-psixologik holati, asarning badiiy-estetik qiy-mati muhim o'rinda turadi. Chunki, o'quv (didaktik) tahlilning asosiy maqsadi o'quvchiga, talabaga asar mazmun mohiyatini anglashni o'rgatish, shuningdek, unda badiiy-estetik qarashlarni shakllantirish hisoblanadi. Ilmiy tahlilda esa mutaxassis ish ko'radi.

O'quv (didaktik) tahlilda ta'lim beruvchi dastlab ixtiyoriy matnni olib, o'quvchilarga asar muallifi ilgari surgan mavzu, muammo, g'oyalarni qisman qayta so'zlash, qisman o'zi tushungandek bayon qilishni topshiradi. O'quvchi yozuvchining maqsadidan kelib chiqib, voqealarni gapirib berishi va shu jarayonda asar ustida mulohaza yuritishi orqali o'zi ham fikrlashni, tuyg'ularini to'g'ri yo'naltirishni o'rganadi.

O'quv (didaktik) tahlilning boshqa bir shaklida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga kichikroq jahmli asarning bosh qahramoniga tavsif berishni topshiradi. Buning uchun, avvalo, asar birgalikda o'qib chiqiladi. So'ngra, turli vaziyatlarda qahramon o'zini tutishi, fikrlash tarzi kabilarga o'quvchi tomonidan munosabat bildiriladi. Bunda bir nechta ta'lim oluvchining nuqtai nazarlari farq qilishi tabiiy sanaladi. Bu qahramonlar tasviri ishonchliligi, badiiy tasviriy vositalarning ta'sirchanligi, voqeaning shartlanganligi va asoslanganligi kabilar namoyon bo'ladi.

O'quv (didaktik) tahlilning yana bir shaklida muammoli vaziyat, muammoli matn shakllantiriladi. Masalan, tahlilda: Nega? Nimaga? Qanday? Qanaqa? kabi savollar berib boriladi. Yakunda ta'lim oluvchi asar yuzasidan mustaqil fikr yuritishga o'ta boshlaydi. Shu yo'l bilan asar tahlili amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, o'quv (didaktik) tahlilning mustaqil tahlil shakli ham bor bo'lib, uni endi ta'lim oluvchining bir o'zi yoki bir nechta guruhdoshi bilan ham amalga oshirishi mumkin. Bunda tahlilchilarning badiiy adabiyot, adabiyot nazariyasi, psixologiya, mantiq kabilardan olgan bilim, ko'nikmalari va malakalari asosiy o'rin tutadi. Albatta qiziqish, intilish, ma'naviy rag'batsiz bunday ishni qilib bo'lmaydi.

Badiiy tahlilda boshqa ilmlardagi kabi bir xil xulosa chiqarish shart emas. Tahlilning xolis va asosli ekanini ta'minlash uchun badiiy-estetik tafakkur, umumfalsafiy tushunchalar, adabiyotshunoslik, estetika va psixologiyaga oid qarashlarning sintezlashuvi bo'lishi, shuningdek, badiiy tahlilning bulardan tashqari yaxlitlik, tizimlilik, estetik asoslarning ustuvorligi, emotsionallik, individuallik, tarixiylik, zamonaviylik, milliylik, umuminsoniylik kabi bir qator tamoyillari mavjud bo'lib, badiiy asar mohiyatini anglashda ular muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Nabi Jaloliddinning "Erkagi bor uy", "Bayroq" kabi hikoyalarida shaxs erki, milliylik yetakchilik qilishini kuzatish mumkin.

Xullas, badiiy tahlilni ilmiy asosda o'rganishning umumiy jihatlari qisqacha bayon etildi. Keyingi mavzularda masalaning qolgan jihatlari ham ochib beriladi. Bunda didaktik tahlil asarning badiiy-estetik jozibasini, undagi badiiy g'oya, kechinma, pafos kabilarni kitobxon shaxsiga ta'sir etishini tadqiq etadi. O'quvchining didi, saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy tahlil esa millat badiiy-estetik idealining asardagi ifodasini va

asarda ilgari surilgan yuksak g'oya va ijodiy konsepsiyaning xalq, davr, millat darajasidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Badiiy tahlilning ilmiy asoslarini sanab berolasizmi?
2. "Muallif-matn-o'quvchi" birligini izohlang.
3. Keng qamrovli tahlil degan tushunchani izohlang.
4. Matnni teran tushunish yoki tahlil qilish deganda nimani tushundingiz?
5. Tahlilning aniqligi va xolisligi haqida aytib bering.
6. Badiiy tahlil turlarini sanang.
7. Ilmiy (filologik) tahlil xususiyatlarini bilasizmi?
8. O'quv (didaktik) tushunchasini izohlab bering.
9. O'quv (didaktik) tahlilning qanday ko'rinishlari bor?

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. (–Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.) kitobini o'qish.
2. Abdulla Oripovning "Ayol" she'ridagi lirik qahramonni tavsiflab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev K. A. Adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2024. – 80 6.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
3. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: Учебное пособие. – 3-е изд. –М.: Флинта, Наука, 2000. – 248 с.

4. Зуннунов А., Ҳотамов Н., Эсонов Ж., А.Иброҳимов. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 336 б.
5. Йўлдош, Қозоқбой. Йўлдош, Муҳайё. Бадий асар таҳлил асослари. – Тошкент: Kamalak, 2016 – 464 б.
6. Қозоқбой Йўлдош. Живовланмаган тафаккур маҳсули. – Тошкент: Tafakkur, 2023. – 428 б.
7. Тюпа В.И. Анализ художественного текста: учеб. пособие для студ. филол. фак. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр “Академия”. –2009. –336 с.

3-MAVZU: BADIY ASAR STRUKTURASI VA UNI TAHLIL QILISH

Reja:

1. Asar tuzilishi
2. Struktura (tuzilish): asos va tizim
3. Matndan tashqari struktura
4. Struktura va kompozitsiyaning farqi
5. Struktural metod

Tayanch soʻz va atamalar: *asar, struktura, arxitektonika, kompozitsiya, obraz, shakl, mazmun.*

Aslida struktural poetika, struktural metod va asar strukturali bir-biriga yaqin termin hisoblansa-da, ular oʻrtasida katta farq bor. Struktural poetika nazariy poetikaning tarkibiy qismi boʻlib, XX asrning 60–90-yillarida Yevropa adabiyotshunosligida faollashgan adabiy-nazariy qarashlar tizimi sanaladi. Uning yorqin vakillari sifatida R.Yakonson, B.Tomashevskiy, R.Bart, M.Fuko, M.Lotman kabilarni keltirish mumkin. Ular badiiy matn qismlarining badiiy-estetik vazifasi, asar tarkibiy qismlarining oʻzaro munosabatini nazariy asoslab, asarni yaxlit tirik mavjudot, yaxlit tizim sifatida eʼtirof etishgan. Struktural metod (tahlil) esa adabiyotshunoslik metodologiyasining bir metodi boʻlib, badiiy asar tahlilidagi tadqiq metodi hisoblanadi. Bu ikkisini aralashtirib yuborish ilmiy-nazariy jihatdan toʻgʻri boʻlmaydi.

Har qanday badiiy asar maʼlum tuzilish, arxitektonikaga ega boʻladi. Ana shu jihat uni oʻrganishda oʻziga xos usul va

yo'sin tanlashni talab etadi. Asar strukturasida tashqi va ichki struktura bo'lishi, asarga yondashish usullari (badiiy-estetik, badiiy axloqiy (etika), badiiy-psixologik, ijtimoiy-falsafiy, ontologik, biografik kabilar), uning qanday qirrasini tadqiq etish lozimligini aniqlash va tahlilning yo'nalishini tayin belgilash demak. Bundan tashqari, tahlilning: genetik, tipologik, funksional, falsafiy, psixologik va filologik singari yo'nalishlari ko'rsatilishi badiiy tahlilning saviyasi ko'p jihatdan uning qanday usullarda amalga oshirilganligiga bog'liq ekanidandir.

Matn yaxlit struktura bo'lib, unga matndan tashqari struktura ham kirishi mumkin. Ya'ni, bir matnga kirgan detal o'zining mazmuniy qamrovi yoki asardagi vazifasiga ko'ra matndan tashqaridagi matn tuzilishi va uning mazmunini ham assotsiativ tarzda talab etadi. Masalan, Shavkat Rahmonning "Tog'am" she'rini olaylik. She'rda tog'a boplab imorat qurgani, har bir g'ishtini sayqallagani, ammo qo'ni-qo'shnilar "ko'rolmagani"ni yozadi¹⁴. Jami sakkiz bandli she'r shunday yakunlanadi:

*Gul umrini xazon aylagan
Uyga uzoq qarar-da tog'am,
Dast o'rnidan turar-u aytar:
Uy bo'ptimi miltiqsiz uy ham!/?
So'ngra eski beshotarini
Osib qo'yar uyning to'riga,
Garchi shahar,
Garchi atrofda
Kezmasa ham chiyabo'rilar.*

¹⁴ Раҳмон Шавкат. Абадият оралаб: Шеърлар. – Тошкент: Movarounnahr, 2012. – Б.182-183.

Mazkur she'rda miltiq aslida shaxs erkini himoya qiluvchi vosita sifatida kelgan. Miltiq, chiyabo'ri detal-obrazlari orqali matndan tashqaridagi struktura yuzaga keladi. Miltiq lirik qahramon (tog'a)ning shaxsiy erkinligi, milliy qadriyatlarini paymol qiladiganlarga qarshi vosita, chiyabo'ri esa majoziy ma'noda ichi qora, kaltabin odamlar sifatida kelgan va bu ikki o'rtadagi kurash hali davom etishiga ishora bor.

Badiiy struktura deganda, odatda, murakkab qurilishga ega adabiy asar matni tushuniladi. Shu yerda u kompozitsiyaga yaqin keladi. Ammo struktura kompozitsiyadan farq qiladi. Chunki badiiy matn strukturasidagi so'z o'zining dastlabki (lug'aviy) ma'nosini saqlab qolgan holda badiiy matnda qo'shimcha vazifalar oladi. Bu esa uning gap, mikromatn, makromatn yoki butun asar ichidagi badiiy-estetik vazifasining ko'lamini ham belgilaydi. Chunki «Badiiy so'z asar tarkibida o'quvchiga ta'sir etishga yo'naltirilgan dasturga ega bo'ladi. Shuning uchun matn strukturasini "appelyasiya" (o'quvchiga yo'naltirilgan, qaratilgan xabar) sifatida tekshiriladi. Asarga singdirilgan ta'sir imkoniyati, retseptiv estetikachilar fikricha, uni real o'quvchi qabul qilishiga qarab aniqlanadi»¹⁵. Shu ma'noda struktura asosiy g'oya, maqsadni o'quvchiga ta'sir etishiga ko'proq diqqat qiladi. She'riyatdagi struktural o'zgarishlar she'rning yashash tarzi sifatida doimiy ravishda davom etadigan evolyutsion jarayon sanaladi. Shuning uchun shakl va mazmun mutanosibligi doirasidagi har qanday struktural o'zgarish ijobiy baholanishi lozim. Bu o'zgarishlar asardagi obraz, lirik qahramon, o'quvchi tushunchasi doirasida sodir bo'ladi. Chunki har qanday asardagi obraz, avvalo, inson va u anglagan voqelikni aks ettiradi. Ular shunchaki aks etmadi. Ularni qabul qilamiz. Zero, "Biz organizmimiz doirasida ko'plab

¹⁵ Хализев Е.В. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2013. – С.99.

signal, kodlarni qabul qilamiz”[4,13], degan ilmiy xulosa uzoq tajriba asosida shakllangan. Shu ma’noda she’r tarkibidagi har bir so’z, tovush, belgi, avvalo, muallif, lirik qahramon tabiatidagi maxsus kod hisoblanadi. Bu kod tovush, so’z, tinish belgilari, ohang kabi struktural vositalar yordamida yuzaga chiqadi. Bu xususiyat Anvar Obidjonning shaklan ixcham, mazmunan teran she’rlarida yanada yaqqol namoyon bo’ladi. Masalan, non so’zi tarkibidagi tovushlarni fonemalarga bo’lib chiqsak, “n”, “o”, “n” ko’rinishi sodir bo’ladi. Ularning har biri so’zning lug’aviy ma’nosini tashiydi: $n > n$, $o > o$, $n > n$. Bu yerda “n”, “o”, “n” tovushlari parchalangan holda ham so’zning ma’nosini tashiydi. Chunki ular yonma-yon talaffuz qilinganda, ma’noviy jihatdan bir-biriga yaqinlashadi. Lekin yozilishda farq qiladi. Endi shu so’z she’riy matnga kirganda mazmun tabiati o’zgaradi:

*Berayotib unga non,
Hatto yovlar ham pinhon
La’natlaydi xoinni. [1.170]*

Non so’zi bu yerda obrazning real holatini ochib berishga xizmat qilyapti. Uni mazkur kontekstda talaffuz qilgandagina san’atning estetik kuchi seziladi. O’qilmaganda tovushning yozuvdagi belgisi sifatida qabul qilinadi, xolos.

Bundan tashqari she’rda ohangdosh so’zlar: “non – pinhon” she’rning jarangini, musiqiyligini oshirgan. Chunki “She’rda ma’no bo’lib, bo’lmasa jarang, She’r – nochor, shoirning esa holi tang”dir [2, 260]. She’rdagi ohangdoshlik, she’rning badiiy-estetik funksiyasining yuzaga chiqishini ta’minlovchi vositalardan biri bu o, n, l tovushlarining o’zaro uyg’unligidir. Tovushlarning bir she’r doirasidagi bunday joylashuvi g’oyani tovush darajasidagi hissiy ta’sir yordamida anglash imkonini

beradi. Shu orqali lirik qahramon obyektiv voqelikni o'quvchi ko'z oldida ta'sirli kinodek qayta jonlantiradi.

She'r sintaksisi voqelikning aniq harakatini o'ziga xos ritmik qurilish sifatida ko'rsatadi. Bu esa she'r tabiatidagi asosni shakllantirgan. Uning badiiy-estetik, ma'rifiy ta'siri insonni uyg'otish qudratini oshirgan. Chunki "Insonning yadrosi ijobiy bo'lib, bu yadro mangu hayotdan kelib chiqadi. Yadroning makonida hamma narsa bor: mavjudlik, ruh, men. Yadroning ongli qismi yashashi, ishlashi va muammolarni hal etishi lozim" [4,12]. Lirik qahramon aytgan yov ham xoindan ustun. Chunki inson ijobiy va salbiy xususiyatlarini cheksiz darajada amalga oshirish imkoniyatiga ega. Shuning uchun yov garchi o'ziga yordam bergan bo'lsa-da, xoinga non berayotib uni la'natlaydi. Chunki insoniyat yadrosidagi ijobiy kuchlarni uyg'otish butun jamiyatning yutug'i, salbiy tushunchalarni uyg'otish esa butun jamiyatning nuqsonidir. Demak, yovda ham, avvalo, amoral odamga nisbatan nafrat uyg'onishi tabiiy. "Non" so'zi she'rdagi g'oyani ochishda badiiy detal, badiiy estetik funksiyani bajarishda esa maxsus kod vazifasini bajargan.

Shoir she'riy asarda u yoki bu kodni qo'llar ekan, avvalo, o'z mohiyatidagi badiiylashgan informatsiya, kechinmani tashqi borliqqa olib chiqadi. She'rda kod belgi, tovush, so'z, obraz bo'lishi mumkin va bularning har biri badiiy informatsiyalarning koordinatori vazifasini ham bajaradi:

*Oy shodon, tun charog'on,
Uxlar go'yo chol Qo'qon
Xudoyorxon qasrida. [1.158]*

Oy, tun, Qo'qon, qasr detallari she'rdagi qahramon mohiyatini, milliy xarakteri, dunyoqarashini ochib bermoqda. She'rdagi oy

go'zallik, sokinlik, ulug'lik timsoli; havo ochiqqligini bildiruvchi vosita, so'zlovchining ko'tarinki kayfiyati haqida ma'lumot beradi. Lekin lirik qahramon ongidagi asosiy niyat bu emas. Balki Qo'qon obrazidir. Chunki Qo'qon milliy o'zlikni anglash, taraqqiyotni boshqarish salohiyatiga ega katta ijtimoiy kuch bo'lgan. Ammo, u shoir aytganidek, hozircha qasrda uxlayapti. Bu holat o'quvchining ongida shoirning vatanparvarlik, o'zlikni anglashga intilish g'oyalarini amalga oshirishga biroz to'sqinlik qiladi. Chunki tiriklik tabiatidan ma'lumki, tirik va uyg'oq narsalargina o'sadi, rivojlanadi, ular bir-biri bilan bog'liq bo'ladi. Lirik qahramon milliy o'zlikni anglash uchun Qo'qonda uxlayotgan tarixni uyg'otish lozimligini ta'kidlaydi.

She'rdagi "o" unlisining 11 marta takrorlanishi hissiy-estetik ta'sirni kuchaytirib, she'rning ohangdorligi, musiqiyqligini oshirgan. Shu bilan birga undagi tasvir o'quvchi ongida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradi. Lirik qahramon bir hayotiy sharoitdan o'ziga bog'liq bo'lgan boshqasiga o'tishga harakat qilyapti. Bu passiv holatdagi ozodlik, erkinlik muhiti. Ammo hali tun, buning ustiga lirik qahramonning badiiy ideali hali to'la shakllanib ulgurmagan. Buni Qo'qonning uyg'oq emasligi bilan izohlash mumkin. Shuning uchun she'r oxirida subyektiv hodisaga izoh kelgan: "Xudoyorxon qasrida". Shu yerda so'zlovchi qalbidagi hissiy dinamikada biroz pasayish kuzatiladi. Ammo bu she'rning badiiy nuqsoni emas, balki shoirning o'ziga xos stilistik usulidir. Chunki bir paytlar ozod vatan haqida o'ylashning ham imkoni yo'q edi. Bu gaplar o'tgan asrning saksoninchi yillarida aytilganini inobatga olsak, shoirning katta jasoratga ega ekanligi oydinlashadi. Bu mulohazalar tadqiqotchining shunchaki fantaziyasi emas, balki badiiy asar tilidagi mazmuniy xarakterning o'quvchi ongidagi o'ziga xos davomidir. She'rdagi "o'ziga xos murakkab tizimni

namoyon qilayotgan til har qanday informatsiyani berishga moslashgan. U voqelikning barcha ko‘rinishi va munosabatini o‘zida saqlaydi. So‘zlovchida til o‘ziga xos ikkinchi voqelik degan ishonchni uyg‘otadi.” [3]

Demak, she‘r strukturasi har bir belgi, so‘z, timsol badiylashgan kod hisoblanib, qahramon mohiyati yoki badiiy voqelik zahiridagi estetik va ma‘rifiy informatsiyalarni yuzaga chiqaradi.

Masalan, Shavkat Rahmonning «Yo‘lbars» she‘rini strukturasi tahlil qilamiz:

*Mangu qochar,
Qochar tog‘lardan,
O‘rmonlardan, changal, to‘qaydan.
Dunyoda ko‘p yashagani yo‘q,
Ammo buncha dushmani qaydan?
Sho‘rlik yo‘lbars
Qayga qochmasin
Faqat ovchi yo‘lini to‘sdi.
U hech qachon qochmasdi, ammo
O‘ziga ham yoqardi po‘stin¹⁶.*

Ushbu she‘r tuzilishi sodda, ifodasiga ko‘ra kinoyaviy usulda bitilgan. Ammo uning asosiy g‘oyasi shaxs erki, ozodlik bo‘lib, zulmga to‘la dunyoning real tasvirini ko‘rish mumkin. Bu yerda lirik matn strukturasi yo‘lbars, ovchi obrazlari va po‘stin detalining leksik ma‘nolari hamda badiiy matndagi vazifalaridan kelib tashkillangan. Yo‘lbars deganda, odatda, yirik yirtqich, sut emizuvchi, mushuksimonlar oilasiga mansub hayvon nazarda

¹⁶ Раҳмон, Шавкат. Абдиёт оралаб: шеърлар. – Тошкент: Movarounnahr, 2012. – Б. 318.

tutiladi. Uning boshi yumaloq, mallarang, tanasining orqa va yon tomonlarida ko'ndalang qora rangli yo'llari bo'ladi. Uni Turon yo'lbarisi ham deyishadi. Xalq orasida kuch-qudrat, ishonch, bag'rikenglik ramzi va odamga do'st bo'lgan hayvon sifatida e'tirof etiladi. Yuqoridagi she'rning mazmuniy strukturasi bir necha qatli bo'lib. Birinchi galda, tabiatdan ana shunday fazilatlariga ega hayvon yo'qolib borayotgani haqida xabar berilmoqda. Ikkinchi o'rinda esa yo'lbars odamlardagi fazilatlar timsoli bo'lib kelgan va bundan kishilar xarakterida kuch-qudrat, ishonch, bag'rikenglik kabi xislatlar kamayib boryapti, degan mazmun kelib chiqadi. Uchinchi o'rinda esa, yo'lbars va uning po'stini timsolida kishilarga ezgulik qiluvchi, shaxs erkini ulug'lovchi kishilar chetlarda qolib ketayotganiga ishora bor. To'rtinchi o'rinda esa bu muallifning shaxsi va dunyoni anglashdagi shaxsiy-psixologik portreti sifatida ham tan olinishi mumkin. Bunda uning qalbida olamga bo'lgan allaqanday qo'rquv, kelishmovchilik, begonalik hissi borligini tushunish mumkin.

Shu o'rinda struktura tuzilishi ichki va tashqi shakllari bo'lishini nazarda tutgan holda uning kompozitsiyadan farq qilishini ham ta'kidlash shart bo'ladi. To'g'ri, struktura tarkibidagi belgi va kompozitsiya munosabati haqida venger olimi Layosh Nirening yaxshi fikri bor. Jumladan, u shunday yozadi: *"Belgi adabiy asarning dinamika yaxlitligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq bu rolni aniq ajratish uchun belgining badiiy matn ichki tuzilishidagi o'rni va uning asar tashkillanishidagi joyini aniqlash shart"*¹⁷. Demak, strukturada ichki tuzilish ham qamrab olinadi. Kompozitsiya esa, asosan, shakliy unsur sanaladi.

¹⁷ Лайош Нире. О Значение и композиции произведения / Коллектив. Семитотика и художественное творчество. – Москва: наука, 1977. – С.130.

Kompozitsiya – matndagi qismlarning joylashuvi va o‘zaro munosabatini bildirib, u ham strukturaning tarkibiga kirib ketadi. Kompozitsiya aslida syujet va uning tarkibiy qismlari joylashuvi, obrazlar va ularning munosabati, asardagi muallif nutqi, roviy nutqi, dialog, monolog kabilarning joylashuvi va nuqtai nazar kompozitsiyasi kabi turlardan iborat bo‘ladi.

Kompozitsiya aniq voqealar, obrazlar va badiiy nutq ifodasining o‘zaro mutanosibligini nazarda tutadi. Bunda real matnning ichida syujetning qismlarining aniq chegarasi, obrazlarning harakati aniq ko‘rsatiladi. Aynan shu xususiyati bilan u strukturaga o‘xshaydi. Lekin struktura belgi, tovush, jumla, ibora, gap, mikromatn, kontekst darajasida ham ish ko‘rishi bilan kompozitsiyadan farq qiladi.

Struktura matnni ilmiy o‘rganish jarayonida qismlar o‘rtasidagi mavjud bo‘lgan yashirin munosabatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shuning uchun struktura aniq modelni nazarda tutadi. Unda ma‘lum voqea yoki g‘oyaviy xususiyat, xarakterning mantiqiy shakllanishi aks etadi. Aynan shu yerda u badiiy nutq, obraz va voqealar bilan tizimlilik kasb etib kompozitsiyaga juda yaqin keladi. Shu yerini anglagan ba‘zi olimlar strukturani kompozitsiyaning sinonimi sifatida ko‘rishadi. Bu esa xato sanaladi.

Aslida strukturaning uchta muhim prinsipi bor: 1) tizimlilik; 2) modellilik; 3) shajaraviylik.

Tizimlilik deganda, avvalo, badiiy matnning nasriy nutq va she‘riy nutqqa ajratilishi tushuniladi. Shu ma‘noda har qanday matnda badiiy tilning boshqa matnda uchramaydigan, o‘xshamaydigan ifodasi ajralib turadigan o‘ziga xos tizimi amalga oshganini kuzatamiz.

Modellilik deganda esa matnning yetakchi belgilarini o‘zida mujassam etgan shakl tushuniladi. Bunda mantiqiy

izchillik, gap va mikro matn qismlarining mukammal darajada birlashishi muhim hisoblanadi. Kompozitsiyada esa obrazlar yoki syujet qismlari birlashadi. Shu jihati bilan ham struktura kompozitsiyadan farqlanadi.

Shajaraviylik xususiyati badiiy matnning mazmuniy qatlamlariga ko'proq aloqador bo'lib, badiiy matndagi har bir so'z, gap, detal yoki obraz badiiy turli ramziy, majoziy yoki badiiy kod vazifalaridan birida kelib, mazmuniy jihatdan shajara hosil qilishi tushuniladi. Shu yerda badiiy matndagi har bir belgi mantiqiy idrok talabiga ko'ra «ochiladi». Bu esa matn mazmunining turli qatlamlarini namoyon etishda yordam beradi.

Xullas, asar srukturasi ma'lum ichki aloqadorlikka ega bo'lgan qismlardan iborat bo'lib, uni struktural metod orqali o'rganish asar mazmun-mohiyatini anglashda yaxshi samara beradi. Struktural metod deganda bir-biriga o'zaro yaqin, ammo nisbatan farq qiluvchi atamalar tushuniladi. Struktura badiiy asarning matn va nutqi bilan bog'liq jihatlarining tahlilida qo'l keladi. Struktural tahlilda esa matndagi qismlarning o'zaro munosabati, mazmuniy bog'liqligi tekshiriladi. Struktural tahlilning maqsadi asardagi muhim ma'no nuqtalarini topish, badiiy matnni turli aspektdan tahlil qilishdir. Shu yerda u semiologiya (belgilar haqidagi ilm) bilan tutashadi. Chunki bu matn yaxlit sistema sifatida talqin etiluvchi tushunchalar sanaladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Struktural poetika bilan struktural metodning farqini bilasizmi?
2. Asar tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
3. Struktura tuzilishi jihatidan qanday shakllarga ajratilishi mumkin?
4. Aslida strukturaning qanday muhim prinsipi bor?

5. Strukturaning tizimlilik prinsipi deganda nimani tushunasiz?
6. Strukturaning modellilik prinsipini izohlang.
7. Shajaraviylik deganda nimani tushunasiz?
8. Struktura va kompozitsiyaning farqini ayting.
9. Stuktural metod vazifasini ayting.
10. Struktural tahlilning asosiy talablarini bilasizmi?

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasini struktural tahlilini amalga oshiring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: Учебное пособие. –3-е изд. –М.: Флинта, Наука, 2000. – 248 с.
2. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – 88 б.
3. Коллектив. Семитотика и художественное творчество. – Москва: наука, 1977. – 368 с.
4. Лотман Ю.М. Структура художественного текста // Лотман Ю.М. Об искусстве. – Санкт-Петербург: Искусство – Санкт-Петербург, 1998. www.gumer.ru.
5. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарк, 2007. –336 б.
6. Тюпа В.И. Анализ художественного текста: учеб. пособие для студ. филол. фак. высш. учеб. заведений. –М. : Издательский центр “Академия”. –2009. –336 с.

4-MAVZU: BADIY ASARDA MAZMUN VA SHAKL BIRLIGI

Reja:

1. Umumfalsafiy kategoriya
2. Mazmun va shakl haqida olimlar bahsi
3. Shakl va uning tarkibiy qismlari
4. Mazmun va uning tarkibi
5. Shakl va mazmun birligi

Tayanch soʻz va iboralar: *asar, shakl, mazmun, shakl va mazmun birligi, tarkibiy qism, mavzu, gʻoya, muammo, kechinma, janr, kompozitsiya, soʻz, soʻz birikmasi, badiiy va tasviriy ifoda.*

Adabiyotshunoslik nazariyasida makon va zamon, anʼana va novatorlik, obraz va obrazlilik kabi doimiy masalalar qatorida mazmun va shakl birligi degan umumfalsafiy kategoriya ham mavjud. Inson borliqni maʼlum shakl va mazmunda idrok qila olishi bilan ajralib turadi. Aniqrogʻi, har qanday odam koʻnglida tugʻilgan niyat yoki xayolidagi gʻoyani boshqa odamga maʼlum shaklda, aniq soʻz, jumla, nutq birliklari yoki harakat orqali yetkazadi. Shu yerdagi niyat, gʻoya – mazmun, nutq va harakat – shakl hisoblanadi. Demak, mazmun va shakl umumfalsafiy kategoriya hisoblanib, borliqning mavjud boʻlish shartlaridan biri hisoblanadi.

Badiiy tahlilda asar mazmuni va shakli muhim ilmiy masala boʻlib, uning kelib chiqishi juda qadimgi manbalarga boʻrib taqaladi. Hazrat Alisher Navoiy bu haqda quyidagilarni bitgan:

*Nazmda asl anga ma'ni durur,
Bo'lsun aning surati har ne durur.
Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo'b emas.
Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma'ni dag'i dilkash anga.*¹⁸

Birinchi o'rinda buyuk mutafakkir Alisher Navoiy she'rning shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ma'no, mazmun bosh maqsad degan fikrni ilgari suradi. Shuningdek, muallif o'z fikrini rivojlantira borib, she'rning ma'nisi yoqimli, ma'qul bo'l-masa, donishmandlar uni yaxshi deyishmaydi. Shuning uchun she'rda chiroyli shakl va mazmun bo'lishi kerak deya ta'kidlagan. Aynan shu tamoyil o'zbek she'riyatining mezonlaridan biriga aylangan.

Olimlar shakl va mazmun bir-birini taqozo etuvchi tushuncha ekanligi, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmasligini ta'kidlashgan. Xususan, Gegel shakl mazmunga, mazmun esa shaklga o'tib turadigan hodisa bo'lib, asarda ularni ayro holda izohlab bo'lmaydi, degan fikrni ilgari surgan. Mutafakkir shakl va mazmunni o'zaro aloqadagi dialektik hodisa sifatida tushungan va bu eng to'g'ri fikrlardan biri hisoblanadi. Boshqa bir nemis olimi I.Kantning fikricha, "Badiiy asar ustida mushohada yuritishning o'zi ham subyektiv jarayon bo'lib, mushohada davomida borliqqa bo'lgan estetik munosabatimizni o'zgartiradi"¹⁹. Bu yerdagi asar tahlili, uning mazmun va shakli ustida bosh qotirish subyektiv ekanligi ham nisbatan aniq hukm deyishga asos bor. Mushohada jarayonida bizning asar haqidagi tushuncha-

¹⁸ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Еттинчи том. Ҳамса. Ҳайратул-аброр. -Тошкент. "Фан". 1991. –Б. 61-62.

¹⁹ Кант, Иммануил. Критика способности суждения. – Москва: Искусство, 1994 — С.69.

miz o'zgaradi. Demak, mazmun va shakl haqida fikr yuritish bizga ham ta'sir qiladi. Q.Qahramonov esa "... odam va olam, zamon va makon, hayot va o'lim, shakl va mazmun tushunchalarini falsafiy, ilmiy, badiiy-estetik jihatdan anglash hamda tahlil va talqin etish, baholash tanqid taraqqiyotining asosiy garovidir"²⁰ degan fikrni aytadi. Yuqoridagi manbalardan kuzatiladiki, badiiy asar shakl va mazmun birligini ta'minlash murakkab ijodiy jarayondir. U kitobxonni fikr yuritishida, borliqqa shaxsiy munosabatini ishlab chiqishida muhim vosita sanaladi.

Darhaqiqat, badiiy asar murakkab tuzilishga ega bo'lib, badiiy matndagi so'z, so'z birikmasi, detal, gap hammasi yaxlit tizim sifatida keladi. Natijada olimlar badiiy asarni metaforik asosda tirik organizmga qiyoslashadi. Tahlilchi ana shu tizimning o'zaro uyg'unligini topa bilishi lozim bo'ladi. Buning uchun mazmun va shakl hamda ularning tarkibiy qismlarini bilish kerak.

Mazmun keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning badiiy-estetik ideal, badiiy g'oya, mavzu, kechinma, muammo kabi komponentlari bo'ladi. Shaklning janr, kompozitsiya, obraz, matn, makromatn, mikromatn, kontekst, abzats, til, gap qurilishi, badiiy va tasviriy ifoda vositalari kabi tarkibiy qismlari bo'ladi. Badiiy asarda ana shu qismlarning o'zaro mutanosibligi, uyg'unligi go'zallik sanalib, yetuk asarni namoyon etadi. Masalan, Shavkat Rahmonning "Tungi manzara" she'rida shakl va mazmun yetukligini ko'ramiz²¹:

*O'rmonlar jim, yig'lamas shamol,
Soy sayramas, baqalar jimdir,*

²⁰ Қаҳрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – Б. 19.

²¹ Раҳмон Шавкат. Абодият оралаб: Шеърлар. – Тошкент: Movarounnahr, 2012. – Б.140

*Ingroqlarga to'lib ketgan tun –
G'amgin qo'shiq aytadi kimdir.*

*Otim o'lgan, qilichim singan
Majaqlangan sovut, qalqonim,
Kim tashladi meni bu chohga,
Qayda qoldi yorug' osmonim!*

Mazkur she'r barmoq she'riy sistemasining 9 bo'g'inli vaznida yozilgan, 4-5 tarzda qofiyalangan, a-b-v-b; v-d-g-d tarzda qofiyalangan. She'r janriy jihatdan tavsiiy she'rga kiradi. She'r bir qarashda tabiat tasviriga bag'ishlangandek tuyuladi. Ammo undagi o'rmon, shamol, soy, baqa, tun detallariga berilgan tavsif she'rning mazmunida milliy ozodlik, milliy o'zlikni anglash g'oyalari singdirilganini ko'rsatadi. Chunki lirik subyekt "*O'rmonlar jim, yig'lamas shamol, soy sayramas, baqalar jim...*" ligidan hayron bo'lmoqda. O'rmon nimadir deyishi, shamol yig'lashi, soy sayrash uchun asos bu yurtning dushman bosib olganligi, bu yerdagi kishilarni qullikka mahkum etganligiga ishora qiladi. Keyingi bandda lirik subyekt o'zining abgor holatini bayon qilgan ekan, uning qachondir jangchi bo'lganini kuzatamiz: "*Otim o'lgan, qilichim singan, Majaqlangan sovut, qalqonim*". Demak sobiq askar uyg'onmoqda va o'z holatini sharhlar ekan, milliy o'zligini anglab borayotganini ta'kidlaydi: *Qayda qoldi yorug' yulduzim!*" Yulduz bu yetuklik belgisi, ideallik timsoli sifatida olinishi mumkin.

Shu tariqa she'rdagi har bir so'z, so'z birikmasi alohida ma'no kasb etib, she'rdagi asosiy muammo o'zlikni anglash, g'oya, milliy ozodlik, kechinma esa isyonkorlik tabiatiga egaligini ochib bergan. Undagi mazmun salmoqdor bo'lib, barcha xalq va millatlarga birdek tegishlidir, badiiy topilmalari originalligi bilan

ajralib turadi. Har bir detal, tinish belgilari yaxlit tizim sifatida badiiy g'oyani kuchaytirishga, kechinma keskinligini oshirishga xizmat qiladi. She'rda mazmun va shakl birligi yetuk darajaga chiqqan. Shu jihatlar uning badiiy mukammalligini ko'rsatadi.

Badiiy asar murakkab tuzilishga ega, yaxlitlik, mavjudlik sifatida inson bilan aloqaga kirishadi va undagi bilim, malaka, ko'nikmalar ta'sirida jonlangandek bo'ladi, ya'ni, asar o'zidagi ma'lumotni o'quvchiga yetkazadi, uning ongi, tuyg'u va ruhiga ta'sir etadi. Asar deganda umumiy ma'noda birorta ijodkor yaratgan badiiy ijod namunasini tushunamiz. Ammo, uni o'qiganimizda biz muallif aytgan mavzu yoki ma'nolardan tashqari narsalarni ham tushunishimiz mumkin. Masalan:

*Chuvaladi o'ylarim sensiz,
Xayolimga taroq urgayman.
Mening qo'lim yetmagan yulduz,
Tushlarimda seni ko'rgayman.
Balanddasan tog'lar qoridan.
Chaqirasan meni ilgari.
Yolboraman arvoh ortidan,
Intiluvchi Gamlet singari.
Mahshargacha, mayliga, ketay,
Ketay, mayli bo'lib ovvora.
Seni so'rab qo'ymasa netay
Yerda qolgan sevgi bechora²².*

Aslida she'r lirik subyektning sevgan kishisiga bag'ishlab yozilgandek tuyuladi, ammo unda estetik ideal, aniq maqsadga intilish ham mavjud, buni shoir she'r yozayotganda nazarda

²² Орипов А. Танланган асарлар. IV жилдлик. I жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б.112.

tutmagan bo'lishi mumkin, she'rni o'qigan oddiy o'quvchi uni sevgi, hijron haqida deb tushunadi. Ammo bu undan kattaroq mazmunni ifodalaydi. Bunday tushunish so'zsiz o'quvchi idrokidan chiqadi, buni anglash uchun esa asarning ichki tuzilishini tahlil etish lozim bo'ladi. Aniqrog'i, uning har bir so'z, jumla, detal, obrazining kitobxon ongiga, yuragiga ta'sirini hamda ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab chiqish kerak. Bunda har kim erkin va o'z saviyasi, estetik dididan kelib chiqib, asarga baho beradi.

Bunda asar kompozitsiyasi va uning fabulasiga diqqat qilinadi. Ya'ni, birinchi misra tezis bo'lib, lirik subyekt o'z kechinmasini ifodalaydi va bunda xayollar tarqoq hamda tartibsiz ekanligiga ishora qiladi. Bunday tartibsizlik kishiga noqulaylik tug'dirishini bilgani holda ularga "taroq uradi". Ya'ni tarqoq, chigal arqon tolalari yoki mato iplarini aniq rangdagi mato, atlas, adrasdek chiqishini ta'minlash uchun, shu yerda muallif subyektdagi holatni hunarmand dastgohidagi vaziyatga qiyoslagan.

Epik, dramatik asarlarni hamda shakl va mazmun birligini tekshirish badiiy tahlilning vazifasiga kiradi. Shuning uchun, Gulchehra Asronovaning "Tushov" hikoyasini tahlil qilamiz. "Tushov" hikoyasida zamonamizning katta muammolaridan biri – mehnat muxoriji bo'lib xorijga ishga ketgan va oilasini unutib, oilani parokanda qilgan yigit fojeasi turibdi²³. Hikoyadagi syujet liniyasi tugundan boshlangan:

– Ertaga tongda uyda bo'laman. Tayyorgarligingni ko'raver!

Maryam hayajonini arang bosib xayrlashdi-da, yosh boladay irg'ishlagancha telefonni bag'riga bosdi. "Ertaga! Ertaga, tongda!" [16]. Bu yerda ma'lum bo'lyaptiki, Maryam ismli kelin to'y-

²³ Асрoнoвa Г. Oсмoнини тoпгaн қуш. – Toшкeнт: Муcиқa, 2012. – Б.16-18. Havoладaн keyин kitob cаhifаси ko'рсaтилaди.

dan ko'p o'tmay xorijga ishlagani ketgan erini ikki yil kutgan va endi u keladi. Ana shundan so'ng ekspozitsiya kelgan. Syujetni kompozitsiyada bunday joylashtirilishi tabiiy sanaladi. Syujetning asardagi birinchi vazifasi bu hikoya muammolar tizimini ochish. Buning uchun hikoyaga zarur hayotiy material tanlanadi. "Tushov" hikoyasida eri xorijga ishlagani ketgan juvon va uning erini kutishi bilan bog'liq voqealardan iborat mavzu zahirida zamonaviy oilalarning baxtsizligi, hayotda o'z oilasini saqlab qololmayotgan er va ayol, otasiz qolayotgan farzand kabi muammolar tilga olingan.

Keyin voqealar rivoyatning bir qismi sifatida beriladi: "Xorijga ishlagani ketgan erining shu so'zlarini ikki yildan ortiq kutdi. O'g'ilchasi yugurib yuribdi, hali otasini ko'rmagan. To'ylaridan keyin rosa bir yil kuttirgan xushxabar ishlagani ketganidan keyin, telefon orqali aytilgandi. Mana o'sha bola – to'tiqushdek "dada" deyishni o'rganib olgan-u, "dada"ning kimligini bilmaydi. Juda bijildoq, shirintoy bo'lgan. Hali Sardor akasi bir ko'rsin, dunyoni unutib yuboradi!"[16].

Voqealar rivojining mazkur qismi Maryamning ichki monolog tarzida berilgan. Bu, avvalo, hikoya zahiridagi epik kechinmaning ta'sirli chiqishini ta'minlagan. Qolaversa, hikoyadagi bosh qahramon Maryamning orzu havasini, o'zini baxtli his etib yashayotganini ham ifodalaydi. Bu esa asar so'ngidagi boshqa bir voqea bilan to'qnashib, hikoyaning mohiyatini ochib beradi. Chunki ichki ziddiyatga qurilgan novellistik asarda, odatda, syujetning ana shunday qurilishi ko'p uchraydi.

Yuqoridagi lavhadan keyin syujet tizimida ekspozitsiya keladi:

"Ko'hlikkina qiz edi Maryam. Otasining qattiqqo'lligi, uchta pahlavon akaning tergashlari sabab, biron yigit unga ko'ngildan gap ochmagan. Tabiatan itoatkor qizning o'zi ham oshiq-

ma'shuqlikni xayolining ko'chasiga yo'latmay, taqdir hukmini kutdi. Otasi ro'yxush bergan odamga turmushga chiqdi. Va ... chin dildan bog'lanib qoldi. Shuncha yil asragan tuyg'ularini zarra-zarrasigacha Sardorga bag'ishladi. Keyin bu ayriliq ... Baribir u baxtiyor edi. Bir odamni sog'inib, kutib va umidvor bo'lib yashash ham baxt ekan. Sardor akasi kelsin, unga juda ko'p gaplarni aytadi. Shu paytgacha hech kimga aytmagan, qalbining tub-tubida asragan gaplarini..."[16].

Ana shu ekspozitsiyada hikoyaning bosh qahramoni Maryamning butun portreti chizilgan. Uning ichki va tashqi olami aniq ochilgan. Obrazning zimmasiga yozuvchi yuklagan badiiy vazifa – yigitlarga zamonaviy dunyoda qanday ayolini tashlab xorijga ketayotganini ko'rsatish, oilani oliy qadriyat, baxtni esa kutishdan iborat deb biladigan samimiy, sodda va shu bilan birga ibo, hayo, andishali o'zbek ayolini tasvirlash edi. Uning ota uyi va ularga xos oriyatliliigi, biroz romantikligi ham ekspozitsiyada ochilgan bo'lib, unda o'zbek oilasida qiz tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyatni aniq ko'rsatgan. Shu yerda muallifning asosiy badiiy-estetik qarashlari milliy mafkuramizning o'zak qismiga muvofiq ekanligi ham ochilgan.

Ekspozitsiyadan keyin yana voqealar rivojining keyingi qismi beriladi: "Sardor tong pallasi, kutib olish uchun yo'lga chiqqan do'sti Murodjon bilan kirib keldi. Maryam eng oxiri, qo'l uchida ko'rishdi-yu, eriga bolani uzatdi. Bu lahzalarni qancha kutgandi-ya! Nihoyat, nihoyat! Lekin ko'pchilikdan iymenib, hatto erining yuziga tuzukroq qaramay, dasturxon tuzashga kirishib ketdi"[17].

Sardorning kirib kelishi-yu, u bilan yaqinlarining uchra-shuvi Maryam nigohi va tushunchalari asosida berilgan mazkur parchada o'zbek ayollariga xos ma'naviy fazilatlar, Maryam ma'naviy olamining botiniy qirralari "Maryam oxiri, qo'l uchida

ko'rish" gani, "erining yuziga tuzukroq qaramay" degan iboralar va hikoyadagi epik kechinma darajasi "Bu lahzalarni qancha kutgandi-ya! Nihoyat, nihoyat!" degan gapda seziladi. Bu satrlar bir tomondan epik kechinmani ifodalasa, ikkinchi tomondan o'zbek ayolining ibo, hayosi, sabr-toqatini ham ko'rsatadi. Muallif ana shularni tasvirlar ekan syujet tizimiga ostiga allaqanday tag ma'no yoki sekin ishlaydigan portlovchi mexanizm qo'ygandek, o'quvchini favqulodda holatga tayyorlab boradi.

Novella-hikoyadagi voqealar Maryam obrazining ichki dunyosi, o'y-fikrlari atrofida jamlangani uchun konsentrik syujet tusini olgan. Buni biz hikoyadagi quyidagi parchada ham kuza-tishimiz mumkin: "Keyinroq, oshxonada yolg'iz qolganida dera-za oldida turib zimdan kuzatdi: Sardor akasi yanayam ko'rkam-lashib ketibdi. Ovsinining gapiga kirib, yangi ko'ylagini kiysa, pardoz qilib olsa bo'larkan. Qaynotasidan uyaldi-da..." [17].

Aslida ham hikoyada badiiy vaqt va makon tig'iz bo'lgani uchun muallif shunday yo'l tutgan. Natijada novellistiklik xu-susiyati asarning yetakchi belgisiga aylangan. Hikoyadagi vaqt aslida bir kecha-kunduz ichidagi voqealarning Maryam bilan bog'liq eng muhim qismini yoritishga xizmat qiladi, xolos. Ma-kon esa u yashaydigan hovli va uning oshxona, xona, bog' kabi-laridan iborat qismidir. Personajlar ham asosan Maryam, Sar-dor, bola, Murodjon. Shuningdek, hikoyada Maryamning otasi, akalari, qaynotasi, ovsini, Lena, mehmonlar, bolalar, kattalar kabi personajlar ham bor. Ular ham syujet tizimida o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Masalan, qaynotasi Maryamdagi uyatchan-lik, iymnish xususiyatlarini ko'rsatuvchi personaj bo'lsa, ov-sinining gapi orqali Maryamning afsus qilishiga sabab bo'ladi-gan xatti-harakatini ochib bergan. Demak, hikoyadagi syujetlar butunlay konsentrik tus olgan. To'g'ri hikoyada voqea xronikal tartibda bayon qilingan. Lekin u yetakchi o'rinda emas.

Hikoyadagi voqealar rivoji kulminatsion nuqtaga yaqinlashganda asosiy e'tibor Sardorning ruhiy holatiga qaratiladi:

“Uylaridan kun bo'yi keldi-ketdi uzilmadi. Oqshom cho'kkan, bolalar uxlab, kattalar so'rida gurunglashib o'tirishgan payt Murodjon ketishga shaylandi.

- Yur, bitta chekaylik, keyin ketaverasan, - dedi Sardor uni bog' tarafga boshlab”. Sardor birinchi marta shu yerda “tilga kiradi”. Bog' ham alohida gaplashishga holi joy. Ikkinchidan, Sardorning xoriydagi “bog'i” va uning “meva”si haqida ham gaplashishga mos tushadi. Chunki, aslida uni bu yerdagi bog' qiziq-tirmaydi.

Hikoyadagi personajlar haqidagi fikrimizni davom ettirib ta'kidlash lozimki, Murodjon obrazi hikoyadagi syujet chizig'ida alohida o'ringa ega. Aynan Murodjon orqali Maryamning fojeasi, Sardorning asl qiyofasi ochiladi va hikoyaga novellaga xos konfliktlilik, kutilmagan yechim kirib kelgan. Dastlab, Murodjon Sardorni kutib olib, uyga boshlab keladi. Shu yerda savol tug'iladi. Nima uchun oila a'zolaridan biror kishi, qaynotasi, qaynog'asi yoki Maryam va uning o'g'li chiqmaydi? Bu Murodjonning Sardor bilan qadrdon do'stligi hamda uning mazkur oilaga yaqinligi bilan izohlansa ham shu o'rinda badiiy mantiq buzilgan, deyish mumkin.

Ikkinchi o'rinda Murodjon ketmoqchi bo'lgandan keyin Sardor uni bog'ga boshlaydi va ana shu yerda Maryam uchun mash'um bo'lgan sir – Sardorning xoriydagi Lena ismli xotini, u yoqdagi o'g'li haqidagi gap ochiladi. Nima uchun aynan Murodjonga aytilyapti bu gaplar? Bunga sabab, avvalo, ikki o'rtadagi do'stlik, qolaversa, ikki yildan ko'p xoriyda yurgan va uni shu qadar o'ziga bog'lab olgan nimadir borligini Sardorning ichidan “sug'urib olish” uchun ham Murodjon obrazi hikoyaga kerak. Bu unga qo'yilgan nomda ham ko'rindi: Murod – kishi qalbidagi

asosiy maqsad. Bu ta'rif mazkur personajning muallifning badiiy niyatini ochishdagi asosiy yo'li hamda Maryamning uzoq muddatli ayriliqdan kutgani, topgani ham ochiladi. Afsuski, bu "topildi" Maryam uchun alamli bo'ladi. Lekin u hali buni bilmaydi. U hali shirin xayollar og'ushida, o'g'ilining peshonasini silaydi, uning otasiga bormayman deb harxasha qilganidan miyig'ida kuladi. Erini sog'inib kutganda tortgan azoblari evaziga endi uni qo'yib yubormaslikka qat'iy niyat qiladi.

Shuningdek, hikoyada telefon detali ham asosiy muammoni ochishda, personajlar mohiyatini ko'rsatib berishda ba'zi personajlardan ko'proq badiiy-estetik funktsiya bajargan. Hikoya boshida aynan telefon orqali Maryam Sardor akasi uyga qaytayotganidan quvonib, telefonni bag'riga bosgancha, boladek sakragani bayon qilingan edi. Hikoyaning kulminatsion nuqtasi oldidan sahnaga yana "telefon" detali chiqadi:

– Kelin, – chaqirdi qaynotasi, – Murodjonga qayta-qayta qo'ng'iroq qilishdi, oborib bering telefonni. Tag'in biron zarur ishlari bo'lmasin.

Maryam telefonni olib, boqqa ichkariladi. Ikki do'st olma-zordagi ko'cha chirog'i tushgan nimyorug' joyda tamaki tutatib turishar, Sardor nimalarnidir berilib gapirardi. Naqadar yoqimli – uning ovozi! Bu fusunkor visol kechasida hamma narsa go'zal, huzurbaxsh edi. Vujudiga sizib kirib, qalbini erkalayotgan tovushga mahliyo bo'l..."di.[17]

Aslida telefon bir xabarni ikkinchi kishiga yetkazishda muhim vosita sifatida hikoyada ikki marta ishtirok etadi. Lekin ana shuning o'ziyoq telefon detali zimmasida hikoyaning barcha muammo, mavzu, g'oya, asar shakliga xos qator unsurlarni, qolaversa, syujetning kompozitsion qurilishini belgilashi uchun yetarli bo'lgan. Bulardan biri Maryam va Sardor orasidagi uzoqlashish masalasi edi.

Yuqoridagi parchadan keyin ham Sardor va Maryam obrazlarining ruhiyati bir-biridan, holati uzoq ekanligi haqidagi xabar Murodjon va Sardorning qisqa suhbatida beriladi:

– Xullas, nima qilmoqchisan?

– Ko'p o'yladim, do'stim, Endi ularsiz yasholmas ekanman. Ayrilishni istamayman [17].

Ana shu Maryamning erining orziqib kutishi, o'g'lini pishillab uxlagan paytida tepasida turib, endi hech qayerga yu-bormaymiz degan gaplari kabi faqat Maryamga xos bo'lgan epik kechinmalar bilan ichki ziddiyatga kirishadi. Biroq buni Maryam bilmaydi. Shuning uchun u quyidagicha mulohaza yuritadi:

“Maryam to'xtab qoldi. Yuragi ko'ksidan otilib chiqqudek ura boshladi. “Men ham endi sizsiz bir kun ham yashashni istamayman, Sardor aka! Endi bizni tashlab ketmang! Ketmaysiz-a?” Qarang sodda, beg'ubor tuyg'ularga ega, yomon xayolning ko'chasidan ham o'tmagan, eriga juda ishonadigan, samimiy ayol – Maryamga kishining rahmi keladi. Shu yerda hikoyadagi ayolning ismi afsonalardagi, diniy rivoyatlardagi Maryam ismi bilan assotsiyativ tarzda bog'lanib ketadi. Uning ham bitta o'g'li bor, u ham samimiy, beg'ubor. Bu ham shunday, farishta misoli ayol.

Shu yerda voqealarning kulminatsion nuqtasi yangraydi:

– Attang, – dedi Murodjon nimagadir, – Yaxshi ish bo'lmapti. Kim o'zi u, o'rismi?

– Ha. Oti Lena. Bir ko'rsang edi uni, meni tushungan bo'lar-ding. Telefonda rasmlari bor, hali ko'rsataman, Yashash nimaligini endi bildim! Lekin o'g'limning otini o'zbekcha qo'yganmiz, quyib qo'ygandek o'zim[18].

Shu yerda hikoya boshidan buyon Maryamning xursand, goh ikkilanib, goh farishta misoli ko'kka sakrashiga barham be-

riladi. Novelladagi syujet tizimi aksariyat hikoyalarda bo'lgani kabi kundoshlik motiviga qurilgani oydinlashadi.

Har bir personaj, detal, konfliktning yuqori nuqtasi sifatida mazkur hikoyadagi ko'p muammolarga aniqlik kiritadi. Hikoyaning yakuni Sardorning xotiniga javob berishi, lekin o'g'li oyog'iga tushov bo'layotgani, voqealarning teskari tus olishidan boshi aylanib xushdan ketgan Maryam haqida bayon qilinadi. Hikoya ko'p nuqta bilan tugaydi. Chunki unda asar boshidan berilib kelayotgan muammolarga yechim yo'q. Yozuvchi buni o'quvchi zimmasida qoldiradi. Darhaqiqat, hikoyaning asosiy vazifasi novellistik-rivoya ekan unda yechim ham asosiy epik kechinmaga zid bo'ladi. Hikoyadagi asosiy g'oya – sadoqat, oila muqaddasligi va shaxs erki g'oyasidir. Yozuvchi uni ishonarli hayotiy material va badiiy yechim asosida tasvirlaydi.

Badiiy asarda mazmun va shakl birligi asarning badiiy mukammallik belgisi sifatida e'tirof etiladi.

Nazorat savollari:

1. Mazmun va shakl umumfalsafiy kategoriya deganda nimani tushundingiz?
2. Shakl va mazmun birligi nima ekan?
3. Shakl va uning tarkibiy qismlarini ayting.
4. Mazmun va uning tarkibiy qismiga nimalar kiradi?
5. Mavzu haqida ma'lumot bering.
6. Badiiy g'oya va muammo aloqasini tushuntiring.
7. Badiylikning yetakchi belgisi nima ekan?
8. Badiiy g'oya va uning ifodasi o'rtasida bog'liqlik qanday yuzaga chiqadi?
9. Badiiy shakl va kompozitsiya haqida tushuncha bering.

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

O'zingiz yoqtirgan hikoyani mashg'ulot daftaringizga tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
2. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: Учебное пособие. – 3-е изд. –М.: Флинта, Наука, 2000. – 248 с.
3. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., А.Иброҳимов. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 336 б.
4. Йўлдош, Қозоқбой. Йўлдош, Муҳайё. Бадий асар таҳлил асослари. – Тошкент: Kamalak, 2016 – 464 б.
5. Тюпа В.И. Анализ художественного текста: учеб. пособие для студ. филол. фак. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр “Академия”. –2009. –336 с.
6. Қозоқбой Йўлдош. Живовланмаган тафаккур маҳсули. – Тошкент: Tafakkur, 2023. – 428 б.

5-MAVZU: ASAR TEMATIKASI VA UNI TAHLIL ETISH

Reja:

1. “Mavzu” atamasi va uning talqinlari
2. Tema va uning ko‘rinishlari
3. Mavzu va syujet tahlili
4. Mavzu va obraz
5. Mavzu va janr

Tayanch so‘z va iboralar: *mavzu, tematika, voqea, obraz, syujet, janr, kompozitsiya, hayotiy material, mavzu tahlili.*

Ma’lumki, mavzu deganda badiiy asarni o‘qib, undagi voqea nima haqida ekanligi nazarda tutilishini hamma biladi. Ammo mavzu bu yerda asar uchun tanlangan hayotiy material, ma’lum bir voqea, hodisa, vaziyat majmuasi yoki ana shu voqea, vaziyat zamiridan anglanadigan badiiy muammo, badiiy g‘oya bilan ham bog‘liq ekanligini ko‘pchilik ham anglayvermaydi.

Adabiyotshunoslikka oid manbalarda mavzuga quyidagicha ta’rif berilgan: “Mavzu (ar. – qo‘yilgan, tartibga solingan) – badiiy mazmun komponenti, asarda qo‘yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma’naviy-axloqiy va h.k. muammolarni badiiy idrok qilish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali, tema...”

Ijodkor o‘zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etish uchun keng va qulay imkon beruvchi hayot materialini tanlaydi va tasvirlaydi – bu badiiy asar mavzusi (temasi)dir²⁴. Bu yerda olimlar nisbatan aniqroq ta’rifni berishadi. Ammo

²⁴ Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 20130. – Б.158.

o'zlari e'tirof etishganidek, tanlangan va tasvirlangan hayotiy material va ijtimoiy muammo o'rtaq chiqadi. Bu asar mavzusining muammo, g'oya bilan bog'liqligini bildirsa, ikkinchi tomondan mavzu asar asosidagi voqealar tizimi ekanligini ham bildiradi.

Rus olimi V.E.Xalizev quyidagicha yozadi: yangi yevropa til-larida mavjud bo'lgan «tema» («tematika») yunonchadan kelib chiqqan bo'lib, qadimgi yunonchada "thema" – bu asosga joy-langan, degan ma'noni bildiradi. San'atshunoslik va adabiyot-shunoslikda u turli ma'nolarda ishlatiladi.

1. Badiiy asar strukturasining salmoqli komponenti, shakl aspektlari, tayanch usullari mavzu, deb ataladi. Adabiyotda bu – asosiy so'zlar va ular aks ettirgan mohiyatni bildiradi... mazkur terminologik an'anaga ko'ra, mavzu motivga (agar ustunlik qilmasa) yaqinlashadi. Bu badiiy materialning faol, ajralib tura-digan, urg'ulanadigan tarkibiy qismidir.

2. Mavzuning ikkinchi ma'nosida san'atni idrok qilish aspek-tini anglash, tushunish yetakchilik qiladi. U o'tgan yuz yillikning nazariy tajribalaridan o'sib chiqqan va struktur elementlarni emas, to'g'ri asarning yaxlit mohiyatini anglatadi. Mavzu badiiy ijod asosi sifatida – bu muallif qiziqishining predmeti bo'lgan barcha narsa, qayta yaratish va baholash²⁵. Ko'rinadiki, mavzu badiiy asardagi hayotiy material yoki voqealarning o'zigina emas, balki u ijodkor qiziqishi, muammolari, asar motivi kabilar bilan bog'liqlikdagi yirik birlik, asar mazmunining o'zak qism-laridan biridir. Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, tema muammo, g'oya, motiv, syujet kabi tarkibiy qismlarni o'zaro biriktiruvchi bo'g'in vazifasini ham bajaradi.

²⁵ Хализев, В. Е. Теория литературы: Учебник.— 4-е изд., испр.и доп.— М.: Высш. шк., 2013.- С.51.

Temalar ham olingan hayotiy yoki xayoliy materiali, makon va zamonga munosabati, ifoda usuliga ko'ra, turlicha bo'lishi mumkin. Quyida ularning ba'zilarini keltiramiz:

1. Tarixiy mavzu – Oybekning “Navoiy” romani, O.Yoqubovning “Ulug'bek xazinasi” romani, Asad Dilmurodning “Muhmud Torobiy” romani kabilar.

2. Zamonaviy mavzu – U.Hamdam, “Muvozanat” romani.

3. Sevgi, ayriliq, hijron kabi mavzular: U.Hamdam, “Sabo va Samandar” romani.

4. Ozodlik, mustaqillik uchun kurash mavzusi: Tog'ay Murod, “Otamdan qolgan dalalar” romani.

5. Fantastik mavzu: X.Shayxov, “Rene jumbog'i” qissasi.

6. Mistik mavzu: X.Shayxov, “Tutash olamlar” romani.

7. Doimiy mavzular: xalq ertaklaridagi ayriliq, o'gaylik, mehnatsevarlik, to'g'rilik va egrilik va hokazo...

8. Diniy mavzu: Luqmon Bo'rixon, “Imom Motrudiy”.

9. Siyosiy mavzu: N.Qobul, roman-pamfletlari.

10. Modernistik mavzu. T.Rustamov, “Kapalaklar o'yini”.

11. Mifik mavzu: X.Do'stmuhammad: “Donishmand Sizif”.

12. Maishiy mavzu kabilar.

Bundan tashqari, ba'zi mavzular aralash kelishi ham mumkin. Masalan, S. Siyoyevning “Yassaviyning so'nggi safari” romanida tarixiy-diniy mavzu va ijtimoiy mavzular aralash kelgan. Bunday holat nisbatan ko'proq uchraydi.

Shu o'rinda hayotiy material sifatida real hayotdan olingan voqea, vaziyat va obrazlar ijodkor tomonidan jiddiy qayta ishlanishini ham inobatga olish lozim. Ya'ni, yozuvchi o'z hikoyasi uchun real hayotdagi voqeani olar ekan, uni o'zining ijodiy niyatiga mos ravishda qayta yaratadi. Bu esa obraz, voqea va boshqa hayotiy materiallarni badiiy-estetik baholash hamda qayta yaratish jarayonini ham talab etadiki, badiiy tahlilda tahlilchi

buni to'g'ri tushunishi lozim bo'ladi. Chunki bunda mavzu endi bir nechta bo'lishi va u endi tematika, deb atalishi ham mumkin. Bu esa har qanday asarda mavzu birdan ortiq bo'lishini bildiradi. Masalan, Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasini tematik jihatdan tahlil qilamiz²⁶. Hikoyada Olimjon dodxohning sakkiz xotini ichidagi kenjasi bo'lgan, bu xonadonga tushganiga endigina besh oy to'lgan Unsinning qabriston vahimasidan yuragi yorilayozgani, eri Olimjon dodxohning xayoliga kelgan "choy qaynatish o'yini"dan yuragi yorilib vafot etgani haqidagi voqea bayon qilinadi. Ana shu asar mavzusi bo'la oladi. Ammo nima uchun yozuvchi aynan shu voqeani hikoya uchun olgani, buning ortida shaxs erki, ko'pxotinlilik fojeasi, erkaklarning xudbinligi, ayollarning jur'atsizligi, jamiyatning ma'naviy qashshoqligi kabi qator ijtimoiy muammolarni yoritgani ham hikoya tematikasini tashkil etadi. Bundan tashqari Unsinning o'z ozodligi uchun kurashga chiqishi asar motivini tashkil etishi ham temaning ko'lamini belgilaydi. Shu ma'noda tema ushbu asarda hikoya kompozitsiyasini belgilovchi, obraz zimmasidagi badiiy-estetik vazifa (ozodlik, shaxs erki, o'zbek oilasi fojeasini ochish kabilar)ni ochishga ham xizmat qilgan. Lekin motiv, obraz va kompozitsiyaning boshqa elementlarining aynan tematikaga keragidan ortiq darajada bog'lab qo'yish, ularning asardagi o'rnini cheklashga olib keladi. Masalan, Olimjon xonadonining tasviri bu obyekt tasviri yoki tasvirlanayotgan vaziyat sanaladi. Nodirmohbegim uyi, sandal va shamolning vahimasi, taroveh namozidan nisbatan ertaroq qaytgan Olimjon va uning shamolda qabristonning xunukligi haqidagi fikrlari, xotinlarining birdamlikda o'z vazifalarini bajargani bular ham muhit tasviri, hamda Olimjon obrazining mohiyatini ochishga ham qaratilganini esdan chiqarmaslik kerak.

²⁶ Abdulla Qahhor Dahshat. Hikoyalar. www.ziyouz.com kutubxonasi

Shuning uchun har qanday badiiy asar tematikasini tahlil qilishda asarni diqqat bilan o'qib chiqish, zarur o'rinlarini daf-targa yoki alohida qog'ozga ko'chirib olish, bunda shakl va maz-mun, portret, peyzaj, dialog kabi boshqa tarkibiy qismlarga va-zifalarini aralashtirib yubormaslik lozim bo'ladi. Buning tema tahlilida asarni o'qib, uni qayta bayon qilish ham tema deya taq-dim etilishi o'ta primitiv hodisa sanaladi.

Tematikani tahlil qilishda yaxlit asarning tarkibiy qismlari va ular zimmasidagi vazifa, badiiy-estetik vazifa, ilgari surila-yotgan g'oya nimalardan iborat ekanligini belgilab olish lozim bo'ladi. Ana shularni birgalikda yoritish uchun olingan hayotiy material tema ekanligini chegaralash mumkin. Chunki mavzu muallif ijodiy niyatiga bog'liq bo'lib, bitta mavzu yoki bitta vazi-yat bo'yicha turli ijodkorlar turlicha asarlar yaratishi mumkin. Masalan, To'maris tarixiy mavzusi haqidagi ma'lumot dastlab Gerodotning "Tarix" asarida xabar shaklida keladi²⁷. Keyincha-lik, turli davrlarda turli badiiy-estetik vazifani bajarishi natija-sida bir qancha badiiy asarlar yaratildi. Mirkarim Osim qissa-si, Xurshid Davron she'ri va badiasi, Halima Xudoyberdiyeva she'rlari, Mirmuhsin va Shavkat Nizom kabi yozuvchilar romani shular jumlasidandir²⁸. Jami olti xil (aslida undan ham ko'p)

²⁷ Геродот. История. Перевод и примечания Г. А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972 г. – 604 с.

²⁸ Даврон, Хуршид. Массаетлар маликаси ва форслар подшоҳи. Бадиа <http://kh-davron.uz/xurshid-davron-massagetlar-malikasi-va-forslar-podshohi.html>; Хуршид Даврон. Тўмариснинг кўзлари. Шеърлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1984. – Б.75. Худойбердиева Ҳ. Тўмариснинг айтгани. Шеър.– Т. Чўлпон, 1996. Мирмуҳсин. Турон маликаси. Роман. - Т.: Шарқ, 1997; Худойбердиева Ҳ. Йўлдадирман. Шеър. –Т. Шарқ, 2006: Ойсулув. Халқ достони. Айтувчи Эргаш Жуманбулбул ўғли. Ёзиб олувчи: Ходи Зариф. – Б.7-22. www.ziyouz.uz; Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-жилд. Тузувчилар: Н.Раҳмон, Ҳ.Болтабоев. – Т.: Фан, 2003. – Б.287. Мirkarim Osim. Тўмарис. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983; Шавкат Низом. Тўққиз ҳоқон салтанати. Роман / Шарқ Юлдузи, 2014, № 14. –Б.5-26.

asar bir tarixiy mavzuga bag'ishlangan. Lekin ulardagi g'oya, muammo, syujet qurilishi, obraz tasviri kabi poetik masalalar turli aspektdan yaratilgani bilan ajralib turadi. Masalan, Mirkarim Osim qissasi uch faslga ajratilgan bo'lib, sahro va unga berilgan ko'klam tasviri bilan keladi: "Cho'l bahor kelinchagi oyog'i ostiga chechaklar bilan bezalgan yashil poyandozini yoyib tashlagan. To'rg'aylar havoda pirillab, ko'klamga madhiya o'qimoqda. Rango-rang kapalaklar chechaklarning xushbo'y hididan mast. Allaqanday uzun oyoqli qushlar o'tlar orasida dumlarini likillatib, katta-katta bosib yuradi, toshbaqalar burishib, xunuk bo'yinlarini o'tlarga cho'zadi, qo'ng'izlar esa orqalariga qarab yurib, tezakdan yasagan qumaloqlarini allaqayoqqa yumalata-di. Qizg'ish-qo'ng'ir bir ilon o't orasidan o'rmalab kelib, atrofni tomosha qilayotgandek qaqqayib qolgan yumronqoziqqa tashlanadi, qushlarga o'xshab chirqillab turgan kaltakesaklar qo'rqib ketib oyoqlari bilan qumloq yerni ikki yonlariga chiqarib, tuproq ostiga yashirinadi. Ba'zan ovullar yaqinidan ko'kraklari oppoq sayg'oqlar gala-gala bo'lib chopib o'tadi, yer gumburlab ketadi" [13].

Keyin esa qabilada to'y haqida gap boradi: "Yoshlar mehmonlarga joy hozirlamoqda, ayollar ovqat pishirmoqda, yangalar o'tov xizmatini o'taydigan uzun soyabon aravalarni bezatmoqda..." degan jumlar bilan tugaydi [13]. Tasvirda bu xalqning jamoa bo'lib yashashi, ahilligi, o'zaro teng ekanligiga ishora qilinadi.

Umuman olganda, birinchi qismda To'maris va u boshqarayotgan jamiyat tasviri beriladi. Ikkinchi qismda esa Eron shohi va uning qo'shinidagi muhit tasvirlanadi. Oxirgi qismda esa ikki o'rtadagi jang va To'maris boshchiligidagi qabilalar g'alabasi keltiriladi. Natijada To'maris va uning jasorati haqidagi mavzu yurtda kurashchanlik, ozodlik, jasurlik, vatanparvarlik kabi

qator ijtimoiy g'oya va ijtimoiy masalalarni badiiy aks etishiga xizmat qilgan ko'rinadi.

H.Xudoyberdiyeva esa o'z she'rida To'maris mavzusini ayollarni jasur bo'lishga undovchi vosita sifatida keltirgan:

*Qadim hayot yo'llarida
Ko'pdir zoti – ayol, bas.
To'marisning qo'llaridan
Tug' olmagan ayolmas.²⁹*

Bu yerda To'maris kabi kurashchan bo'lishga, jamiyatni olg'a boshlovchi kuchga aylanishga chorlov bor. Millat bayrog'ini To'marisdan qabul qilib, uni baland ko'tarish shartligi ta'kidlangan. To'maris adolatsizlikka qarshi kurashuvchi, milliy o'zlikni anglovchi sifatida tasvirlangan.

Xurshid Davron qalamiga mansub "To'marisning ko'zlari" olti misradan iborat:

*Bir kuni qop-qora, sovuq so'qmoqda,
O'ngimda bo'larsan birdan namoyon –
Ota-onasini yarim kechasi
Bo'g'ib o'ldirarkan yog'iylar pinhon,
Shovqindan uyg'onib ketgan bolaning
Ko'zlari misoli chaqnab qahrdan...*

Bir qarashda bu yerda To'maris haqida so'z bormayotgandek tuyuladi, lekin sarlavha "To'marisning ko'zlari" deb nomlangani, bu yerda aynan To'marisning, ya'ni farzandidan ayrilgan, yurtiga dushman bostirib kirgan, qalbi alam va nafratdan yumilmaydigan, yuraklarni ezadigan, or-nomusni qo'zg'atadi-

²⁹ Худойбердиева Ҳ. Тўмариснинг айтгани. Шеър. –Т. Чўлпон,1996. –Б.142.

gan koʻzqarashga toʻla ekanligini tushunish mumkin. Lirik qahramon koʻz detali orqali ilojsizligini anglagan, fojeani sezgan va kurashga otlangan bolaning badiiy ifodasini yaratgan va uni “Toʻmarisning koʻzlari” deb nomlagan. Sheʼrdagi “qop-qora, sovuq soʻqmoq” milliy oʻzligini bilmasdan, adashib yurgan odam uchun Toʻmarisning tarix zarvaraqlari osha chaqnab turgan koʻzlarigina odamni Vatan mustaqilligi uchun kurashga, oʻzligini anglashga undaydi.

Toʻmaris, umuman olganda, har qanday tarixiy shaxs va tarixiy voqea-hodisaga mavzu sifatida olinishi hamda ijodkorning badiiy-ijodiy niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Masalan, milliy oʻzlikni anglash, yosh avlod qalbida ulugʻ tariximizga hurmat hissini shakllantirish shu yoʻl bilan mustaqil jamiyat qurishga intilish maqsadida xalq shoiri Xurshid Davron “Massagetlar malikasi va forslar podshohi” nomli badiyasini yaratgan. Asarning oʻzi ikki qismdan iborat. Birinchi qismi “Afsona va haqiqat” deyiladi va unda qadimgi Eron, massagetlar tarixiga oid maʼlumotlar keltiriladi. Bunda u grek olimi Strabon (*Strabon. Geografiya. (eramizdan old. I asr. – era. I asri) /Strabon, 2004, s. 314, per. G.A. Stratanovskogo*), Yuliy Fronton (*Yuliy Frontin. «Военные хитрости» (kon. I – nach. II vv. n.e.), Iordon ((Drevnie avtory o Sredney Azii, 1940, s. 30, per. pod red. L.V. Bajenova). <http://ancientrome.ru/antilitr>*) asarlaridagi maʼlumotlardan foydalangan.

Badianing ikkinchi qismi “Qon toʻla mesh va kesilgan bosh” boʻlib, unda Kaspiyning sharqiy tomonidagi kengliklarda darvo borligi va uning boʻylarida yashaydigan qabilalar, ularning turmush tarzi, kiyinishi, urf-odatlar haqida maʼlumot keltirib, Toʻmarisning obrazini yaratadi. Unda Toʻmaris endi sarkarda, jangchi ayol, vatanparvar shaxs sifatida namoyon boʻladi. Qatʼiyati va sovuqqonlik bilan qaror qabul qilishi orqali uning

xarakteriga oid ma'lumotlar beriladi. Ko'rinadiki, badii mavzusi voqealar davomida bosh qahramon xarakteri, asar kompozitsiyasiga ham ta'sir etadi.

Yuqoridagi manbalardan ma'lum bo'lyaptiki, tarixiy mavzu hikoya, esse, roman, qissa, tavsifiy lirika kabi janrlarda ham ifoda etilishi mumkin. Bunda ijodkorning badiiy niyati muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida asar uchun janr tanlash, kompozitsiya yaratish masalalariga ham ta'sir etadi. Natijada bir hil mavzu turli badiiy-estetik maqsadlarda turfa shakl (janr)ga tushadi.

Umuman olganda, To'maris tarixiy mavzusi turli ijodkorda turlicha ifoda etilgan. Ularni tahlil etishda, asosan, asarning mavzusi (yoki tematika chizig'i)ni belgilab olish muhim hisoblanadi. Bunda bir mavzu atrofida bir nechta obrazlar, asar kompozitsiyasi birlashib ketgan bo'ladi. Masalan, yuqoridagi keltirilgan Mirkarim Osim qissasida To'maris tarixiy mavzusi atrofida peyzaj, milliy marosim, dushman holati, elchilar tashrifi, jang tasviri kabi kartinalar birlashib, To'maris va uning oqilona boshqaruvi, jasorati haqidagi tarixiy mavzuni yanada yorqinroq aks ettirgan. Chunki yozuvchi o'zini qiynayotgan bir qator ijtimoiy muammolarni badiiy idrok etishda obrazlar xarakteri, voqea yuz bergan joy, vaziyat mantig'i kabi ilmiy talablarga amal qiladi.

Xullas, badiiy asar mavzu (tematika)sini motiv, obraz, kompozitsiya kabi badiiylik masalalari bilan yaxlitlikda tahlil etish va asarni qayta qayta o'qib, teran tushunish natijasida amalga oshadi.

Nazorat savollari:

1. Mavzu atamasining lug'aviy ma'nosini bilasizmi?
2. Mavzuning terminologik ma'nosini ayting.

3. Tematika deganda nimani tushunasiz?
4. Mavzu turlaridan qaysilarini bilasiz?
5. Asarni tematik tahlilida boshqa poetik unsurlarning o'rnini qanday bo'ladi?
6. Mavzu tahlilida badiiy obraz ahamiyatini qanday tushunasiz?
7. Motiv va mavzuning aloqasini ko'rsating.
8. Mavzu va syujetning o'xshash va farqli tomonlari nimada?

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

1. Tema atamasiga berilgan ta'riflarni o'quv-metodik, ilmiy-ma'lumotnoma, manbaa (darslik, o'quv qo'llanma lug'at) konspekt qiling.
2. Tarixiy roman tematikasini tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Wimsatt W.K., The Structure of the Concrete Universal /Literary theory, an anthology / edited by Julie Rivkin and Michael Ryan. –2nd ed. Second edition published 2004 by Blackwell Publishing Ltd, 2004. –1334 p.
2. Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: "Nurafshon business, 2021. –344 б.
3. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: Учебное пособие. –3-е изд. –М.: Флинта, Наука, 2000. – 248 с.
4. Икромхонова Ф. И. Ўзбек ва инглиз насрида тарихий асарлар поэтикаси (композиция, образ). Филология фанлари доктори ... диссер. –Тошкент, 2021. –255 б.
5. Қуროнов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 20130. –408 б.
6. Хализев, В. Е. Теория литературы: Учебник. –4-е изд., испр.и доп. –М.: Высш. шк., 2013. –415 с.

6-MAVZU: MUAMMOLAR TIZIMI TAHLILI

Reja:

1. Muammo tushunchasi haqida ma'lumot
2. Badiiy asarda muammolar tizimi
3. Muammoning tiplari
4. Badiiy asardagi muammoni tahlil etish usullari
5. Ma'naviy-axloqiy muammolar tahlili

Tayanch so'z va iboralar: *muammo, problematika, hikoya, she'r, mazmuniy komponent, mavzu, g'oya, obraz.*

Ma'lumki, badiiy asar mazmunining muhim tarkibiy qismlaridan biri muammo hisoblanadi. Har qanday badiiy asarda turli darajada muammo yoritiladi. Chunki muallifni qiynagan ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy, diniy maishiy tarixiy, milliy madaniy kabi turdagi muammolar uni qalam olishga va o'z niyati, g'oyasini va muammosini turli mavzular orqali ifodalashga undaydi.

Muammo deganda, (aslida u umumfalsafiy kategoriya bo'lib, barcha fanlarda qo'llanadi) javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan, yechish usuli noma'lum bo'lgan, ammo yechilishi usuli va yo'llari izlanayotgan masala tushuniladi. Muammoga yechim yo'qligi ijodkor (tahlilchi)dan badiiy tadqiq va tahlil usullarini yangicha yo'sinda tashkillashtirishni, yangicha ijodiy yondashuvni, mavjud metodlardan chetga chiqishni, yangisini izlashni taqozo etadi. Shuning uchun ijodkor har gal yangi asar yozayotganda borliqni qayta idrok etadi, borliqqa o'zining mualliflik konsepsiyasi va shaxsiy kechinmalaridan kelib chiqib

yondashadi. Natijada hamma biladigan, masalan, ko'klam mavzusini olaylik, bir shoirning o'zida turlicha muammoni ifodalashi mumkin. Nima uchun aynan ko'klam mavzusiga murojaat qilinganining o'zi bir muammo bo'lsa, uning bir tomoni yoki hech ilg'anmagan jihatlari olinishining o'zi yana bir muammo sanaladi.

Badiiy asar tahlilida mazmunning alohida komponenti bo'lgan muammolar tizimi (problematika) bo'lishi zarurligini ta'kidlar ekanmiz, muammoning ifodasi hamma vaqt ham ochiq bo'lmasligini qayd etamiz. Ayniqsa, lirik asarlarda muammolar ishora qilish bilan ko'rsatiladi. Nasriy asarlarda esa nisbatan yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Ko'rinadiki, muammoda muallifning ijodiy niyati, ijodiy konsepsiyasi va subyektiv olami mavzu, g'oyaga nisbatan teranroq namoyon bo'ladi. Bu esa muammoning mazmun tarkibiy qismlari ichida ajralib turishini ta'minlaydi. Chunki muammo ijodkorning borliqqa, tasvir predmetiga subyektiv yondashuvi, individual qarashi va yangicha vazifa yuklashini ta'minlaydi. Masalan, Erkin Vohidovning "Armon" she'rini olaylik.

*Kecha kerak bo'lding,
Bolalik chog'im!
Senga qo'l uzatdim.
Yo'q yetolmadim,
Oshkora g'irromlik qildi
O'rtog'im, –
Men: bor, o'ynamayman,
Deb ketolmadim...*³⁰

³⁰ Воҳидов Эркин. Шеър дунёси. Сайланма. Иккинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.89.

She'ring mavzusi katta bo'lganda xiyonatni kechirolmasdan armon bilan yashayotgan odam haqida, unda ko'tarilgan muammo esa insonni tushunish og'irligi, xiyonatni kechirolmaslik, armon bilan qanday yashash kerakligi kabi muammolarni qamrab oladi. Lirik subyekt bolalik chog'iga murojaat qilgan ekan, o'sha chog' yaqin do'sti g'irromlik qilsa, bor sen bilan o'ynamayman, deb ketaverishi mumkinligini eslaydi. Chunki bugun unga yaqin kishilari g'irromlik qildi, uni aldashdi, endi ular bilan birga ishlagisi, birga yashagisi va hatto, ko'rgisi kelmayapti. Unga xiyonat qilishdi, sirini, ojiz joyini bilganlar unga azob berishdi. Lekin bor sen bilan yasholmayman, ishlolmayman, deb aytolmaydi, boshqa joyga ko'chib ketolmaydi.

Bu yerda muammo inson tabiatidagi nuqsonlarni tozalash, uni qanday bo'lsa, shunday qabul qilish shartligi, insonni xato, kamchiligi bilan qabul qila bilmaslik muammolari ham bor. Bular barcha lirik obrazning subyektiv kechinmalari sifatida berilgan. Ko'rinadiki, kichik she'rda ham bir nechta muammo mavjud. Ular birlashib yaxlit tizimni tashkil etadi. Bu esa problematika deyiladi. U bir tomondan mavzuga yaqin, ammo undan farq qiladi. Bu, avvalo, muammoning ma'lum mavzu asosiga yashiringani bilan izohlanadi. Ikkinchidan mavzu nisbatan umumiyroq, muammo esa nisbatan subyektivroq xususiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham bitta mavzuda ko'pchilik shoir she'r yozishi mumkin, ammo uning zamiriga singdirilgan muammo individual bo'ladi.

Tahlillardan ayon bo'ladiki, problematika badiiy asarning mazmuniy sifati va obrazli ifodasiga ham ta'sir etadi. Muammo qanchalik keskin, dolzabr bo'lsa, ifoda ham shuncha keskin va yorqin bo'lishi mumkin. Masalan, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida shaxsning o'z haqqini bilmasligi, ma'naviy ojizligi, amaldorlarning insofsizligi, poraxo'rlik kabi ijtimoiy muammo-

lar dolzarbligi aks ettirilgan. Bunda yozuvchi qator maqol, matal, qanotli so'zlar orqali muammolarning nutqdagi keskinligini, o'z navbatida, hikoyadagi konfliktning teranligini ta'minlagan. Bu bir tomondan yozuvchining ijodiy o'ziga xosligini ta'minlaydi deyish to'g'ri, ammo muammoning yorqin ifodasi uchun ham xizmat qilgan. To'g'ri, bu xarakterlar orqali ochib berilgan. Shu yerda muammo va obraz munosabatining ahamiyati ham salmoqli ekanligini e'tirof etish kerak.

Aslida badiiy asarda muammo nisbatan kamroq yoki kuchsizroq bo'lsa, uning estetik qiymati ham pastroq hisoblanadi. Muammosizlik asar badiiy saviyasini pasaytirib yuboradi. Bu go'yoki, maqsadsiz suhbat qurishdek taassurot qoldiradi. Shuning uchun, muammo nazariyasi, badiiy-estetik funksiyasini bilish muhim sanaladi. Aslida mazmunning muhim qismi sifatida muammo asar kompozitsiyasini tashkil etish, syujet qismlari joylashuvi, konflikt, obraz mohiyatini ochishdagi o'rni katta ekanligi aksariyat manbalarda ta'kidlangan, ammo muammoni tiplarga ajratish masalasi yetarli darajada hal etilmagan. Bu borada, Xususan, A.Esin ishlarida qayd etilgan. O'zbek adabiyotshunosligida so'nggi yillarda muammo tasniflanmagan: "mifologik", "milliy-tarixiy", "axloqiy" va "romantik" muammo kabi tiplari borligi qayd etilgan.

Lekin biz bu yerda asardagi muammoni tahlil etish muammosini ham qo'yamizki, bu asar tahlilidagi birinchi vazifaga kiradi. Chunki muammolarni aniqlashda asar yaratilishidan boshlab, uni qabul qilinishi va talqinlari ham salmoqli o'ringa ega. Asar mazmuni va unda yoritilgan muammoga qarab turlicha tahlil metodi va usullarini qo'llash mumkin. Masalan, qiyosiy metodning tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik usullari bir asarni boshqa ijodkor yoki xalq adabiyoti namunasi bilan solishtirishda yaxshi samara beradi. Bunda ularda ko'tarilgan mu-

ammoga diqqat qilinadi. Masalan, Uilyam Folknerning “Shovqin va g’azab” romanidagi oilaviy muammolarning yoritilishi, milliy-maishiy muammolar tizimi O’tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidagi maishiy muammolar bilan solishtirish orqali AQSH va O’zbekiston oilalarining o’xshash va farqli jihatlarini, ulardagi oilaviy qadriyat, erkak va xotin kishi, qiz va o’g’il o’rtasidagi o’zaro munosabatlar, sevgi, sadoqat, oilaviy qadriyatni shakllantirish, farzandning jamiyatda o’z o’rnini topishi kabi muammolar har ikkala asarda ham borligi, ammo ular ifodasida farqli jihatlar mavjudligini ko’ramiz.

Agar keltirilgan ikki roman alohida olib tahlil qilinganda ijtimoiy, biografik, struktural metodlar orqali muammoning badiiy-estetik funksiyasini ochish mumkin.

Tahlil jarayonida asardagi muammoni aniqlagandan keyin, hayotning aynan qaysi jihatlarini ijodkorni to’lqinlantirgani, uni qaysi jihatlarini qay tarzda yoritishga kirishganini aniqlash mumkin. Bunda asar turi va janri ham katta o’ringa ega. Xususan, lirik she’rda muammo detallar, ishoralar orqali yuzaga chiqsa, epik asarlarda, jumladan, hikoya, qissa, romanlarda nisbatan batafsilroq tasvir yoki personajlar faoliyati natijasida anglanadi. Bunda tahlil usullarining ham eng maqbulini tanlash shart bo’ladi. Masalan, O’lmas Umarbekovning “Yoz yomg’iri” qissasi shunday boshlanadi: “Bu kun, 197... yilning 22 avgust, tramvay haydovchi qiz Munira Shayxuddinova xotirasidan umr bo’yi o’chmaydi...”³¹ Mazkur parchada yozuvchi Munira Shayxuddinova ismli qizning kasbi, ish joyi va uning “*xotirasidan umr bo’yi o’chmaydi*” degan jumlaning keltirib, ayolning xarakter qirrasini tasvirlashni boshlaydi. Chunki bu yerdagi muammo

³¹ Умарбеков Ўлмас. Танланган асарлар. Уч жилдлик, 2-жилд. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б.148. Keyingi o’rinlarda katta qavsda kitob sahifasi ko’rsatiladi.

jamiyatda ayolning o'rne nisbatan pastroq, ular tramvay haydashi mumkin emasdek tuyulgan davrda ayolning qobiliyatini ko'rsatish bo'lgan. Buni qahramonning xarakteri orqali yetkazgan. Chunki har bir odamning boshqalarga o'xshamaydigan o'ziga xos yurish-turishi, fikrlash tarzi, kasbi, yashash tarzi kabilar bilan bog'liq xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan jihatlari xarakterida ko'rinadi. Masalan, yuqoridagi parchada Munira-ning erkaklar kasbini tanlashi (tramvay haydovchisi) uning xarakteridagi qat'iyatlilik, tezkor qaror qabul qila olish, hayotga teran nigo bilan qarash kabi fazilatlarga ishora qiladi. Buni quyidagi tasvirdan bilib olish mumkin: "Munira parkdan tramvayni chinqiratib haydab chiqdi-da, Chorsu aylanmasidagi birinchi bekatda to'xtatdi. Bekatda deyarli odam yo'q edi. Vagonga atigi bitta yo'lovchi ko'tarildi. Bu yo'lovchilar kiyimidagi shopmo'ylov, o'rta yashar bir kishi edi. Qo'lida katta qora sumka. Munira har smenasida uni ko'rar edi"[148].

Yosh qiz deganda, odatda, go'zal, nozik, tajribasizdek tuyiluvchi, muloyim qiz tushuniladi. Bu yerda esa yolg'iz o'zi smenali ishda haydovchi bo'lib ishlaydigan, katta, qo'pol, buning ustiga avtobusdan ham uzun temir aravaning g'ildiraklarini chinqiratib, shahar o'rtasida aylanayotgan ayol tasviri beriladiki, unda ayolning tong saharda dam olayotgan odamlarning tinchini buzishdan cho'chimaydigan qiz, kurashga, qaynoq hayot kurashiga chorlayotgandek tuyuladi. Bizning tasavvurimizda ayol tong kabi musaffo, toza, ibo-hayoli, boshida ro'moli, egnida esa uzun ko'ylak bilan ko'chayu, hovlini supurib, suvlar sepib, sut-qattiqni ertalabdan pishirib, nonushta tayyorlaydigan qiyofada bo'lishi odatiy hol bo'lib qolgan. Lekin qissada ayol xakteri-ning bunday talqini XX asrning 70-yillaridagi kishilar turmush tarzi bilan bog'liq bo'lib, bugungi kun uchun ham yangilik emas deyish mumkin. Lekin bunday mulohazalar bilan Munirani bu-

tunlay qo'pol, diydasi qattiq, shafqatsiz odamga chiqarmaslik kerak. Asardagi bosh qahramonlar boshqa kishilar lekin har bir obrazda ham xarakerning u yoki bu qirrasini namoyon bo'lishini nazarda tutsak, Munira va uning Munisa ismli ayolning o'ldirilgan murdasini butalar ichidan topishida, asar kompozitsiyasida katta o'rni bor. Keyinchalik ham uni ishki ishlar bo'limiga guvoh sifatida chaqirishadi. U ko'rgan-bilganlarini to'g'ri va aniq bayon qiladi. Shu xarakterlari bilan u hayotga yengil ko'z bilan qaraydigan Munisaxonga nisbatan o'zining oqila, mehnatkash, qat'iyatli, to'g'riso'z, hayot qiyinchiliklaridan qo'rqmaydigan qiz ekanligini namoyon etadi. Demak ayolning qat'iyati, irodasi uning baxtiga, hayotda o'rnini topishiga yordam berishi, buning aksi bo'lsa, inson umri zavol topishi yetakchi muammo sifatida badiiy aks ettirilgan.

Aslida muammo mazmunning boshqa komponentlari bilan birgalikda yaxshiroq yuzaga chiqadi. Ayniqsa, asar g'oyasi yaratilayotgan badiiy olamni ifodalash, aniq shaklga solishda ijodiy qaror qabul qilishning asosiy, yakunlovchi bosqichi bo'ladi. Bunda ifoda etilayotgan muammolar tizimi voqelikka muallif bahosi, muallif pozitsiyasi, muallif idealidan kelib chiqib aks ettiriladi. Shu yerda uning ijtimoiy yoki maishiy yoxud ma'naviy-axloqiy kabi turlarga ajratish imkoni yuzaga keladi. Masalan, Sh. Bo'tayevning "Qarz" hikoyasida bir maishiy muammo orqali jamiyat ma'naviy-axloqiy muammosi, kishilarning ilojsizligi, mehrsizligi haqidagi ijtimoiy muammolar tilga olinadi. Muammolar tizimi keskinligidan muallif hikoyani bevosita savoldan boshlaydi. Bu ham muammo va kompozitsiya munosabatidagi o'ziga xos yechim sifatida baholanishi mumkin:

“ – Bo'ldimi? Shiftini is bosgan, devor va unda-bunda osilgan latta-puttalar qurumdan qoraygan uyda, burchakdagi eski ko'rpachaga yonboshlagancha shopiyolaga choy quyayotgan el-

lik yoshlardagi qop-qora kishi o'ziga-o'zi savol berayotgandek so'radi"³².

Keltirilgan havoladagi birinchi so'z aslida bitta gapga teng bo'lib, mohiyatan oldinda bir qator muammolar borligiga ishora qiladi. Bu avvalo, asar qahramonining maishiy muammosi, farzandini shaharga, o'qishiga yetib olishi uchun pul qarz olish muammosi bo'lsa, keyinchalik er va xotin o'rtasidagi nosog'lom muhit, qo'shnilar bilan ijtimoiy munosabatlar ochila boradi. Natijada mavzu-muammo va hikoya kompozitsiyasini yaratishdagi ilmiy-nazariy muammolar sekin-astalik bilan yechib boriladi. Masalan, dastlab hikoya kompozitsiyasining qurilishida so'roq gap va parallel usulidan foydalanilgan bo'lsa, keyinchalik er, xotin va ularning o'g'li Jabborqulning portretlari vaziyat nuqtai nazari bilan tasvirlanadi.

Erning portreti: Uning egkada har joy-har joyiga lasdan yamoq tushgan jemper, paxtalik shim; jiyagining yag'iri chiqib ketgan do'ppini peshonasining bir tomoniga qiya qo'ndirib olgani – notavon ko'ngliga qo'tir jomashov, unga oliftanamo bir tus bag'ishlaydi".

Xotin tasviri: "Bir-ikki kunlik dam olishga kelgan o'g'lini ko'ngildagidek kuzatishga harakat qilib, uning atrofida girdi kapalak bo'lganicha timirskilanib yurgan ayol ilkis boshini burib eriga qaradi. Uning bamayilxotirlik bilan savol berib, hech nima ko'rmagandek shopiyoladagi ivigan qora nonni og'ziga tiqib, ikki lunjini to'ldirib olgani ayolning avzoyini buzdi. U negadir ostonaga yaqin borib o'tirdi-da: – Bo'ldi-i! – dedi to'rsillab".

Jabborqul tasviri: "Yelkaga osib yuriladigan sumkaga non, olma, nok, turshak, shunga o'xshash bir-ikki haftalik yemishlarini joylab bo'lgan talaba – o'n yeti-o'n sakkiz yoshlardagi yigitcha husnbuzar tosha boshlagan iyagini qashib, gunoh ish ustida

³² Бўтаев Ш. Кўчада қолган овоз. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 207-221.

qo'lga tushganday boshini egdi, "shulq" etkazib burnini tortib qo'ydi".

Yuqoridagi parchalardan ko'rinadiki, hikoyadagi katta muammo pul emas, balki kishilarning hayotlaridan ro'shnolik ko'rmagani va bu hol oilaviy ahillikka ham soya solayotgani haqidagi fikr hisoblanadi. Oila, qishloq kishilari ruhida notinchlik, allaqanday xavotir borligiga ishora qiladi. Kishilar chorasizlik, yo'qchilik, kambag'allik, qashshoqlikdan qiynalib yashayotganini ko'ramiz.

Uchala portret ham oiladagi umumiy vaziyat va hikoyaning uchta bosh qahramonining xarakterini ochib bergan.

Hikoya davomida er xayolan turli kishilar bilan munosabatini qayta tahlil qiladi. Bunda monologik nutqdan foydalandi. Natijada erkak va qishloqdoshlar o'rtasidagi subyektiv munosabat oydinlashadi. Ilashvoy bilan bir paytlar hamkasb bo'lgani, o'shanda hamma narsa samimiylikka qurilganini eslab, bugun u boyib ketib, boshqalarga pastroq nazar bilan qarashini eslaydi va undan qarz so'rashdan voz kechadi. Shu tariqa bir qator ijtimoiy muammo, ya'ni kishilar o'rtasida samimiylik, beg'araz munosabat tanqislashganini bayon etadi.

Hikoyada badiiy ifodalangan kambag'allik, ilmsizlik kabi ijtimoiy muammolar xudbinlik, xasislik, ichiqoralik, johillik, madaniyatsizlik kabi bir qator ma'naviy-axloqiy muammolar bilan uyg'unlikda tasvirlangan. Bu esa hikoyadagi personajlarning umuminsoniyatga tegishli bo'lgan yuksak etik (axloqiy), estetik mezonlar va ideallarni tushunmasligini ham ko'rsatadi.

To'g'ri ota hikoya oxirida qarzga pul topadi va Jabborqul shaharga ketadi. Lekin bu yerdagi eng katta muammo odamlar o'rtasidagi ishonchsizlik, hamdard topilmasligini badiiy ifodalaydi.

Umuman olganda, badiiy asar tahlilida muallif olib chiqqan muammoni to'g'ri belgilab olish hamda zarur tahlil usullarini qo'llash, asar mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Badiiy asardagi muammo degandan nimani tushunasiz?
2. Badiiy problematika nima?
3. Nima uchun muammo mazmunning asosiy komponenti hisoblanadi?
4. Muammo va obraz o'rtasidagi aloqadorlik nimalarda ko'rinadi?
5. Muammo va syujet o'rtasidagi bog'liqlik qanday ahamiyatga ega?
6. Muammo va mavzu bog'liqligi hamda farqlarini ayting.
7. Badiiy muammoning ijtimoiy muammo bilan farqini ayting.
8. Muammo tiplarini sanang.

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

Nabi Jaloliddinning "Bayroq" va "Erkagi bor uy" nomli hikoyalari-dagi muammolar tizimini aniqlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: Учебное пособие. – 3-е изд. –М.: Флинта, Наука, 2000. – 248 с.
2. Йўлдош, Қозоқбой, Йўлдош, Муҳайё. Бадий асар таҳлил асослари. – Тошкент: Kamalak, 2016 – 464 б.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 413 б.
4. Коллектив. Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, Шарқ, 2004. – 492 б.
5. Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н.Николюкина. М.: НПК «Интелвак», 2001. –1600 стб.
6. Cuddon, J. A. A dictionary of literary terms and literary theory /– 5th ed. – London: Wiley Blackwell, 2013. – 801 p. www.atibook.ir.

7-MAVZU: TASVIRLANAYOTGAN OLAM

Reja:

1. Tasvirlanayotgan olam tushunchasi
2. Peyzaj: interyer, eksteryer
3. Portret: dinamok tasvir, statik portret
4. Tasvir va badiiy g'oya
5. Badiiy makon va vaqt

Tayanch so'z va iboralar: *peyzaj, interyer, eksterer, portret, detal, g'oya, obraz, topoxronos, xronotop, badiiy makon va vaqt.*

Ma'lumki, badiiy asar real olam in'ikosi hisoblanadi. Har qanday ijodkor o'zi yaratayotgan badiiy asarda aniq olamni tasvirlaydi. Unda olamning boshqalar ko'rmagan, e'tibor qilmagan jihatlarini ifodalashga harakat qiladi. Shu yo'l bilan o'zining badiiy estetik qarashlarini o'quvchiga yetkazadi.

Tasvirlanayotgan olam deganda, asarda biz ko'radigan olamning shartli kartinasi nazarda tushilishi, yozuvchi, shoir odamlar, tabiat va undagi narsalarni, kishilar xatti-harakatini, o'y-fikrini tasvirlashi nazarda tutiladi. Badiiy asarda go'yoki real borliqning kichik modeli yaratiladi. Ammo bu model har bir ijodkorda o'ziga xos tarzda yuzaga chiqadi. Bunda asardagi makon va zamon munosabatlari, topoxronos va xronotop, an'ana va novatorlik, shakl va mazmun kabi tushunchalar ham ahamiyatli ekanligini unutmaslik kerak.

Tasvirdagi badiiy reallik yoki asar detali ma'lum badiiy detallar, peyzaj, portretlardan tuziladi, ularni ifodalashda esa yozuvchining psixologiyasi yuzaga chiqishi ko'rinadi. Masalan,

Xurshid Do'stmuhammadning "Saf" hikoyasida Rayim cholning deyarli tengdoshi G'ulom otanikiga ketayotib safda, odamlar orasida o'zini tutishga oid taomilga qarab qishloq, jamoa psixologiyasi, ba'zan esa takabbur, manmansiragan odamlar ichki dunyosi ochib beriladi. Bir qarashda hamma biladigan va ko'nikkan jarayon – to'y yoki sovuq ma'arakaga qo'ni-qo'shnilarining to'planib, oldinda yoshi kattalar, keyinroqda o'rta yoshdagilar, oxirida esa hurmat yuzasidan yoshlar tizilib, o'ziga xos saf bo'lib yurish xalq psixologiyasining umumiy ko'rinishidir.

"Hali tong bo'zarmay Rayim cholning uyqusi qochdi. U imillab-simillab kiyindi-da, ko'chaga chiqdi. Shunday kunlarda g'af-lat bosib uxlab qolsa yoki uyg'onsa va darvozadan chiqishga hayallasa, subhi sodiq sokinligini buzib, darrov chaqirishadi:

– Oshga-a-o'!..

Uning qulog'iga bu – "Safga-a-a!" degandek eshitiladi.³³

Berilgan parcha hikoya ekspozitsiyasi bo'lib, unda Rayim chol turmush tarzi va psixologiyasida assotsiativ fikrlash natijasida kun tartibiga aylangan psixologik hodisa: "oshga – safga" berilgan.

Shuningdek, hikoyada oddiy tasvir orqali Rayim chol psixologiyasi va jismidagi o'zgarishlar orqali inson umrining ikki qismi o'zaro qiyoslanadi: "Rayim chol keyingi paytlarda tetapoya boladek, atak-chechak yuradigan bo'lib qolgan"[82]. Yozuvchi shu yerda go'dak va kekxa kishining qiynalib yurishini "tetapoya boladek, atak-chechak yuradigan" jumlasini orqali aniq tasvirlagan. Ana shu tasvirda rassomlarga xos aniqlik va yorqinlik hamda ijodkor psixologiyasidagi birlik ko'zga tashlanadi. Chunki ijodkor o'z xalqi va zamonasining vakili sifatida Rayim chol ichki dunyosini tasvirlar ekan, uning psixologiyasini ham ochib

³³ Хуршид Дўстмуҳаммад. Беозор қушнинг қарғиши. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.82-бет. (Кейин катта қавсда саҳифа берилади.)

beradi: “Atak-chechakdan boshlangan dunyo yana shu tarzda yakunlanishini u ich-ichidan his qilar, kunda-kunora darvozasidan qo’shaloq simyog’ochgacha – qo’shnilar to’planadigan joygacha bo’lgan masofani bosib o’tar ekan, shuurida nimadir oydinlashayotgandek bo’lar edi. Ba’zan masofani umrining o’lchoviga, safdagi o’rnini esa shu o’lchovga bosilgan muhrga o’xshatardi” [82]. Rayim chol idrokidagi ana shu mulohaza aslida monologik nutq bo’lib, u Rayim cholning psixologik holatini bir nechta bosqichda ochgan. Bu o’z-o’zini nazorat qilish, hayotidagi holati va niyatidan umriga baho berish, harakatga xulosaviy yakun yasash kabi bosqichlarga ega. Boshqa tomondan esa yozuvchi Rayim cholni sahar turib qo’shnilar bilan marakaga borish uchun ko’chaga turli o’y-fikrlar va kuzatish orqali chiqishi orqali inson hayotiga badiiy-estetik baho ham bergan. Ana shu jarayonda Rayim chol ajdodlari taqdirini, o’z hayotini va keyingi avlod psixologiyasini ishonarli tarzda ochgan.

“Qo’shnilar to’plangach, Rayim chol yonidagilarga birma-bir qaraydi, keyin yo’l boshlaydi. Mo’ysafidlarning peshonasidagi ajindek ilang-bilang saf cho’zilib yo’lga tushadi.

Uni Rayim chol boshqaradi. Ota beliga mador bo’lsin uchun qo’llarini orqasiga qilib yuradi ” [82]. Aynan shu yerda hikoyaning kulminatsiyon nuqtasiga chiqiladi va asar oxirida G’ulom otanikida safni kuzatish holatidagi yechim bilan tugaydi. Saf detali bu yerda asosiy badiiy g’oyani ochib beruvchi psixologik kod bo’lib, yozuvchi bu orqali butun xalqning dunyoqarashi, odamgarchilik taomilini, Rayim cholgacha bo’lgan saf boshliqlarining hayotini va Rayim cholning hayotiy amolini ochib bergan. Yozuvchi Rayim cholning ichki dunyosini yoritir ekan, uning g’ururi baland, mard va donishmand ekanligi ko’rsatiladi. Rayim cholgacha bu safni Orif bobo, Mahkam buva, Husan tog’a, Razzoq bobo, Rayim cholning otasi, Vahob chol kabilar

boshqargan. Bu kabi saf boshliqlarining norasmiy qatorini sanar ekan yozuvchi, avvalo, jamoa bo'lib yashaydigan xalqimizning yetakchilarini ular orqali esa an'anaga aylangan avlodlar almashinuvini ham beradi. Chunki har bir shaxs nomi ortida aniq oila va uning rahbari turadi. Saf esa shunchaki oddiy odamlar safi emas, unga kirish va undan imkon qadar munosib o'rin olish katta mas'uliyat talab qiladi. Bu safda daroz, o'rta bo'y, pakana, savlatli, suxanboz, ko'rimsiz, nasl-nasab, toparmon-tutarmonligidan qat'iy nazar hamma babobar. Hamma yoshiga ko'ra o'z joyini egallaydi. Bu joy mutassil ilgarilab boraveradi, orqadan o'rta, o'rtadan oldinga, saf boshiga o'tiladi, so'ngra safni tark etiladi. Bu ham o'ziga xos hayot maktabi. "Rayim chol safning oxirini hayotning boshlanishiga, qatorning boshini umr intihosiga, binobarin safni hayotning o'ziga qiyoslaydi" [84]. Yozuvchi shu tariqa Rayim chol xayolini, psixologiyasini ochib boraveradi. Hikoya so'ngida u iyagini xassasiga tiragancha safni kuzatib turgan holda odamlarning safda joylashishiga baho beradi va shu joyda asar tugaydi. Biroq uning mantiqiy davomi o'quvchi ichki dunyosida, ongida, miyasida davom etadi. Undan har kim o'z bilim, tajriba va niyatiga yarasha xulosa chiqaradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yozuvchi saf va uning shakllanishi, tarkib topishi hamda xalqimiz hayotidagi o'rnini tasvirlar ekan, birinchi galda xalq ijtimoiy qarashlarini badiiy jihatdan tasvirlaydi. Bunda Rayim cholning psixologik kayfiyati va tushunchasi muhim o'rin tutadi. Yozuvchi Rayim chol tasavvuri va saf misolida xalq birdamligi, avlodlar almashinuvi haqida badiiy g'oyani ifodalaydi. Demak, tasvirlanayotgan voqealik salmoqddor g'oyani yetkazmoqda.

Aslida tasvirlanayotgan har bir asar muallifning ma'lum bir g'oyasini ifodalashga xizmat qiladi. Shu ma'noda badiiy tasvir zamiridagi badiiy g'oyalar tizimiga ham alohida diqqat qilish

lozim. Chunki ijodkorlik intellektual faoliyat turi sifatida muallifning borliqni badiiy idrok etishi, muallif mansub millat, xalq badiiy-estetik idealining u yoki bu qirralarini namoyon etishi bilan ma'naviy mulkka daxldor sanaladi. Shu ma'noda kim qanday badiiy asar o'qishi yoki qaysi xalq qanday badiiy asar mutolaa qilishiga qarab uning badiiy did, saviyasiga baho beriladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani milliy mafkuraga ko'ra ozodlik g'oyasini, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani ozodlik, shaxs erki g'oyalarini o'quvchiga yetkazadi. Lekin ikkalasi ham ikki hil mavzuda tasvirlanadi.

Aslida "badiiy g'oya – badiiy mazmunning muhim komponenti bo'lib, asardan kelib chiqadigan obrazli, umumlashma fikrning mohiyatini aks ettiradi. Asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga muallifning hissiy-g'oyaviy munosabati, obrazlar sistemasi vositasida qo'yilgan problematikaning badiiy idrok etilishi va baholanishi (an'anaviylikka ham bog'liq) natijada namoyon bo'luvchi badiiy, hukm, xulosa sanaladi. Mazmunning o'zak komponenti sifatida g'oya har qanday asarda mavjud bo'ladi. Lekin mazmun-mohiyati, ko'lami, ifodalanish yo'sini kabi jihatlaridan farqlanadi"³⁴. Masalan, Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasining bosh badiiy g'oyasi milliy o'zlikni anglash bo'lsa, birinchi galda o'zbekka o'z ma'naviy qudratini anglatish yetakchi g'oya bo'lgan. Chunki she'r yaratilayotgan davrda o'zlikni anglash katta muammo sanalgan. Kishilar milliy tafakkur qilish, kiyinish, milliy urf-odatdan bir muncha yiroqlasha boshlagan, millat sifatida o'z ulug' tarixini unuta boshlagan. Shuning uchun, shoir xalq tarixining asosiy jihatlarini sanab ko'rsatgan. Turli detal-obrazlar orqali xalq o'tmishini tasvirlagan. Mazkur shoirning "Inson" qasidasida

³⁴ Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.395.

insonparvarlik, hayotsevarlik g'oyasi yetakchilik qiladi. Bu yerda esa haqiqiy insonga xos ma'naviy fazilatlar bilan birga insonning koinotga tanholigini, aql, bilim kuchi bilan odam istasa, boshqa sayyoraga ham yetish qudratiga egaligini, ammo insonning qadriga yetolmasligini bayon qiladi. Demak badiiy asarda tasvirlanayotgan olam birinchi galda ijtimoiy muammo va badiiy g'oya bilan bog'liq bo'ladi.

G'oya mavzu va obrazning mohiyatini belgilar ekan, hikoya zamiriga singdirilgan problematikani ham yechimiga yo'l ko'rsatishini ta'kidlash lozim. Unda tasvirlangan hayot material ko'lamidan kelib chiqib, g'oyaning ko'lami haqida gapirish mumkin. Masalan, Nabi Jaloliddinning "Bayroq" hikoyasida problematika ta'lim oluvchilar dargohida vataniy timsollarga befarq kishilar mavjudligi, yosh avlodning qalbidagi vatan tuyg'usini teran ochib, shakllantiradigan otaning bo'lishi, bayroqni ko'chada ko'tarib yurishga bolada dastlab paydo bo'lgan ikkilanish kabilar jamiyatimizning ijtimoiy muammolari sanaladi. Muallif uni to'g'ri va oddiy usul bilan hal etish yo'lini topgan. Bundan tashqari, bu yerda sifatli ta'lim, inson qadri, ota va farzand munosabati, yetuk badiiy filmning shaxs tarbiyasiga ta'siri kabi qator muammolar ham yoritilgan. Demak, Nabi Jaloliddin mazkur hikoyasidagi obraz va mavzu orqali vatanparvar bolalarni tarbiyalash muammosini, hayotsevarlik, vatanparvarlik, erkin shaxs g'oyalarini aks ettirgan.

Shu o'rinda yana bir narsani alohida aytish kerakki, bu o'ta muhimdir. Badiiy asardagi g'oya va uning poetikaning boshqa unsurlari, jumladan, mavzu, kompozitsiya, obraz, kechinma, muammolar tizimi kabilar bilan munosabatida mo'tadillik, me'yor zarur bo'ladi. Chunki asarda g'oyaga keragidan ortiq e'tibor qaratish asar badiiyatiga putur yetkazadi. Bu esa asarni g'oyaviy qurolga aylantirib, uni g'oyaviy tajovuzkor sohaga ay-

lantirishi va bu o'quvchilar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

Shu yerda g'oyaning ikki muhim jihati yuzaga chiqmoqda: 1) g'oyaning inson tafakkurida tug'ilishi bo'lsa, 2) uning inson ruhi, qalbiga ta'siri, 3) esa insonni harakatga undashi hisoblanadi.

Demak badiiy asardagi g'oya ham, avvalo, yozuvchi ongida vujudga keladi. Bu g'oyaning ijtimoiy mohiyatini bildiradi. Keyin esa ruhiyatga ta'siri yuzaga keladi. Bu jihat esa san'atga bog'liq bo'ladi. Oxirida har ikkalasi birlashib aniq badiiy-ijtimoiy faoliyat – asar yaratishga, ezgulik qilishga undaydi. Ana shu uch xususiyat badiiy g'oyaning asosiy me'yoriy belgilari sanaladi. Shu yerda badiiy asarning g'oyaviy olami ijodkor ongi, ruhiyati va ijodiy faoliyati bilan yaxlitlikda yuzaga chiqishi namoyon bo'ladi. Demak badiiy asar tahlilida g'oyaning ahamiyati katta bo'lishini va u turli mavzu, obraz, voqealar, personajlar harakati orqali yuzaga chiqishini ham qayd etish kerak.

Shuning uchun peyzaj, portret kabi badiiy tasvir usullaridan foydalanish qadim zamonlardan beri aniq badiiy g'oyani ifodalashda foydalaniladi. Chunki real voqelik aniq obyektiv vositalar, ayniqsa, peyzaj yoki portret orqali ifodalansa, obraz mohiyati, ichki va tashqi qiyofasi to'laroq namoyon bo'ladi, kechinma harakati va ularda aks ettirilayotgan makon yoki biror shaxs qiyofasi aniqroq yorqinroq tasvirlanadi.

*Daryo toshqin, suvlar to'liq, o'tolmayman, yor-yor,
Otim oriql, manzilmga yetolmayman, yor-yor.
Otginamni oriql qilgan shu mayda tosh, yor-yor,
Ranginamni sariql qilgan shu qalamqosh, yor-yor³⁵.*

³⁵ Халқ қўшиқларидан.

Xalq qo'shig'idan olingan ushbu bandeda dastlab peyzaj (*daryo toshqin, suvlar to'lqin, otim ori,q, manzil uzoq*), keyin esa portret (*ranginamni sariq qilgan*) yordamida lirik subyektning ruhiy holati o'zaro bog'liq ravishda yaxlit badiiy olam sifatida taqdim etilgan. Qizig'i, qo'shiqda lirik subyekt daryo (toshqin), suv (to'lqin)ning xususiyatlaridan o'zining chorasizligini ifodalashda foydalangan. Bu esa uning umr yo'li va qalbidagi tuyg'u to'lib toshgani, xayolidagi fikrlar o'zgarib turganiga ishora qilib, asardagi lirik voqelik va ruhiy holat parallel ravishda ochib berilgan. Bandedagi lirik kompozitsiyada daryo, so'ngra suv, tosh, otning lirik subyekt ichki kechinmasiga aloqasi ifodalanar ekan, umumiylikdan xususiylikka borilayotganini kuzatish mumkin.

Atoiyning quyidagi baytida ham portret orqali lirik syujet tasviri boshlanganiga guvoh bo'lish mumkin:

*Ul sanamki, suv yaqosinda paritek o'lturur,
G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo'lur*³⁶.

Mazkur bayt hayotiy kartinaning so'z yordamidagi ifodasi bo'lib, unda aniq makondagi mavjudlik lirik subyekt tuyg'ulari, ichki olamiga ta'sir etuvchi go'zallik sifatida olingan. Unda real hayotdagi sanam suv parisi haqidagi afsonada ta'riflangan pariga o'xshatilgan. Shu bilan sanamning g'oyatda nozik, tengsiz go'zal ekanligi ifodalangan. Atoiy go'zallikka intilish, go'zallikni anglash ma'lum estetik jarayon ekanligini ta'kidlar ekan, go'zallikni tushunishi uchun parining suv bo'yida paridek o'tirishi va uni suv bilan yutsa bo'lish mumkinligi haqidagi hayotiy voqelikning aniq tasvirini keltiradi. Bu ikki harakatga inson faoliyatining mahsuli sifatida real hayotda amalga oshishi mum-

³⁶ Хаёт васфи / Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва б. Масъул муҳарр. В.Раҳмонов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б.352.

kin, deb qaraladi. Shuning uchun ular badiiy tafakkurga jalb etilib, ularga yangi ma'no yuklangan. Ya'ni hayotda uchrashi mumkin bo'lgan suv parisi yoki go'zalligidan o'ta nozik ayolni suvga solib ichib yuborish borasidagi mubolag'aviy ifoda tilga olinadi. Go'zal ayolning o'ta nozik va ingichka qiyofasi bugungi davr badiiy-estetik qarashlarida u qadar ijobiy emasdir, ammo lirik qahramonning go'zalikka intilishi va uning chirovidan hayratlanib, uning bag'riga singib yoki uni o'z bag'riga singdirib yuborishga bo'lgan intilishi bugungi kunda ham uchraydigan hodisa sanaladi. Chunki go'zallik ma'nosi, mazmuni inson ruhi, qalbi va idrokini o'zgartirishga qodir kuch bo'lib, u o'zini anglagan va tushungan inson ruhiyati, joni va qalbida yangicha kechinma tadrijini shakllantiradi. Endi inson bevosi-ta shu go'zallikni anglagan vaqtigacha bo'lgan davrga nisbatan boshqacha fikrlaydi, his etadi va ko'radigan bo'ladi. Bunday gedonistik ta'sir badiiy asarlarga xos bo'lib, foydalaniladigan makoniy material bilan ayni lahzadagi ichki kechinma mutanosibligi yuzaga keladi.

Alisher Navoiy portret usuli orqali kichik she'rda obraz xarakterini ochish yo'li bilan ruboiy janri imkoniyatlarini kengaytirgan. Quyidagi ruboiyda portret orqali lirik qahramonning ruhiy holati, she'r pafosi yuqori ekanligi ifodalangan bo'lib, bu yerda ham ruhiy parallelizm mavjud:

*Ko'z bila qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi.
Yuz bilan so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi.
Eng birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi,
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog'ing yaxshi³⁷.*

³⁷ Navoiy Alisher. Qaro kuzim. – Toshkent: Fafur Fulom nomiдаги Adabiёт va san'at nashriёti, 1987. – B.765.

Mazkur ruboiyda lirik qahramon ma'shuqasi portretini sodda, ammo ta'sirli tarzda ifodalagan. Bunda uning ko'z, qoshi, labi, dudog'i, iyagi, yonog'i ta'riflanadi. Bundan tashqari, bu yerda yorning xarakteri, ochiq yuzliligi, ya'ni shirin so'zlashi ham keltirilgan.

Boshqa bir ruboiysida esa peyzaj yordamida boshiga tushgan fojea, ya'ni sevgan kishisining vafotini ifodalaydi:

*Yoshung'on emish qaro bulutqa mohim,
Gardunni sovurmog'lig' erur dilxohim.
Kirmish qaro tufroqqa quyoshdek shohim,
Nevchun qaro qilmasun quyoshni ohim?!³⁸*

Ruboiydagi oyning bulut bilan yopilishi va undan so'ng bo'ron turishi tabiat hodisasi sanaladi. Quyosh botgach ham olam zimiston bo'lib, hamma narsalar qora ko'rinadi. Shoir tabiatdagi ana shu hodisalarga ritorik savol, istiora, tashbih, mubolag'a orqali yangi ma'no yuklaydi. "Konkret she'rda u yoki bu ta'rifga mos keladigan san'atlar miqdori qancha bo'lishidan qat'iy nazar, asosiy e'tibor o'sha san'atlarning bajarayotgan estetik funksiyasiga qaratilishi" kerak bo'ladi³⁹. Ya'ni oy qora bulut orqasiga yashiringanidek sevgan kishimni o'lim buluti mendan to'sib qo'ydi. Shuning uchun atrofni chang to'zonga aylantirishni istayman. Quyoshim botdi-ku, endi nega ohim quyoshga yetib, uning yuzini qora qilmasin, deydi. Demak, Alisher Navoiy peyzaj, portret usullarini qo'llash bilan ham lirik qahramon ruhiy holatini, ham o'zining badiiy-estetik tamoyillarini ifodalaydi.

³⁸ Навоий, Алишер. МАТ. Ёигирма томлик. Биринчи том. Бадойиъ ул- бидоя. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 654.

³⁹ Мамажонов З. Мумтоз шеърий санъатларнинг назарий таснифи. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б.51.

Hazrat Bobur ham tarixiy shaxslar obrazini, xarakterini yaratishda portret yaratish usulidan unumli foydalangan. Xususan, o'z otasi Umarshayx Mirzoning tashqi qiyofasi (portreti) va xarakterini qo'yidagicha ta'riflaydi: "pasti bo'ylik, tegirma soqollik, qo'ba yuzluk, tanbal ishi edi. To'nni bisyor tor kiyar edi, anlog'kim, bog' bog'laturda qornini ichiga tortib bog'latur edi, bog' bog'lag'ondin so'ng o'zini qo'ya bersa, bisyor bo'lur edikim, bog'lari uzulur edi. Kiymakta va yemoqta betakalluf edi". [1.10] Bu yerda biz Umarshayx Mirzoning portreti orqali uning xarakteridagi qusurni o'zaro muvofiqlikda tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin. Aynan qiyiq bog'lash detali yordamida Umarshayx Mirzo xarakteridagi quvlik, ayyorlik ochib berilgan.

Xullas, badiiy asarda tasvirlanayotgan olam ijodkor botiniy olamidan qayta ishlanib chiqadi. Ana shu jarayonda yozuvchi o'zining badiy g'oyasi, ijodiy niyati, ideali, muammolar kabi poetik masalalarini peyzaj, portret kabi tasviriy vositalar yordamida yoritadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tasvirlanayotgan olam deganda nimani tushunasiz?
2. Badiiy tasviriy va ifodaviy vositalarni sanang.
3. Hikoyada peyzaj tasvir vositasi sifatida qanday vazifalarni bajarishi mumkin?
4. Peyzaj haqida nazariy ma'lumot bering.
5. Portret tasvir vositasi sifatida qanday vazifalarni bajaradi?
6. Portret turlarini sanang.
7. Tasvirlanayotgan badiiy voqelik va badiiy g'oya munosabatini tushuntiring.
8. Portret va xarakter o'rtasidagi bog'liqlikni ayting.
9. Badiiy asardagi portret qanday turlarda bo'lishi mumkin?

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanidagi portretlarni aniqlang va ularning vazifasini daftaringizga yozing.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: Учебное пособие. – 3-е изд. –М.: Флинта, Наука, 2000. – 248 с.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 413 б.
3. Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н.Николюкина.— М.: НПК «Интелвак», 2001. — 1600 стб.
4. Тюпа В.И. Анализ художественного текста: учеб. пособие для студ. филол. фак. высш. учеб. заведений . – М. : Издательский центр "Академия". –2009. – 336 с.

8-MAVZU: BADIY NUTQ TAHLILI

Reja:

1. Badiiy asarning birinchi elementi
2. Badiiy soʻzning kontekstdagi oʻrni
3. Muallif nutqi: roviy va roviy-personaj nutqi
4. Monologik nutqning asardagi ahamiyati
5. Dialogik nutqning badiiy-estetik vazifasi

Tayanch soʻz va iboralar: *badiiy til, kompozitsiya, badiiy nutq, obrazli ifoda, taʼsirchanlik, muallif nutqi, personaj nutqi, dialogik nutq, monologik nutq.*

Badiiy asar keng maʼnoda katta olamning kichik obrazi hisoblanadi. Asar soʻz, til birliklarisiz mavjud boʻlmaydi. Asardagi barcha detal, peyzaj, portret, badiiy makon, vaqt aslida nutq birliklari yordamida namoyon boʻladi. Badiiy nutq adabiyotning birlamchi unsuri, obrazlilikni taʼminlovchisi sanaladi. Manbalarda “Badiiy nutq” yoki “poetik nutq” terminlari sinonim sifatida ishlatiladi. Muhimi, har qanday ijodkor tayyor til materialini oladi va badiiy asarga jalb etib, uning nutqiy (ijroviy) imkoniyatlaridan foydalanadi. Bu esa soʻzning leksik va kontekstdagi qoʻllanishida farqni yuzaga keltirishi mumkin. Bunda maʼno koʻchishi, metafora, metonamiya, badiiy tasviriy vosita va ifodalar alohida oʻrin egallaydi. Lekin ularni maʼlum ijodiy maqsad yoʻlida ishlatadi. Natijada nutqiy kompozitsiya shakllanadi.

Har qanday badiiy asarda muallif bayon etayotgan voqea aniq maqsad asosida shakllantiriladi. Bunda roviy nutqi yoki bayon qiluvchi (hikoyachi) alohida ahamiyatga ega boʻladi.

Chunki “Bayon qiluvchi – yetakchi va muallifga nisbatan yaqin boʻlgan nutq egasi boʻlib, adabiy asardagi nuqtai nazarni yetkazuvchi hisoblanadi⁴⁰. Mazkur mulohazadan kelib chiqilsa, roviy nutqi oʻquvchiga personajlar xatti-harakati, asarda yuz berayotgan voqea-hodisalar haqida xabar beradi, tasvirlanayotgan makon va unda kechayotgan vaqtni qayd etadi. Masalan, Said Ahmad “Sarob” hikoyasida voqeani bosh qahramon tilidan bayon qiladi. Shuning uchun bosh qahramon roviy-personaj vazifasida keladi: “Bugun lagerimizga yangi mahbuslarni olib kelishdi. Koʻrinishlaridan ularni yangi deb boʻlmasdi. Egnilaridagi kiyimlariga, yelka va tizzalaridagi raqamlariga qaraganda, koʻp yillardan beri lagerdan lagerga koʻchib yurgan daydi mahbuslar ekanini darrov payqash mumkin edi”⁴¹.

Mazkur parcha hikoyaning ekspozitsiyasi hisoblanadi. Unda personaj-roviy voqeani bayon qilmoqda. Voqea esa lagerga boshqa lagerdan mahbuslarning olib kelinishi hamda ularning tashqi tasviri haqida bayon qiladi. Demak, voqea, hikoyadagi kompozitsiya roviy-personaj nutqi orqali shakllangan. Roviypersonaj lagerdagi vaziyat (yangi mahbuslar kelgani)ni qayd etmoqda. Kelgan kishilarning ichki olamini portret (koʻrinishi va kiyinim holati) orqali ochib beradi hamda vaziyatga, voqelikka estetik baho beradi. Shu yerda roviy va uning hikoya qilish tarzi asar kompozitsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biriga ham aylanmoqda. Chunki rivoya tarzi yoki roviy aytib berayotgan voqea turli xarakter yoki yoʻsinda boʻlishi mumkin. Masalan, saboq beradigan, taʼlim beradigan (naqliy rivoya), metaforik yoki nutqning monolog, dialog kabi shakllarini aralash

⁴⁰ Поэтика: слов, актуал. терминов и понятий / [гл. науч. ред. Н.Д. Тамарченко]. — М.: Издательство Кулагиной; Intrada, 2008. — С.167.

⁴¹ Said Ahmad. Qorakoʻz Majnun: hikoyalar. – Toshkent: Sano-standart, 2016. – B.10.

qo'llash orqali, ba'zan detallarni takror ishlatish orqali ham roman kompozitsiyasidagi rivoya tarzi turli-tumanlik kasb etadi.

Ma'lumki, badiiy asarning uch muhim elementi bo'ladi: badiiy til (nutq), voqea (syujet), obraz. Ayniqsa, har qanday badiiy asarda badiiy til (nutq) ijodkorning asosiy quroli, asarning birinchi elementi sanaladi. Muallif badiiy so'z yordamida o'z g'oyasi, o'zini qiynagan muammo, yuragiga ta'sir etgan voqeani ifodalaydi. Ijodkor asar yozayotganda so'zni shunchaki qo'llamaydi, unga badiiy estetik vazifa, aniq ijtimoiy ma'no yuklaydi. Natijada hamma biladigan so'z kontekstda yangicha ma'no qirralari bilan namoyon bo'ladi. Muallif ishlatgan badiiy so'z ma'no qatlami kengayib, izohli lug'atdagi leksik ma'nosidan yoki biz tushunadigan ma'nosidan boshqacharoq (yoki butunlay boshqa) ma'no kasb etadi. Masalan, quyidagi she'rni tekshiramiz:

*Cholu kampir
Shoshilmay salkam
Bir asrni yashab qo'yishdi.
Kunjaraga, zog'ora, patir,
Tomoshaga rosa to'yishdi.*⁴²

Ushbu parchadagi "kunjara, zog'ora, patir, tomoshaga rosa to'yishdi" misrasidagi kunjara so'zi to'yishdi fe'li bilan ma'no-viy munosabatga kirishib (zog'oraga to'ydi, patir nonga to'ydi kabi), yangi ma'no kasb etgan. Bu yerda kunjara hayvonlarga beriladigan ozuqa sanalib, odatda, uni odam yemaydi. Lekin shoir yeyishdi, degan ma'noda qo'llash orqali, XX asrning o'ninchi yillaridan (ikkinchi yarmi), yigirmanchi yillari oxiri, o'ttizinchi yillari boshiga qadar bo'lgan ocharchilik haqida fikr yuritib,

⁴² Раҳмон, Шавкат. Абдиёт оралаб. – Тошкент: Movarounnahr, 2012. – Б.152.

cholu kampir o'sha og'ir kunlarda hayvon ozuqasini yeb, kasal bo'lib, keyin omon qolganini ta'kidlagan. Ko'rinadiki, badiiy so'z boshqa bir so'z bilan yaxlit tizimga birikib, asar mohiyatini ochib beruvchi asosiy vositaga aylanmoqda.

Shu yerda badiiy kontekstdagi so'z o'zining badiiy-estetik vazifasiga ega bo'ladi, degan qoida yuzaga chiqadi. Bunda yozuvchi o'zi bayon qilayotgan voqea mazmunini yanada salmoq-dor, umuminsoniy va original darajaga olib chiqishga intiladi. Fikrimiz isboti uchun Nurali Qobulning "Savob" hikoyasini tahlil qilamiz. Adibning badiiy tildan foydalanish mahorati va asar tilining kompozitsiyadagi ahamiyati haqida so'z yuritamiz⁴³.

Hikoya anchayin uzun bo'lgan epigraf bilan boshlangan. Unda mazkur asar Arnasoy ko'li bo'yida joylashgan tepalikdagi yolg'iz qabr va shu qabrda yotgan cho'pon ayolga bag'ishlanishi aytilgan. Lekin aslida bu epigraf lirik murojaat ko'rinishidagi epik kechinmaning ifodasi hisoblanadi.

Asarda badiiy nutqning monologik va dialogik nutq turlaridan foydalanilgan. Polilogik nutq yoki muallif nutqi hikoyada ishlatilmagan. Ularning vazifasi ham roviy nutqi orqali bajarilgan. Monologik nutq hikoyada ikki vazifani bajargan, birinchisi bolaning o'y-fikrlarini ifodalash uchun bo'lsa, ikkinchisi muallif nutqiga tegishli vazifa, ya'ni hikoyani bayon qilish maqsadida ishlatilgan. Muallif vazifasini bajarishda monologik nutq doirasi kengayib, u orqali roviy enasi va otasi bilan bo'lgan suhbatni ham bayon qiladi. Fikr isboti uchun quyida ulardan birini keltiramiz:

– Ena, Xudo qayerda? – bexosdan so'radim. Odatdagidek enam.

Oллоhga munajat qilganlaridan keyin.

⁴³ Нурали Қобул. Оқ каптарлар. Ҳикоялар. Қиссалар. Эссе. –Тошкент: Ўзбекистон, 1990. 79-83 бет.

– Qayerda bo'lardi, qosh-qovog'ingning o'rtasida, – javob qildilar beparvogina.

– Iye, qanday qilib? Qosh-qovog'ining o'rtasiga odam sig'maydi-ku? – hayron bo'lib so'radim beixtiyor ikki qoshimni ko'rsatib.

– Xudo odam emas, bildingmi! – enam norozi bo'lib menga tikildilar.

– Nima bo'lmasa?

– Xudo Xudo-da! U har bir odamning ko'kayida bo'ladi.

– Odamning ko'kayi qayerida bo'ladi? Siz ko'rganmisiz?

– Sen bola zig'irdek bo'la turib, nega mendan bunday gunohi narsalarni so'raysan? Nima kofir bo'lmoqchimisani? – astoydil achchig'i chiqdi enamning. – Otangga aytib bermasam seni ...[80]

Keltirilgan parcha asar kompozitsiyasidagi eng uzun ikkita dialogdan bittasi bo'lib, unda bolaning xarakteri, yoshi va tushunchasiga oid qimmatli ma'lumotlar, enaning dunyoqarashi hamda psixologiyasi ochib berilgan. Shuningdek, personajlarning nutqi orasida dialogik nutqqa xos bo'lgan turli remarkalar ham berilgan.

Hikoyada roviy voqealarni aytib berar ekan, unda kecha-yotgan zamon va makon (ibodatdan keyin), ishtirok etayotgan personajlar (ena va bola)ga oid hamda hikoya kompozitsiyasi uchun zarur bo'lgan mayda tafsilotlarni (bexosdan so'ramoq, astoydil achchiqlanmoq, qoshini o'rtasini ko'rsatib) ham erinmay bayon qiladi. Bu bilan u, avvalo, hikoya kompozitsiyasidagi tasvirni to'ldiryapti, ikkinchidan esa suhbatdoshiga bo'lgan samimiy munosabatini ham bildirgan. Bundan tashqari, ayna shu yerda hikoyaning asosiy g'oyaviy mazmuni va muammolar tizimiga oid muhim jihat enaning ulkan tajribasi, mehnatkashligi, hayotga bo'lgan mehri ham-

da bolaning qiziqishi, hayotsevarligi, nimanidir kashf etishga bo'lgan intilishi, bilishga chanqoqligi kabilar yordamida ochib berilgan.

Dialogik nutq asar kompozitsiyasi va syujet tarkibidagi voqealar rivojida muhim vazifalardan birini bajargan. Ya'ni, ekspozitsiya va tugun (enaning tunda ikki chelakni olib Jiydalisoy tomon borishi)dagi mavzuni asoslash lozim edi. Bu esa roviy uchun oson kechmaydi. Bola-roviy buni enasidan bir necha bor so'ragan, biroq unga buni taqiqlashgan, aynan, mana shu suhbat orqali bola-roviyning so'roviga taqiq bo'lgan asos, sabab keltirilgan. Bundan tashqari, dialogda roviyning samimiy qalbi, enasiga muhabbati cheksizligi ham ko'rinib turibdi. Chunki enasi bola xarakterini yaxshi biladi. Bu esa mehr-muhabbatsiz amalga oshmaydi.

Hikoya kompozitsiyasidagi ikkinchi dialog esa syujet komponenti bo'lgan tugunda boshlangan muammoning yechimiga izoh sifatida berilgan:

– Bugun kechasi ham suv olib kelasizmi, ena? – so'radim o'zimni beparvo ko'rsatib.

– Ha, bo'tam. Kechasi el oyog'i tinganda, – dedilar tugagan ip ichini kalavaga taqib qo'yarkan.

– Hozir olib kelib qo'ysak nima qiladi?

– Hozir suv toza emas. Mol-hol kechgan, senga o'xshagan sho'x bolalar oy chiqqunga qadar shataloq otib cho'milishadi.

– Cho'milishsa nima qiladi?

– U suvni soy tinib toza oqqan paytida olish kerak. Aks holda savobi tegmaydi.

– Nimaga savob tegmaydi?

– Ota-onamga!

– Ie, sizning ota-onangiz yo'q-ku?!

Enam chuqur uh tortdi... [82]

Shu o'rinda personajlar suhbatida uzilish yuz beradi. Bola yana roviylik vazifasiga o'tadi va monolog yordamida o'z xayolidan o'tayotgan mulohazani beradi. Enasi portretini chizadi. Birgina – "uh" tortish bilan uning ruhiyatidagi armon, qayg'ualam, dardni so'zsiz ifodalaydi. Shu yerda enaning ruhiy holati kampirning qo'lidan tushib ketgan kalava va uning bola oldiga yumalab kelishida katta ramziy ma'no mavjud. Birinchidan, enaning ichki dunyosidagi epik kechinma, armon, dard shu qadar kuchli-ki, u, hatto, o'z yumushini ham unutib, to'xtab, kalavani tushirib yubordi. Bunday vaziyatdan hijolat bo'lgan bola esa kalavani ushlab, turib qoladi. Kalava detali dunyoning ochilmagan siri, mavhumlik ma'nolarida kelmoqda. Shuningdek asardagi umumiy mifopoetik unsurlaridan biri sifatida enaning suvga nisbatan animistik munosabatiga qo'shilib badiiy kompozitsiyani boyitgan.

Aslida kalavani ena o'raydi. Bola esa uni qiziqish bilan tutib turadi. Bu esa ena va bolaning birga yashashiga ishora. Ular bir butunlikni tashkil etishadi. Kalava detali ham shunga ishora qiladi. Chunki hikoya syujetidan ma'lumki, bola enasi bilan yashaydi. Birinchidan, enani yolg'iz qoldirmaslik uchun xalqimizda milliy qadriyat sifatida saqlanib kelinayotgan odat, ikkinchidan esa avlodlar muloqot doirasini saqlab qolish uchun bajariladigan ko'nikma, uchinchidan, esa bolaga qarab, enaning hayotga bo'lgan qiziqishi, intilishi ortadi. To'rtinchidan, bolaning tarbiyasiga ham yaxshi bo'ladi. Chunki enaning tarbiyasida an'ana va qadriyatlarga hurmat mavjud.

Dialog davomida faqat enaning quyidagi gaplari bor va u hikoyada kulminatsion nuqta bo'lib xizmat qilgan:

– Ha, mening ota-onam yo'q, – dedilar og'ir xo'rsinib. – Shuning uchun shunday qilaman. O'sha ikki chelak suvni olib chiqib, olib tushgan mehnatimning va uni toza asraganim savobi-

ni ota-onamning arvohlariga bag'ishlayman. Toza suv kechasi bilan marhumlar haqqiga duo o'qirmish. Harom-harish mol topib, yilda bir necha bor xudoyi qilgandan ko'ra, ikki chelak suvni ozoda asrab, ota-ona arvohini yod olgan ma'qul... [82].

Bu yerda xalqimiz orasida juda qadimdan beri saqlanib kelinadigan ajdodlari ruhiga inonch, ezgulik va yovuzlikning turlicha ko'rinishlari haqidagi falsafiy tushuncha aks etgan. Hikoyadagi tabiatni asrash, unga hurmatda bo'lish lozimligi, o'tganlarni unutmashlik va ularning turmush tarzi bilan yashashga undash, mehr-oqibatli bo'lish kabilar asarning muammolar tizimini tashkil etadi. Uning ortidan esa asosiy g'oya insonparvarlik va milliy qadriyalarni asrash g'oyalari bo'rtib turibdi. Demak, personaj nutqida folklorizm va mifopoetikadan samarali foydalanish yetakchilik qiladi. Hikoyadagi kalava detalini bola qo'liga o'tishida enadagi tushuncha, tasavvur, dunyo, tiriklik, hayot haqidagi sir, bilim, tajribalar bolaga o'tishiga ishora bor. Vaholanki, enadan olam va odam sirlarini o'rganish kishiga katta vazifa yuklaydi. Bola ana shuni mas'uliyatni anglaydi. Bu uning ertalabgacha og'iz ochmagani, tongda yana suvga chiqib ketayotgan enasining ortidan mehr va o'zgacha ruh bilan tikilib qolishi, bugun atrof-borliq, qishloqning endigina boshlangan shovqinli hayoti o'zgacha ta'sir etganligida ko'rinadi.

– Nazarimda Jiydalisoyning sharqirashiga o'xshab, Bozorboy amakining – hayda, haydasi ham shu qadar yoqimli edi – nega shu paytgacha sezmadim-a? Ilgari uning ovozi shiringina tong uyqusining zavoli bo'lib tuyulardi. Jiydalisoyning bir maromda zalvorli sharqirashi barcha ovozlarni bosib ketar, u bu sharqirash bilan Oyqor qo'ynidan kakliklar sayrog'ini, Qiziltosh ayiqlarining bir-biri bilan o'mbaloq oshib o'ynaganda o'kirishlarini, archa va o't-o'lanlar hidini, qorning muzdek taftini olib kelayotgandek edi. Uning ovozi enam aytgan ota-bobolarimiz-

dan tortib bizgacha, Oyoqorni qoplagan barqut archazorlardan tortib, Taypoqsoy dashtigacha har bir giyoh uchun qadrli va hayotbaxsh edi...” [82-83].

Mazkur monologik nutq hikoyadagi syujetning yechimi sifatida hayotsevarlik, milliylik g’oyalarini sof tabiiy kechinma sifatida ifodalab o’quvchi qalbiga rohatbaxsh tuyg’ular soladi, diliga ko’tarinkilik bag’ishlaydi va hayotga bo’lgan ishtiyoqini yanada oshiradi.

Hikoya oxiridagi monolog esa kompozitsiyaning badiiy pafosini ko’rsatuvchi asosiy belgidir:

– Enajon! Jiydalisoy! Oyoqor! Yam-yashil archalar! Ayiqlar! Bepoyon Taypoqsoy dalalari hamma-hammangizni yaxshi ko’raman! Hammadan yaxshi ko’raman!.. [83]

Nutqning boshidagi har bir otdan keyin his-hayajon belgisining ishlatilishi, keyinchalik esa ibora va gaplar oxiriga ko’chishi, parcha so’ngida hamda umumiy kompozitsiya yakuniy qismi sifatida ham ko’p nuqta qo’yilishida kompozitsiyaning ma’lum badiiy ijtimoiy konsepsiyasini ko’rsatadi. Shuningdek, belgilar kompozitsiyadagi asosiy g’oya vatanga muhabbat ekanligini ifodalovchi ma’no bilan birlashib, asar yakuniga hissiy-emotsionallik bergan.

Mazkur hikoyada badiiy tilning dialog, monolog turlaridan foydalangan holda yozuvchi asar shakl va mazmun birligi masalasiga o’ziga xos tarzda yondashgan.

Xulosa qilib aytganda, Nurali Qobulning – “Savob” hikoyasidagi badiiy til, ayniqsa, roviy nutqi badiiy tasvir va ifoda vositalariga boyligi, chuqur lirizm bilan omuxtaligi asarning umumiy kompozitsiyasi, badiiy pafosi hamda yozuvchi uslubining yetakchi qirralarini ochib bergan.

Badiiy nutq muallif (roviy), personaj nutqi (xarakteri va ichki olamini ochuvchi) hamda sintaksis (asardagi nutq qurilishi)

va ohang asar tahlilida muhim ekanligi tushuntiriladi. Badiiy asar tahlilida ritm, she'riy nutq, nasriy nutqning ahamiyati ochib beriladi.

Xullas, har qanday badiiy asar tahlilida uning tili, yozuvchi ishlatgan nutq shakllari uning badiiy mahoratidan darak beradi.

Nazorat savollari:

1. Badiiy asarning birinchi unsuri nima? Uning belgilarini ayting.
2. Badiiy so'zning leksik so'zdan farqi nimada yuzaga chiqadi?
3. "Badiiy tili", "poetik tili", "badiiy nutq" – mazmunini izohlang.
4. Asar tili qanday shakllarda yuzaga chiqadi?
5. Monologik nutqning kompozitsiya hosil qilishdagi ahamiyatini bilasizmi?
6. Dialogik nutqning obraz mohiyatini ochishdagi o'rni qanday?
7. Roviynutqi haqida ma'lumot bering.
8. Badiiy asar tilidagi folklorizm deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasidagi badiiy nutqni tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sulton, Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 256 b.
2. Ёўлчиев Қ. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. – Тошкент: Ма'rifat bitiklari, 2012. – 252 б.
3. Парандовский, Ян. Сўз кимёси: бадиа-эссе. Тарж. О.Шарафидинов, М.Акбаров. – Т.: Янги аср авлоди, 2022. – 464 б.
4. Рене Уэллек. Остин Уоррен. Теория литературы. – Москва: Прогресс, 1978. – 302 с.
5. Теория литературы. В двух томах. Том 1. Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. – Москва: Академия, 2004. – 252 с.
6. Хализев Е.В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999. – 390 с. www.gumer.ru

9-MAVZU: KOMPOZITSİYALAR TAHLILI

Reja:

1. Kompozitsiya haqidagi nazariy bahslar
2. Kompozitsiyaning aspektlari
3. Mazmuniy kompozitsiya
4. Lirik kompozitsiya tahlili
5. Roman kompozitsiyasi tahlili

Tayanch soʻz va iboralar: *kompozitsiya, dispozitsiya, asar tuzilishi, obrazlar tizimi, syujet kompozitsiyasi, nutqiy kompozitsiya.*

Aslida adabiyotshunoslikda kompozitsiya haqidagi bahslar doimiy masala sifatida eʼtirof etiladi. Syujet kompozitsiyasi haqidagi eng qadimgi maʼlumotlarni biz antik davr olimlari fikrlarida uchratamiz. Jumladan, Arastu *“Voqealarning qismlarini shunday joylashtirish lozimki, biron qism almashtirilganda yo olib tashlanganda yaxlit narsa oʻzgarib ketsin, yo harakatga kelsin, chunki mavjud emasligi sezilayotgan narsa butunning uzviy qismi boʻla olmaydi”*⁴⁴, deya yozadi. Bu yerda olim kompozitsiyaning tarkibiy qismlarida ortiqcha narsa boʻlmasligi, borlari esa maksimal darajada asar badiiyatini ochishga xizmat qilishi shartligini taʼkidlagan.

G.N. Pospelov *“syujet hamma vaqt oʻziga xos tarzda quriladi, u oʻzining shaxsiy kompozitsiyasiga ega boʻladi,”*⁴⁵ deb qayd etar ekan, epik badiiyatni yuzaga keltiruvchi shakllardan biri

⁴⁴ Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 1980. – Б 32.

⁴⁵ Пospelов Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978. – С. 100.

obrazlarning predmetliligi va ularning o'zaro muvofiq kelishi haqida fikr yuritib, *"bunday muvofiqlikni epik asar obrazlari-ning kompozitsiyasi"* deyish mumkinligini yozadi.⁴⁶ So'ngra esa bayonning hissiy-ekspressiv shakli syujet kompozitsiyasi bilan qo'shilgan holda bayon kompozitsiyasi deyilishi mumkinligini ta'kidlaydi⁴⁷. E.V. Xalizev ham kompozitsiyani "konstruksiya", "dispozitsiya", "tashkillash" degan atamalar bilan sinonim degan fikrni keltiradi-da, *"Adabiy asar kompozitsiyasi uning shaklini namoyon etuvchi birinchi belgi bo'lib, bu – tasvirlanayotgan birliklar va badiiy-nutq vositalarining o'zaro munosabati va muvofiqligi, asar elementlari, belgilarini qo'shilish tizimi"*⁴⁸ degan mulohazani ilgari suradi. Bu yerda olim an'anaviy nazariy poetikani e'tirof etar ekan, unga qo'shimcha ravishda kompozitsiya mazmunida turli badiiy tasviriy vosita va ifodalarni ham bo'lishi lozimligini ilgari suradi.

Boshqa manbada mualliflar "kompozitsiya" tushunchasini qanday talqin qilishdan farqli ravishda hamma vaqt qanday "qism" yoki "elementlar"ning o'zaro munosabati yoki muvofiqligini anglatadi, degan to'xtamga kelinadi. Bunda qaysi qism yoki komponentlar nazarda tutilishini aniqlashni kompozitsiya tahlilining vazifasi sifatida taklif etadilar⁴⁹.

Ingliz olimlari ishlarida yanada o'zgacharoq yondashishni kuzatish mumkin. Ular "bizda kompozitsiya deb ataladigan tushunchani nemislar yoki ruslar "motirovka tizimi" deb atashadi, "kompozitsiyaning ikki xil munosabatini – struktur (yoki bayonchilik) kompozitsiya va ichki strukturaning axloqni psi-

⁴⁶ Ўша манба. - С.101.

⁴⁷ Ўша манба. - С. 102.

⁴⁸ Хализев Е.В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999. – С.232 (390) www.gumer.ru

⁴⁹ Теория литературы. В двух томах. Том 1. Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. – Москва: Академия, 2004. – С. 210.

xologik, ijtimoiy va falsafiy asoslashini, boshqacha aytganda, kauzallik nazariyasini” keltirishadi⁵⁰. Kauzallik nazariyasini qisqa qilib, sababiyat shartlanganligi deyish mumkin. Ya’ni roviy nutqi orqali voqea qanday bayon qilinishi syujet kompozitsiyasini ham belgilashini aytishar ekan, olimlar “qismlarning o’zaro munosabati yoki muvofiqligi” deganda an’anaviy adabiyotshunoslarning yo’lidan borishgan. Motirovka tizimi va kompozitsiyaning ikki shakli (struktur kompozitsiya va ichki kompozitsiya) borasida o’z qarashlarini bayon qilishadi. Biroq kompozitsiyani “harakatga keltiruvchi tizim” deyilganda adabiyotga mexanik yondashuv bordek tuyuladi. Lekin *kompozitsiya strukturasi* deganda badiiy asarning fasl, bob, qismlarga ajratishni, *ichki kompozitsiya* deganda esa har bir qismning nisbiy mustaqil bo’lgan qismidagi syujet, peyzaj, portret, nutqiy birliklarning o’zaro uyg’un holatdagi tuzilishi nazarda tutiladi. Yana bir ingliz manbasida esa “Kompozitsiya – adabiy ma’noda har qanday yozuv asari yoki biron-bir yozuvning shakliy tomonini anglatuvchi atama. Xususan, uslubi va effekt nuqtai nazaridan, ushbu mavzu bo’yicha darsliklarda nasriy kompozitsiyaning to’rt turi ajralib turadi: ekspozitsiya, dalil, tavsif, rivoya”⁵¹. Aynan shu yerda kompozitsiyaning to’rtta turi aniq ko’rsatilgan. Bunda olimlar ekspozitsiya deganda, nazarimizda, voqeaning bayoni, tushuntirishni nazarda tutishadi, dalil esa badiiy voqelikning real mantiqqa egaligi, tavsif – voqea, joy, personaj tavsifi, rivoya esa roviyning bayon usulini nazarda tutadi.

O’zbek adabiyotida D. Quronov kompozitsiya bo’yicha jahon adabiyotshunoslari ishlarini tahlil etib: “An’anaga ko’ra, badiiy shaklning uch aspekti farqlanadi: 1) asarning nutqiy qurilishi;

⁵⁰ Рене Уэллек. Остин Уоррен. Теория литературы. – Москва: Прогресс, 1978.- С.235

⁵¹ A dictionary of literary terms and literary theory / J.A. Cuddon. – 5th ed. This edition first published , 2013. – p 147. (784 p). www.atibook.ir

2) tasvirlanayotgan predmetli olam – badiiy voqelik; 3) bu ikki sath birliklarini bir-biriga o‘zaro munosabatdorlikda va uyg‘un muvofiqlashtirgan holda joylashtirish – kompozitsiya” degan xulosaga keladi⁵². Bu yerda olim kompozitsiyaning aspektlarini to‘g‘ri belgilaydi. Biroq J.A. Kaddon (J.A. Cuddon) kompozitsiyaning to‘rt turini farqlaydi. Bu bir tomondan tabiiy, chunki har bir olim o‘z bilim va tajribasidan kelib chiqib fikr yuritadi. Biroq J.A. Kaddon (J.A. Cuddon) tasnifi kompozitsiyaning real asosiga ko‘proq to‘g‘ri keladi.

Yaratilayotgan badiiy asardagi nutqiy qurilish, badiiy voqelik va ularning turli qismlari o‘zaro uyg‘un hamda muvofiq munosabatlarda joylashtirilsa, asar kompozitsion jihatdan yetuk sanaladi. Ammo kompozitsiya yaratishni faqat shuning o‘zidan-gina iborat deb bilsak, kompozitsiya shakliy unsur degan yanglish fikr ham chiqib keladi. Kompozitsiya birinchi galda qism (nutqiy qurilish, badiiy voqelik)larning o‘zaro munosabati, ya’ni asar mavzusi, g‘oyasi, ular mohiyatida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy muammolarning o‘zaro muvofiq kelishini ta’minlaydi. Demak, kompozitsiyada badiiylikning muhim sharti bo‘lgan badiiy shakl va mazmun birligi namoyon bo‘ladi.

Badiiy asar tahlilida, xususan, lirik kompozitsiyada mazmuniy kompozitsiyaga ham e’tibor beriladi. Bunda “tezis-tezis-antitezis va xulosa” shakli ko‘p uchraydi. Masalan:

*Yo‘llar ortimizdan qolar edilar,
Sahrolar qolardi cheksiz, betakror.
Nega ular cheksiz, desam, dedilar:
Bu yerdan o‘tgandi Abdulla Qahhor*⁵³.

⁵² Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 183.

⁵³ Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б.143

Mazkur she'ning birinchi, ikkinchi misralarida lirik subyektning real borliq haqidagi tezislari berilgan. Uchinchi misrada esa antitezis berilgan. Oxirgi misrada esa xulosa kelgan. Lekin boshqacharoq tarzda shakllantirilgan mazmuniy kompozitsiyalar ham bor.

“Yulduzli tunlar” romanida syujet kompozitsiyasi⁵⁴ ekspozitsiyada Quvasoyning qizil qondek bo'lib oqishi bilan boshlanadi. Soyning to'lib-toshib oqishiga mos ravishda ekspozitsiyada majnuntollar panasida suhbatlashayotgan Tohir va Robiya tasviri ham beriladi.

Asarda tugunlar syujet liniyasi miqdoridan kelib chiqib, bir nechtagacha ekanligi aniqlandi. Ularning dastlabkisi Tohir va Robiyaning tahlika ostidagi uchrashuvi sanaladi, ikkinchisi esa Xonzoda begim surati bilan bog'liq voqea, uchinchisi, eng yirigi esa Umarshayx Mirzoning vafoti sanaladi. Mazkur uch nuqtadan asar voqealariga turtki beradigan konflikt ham harakatga keladi. Lekin har uchala tugun ham turli darajada voqealar rivojida o'zaro almashinib boradi. Masalan, yog'iyning askarlari xonadonlarni talab yurganda Robiyani somonxonadan qochib chiqqanda tutib olishlari va uni qutqarish uchun Tohirning beshta dushmanga qarshi kurashib, dastlab qizning oyog'ini tutib turgan yog'iyning biqiniga qilich sanchishi va uni sug'irib olishida yelkasiga g'arj etib nayza sanchilishini eslash mumkin⁵⁵. Shu voqeadan keyin Tohirning qonga belanib, Robiyalarning hovlisida qolishi tasvirlangan va dushmanlar qizni boshiga qop kiydirib, Samarqandga olib ketishadi. Shundan keyingi voqealarda Tohirning harakatida muhabbatga sadoqat, qo'shni qizni o'z singlim deb, odamlar orasidan izlashi va izlab topish istagi kuchayishi aytilgan. Shu tariqa asardagi voqealar

⁵⁴ Қодиров П. Юлдузли тунлар. Бобур:Роман.-Т.: Ўзбекистон.1990.5-21 – бетлар.

⁵⁵ Yuqoridagi manbaa. 66-bet.

rivoji “ichki harakat” dinamikasiga ega boʻlgan oʻrinlar bilan almashinib boradi. Tohirning singlimni izlayapman degan bahonada Samarqandda non tarqatib yurishidagi oʻzi bilan oʻzi kurashi kabilarda yaqqol koʻzga tashlanadi.

Ayniqsa, oradan olti yil oʻtgach, Fozil tarxonga yettinchi xotin boʻlib yashayotgan Robiyaning Tohir bilan uchrashuvi Tohir va Robiya syujet liniyasidagi kulminitsiyon nuqtadir. Bunda Robiyaning avval qoʻrqishi, Tohirni arvoh deb oʻylagani va Tohirning “Qoʻrqma men – Tohirman” degan soʻzlaridan keyin oʻzini yigitning quchogʻiga otishi juda taʼsirli ifodalangan. Shu oʻrinda yozuvchi har qanday diniy cheklovlar sof insoniy tuygʻular oldida oʻjiz ekanligini real tasvirlaydi. Tohir va Robiya olti yillik ayriliqdan soʻng uchrashadilar. Oradan maʼlum daqiqa oʻtgach, Robiya oʻzini chetga tashlaydi. Chunki uning xayolida oʻzi boshqa bir kimsaning, garchi u qizga zulm bilan egalik qilgan boʻlsa-da, xotini ekanligini eslaydi va “Meni quchmang, Tohir ogʻa, men sizga munosib emasmen!” deydi. Shunda yozuvchi qizning koʻzlarida alam borligini, uni oltinga sotib majburlab nikohlaganlarini ifodalaydi.

Bu oʻrinda unga Mamat ismli odam, sobiq askar yordam berganini ham aytib oʻtish lozim. Chunki u och qolganda Tohir sobiq jangchiga yordam bergani, ikki oʻrtada yaqinlik paydo boʻlib, Quvadan olib kelingani haqida bilganini aytib beradi.

Romanning keyingi qismlarida ular Qosimbek yordamida faqih Abullays mahallasidan Shayboniyxonning odamlari tashlab ketgan hovli olishgani va lozim marosimlar oʻtgach, mahalla imomi ularni nikohlagani, mazkur oila Hindistonga borib, soʻngra Quvaga qaytib baxtli hayot kechirishgani bayon qilinadi. Shu oʻrinda aytish kerakki, Tohir Boburga askar boʻlib yollanib, keyinchalik uning xos navkariga aylanadi va Bobur qalbida oddiy odamlar hayotiga nisbatan hurmat uygʻotadi, hatto Bobur

taxtdan voz kechib oddiy odamlardek yashashni ham ma'lum bir muddat istaydi.

Tohirning Panipat jangidagi og'ir jarohatidan keyin Boburning ruxsati bilan bog'bonlikka o'tishida ham mazkur obraz xarakteridagi samimiylik, soddalik, mehnatkashlik borligini ko'rish mumkin. Boshqa odam bo'lganda Bobur Mirzodan boylik yoki saroydan birorta lavozim so'rardi. Biroq Tohir tantilik va oliyjanobligini namoyon qilib, hech narsa ta'ma qilmaydi. Uning ana shu jihati podshohga ma'qul bo'ladi va uni o'zining sirdosh do'sti, xos navkari etib tayinlaydi. Shu yerda Bobur Mirzodagi ma'naviy yetuklik, oliyjanoblik va Tohir obrazidagi ma'naviy yetuklik birlashib P.Qodirov idealidagi Bobur jonlanadi. Bu Bobur milliy o'zligini anglagan, adolatparvar, vatanparvar, bunyodkor, xalqparvar, uzoqni ko'ra biladigan siyosatchi kabi qator fazilat-larga egadir.

Asardagi yana bir tugun, shubhasiz yetakchisi Umar Shayx Mirzoning vafotidir. Bu baxtsiz hodisa tufayli mamlakatda Umar Shayx oilasi va mulozimlari orasida parokandalik, taxt uchun talashishlar, turli ig'volar yuz beradiki, ular roman arxitektonikasida asosiy syujet liniyasini tashkil etadi. Shu yerdan boshlab, Umar Shayx Mirzo vafot etgan kuni bir dasturxon atrofida saharlik qilgan Qutlug' Nigor Begim ishonchli odami Qosimbek orqali onasi Eson Davlat Begimga maktub yubordi. Bir vaqtning o'zida Fotima Sulton Begimning topshirig'i bilan Ahmad Tanbal Andijonga hokimiyatni egallash uchun jo'naydi. Ana shu yerdan boshlab romanning eng katta konflikti boshlanadi. Bu oxir oqibat Ahmad Tanbalning xiyonati, ancha sargardonlikdan keyin, Jahon Mirzoning Boburga qo'shilishi va mamlakatni qo'ldan ketishiga olib keladi.

Romanda Boburning ukasi Jahongir Mirzo, Ahmad Tanbal, Ali Do'st, Uzun Hasan, Shayboniyxon, malika Bayda va ularning

ayonlari alohida syujet liniyasiga ega bo'lib, ular Bobur va boshqa temuriylar bilan konfliktida tasvirlangan.

Shuningdek, romandagi Samarqand podshosi Sulton Mahmud Mirzo, uning o'g'li Sulton Ali, uning onasi Zuhra Begim, Abu Yusuf Arg'u kabi obrazlar bilan bog'liq syujet liniyalarida temuriylar saltanatidagi ma'naviy muhitning buzilgani va barcha imkon darajasida parchalanayotgan ulug' saltanatdan o'ziga kerakli ulush olib qolish maqsadida mamalakatni xomtalosh qilgani kerakli darajada ochib beriladi. Bu esa Boburning bobosi Temur boshlagan ulug' va ezgu maqsad yo'lidagi ishlariga zid edi.

Ayniqsa, Shayboniyxon bilan bog'liq syujet liniyalari romanda alohida tadqiqga loyiq sanaladi. Shayboniyxon romanda nomi Tohir Robiyani Samarqanddan qidirib, non olgani kelgan Mamatni Quvadagi o'sha hovlida Robiyani olib qochgan yigitlardan biri deb gumon qilgan lavhada Juman maymoq degan Robiyani olib qochgani haqida so'z yuritganda tilga olinadi:

“Bilmadim-ov. Uch-to'rt jildan beri ko'rganmasmen battarin jigiti edi, o'lib ketdimi yo boshqa podshoning xizmatiga o'tib ketdima. Podsho ham ko'p-ku. Toshkentda Mahmudxon, Tukistonda Shayboniyxon degani, Hisorda yana birovi”⁵⁶.

Shu yerda yozuvchi ikkita syujet liniyasini mohirlik bilan bog'laganiga guvoh bo'lish mumkin. Birinchisi Tohir va Robiya liniyasi bilan Shayboniyxon liniyasi bo'lsa, ikkinchisi Umarshayx Mirzo va Sulton Ahmad nizosidagi harbiy yurish va unda qatnashgan yigitlar bilan bog'liq syujet liniyalaridir. Bu esa o'z-o'zidan romanning markaziy syujeti Umarshayx-Bobur liniyasiga bog'liqdir. Demak, yuqorida syujet liniyalarining parallel ravishda rivojlanishi va murakkab syujet kompozitsiyasi ko'rinishini olishi shu yerda o'z isbotini topadi.

⁵⁶ Yuqoridagi manbaa. 116-bet.

Yana Shayboniyxon syujeti liniyasiga qaytsak, u Mamatning tilida aytiladi, so'ngra Zuhra Begimga maxfiy yuborgan xatida, Samarqandda atrofini bosib ketgan qo'shinlari timsolida ko'ri-nadi va oxirida o'zi obraz sifatida keladi.

"Bu qo'shinning sarkardasi Shayboniyxon Bog'i Maydonga, Ulug'bek qurdirgan mashhur Chil-sutun ko'shkiga kelib tush-gan edi. Shayboniyxon ko'shkning yuqorigi qavatida to'rt tarafi ayvonlik katta uyda peshin namozini o'qib ham bo'lgan ediki, yasovul kirib, Sulton Ali Mirzo bir necha kishilari bilan qal'adan xon huzuriga kelganini aytdi.

Shayboniyxonning kichik-kichik ko'zlari quvonchdan yaltil-lab ketdi.⁵⁷" Shundan so'ng Shayboniyxon bezaksiz jo'n kiyin-gani Sulton Alining esa sallasiga qadalgan duru gavharlar, to'-niga tikilgan oltin-u marvaridlar dabdaba bilan yaltillab ko'zga tashlanishi orqali yozuvchi Boburning ikki g'animi biri sodda kiyingan ayyor va hozircha g'olib Shayboniyxon va ikkinchi-si yengilgan, biroq buni tan olmay turli bezaklarga burkangan Sulton Alini o'zaro qiyoslaydi. U Abu Yusufning fitnasiga uchib, may ichgan va onasini xonga tortiq qilish maqsadida kelgan edi. Buni Abu Yusuf shu qadar ustalik bilan amalga oshirgandiki, Zuhra Begimning kalta o'y va ahmoqligi, Sulton Alining or-no-musi yo'qligini aks ettiradi.

Shayboniyxon Sulton Ali Mirzoni o'g'li va kuyovidan ham pastroqqa o'tkazadiki, bu bilan sen bizga munosib emassan degandek ishora qiladi. Umuman olganda, Shayboniyxon xoin va xiyonatkor shaxslarga nisbatan qattiqqo'llik bilan munosa-batda bo'ladi. Bu borada Samarqand darvozasini ochib bergan Xo'ja Yahyo va uning ikki o'g'li, oila a'zolarini haj safariga yubo-rish bahonasida Samarqanddan butun boyliklarini olib chiqib, Termiz yo'liga o'tishi bilanoq, Ohaklik tog'i etagida Ko'pakbiy

⁵⁷ Yuqoridagi manbaa. 159-bet.

navkarlari bilan hujum qilib o'ldirib yuboradi. Sulton Ali ham qochib ketayotganida Temur Sulton tomonidan qatl ettiriladi.

Mazkur bobda Shayboniyxonning o'ziga gard yuqtirmaydigan, ayyor, shafqatsiz ekanligi namoyon qilinadi. Bu bilan yozuvchi voqealar markazida turgan Bobur Mirzoga raqib sifatida Shayboniyxonni syujet markaziga olib chiqadi. Aslida bu ikki tarixiy shaxs real hayotda ham bir-birlariga raqib edilar. Ularni roman boshida yoki syujetning boshqa qismida uchrashtirsa ham bo'lar edi. Biroq yozuvchi boshqacharoq yo'l tutdi. Bu ham yozuvchining syujet qurishdagi o'ziga xos uslubi bo'lib, avvalo, asosiy maqsad Bobur va uning ulug'ligini ko'rsatish bo'lsa, ikkinchidan buzg'unchi, xalq boshiga kulfat keltirgan odam haqida badiiy asar yozish u qadar to'g'ri ish emasligi uqtiriladi. Lekin nima bo'lsa-da, tarixiy romanda tarixiy shaxs real ifodalaniishi yoki yozuvchining badiiy niyatini ifodalashi kerak. Chunki, "eng yaxshi tarixiy romanda tarix haqiqati badiiy haqiqat darajasiga o'sib chiqishi lozimligi asosiy shartlardan biri sanaladi"⁵⁸. Shuning uchun mazkur o'rindagi yutug'ini yana bir bor e'tirof etish lozim.

Romanda yana bir muhim syujet liniyasi bu Alisher Navoiy va uning ustozlari fiqh ilmi bilimdoni Abullays, tarixchi olim Xondamir, Muhammad Solih, shoir Binoiy hamda Ho'ja Abdulla obrazlari tizimidir. Ular yaxlit chiziqli bilan birlashib, ma'lum voqealar silsilasida birgalikda ishtirok etishmasa-da, Bobur va Shayboniyxon bilan bog'liq konfliktda asosiy vazifalardan birini bajarishgan.

Roman syujetlari orasida A.Navoiy va Bobur syujet liniyasi doimiy ravishda mavjud bo'lib, u dastlab 12 yoshida ot mashqidan so'ng mudarris huzuriga kirgan lavhada keltiriladi.

⁵⁸ Каттабеков А. Тарихий романлар хусусида баҳслар. Китобда: Ўзбек адабий танқиди.-Т.: "TURON-IQBOL" 2011.290- б.

“Unga yod bo‘lib qolgan sevimli baytlar goh turkiy, goh forsiy ohaglarda mudarris qiroatini yorib o‘tib, xayolida jaranglab eshitila boshladi:

“Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?”

“Zi mardoni jahon mardi biyomuz!”

Yod bo‘lib qolgan bu satrlar xayolidan o‘tayotganda, Bobur daftari orasiga solingan suratni mudarrisga ko‘rsatmaslikka urinib sekin oldi. Ko‘zlaridan ilhom va mehr yog‘ilayotgan Navoiy uzun qora chakmon kiygan, ingichka hassaga suyangan. Uning butun qiyofasi yaxshilik istab kelgan, har bir kishiga katta yaxshiliklar qila olishdan dalolat berardi. Bobur suratga qarab turib o‘zicha so‘radi: “Ulug‘ Amir, nasib qilsa, huzuringizga borsam, yo‘limda Axramanu ajdaho uchrasa, Farhodingizday hammasini yengib o‘tsam. O‘shanda siz menga ... she‘riyat tilsimini ochg‘uchi kalit berurmisiz?”⁵⁹

Shu yerdan boshlab Bobur va Alisher Navoiy syujet liniyasi doimiy ravishda asarda qatnashadi. Hazrat shoirimiz Bobur uchun o‘ziga xos ideal, komillik timsoli, ezgu ishlar rahnamosi va albatta she‘riyat sultoni sifatida uni turli mushkullardan saqlaydi, doimiy ravishda olg‘a intilishga, dushmanlari oldida ruhan tushmaslikka undaydi. Shuningdek, romanning turli joylarida har xil voqealar zamirida Boburning kuch-qudratini namoyon etuvchi, uning oliyjanoblik, mardlik, intiluvchanlik, tirishqoqlik, xalqparvarlik, bunyodkorlik, kechirimlilik fazilatlarini ko‘rsatishga undaydi. Masalan, yuqorida biz keltirgan Navoiyning xati bilan bog‘liq o‘rinda ko‘pchiligi yo‘lda, ot ustida xayoliga kelgan, jang-u jadallar orasida daftarga uzuq-yuluq yozilgan, tugallanmagan she‘rlar, xiyonatlar, sirdosh do‘st topolmay qiynalgan paytlari, hayotining og‘ir chog‘larida Navoiyni

⁵⁹ Қодиров П. Юлдузли тунлар. Бобур:Роман. – Т.: Ўзбекистон, 1990. – Б.36.

o'ylaydi. U kishining ham atrofidagi kishilar bevafo bo'lishgani, hatto Boyqarodek yaqin kishisi Alisher Navoiyning sirru-asro-riga sherik bo'lolmaganini anglaydi. Odam va odam, olam va odam, inson va jamiyat o'rtasidagi muttasil ziddiyatlarni tahlil qilishga intiladi.

Masalan, Bobur "Samarqanddagi hal qiluvchi olishuv" bo-bidagi oltinchi faslda Samarqandni qo'lga kiritgandan keyin, A.Navoiydan kelgan xat, opasi Xonzoda Begim bilan qurgan suh-bati va Kamoliddin Binoiy bilan uchruvda Alisher Navoiyning ajoyib fazilatlari keltiriladi: Ayniqsa, Boburning Navoiy bilan xayolan qurgan suhbat bolaligidagi kabi keltiriladi. Biroq endi bolalarcha havas, intilish, fantaziya va orzularga to'la muroja-at emas. Balki real hayotiy muammolar, yechimini kutayotgan savollar bilan A.Navoiyga murojaat qiladi: "Bobur qimmatbaho javonlariga kitoblar terib qo'yilgan xonayi xosning to'riga o't-di. Xushbo'y sandal daraxtidan ishlangan miz ustida Navoiydan kelgan oltin bog'ichli xat turibdi. Bobur miz oldiga to'shalgan zarbof ko'rpachaga o'ltirib, xatni boshqatdan o'qishga tushdi"⁶⁰

Ana shu yerda va yana boshqa o'rinlarda romandagi konf-liktlar inson va inson, shaxs va jamiyat, qahramonning o'zi-bilan o'zining kurashi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladiki, bu asar syujetining barcha qismlaridagi epik kechinma, badiiy g'oyani o'quvchi qalbi va ongiga muttasil uzatib turadi. Demak, roman-dagi konfliktning barcha ko'rinishlari ishtirok etgan va ular yo-zuvchining aniq maqsadini, yani milliy qadriyatlarga boy, uzoq va boshqalarga o'rnak bo'larli tariximiz borligini ochiq ifodalay olgan.

Aslida romandagi kulminatsion nuqtalar ham voqealar tu-guni kabi bir nechtaadir. Ulardan biri Bayda va uning Bobur bilan ziddiyati va podshohni zaharlashi bilan bog'liq voqea romanda-

⁶⁰ Yuqoridagi manba. 185-bet.

gi kulminatsion nuqtalardan biridir. Boshqasi esa, Bobur Mirzoning Humoyunga o'z jonini bag'ishlashi sanaladi. Yana biri, malika Bayda timsolida jamiyatdagi yozuv kuchlarga qarshi kurashning yakunidir.

Yechimlardan biri, Bobur Hindistonda yangi davlat barpo etgani bo'lsa, ikkinchisi, Humoyunni taxtga chiqishi va shu bilan Boburning hokimiyat uchun kurashuvchilar, turli amaldorlar, mutaassib brahman va shayxlar bilan hamda o'zi bilan o'zining kurashi qaysidir ma'noda yakunladi.

Romanda syujetning barcha qismlari aniq ko'rinadi. U bir nechta bo'lib, turli syujet liniyalari va syujet tarmoqlarida ketma-ket davom etadi va roman kompozitsiyasidagi rang-baranglik, romanga xos murakkab hayotiy ko'rinish va epik ko'lamdorlik bag'ishlaydi.

Xulosada aytish kerakki, asar qismlari, kompozitsion unsurlarni joylashtirishda, ya'ni kompozitsiya yaratishda me'yordan chiqib ketmasligi kerak, ya'ni kompozitsion komponentlardan foydalanishda biriga ortiq darajada e'tibor qaratish boshqalarining asardagi badiiy-estetik vazifasi ochilishiga soya solishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Kompozitsiya nima?
2. Kompozitsiyaga qaysi olimlar qanday ta'rif berishgan?
3. Kompozitsiyaning turlarini sanang.
4. Syujet kompozitsiyasining unsurlarini sanang.
5. Mazmuniy kompozitsiyani qo'llab she'r tahlil qiling.
6. Epik asardagi an'anaviy syujet kompozitsiyasini tushuntiring.
7. Syujet kompozitsiyasida qanday chiziqlar bo'ladi?
8. Obrazlar kompozitsiyasi deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidagi syujet kompozitsiyasi tahlilini davom ettiring va daftaringizga yozing.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A dictionary of literary terms and literary theory / J.A. Cuddon. – 5th ed. This edition first published , 2013. – 784 p. www.atibook.ir
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akadem-nashr, 2018. – 480 b.
3. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 1980. – 352 б.
4. Каттабеков А. Тарихий романлар хусусида баҳслар./ Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2011.
5. Пospelов Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978. – 302 с.
6. Рене Уэллек. Остин Уоррен. Теория литературы. – Москва: Прогресс, 1978. – 302 с.
7. Теория литературы. В двух томах. Том 1. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. – Москва: Академия, 2004. – 252 с.
8. Хализев Е.В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999. – 390 с.

10-MAVZU: BADIY OBRAZLAR TIZIMI

Reja:

1. Obraz haqida tushuncha
2. Obrazning spetsifik xususiyati
3. Obraz tasnifi
4. Obrazni trinar tahlil qilish usuli

Tayanch soʻz va iboralar: *obraz, personaj, qahramon, xarakter, tip, belgi, tahlil, badiiy obraz, badiiy-estetik vazifa, individuallik, umumlashmalik, ratsionallik, emotsional-sifatlik.*

Avvalgi mavzularda taʼkidlanganidek, badiiy soʻz asarning mohiyatini belgilaydi. Soʻz obrazga aylanib, yangicha badiiy olam hosil qiladi. “Soʻzning obrazga aylanishida material estetika obyekti boʻlgan soʻz sof estetika obyektiga aylanishi lozim. Bunda soʻz obrazning shakliy, maʼnoviy va baholash kabi aspektlari nuqtai nazaridan yaxlitda olib qaralishi lozim”⁶¹. Zero, badiiy tafakkur qilish jarayonida ijodkor birinchi galda real borliqdagi mavjudlikni yaxlit tizim va umumiy hodisa sifatida angelaydi. Lekin maʼlum detallarini boʻrttirib tasvirlaydi. Chunki asarga olinayotgan obyektning ichki, botiniy olamiga, fikr-oʻylariga yetib borish uchun unga estetik baho berish, yangi vazifa yuklash, soʻzni obrazga aylantirish kerak boʻladi. Ana shu idrok yoki anglash jarayonida asar oʻqiyotgan oʻquvchi koʻz oldida yoki xayolida voqelik obrazlar sifatida namoyon boʻladi. Bunda obraz asarda taʼsirchan ifoda vositalari bilan tasvirlanadi. Nati-

⁶¹ Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 33.

jada, u yanada badiiy (har gal kuzatgan kishini to'ldirantiradigan yangilik, eskirmaydigan topilma)lik xususiyatini namoyon etadi. Shuning uchun, obraz va obrazlilik so'z san'atining o'zak xususiyati sanaladi. Shunga asosan, badiiy obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiylikning birinchi kategoriyasi hisoblanadi. Masalan, To'maris tarixiy shaxs bo'lib, u badiiy asarga milliy qahramon sifatida kirgan. Misol uchun, Mirkarim Osimning "To'maris" qissasini olish mumkin. Yozuvchi eradan oldingi davrni shunday tasvirlaydi. Dastlab cho'lga bahor kelgani, bolalar quvlashib o'ynab yurgani va to'y sahnasi tasvirlanadi. Keyin To'maris, Sparangiz va kelin tasvirlanadi. Shu orqali yozuvchi bizga ikki ming besh yuz yil oldingi hayotni jonli namoyon etadi. Unda sokin vatan, farovon yashayotgan xalq hayoti berilgan. Bu voqelikning keng ma'nodagi tasviri bo'lib, u ham obraz deyiladi.

Obraz tor ma'noda aniq obraz, personaj bo'lib, To'maris obrazi turli she'riy asarlarda hozir ham ifodalanadi. Masalan, Xurshid Davronning "Mirkarim Osim yodi" nomli she'rida To'maris mehribon ona, vatanparvar kishi timsolida keladi:

*Hasratlar chulg'asa
Kuygich ko'ksini
Tunlar To'maris kelib ovutdi.
Oh, tortsa, Navoiy artdi ko'zini,
Inolchiq sovuti dilin sovutdi⁶².*

She'rda Mirkarim Osim umri haqida so'z yuritilar ekan, topilgan qadriyatni tiklash, milliy ozodlikka intilgan yozuvchiga To'maris madadkor bo'lgani aytilmoqda. To'maris Vatanni dushmandan himoya qilib, yurt ozodligini saqlagan jasoratli,

⁶² Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. -Toshkent: Sharq. 1997. - B.141.

uzoqni ko'radigan sarkarda, malika sifatida bugungi kunda ham milliy ozodlik uchun intilayotgan shaxsga tayanch bo'layotgani ta'kidlangan.

Demak, obraz dastlab keng ma'noda davr, hayot parchasi tasviri sanaladi. Tor ma'noda esa aniq qahramon ifodasi sanaladi.

Yuqoridagi holatda badiiy obrazning yuzaga kelishida muallifning borliqni hissiy idrok qilishi natijasida uning ongida shakllangan tasavvuri va unda qayta yaratilgan olam va odam tasviri bor. Shu yerda tasvirlar umumlashadi, shartlanganlik tusini oladi. Aynan shu xususiyatlari obrazni boshqa soha (masalan, falsafa, psixologiya)dagi obrazdan farqlaydi. Bu esa badiiy obrazning spetsifik xususiyati borligini angalatadi:

1. Badiiy obraz individlashtirilgan umumlashma obraz sanaladi. Masalan, yuqoridagi hikoyada berilgan To'maris shaxs sifatida qanday bo'lgani yoki u yashagan davrda cho'l, to'y tasviri shartlangani va umumlashgani obrazdir. Chunki Markaziy Osiyoda cho'l tasviri aynan shunday bo'ladi. Lekin yozuvchi uni aynan To'maris makon tutgan joyga nisbatan qo'llagan. Ikkinchidan, To'maris ham barcha ona kabi farzandi to'yini tashkillashtiradi, ammo aniqligi shundaki, u aniq qiyofa va harakatda, o'ziga xos fikrlash tarzida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihatlar uning umumlashma individuallashganini bildiradi. Badiiy obrazning ikki zid xususiyatni birlashtirishi ko'rinadi.

2. Badiiy obrazning ikkinchi muhim xususiyati – bu uning ratsional va emotsional sifatining birlashgani. Muallif ratsional, aniq hisobga va mantiqqa asoslangan fikrlash orqali obrazga ratsionallik beradi. Ammo shu bilan birga hissiylik ham kiritadi. Natijada bir obrazda teran fikrlash va jo'shqin hissiyot namoyon bo'ladi. Ratsionallik va hissiylikning bunday yaxlitlashuvi aniq ijodiy konsepsiya, maqsad bilan amalga oshadiki, bunda

obrazning kompozitsiyaning syujet, nuqtai nazar shakllari ham ahamiyatga ega bo'ladi. Ularda muammo, mavzu, g'oya kabi boshqa poetik masalalar ham yuzaga chiqadi.

3. Badiiy obrazning uchinchi xususiyati, uning ko'p ma'no-liligi yoki metaforik, assotsiyativlik kabi jihatlaridir. Chinakam ijodkor voqelik yoki harakatning ichki yaqinligi, o'xshashligidan kelib chiqib obraz yaratadi. Masalan, *"Muhabbat – chiroyli kapalak"* (Sh.Rahmon)

Obrazli tafakkur yuksak darajada assotsiativ sanalishiga sabab shuki, reallikda ko'rilgan bir narsa san'atkor xayolida butunlay boshqa bir narsani, u bilan mutlaqo aloqasi bo'lmagan narsani uyg'otishi mumkin. Natijada obraz yuksak darajadagi assotsiyativlik kasb etadi va obraz ko'pma'nolikka ega bo'ladi. Sh.Rahmonning *"Tungi manzara"* she'ridagi tabiat manzarasi keng ma'noda badiiy obraz hisoblanadi. She'rning birinchi mazmuni tabiat manzarasidir. O'z navbatida shoir bu yerda assotsiyativ fikrlash asosida ozodlik, shaxs erki, ruhiy holati haqida ham fikr yuritadi. Bunga she'rdagi bir qator detallar ishora qiladi: *"Soy sayramas, baqalar jimdir"*, *"Ingroqlarga to'lib ketgan..."*, *"Otim o'lgan, qilichim singan"* va hokazo, hokazo...

Badiiy obrazning keng tasnifi quyidagicha bo'ladi: 1) predmetlilik darajasiga ko'ra; 2) umumlashtirish darajasiga ko'ra (har qanday obraz umumlashma xususiyatga ega; Otabek o'z davridagi yigitlarning umumlashma obrazi); 3) tasvir va ifoda qatlamlari munosabatiga ko'ra (realistik obraz, ironik obraz, lirik obraz kabi).

Predmetlilik darajasi deyilganda, badiiy obraz tasvirlayotgan narsaning ko'لامي nazarda tutilib, bu jihatdan badiiy reallik to'rtta satxdan tarkib topadi: 1) detal-obrazlar; 2) voqea-hodisalar obrazi; 3) xarakter va sharoit; 4) badiiy reallik.

Badiiy asardagi obrazni tahlil qilishda yuqoridagi umumiy nazariy ma'lumotlar asosida ish ko'rish mumkin. Obrazlarni o'zaro solishtirib tahlil qilish obraz zimmasidagi yuklamani teran tushunishda samarali usul sanaladi. Masalan, ikkita o'xshash obrazni solishtirish orqali tahlil qilish binar tahlil, uch obrazni solishtirish esa trinar tahlil deyiladi. Aslida to'rt-beshtagacha ham tahlil qilish mumkin. Ammo bunda o'rtadagi muvozanat buziladi. Ba'zisiga ko'proq diqqat qilinadi. Natijada obrazlar barchasi ham yaxshi tahlil qilinmasligi mumkin. Biz quyida qush (burgut misolida) obrazining trinar tahlilini ko'rib chiqamiz.

Buning uchun Nurali Qobulning "Burgutlar cho'qqilarda yashaydi", X.Do'stmuhammadning "Qoyalardan balandda", Sh.Xolmirzayevning "Bandi burgut"⁶³ hikoyalarini obyekt sifatida tanladik. Mualliflar burgut obrazini yaratishar ekan, birinchi galda inson haqida fikr yuritishadi. Badiiy obraz – bu yozuvchiga badiiy-estetik ideal yordamida bevosita jamiyatni hayotiy shaklda ochish imkonini beruvchi inson xarakteri va taqdirini bayon qilish vositasi, tafakkur qilish shakli sanaladi. Yozuvchilar, avvalo, borliqni badiiy qabul qilishning bosh predmeti – inson hayoti ekanligini va yaratilayotgan asarning asosiy qirralari – hayotiy aniqlik qonuniyati va reallikda tasvirlanishini amalga oshirishgan.

Keltirilgan asarlardan "Burgutlar cho'qillarda yashaydi" hikoyasi 1981-yilda yozilgan. Shu yili "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida e'lon qilingan. "Qoyalardan balandda" hikoyasi 1986-yilda yozilgani manbada qayd etilgan. "Bandi burgut" hikoyasi esa 1996-yil yaratilgan.

⁶³ Qaralsin: 1) Qobul, Nurali. Oq kaphtarlar: Hikoyalar, qissalar, esse. –T.: Ўзбекистон, 1990. –Б.89-91; 2) Хуршид, Дўстмухаммад. Беозор кушнинг қарғиши. Hikoyalar. –T.: Шарқ, 2006. – Б.107-116; 3) Холмирзаев. Танланган асарлар. III-жилд. – Т.: Шарқ, 2009. – Б.5-28. Hikoyalardan olingan havolalardan keyin katta qavsda mazkur tartib raqam va kitob sahifasi ko'rsatiladi.

“Burgutlar cho‘qqilarda yashaydi” hikoyasi quyidagi ekspozitsiya bilan boshlanadi. “Sharshara dovonidagi hasharchilar o‘tovda tunab, ertasi ertalab Supa tekisligi orqali Baxmalga o‘tmoqchi edik. O‘ylaganimizdek quyosh botar-botmas dovonga yetib kelib, uch yuz metrilar chamasi balandlikdan tushadigan sharsharani tomosha qildik.

Uzoq yo‘l yurib charchagan ekanmiz, shekilli, hamma-miz barvaqt yotdik. Bunday havoda ikki soat uxlasang, bas, qushday yengil tortasan kishi. Men yarim kechadayoq toza havodan to‘yib uyg‘ondim. Tong yorishmay turib tashqariga chiqdim-da, sharshara tomon yurdim. Qarshimdagi qoyadan bir to‘p kaklik parillab osmonga ko‘tarildi. Ularning sayragan ovozi tog‘u toshda aks-sado berib, darani yoqimli kuy egalladi. Kakliklar galasi qoyaning sharshara boshlanadigan joyiga borib qo‘ndi. “Ertalabki suvga tushibdi”, deya xayolimdan o‘tkazdim”[1.89].

Yozuvchi mazkur lavhada tabiat tasvirini berar ekan, avvalo sharsharaga katta e‘tibor qaratadi. Bu yerda “sharshara” dastlab dovon nomi sifatida beriladi-da, so‘ngra sharsharaning o‘zi tasvirlanadi. Rivoyachi sharsharaning ulug‘ligini ko‘rsatish uchun bu yerdagi havo tozaligi, qoya va kakliklar galasi hamda archalarni ta‘riflaydi. Umumiy ma’noda joy, makon tasviri berilgan.

Shukur Xolmirzayev hikoyasi esa tuzilishi jihatidan ajralib turadi. U har biri nisbiy mazmuniy tugallanganlik va o‘ziga xos mantiqqa ega 15 ta kichik bandlardan iborat. Hikoya roviy tilidan so‘zlab beriladi va quyidagicha boshlanadi: “O‘shanda bir qarich jujuq edim. Teng-to‘shlarim bilan yozda tuproq changitib, qishda qorbo‘ron o‘ynab, bahor kezlarida ham o‘ziga xos ermaklar topib yurgan beg‘am, baxtiyor choqlarim edi”[3.3.]

Shukur Xolmirzayev roviyning to'rt-beshta tengqurlari bilan poliz paykallarida izg'ib yurishi, sabzi, lavlagi, kartoshka bormi kavlab olib, qishloq chetidagi g'arib shiyponga borib, o't yoqib, uning qo'riga top-tutganini tashlab pishirib yeyishini bayon qiladi-da, so'ngra gapni tabiat tasviriga buradi:

“Shunday o'tirishlarning birida havo aynib qoldi: qop-qora, xunuk uvada bulutlar tepamizni bir zumda qoplab oldi-da, xudoning qudrati bilan, tuxumdek-tuxumdek do'l yog'a ketdi.

Buning ustiga, osmon darz ketgandek momaqalldiroq qarsillaydi, chaqmoq chaqadi. O, inson bunday paytda o'jizligini nechog'lik aniq sezadi. Bu samoviy kuchlar qarshisida yo'q bo'lib ketadigandek sezasan o'zingni” [3.3.]

Bu parchada tabiatning tez o'zgaruvchanligi va uning kuchlari oldida odamning o'jizligi haqidagi hissiy-falsafiy mushohada beriladi. Sergak o'quvchida tabiat o'zgarishidan keyingi holatga qiziqish, o'jizlik haqidagi mulohazalarga monand teranlik hosil qilinadi. Shu o'rinda qadimgi kishi tasavvuri va mifik tushunchasi hozir ham yashayotganiga ham ishora qilgan deyish mumkin. Bu holat, ayniqsa, oxirgi gapda (*bu samoviy kuchlar qarshisida yo'q bo'lib ketadigandek sezasan o'zingni*) yaqqol seziladi. Demak, burgut mifik obraz ekanligi bilan bayondagi mifik tushunchaga ishorani qo'shsak, yozuvchi realizmida mifopoetik xususiyat borligi ko'rinadi.

Xurshid Do'stmuhammad asaridagi peyzajda esa quyosh, izg'irin va nochor burgut tasviri berilgan: “Qoya toshning kamgak yeridan quyoshning beozor tillarang nuri ko'rindi-yu, havo sovib ketdi. Quyosh o'zidan sovuq purkayotgandek bo'ldi, undan taralayotgan zarrin izg'irin qoya toshni yonlab-yalab o'tib, qoya yoqasida turgan burgutning qanotiga, bo'y-niga qadalayotgan edi. Burgutning oyog'i ostida g'o'dir toshga tegay-tegay deb osilib qolgan qo'ng'ir qanoti yelpig'ich-

day ohista tebrandi. Sovuq shamol qanotlarining ostidan yo‘l topib, uning mayin par qoplagan yumshoq biqinini izillatdi. Burgut bo‘ynini vazmin burib, shamol esayotgan tomonga qaradi”[2.107].

Bir qarashda, har uchchala yozuvchi ham tabiat tasvirini berar ekan, o‘quvchini bayon qilinadigan voqeaga tayyorlashga harakat qilgandek taassurot qoldiradi. Lekin har uch hikoyada peyzaj o‘ziga xos badiiy niyatni bajargan. Nurali Qobul bayonida sokin tabiat tasviri va roviyning ham sokin o‘y-fikrlari hikoya zamiridagi bag‘rikenglikni ko‘rsatsa, Shukur Xolmirzayev qora bulut tasviri, tuxumdek do‘l yog‘ishi orqali sokin bolalikning tugashi, bosh qahramon ongida keskin burilish sodir bo‘lishiga ishora singdirib yuborilgan. X.Do‘stmuhammad esa tasvir yuk-saklikdan va u yerning o‘ziga xos tabiatidan boshlanib, birinchi tasvirning o‘zidayoq ramziylik, hayot mashaqqatlari haqidagi, iroda kuchi haqidagi fikrni sezish mumkin.

Nurali Qobul o‘quvchida ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga mehr uyg‘otish kabilarga e‘tibor qaratgan deb aytish mumkin. Biroq, yozuvchi hikoya yaratar ekan, o‘zi topgan hayotiy materialni badiiy qayta ishlaydi, idrok qiladi, borliqning har bir parchasiga o‘z tafakkur tarzi va epik kechinmalarini joylaydi. Endi uni anglash, tushunish va tushuntirishda obyektiv omillar bilan birga muallifning subyektiv olami ham muhim o‘rin tutadi. Buni rivoyachi tavsiflayotgan peyzaj va sharshara orqali muallifning badiiy-falsafiy qarashlari uyg‘unlashganida aniq kuzatish mumkin:

“Sharshara hayotning davomiyligini, inson qayerda va qanday holatda yashamasin, duyoning hech kim o‘zgartira olmas qonunlari barcha uchun barobar ekanligini ta’kidlamoqchidek, tinimsiz sharqiraydi. Qoyalar bag‘rini yaxshilikka burkab turgan necha yuz yillik vazmin archalar ham sharsharaning fal-

safasini ma'qullagan kabi qo'l qovushtirib jimgina turishibdi" [1.89].

Mazkur peyzajda sharshara va archalar detal-obrazga aylanib, muallifning hayot haqidagi o'ziga xos badiiy xulosaga kelganligi ekspozitsiyadayoq ifodalanadi. Asar tagzaminidagi badiiy g'oya, ijtimoiy muammo haqida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Lekin rivoyachi buni ochiq aytmaydi-da voqealar rivojini tugunga olib boradi:

"Pastga qaytib tushganimda sheriklarim hali uyqudan uyg'onmagan, haydovchi bilan hasharchilardan biri nimanidir o'rtağa olgancha, tikilib turishar edi. Ajabo, burgut!.. Bir zum joyimda tik turib qoldim.

– Qanotidan o'q tegibdi, – dedi haydovchi yigit menga gu-nohkorona tikilib. – Mirzaqo'zi otib, tashlab ketgan ekan, olib keldim [1.90].

Mazkur harakat va dialog zamirida rivoyachini va u orqali o'quvchini o'ylantiradigan tugun boshlanadi. Bu, avvalo, ona tabiatning sofliги va hayotbaxshligidan bahra olib qaytgan rivoyachi hamda o'quvchi qalbida shafqatsizlikka nisbatan nafrat uyg'otsa, ikkinchidan, olam va odam munosabatining nozik tomonlari ustida bosh qotirishga undaydi. Chunki asarda ilk marta paydo bo'lgan burgut tasvirida uning chap qanotiga o'q tekkani, uzun va chiroyli qanoti endi unga bo'ysunmayotgani, qush azob chekayotgani, tumshug'i atrofidagi ajinlar osilib, uni yanada qayg'uli va ayanchli qiyofaga solgani hamda shu holatida ham burgut odamlarga nafrat bilan qarab qo'ygani, bir qarashda, kishini tashvishga soladi. Yozuvchi shu o'rinda burgutning xarakterli jihatini ham ochiq bayon qilgan:

"Shofyor yigit burgutni ko'tarib pastlikka qarab ketgan yo'lning chetiga olib borib qo'ydi. Tosh yo'l ustida burgut ikkalamiz qoldik. O'zimni panaroqqa olib, uni kuzata boshladim. U yo'l-

ning chap tomonidagi qumli qiyalikka chiqmoqchi bo'lb urinar, ammo silliq qumloqdan sirg'alib yana yo'lga qiyilib tushardi. Negadir pastlikka qarab ketgan tekis yo'ldan yurmas edi. Xiyol vaqt bir joyda qotib turgach, ilk qadam bosgan chaqaloqdek quyi tomon lapanglab bir-ikki yurdi-da, taqqa to'xtadi"[1.90].

Sokin tabiatning tasviri bilan boshlangan hikoya bir zumda burgut ruhiyatidagi iztirob, ayanchli holat va olg'a intilish bilan qorishib sharsharaning falsafiy xulosasiga izoh berayotgandek tuyuladi.

Yozuvchi burgutni bosh qahramon tasvirida berar ekan, bir gal unga ta'rif beradi, keyingi o'rinda xarakteriga xos jihatlarni ko'rsatadi. Bu faktlar ostida rivoyachi personajning xarakteri ham namoyon bo'ladi. Tabiatga oshnoligi (sharsharani ko'rgani borishi), kuzatuvchanligi, go'zallikni qadrlashi (kakliklar galasi qoyaning tepasiga, sharsharaning boshlanish joyiga qo'nishi, tepalik va qoyalarning sarg'ish-yashil rangga bo'yalib, tasvirlab bo'lmas, tikilib to'ymas go'zal qiyofaga kirgani) va ko'ngli bo'shligi (bo'g'ziga allanima tiqilib, "uni qo'yib yuborish kerak" deyishi)da personajning xarakteridagi turg'un qirralar aks etadi. Bu bilan bir qarashda muallif roviyning xarakteridagi xususiyatlarga urg'u berayotganiga, ijtimoiy jihatdan e'tiborga loyiq jihatlarga diqqat qilayotganiga o'quvchini ishontiradi. Ikkinchi tomondan esa burgutning dinamik xarakteri bilan mazmuniy munosabatga, ba'zi o'rinlarda esa ziddiyat (burgutning fojeasini tomosha qilish, kuzatish)ga kirishini ta'minlaydi. Hikoyaning kompozitsion tuzilishiga konfliktni olib kiradi. Bu ko'proq burgut va inson o'rtasidagi munosabatda ko'rinadi. Lekin hikoyada ikkinchi bir konflikt ham mavjud. Bu – olashaqshaq va burgut ziddiyatidir.

"Tog'u toshda yoqimsiz aks sado berib, olashaqshaqning tovushi eshitildi. Zum o'tmay u burgutning oldida paydo bo'ldi.

Yo'l chetidagi xarsangdan xarsangga sakragancha burgutning xatti-harakatlarini kuzata boshladi. Bu kattakon va beso'naqay qushning oyoqda zo'rg'a turganiga ishonch hosil qilgach, yaqinroq bordi. Yoqimsiz tovush bilan baralla qichqirib, uni maxaz qilgach, yaqinroq bordi. Burgutning tepasida charx urib gir aylanarkan, dumi bilan uni bir-ikki turtib ham o'tdi. Uning betinim shaqillashidan darak topgan ikkita olashaqshaq va yana allaqanday qushchalar paydo bo'lib qoldi. Ular endi bir to'p bo'lib yarador burgutni oshkora mazax qilishardi, go'yo burgut esa olis va qorli cho'qqilarga tikilgancha qotib qolgan edi. Bu holatga uzoq tikilib o'tirib bo'lmasdi..." [1.91].

Yozuvchi olashaqshaq va burgutning o'tasidagi ziddiyatini tasvirlar ekan, gap orasida undan ta'sirlangani, tabiatning ichki qonuniyatlariga aralashayotgan rivoyachining holatini ham qis-tirib o'tadi. Olashaqshaq va burgut konfliktidagi tashqi yechim-ni yo'qqa chiqaradi. Lekin ular o'rtasidagi mazmuniy muammo va g'oya endi roviy obrazining mazmuniga o'tadi. Hikoyachi vo-qealarga aralashadi:

"Burgutni ko'tarib qoyaning etagiga olib kelib qo'ydim-da, sekin uzoqlashdim. U anchagacha yarador qanotini yozib yot-di. Mening ko'zdan g'oyib bo'lganimga ishonch hosil qilgandan so'ng o'rnidan qo'zg'aldi. Yarador qanotini yig'ib olishga bir urindi-da, cho'qqiga qarab shu qadar tez yurib ketdiki, xiyol shalviragan chap qanotini hisobga olmaganda unga o'q tegma-gandek edi. Archalarni panalab men ham cho'qqi tomon bo-rardim. Kichikroq bir xarsangga chiqqanda u yarador va qonli qanotini cho'qiy boshladi. Ajabo! U alamdanmi, ochlikdanmi, og'riqning zo'ridanmi o'z go'shtini o'zi cho'qirdi..." [1.91].

Ana shu yerda burgutning qat'iyati va o'z vatani bo'lgan cho'qqilar tomon intilishi orqali burgut obrazining mohiyatini ochgan. O'z go'shtini cho'qiy boshlashi orqali esa undagi mato-

nat, jasorat, ozodlik va vatani uchun intilishida insonlarga ham o'rnak bo'larli jihatlar borligini ko'rsatgan. Ana shu tasvir hiko-
yaning kulminatsion nuqtasidir. Shundan so'ng, u yana cho'q-
qiga intilishi va archalar oralab qorli cho'qqilar tomon dadil
borishi bayon qilinadi. Shu yerda voqealar rivoji tugaydi. Un-
dan keyin rivoyachining burgut bilan bog'liq shaxsiy qarashlari,
badiiy-estetik mulohazalari keltiriladi. Mazkur fikrlarni hikoya
kompozitsiyasidagi o'ziga xos yechim, xulosa, xotima deb qa-
rash mumkin.

Hikoya kompozitsiyasiga diqqat qilinsa, uning avvalida
sharshara tasviri va so'ngra burgutning harakatlari beriladi. Bir
qaraganda bir-biriga uncha mos kelmaydigan ikki chiziqli syu-
jet bir-birini to'ldirib, yaxlit kompozitsiyani tashkil etgan. Ular-
ni syujet bayoni davomida doimo ko'rinib turadigan rivoyachi
va uning ichki olami bog'lab turadi.

Sharshara bilan bog'liq voqealar bayonidan keyingi badi-
iy-falsafiy xulosa bilan burgut voqeasidan keyingi badiiy-fal-
safiy xulosa o'ziga xos umumlashma fikrlar sifatida qadrlidir.
Chunki sharshara va burgutning vatani qorli cho'qqilar. Har
ikkalasida ham mag'rurlik, shiddat, mardlik va g'oliblik mav-
jud. Faqat biri yuksaklikda paydo bo'lib, pastga qarab intilib,
zaminga hayot bag'ishlaydi, hammani o'ziga qaratadi. Ikkin-
chisi esa pastdan yuksakka intiladi va u ham hammaning
e'tiborini o'ziga tortadi. U ham odamlar uchun hayot darsini
o'tagan.

Hikoyada garchi Mirzaqo'zi degan ovchi qatnashmagan bo'l-
sa-da, lekin uning burgutni otib, tashlab ketgani va haydovchi
yigit burgutni olib kelgani aytiladi. Mirzaqo'zi hikoyada roviy
bilan zimdan ziddiyatga kirishadi. Aniqrog'i, Mirzaqo'zining
burgutni otib ketishi oqibatidagi voqealar roviyga ta'sir qilib,
uni hayot va o'lim haqida fikr yuritishga undaydi.

X.Do'stmuhammadning hikoyasidagi burgut obrazi ham o'ziga xos bo'lib, baland tog', qoya tosh, sovuq shamol, quyosh, quyosh nuri, qum zarralari, oq dumli burgut, polopon, uya, quyon, yulg'un kabi detallar asosida, yagona makonda tasvirlangan. Avvalo, burgut va uning xarakterli jihatlari sof tavsifiy ma'noni anglatga, keyinroq u ramziy ma'nosini ham namoyon etadi.

Hikoyada qo'ng'ir burgutning ikki xil holatdagi voqealardan iborat syujet chizig'i vaqti-vaqti bilan o'rin almashinib, asardagi voqealarga o'ziga xoslik bag'ishlagan. Dastlabki voqealar liniyasida qanoti singan burgut ruhiy holati, qoya toshning shamolda yemirilishi huddi burgutning kuchi ham sekin-asta so'nib borayotgani bilan qiyoslanib berilgani ekspozitsiya sifatida keltiriladi (*Mazkur parcha yuqorida berildi*). Bu liniyada kuchdan qolayotgan, umri tugab, och qolgan va qanotlarini ham tutolmayotgan, polaponlari unga talpinayotgan, jufti esa kurashga chorlayotgan burgut tasvirlangan. Bunday voqealar oqimi xronologik tartibda davom etadi.

Ikkinchisida esa burgutning hayoti davomida eng yaxshi lahzalar tasvirlanadiki, u retrospektiv asosda bayon qilinadi. Asosiy voqealar oqimi bilan har ikki tomondan ko'p nuqta orqali ajratiladi.

"...Qo'ng'ir burgut odatda ayni shu damda ovga otlar, oftob chiqib, olam nogohon charog'onlashib ketishini sezmay, g'aflatda qolgan jonivorlarni osonlikcha changaliga tushirardi. Agar ular biron o'lja yoxud yemishga chalg'igan bo'lsa yana yaxshi – jonivorlarning o'zi qo'ng'ir burgut tajovuziga giriftor bo'lardi. Tong g'ira-shira yorishib, quyosh qoyadan ko'tarilgunga qadar qo'ng'ir burgut ikki qayta ovga borib qaytar, mo'ljallab turib yerga bamisoli toshdek otilishi besamar ketmas, u ovdan o'ljasiz qaytish nimaligini bilmasdi..." [2.108].

Peyzaj syujet voqealarini asoslab, ularning rivojlanish yo'nalishini belgilab beradi. Yozuvchi buni anglagan holda ana shu tasvir orasidagi quyosh, shamol, qoya, ov kabi detallar orqali burgutning kuchga to'la va kuchdan qaytgan paytini yanada kuchaytirishga harakat qilgan. Masalan, birinchi syujet chizig'ida qoyaning yemirilib borishi, undan ajralib chiqayotgan qum zarralari esa burgutning tumshug'i, parlari orasiga joylashib qolishi va qushning kuchdan qolishi o'zaro parallel ravishda tasvirlanadi. Quyoshning nurlari kuchaygan sari burgutning sovqotib borishi esa detal va obrazning ziddiyatli munosabati orqali burgutning holatiga izoh bo'ladi. Burgutning ovdan quruq qaytmasligi, tong mahallari ikki qayta ov qilishi yosh burgutning qudratidan xabar beradi. Shu tariqa yozuvchi ikkita syujet liniyasi orqali yaxlit syujet kompozitsiyasini yaratgan.

Asardagi muammo va mavzu peyzaj hamda harakatdagi obraz tasviri asosiga quriladi. Barcha tashkiliy masala va badiiy muammolar, asosan, peyzaj va kuzatuvdagi obraz holati orqali ochib beriladi. Shunga muvofiq asar ham, asosan, tavsifiy-ta'rifiy matndan iborat. Yuqoridagi ikki tasvirni o'zaro qiyoslasak, birinchisida nochor burgut qoya toshning kamgak yerida turgani tasvirlanadi. Kamgak shamol yoki boshqa sabab bilan qoya toshning o'yilgan joyi, pana, lekin uchish va qo'nishga qulay joy bo'ladi. Yozuvchi quyoshni sovuq purkayotganga o'xshatmoqda, uning quyoshdan taralayotgandek tuyulgan zarrin izg'irini qoya toshni yonlab-yalab o'tib, qoya yoqasida turgan burgutning qanotiga, bo'yniga qadalayotgan edi. Bu holat uning avzoyi badanini zirqiratib, unga og'riq beradi. Burgut bu dardga chidaydi va vazmin burilib shamolga qaraydi. Mazkur tasvirdagi darddan, og'riqdan bir qanoti chayqalib ketayotgan burgutning sukunatidan yozuvchi uning portreti va qoyalar tasviriga xos uyg'unlikni topgan. Axir tosh ham yemirilmoqda,

sovuq shamol yillar davomida uning ham har tomonidan o'tib, yalab, yulqab zarralarini uchirib yubormoqda. Shu yerda qoya va burgut o'rtasidagi ruhiy bog'liqlik ko'rinadi.

Ikkinchi tasvirda esa burgutning erta tongda ovga chiqishi, sokin uyquda, g'aflatda yotgancha burgutga o'ljaga aylangan jonivorlar fojeasi va bunga oddiy holdek qaraydigan burgutning shiddati tasvirlangan. Qarangki, shunday shiddat, kuch va o'tkir nigohga ega bo'lgan qudratli burgut ham ilojsiz.

Birinchii syujet liniyasining keyinida qo'ng'ir burgutning sherigi va polaponlari borligi tasvirlanadi:

“Bir sakrasa yetkulik joyda – uya yonida turgan juftiga, uning kiftidagi oqish hol-hol tangachalariga qaradi. Unga orqa qilib turgan jufti bo'ynini cho'zib uzoq-uzoqlarga alangladi. Qo'ng'ir burgut sherigining dumida bulutdek oppoq bir tutam patidan ko'z uzmay qoldi. Oq dumli burgut dam yonidagi toshdevor ortida tumshug'ini kappa-kappa ochib tinimsiz chag'illayotgan polaponlariga, dam olis-olislarga qaradi. Qo'ng'ir burgut ham boshini o'sha yoqlarga burdi, biror havfdan tahlikaga tushgandek shoshib suzib borayotgan bulut uyurlarini, daraxtzorni, bepoyon dashtu dalani o'tkir nazaridan o'tkazdi.” [2.108]

Peyzajda qoyalarda yashayotgan burgut va uning oilasi tasvirlangan. Ular och va tahlikada. Ularning so'zsiz turishi kishiga burgutlarning ayanchli ahvolidan darak beradi. Bu go'yo ramziy ma'noda, oilasidagi yoki jamiyatdagi ulkan falokatni oldindan sezib, ilojsizlikdan karaxt holga kelgan kishini, oilani eslatadi. Biz boshqa tasvirlarda ijobiy ma'noda kelgan bulut detalini bu yerda shoshilib, allaqanday dard, qayg'u, fojeadan qochayotgan odamlar to'dasiga o'xshatilganiga guvoh bo'lamiz. Shu holda ham hech qanday xavfdan cho'chimay, og'zilarini ochib, ota-onasidan ozuqa talab qilayotgan, yashashga, tiriklik zavqini to'tib ko'rishga intilayotgan burgutchalar timsolida keksa burgut

orzularining davom etayotganini ilg'ash qiyin emas. Polaponlar kekxa otaning ulkan orzularini, burgutlar an'anasini amalga oshirishga shay o'g'lonlarga o'xshaydi.

“Oq dumli burgut to'shini toshga bosib chog'landi-da, yengil sakrab qanotini yoygancha qoyadan pastga sho'ng'idi. Qo'ng'ir burgut bo'ynini qisib, hurpaydi, ko'zini yumdi. Shamolning zo'ridan tanasi chayqalib, qayrilma tumshug'i toshga taraqlab tegdi. U ko'zini ochib panjalariga, o'siq orqa tirnog'iga qaradi – toshni changalladi.

Polaponlari bexosdan qattiq chag'illadi. Qo'ng'ir burgut hurkib uyaga qaradi. Polaponlarining kalta, sarg'ish tumshug'i, besabr qoqilayotgan zaif qanotchalarining uchlari ko'rindi. Uya shamol yo'nalishidan chekkada – sovuq oqimdan panada edi”[2.108].

Oilasini boqolmay nochor, qanotlarini yig'ishga ham majoli qolmagan, sovuqdan qaltirayotgan burgutning tasviri uyda gi polaponlarining jovdirashi oldida fojeaviy tus oladi. Yozuvchi shu orqali peyzajga syujet liniyasidagi fojeaviylik pafosini singdirgan. Burgut obrazi orqali esa burgutning yuksaklikka ko'tarilish ideali, buyuklik timsoli ekanligini, lekin ayni tasvirda alamdanda ko'zini yumayotgan burgut ichki olamini tasvirlaydi. Ana shu o'kinch va dard kuchaygan lahzada yozuvchi lirik chekinish qilgandek burgutning yosh va kuchli pallasini tasvirga oladi:

“... vaqt-bevaqt qoyalar tepasida shamol jazavaga tushar, zalvorli tog' o'rkachlarini ontarib tashlamoqchidek uvillar, shunda qoya tosh ham dosh berolmaydigandek, bir yumalab, tubsiz jarlikka ag'darilib ketadigandek tuyulaverar, uyasini panoh tutgan qo'ng'ir burgut esa asov bo'ron bilan yuzma-yuz olishmoqchidek qanot yoyib unga qarshi borar, shamol uni dam o'ng, dam so'l tarafga itqitib tashlar, lekin burgut bo'sh kelmasdi. Jufti ha-

lolining sho'xligidan sarosimaga tushgan oq dumli burgut uning yoniga otilib borar, tahlikali "qiyeq, qiyeq"lab uyaga qaytar – uni uyaga chorlar..." [2.109]

Shu yerda nar qo'ng'ir burgut va oq dumli moda qushning o'zaro munosabati shamol timsolidagi hayot mashaqqatlari bilan uyg'unlashib o'ziga xos tasviriy-falsafiy xulosaga aylangan. Hayot ana shunday bo'ron va shamoli bilan, unga qarshi kurasha oladigan mard, jasur, dovyurak, tahlikaga o'ch odamlari bilan go'zal. Ular uchun panada, uyida yotish zavq bermaydi, kishining shashtini qirqadi degan tamoyil ustundir.

Lekin hayotning turli shamol – qiyinchiliklari sobit, qat'iyatli burgutni ham holdan toydirib o'zining azaliy hukmron ekanligini ko'rsatadi:

"Qo'ng'ir burgut o'zini shamoldan chetga olish uchun panjasini toshdan uzdi, uzdi-yu, munkib ketdi, qanotiga tirilib, hurpaydi. Titroq qanotidan panjalariga, undan tirnoqlariga ko'chdi. Po'sti tob tashlagandek, qavat-qavatlashib qotgan panjalari, qayrilma tirnoqlari oyog'ining ostidagi xarsang toshdek sarg'ayib ketgan, go'yo tirnoqlari toshga ildiz otgandek yoxud oyoqlari toshdan o'sib chiqqandek harakatsiz, jonsiz edi. Shu alpozda toshdan to'shini uzolmasa, boshini ko'tara olmasa, vassalom – qaytib qaddini tutolmasligi, hatto, hu-u jahannamga ag'darilishi hech gap emasdi. Lekin shu payt jonivor qanotlarining osti ... biqini ... shu qadar sovuqotdiki, butun tanasi muzga aylanayotgandek bo'ldi, qattiq hurkidi. ... Jon saqlash sezimi zo'r kelib, uya tomon og'ir va ohista surildi"[2.110].

Qarangki, dard, sovuqlik ham inson tafakkuri, hayotga bo'lgan muhabbatining bir zarrasi ekanligi shu tasvirda uqtirilgan. Yozuvchi bu bilan hayotning sovuq va issiq kuni bor, ular kishi irodasi, matonatini toblaydi, oq-qorani tanishga o'rgata-

di, demoqchi. Chunki burgut shu paytgacha o'zini mayllar qurshoviga topshirib yashaganligi keyingi peyzajda berilgan:

“... U shu chog'gacha hech qachon, hech narsadan o'zini tiygan emasdi. Vujudida parvoz mayli uyg'onib, bu mayl to'la istakka aylanib ulgurmasidanoq bir sapchishda qoyadan sho'ng'ir, qanotlarini dast yoyib osmon-u falakka ko'tarilar, vazmin va salobat bilan suzib borar ekan shamol oqimlari, bulut uyurlari, quyosh nurlarini tumshug'i, ko'zi, bo'yni va parlarida, et-u, suyaklarida his qilar, xuddi shunday masrurlik o'zga biror jonzotga nasib etmasligini bilgandek viqor-la uchaverar, uchaverar, uchaverardi...”[2, 111].

Yozuvchi shu tariqa ikkita syujet liniyasini o'zaro qiyoslab, yoshlik va keksalikni o'zaro solishtirib, vafo va sadoqat, bir-birga keraklik va ortiqchalik holatlarini tasvirlar ekan, qo'ng'ir burgut qoyadan pastga sho'ng'ib, o'zini qurbon qilishidagi ruhiy holatga tayyorlaydi. To'g'ri, hikoyada burgutning qoyadan qulashi yoki o'zini toshga urib o'ldirishi tasviri berilmagan. Lekin burgutning uchishga bo'lgan intilishi, nochor holatda ham tamshanayotgan bolalari, uchishga talpinayotgan ikki qo'ng'ir jo'jalar timsolida u hayotga, uchishga rag'bat topa oladi va uchishni qo'msaydi. Shu yerda birinchi syujet liniyasidagi voqealar tugaydi. Yozuvchi ko'p nuqta orqali o'zi mayda tafsilotlari, diqqat va mehr bilan tasvirlagan burgutining ucholmasdan toshparchin bo'lishini xohlamaganini ifodalaydi.

Aslida har ikkala syujet liniyasini alohida bir-biridan ajratib hikoya qilinsa ham asar badiiy jihatdan o'ziga xos bo'ladi va oldiga qo'yilgan badiiy-estetik, ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy vazifasini bajaradi.

Xurshid Do'stmuhammad hikoyasining qahramoni – burgut juda ko'p o'ylanadigan, o'tgan hayotini yodga oladigan, o'z harakati, xato va yanglishlarini qayta baholashga urinadigan,

umrining so'nggi daqiqalarida ham mag'rurligini yo'qotmagan irodali, qat'iyatli shaxs obrazidir. Burgut o'z hayotini qayta jonlantirar ekan, buni ayni chog'dagi holati bilan qiyoslaydi. Uni ramziy ma'noda qaynoq yurakli, sof niyatli haqiqiy inson deb atash mumkin.

Nurali Qobul yaratgan burgut esa real obraz sanalib, bayon qilingan voqea odam va tabiat munosabati, real hayot falsafasini ko'rsatib beruvchi ibratga aylangani yarador burgut va uning olashaqshaqlardan qochib, balandlikka intilishida ko'rsatib berilgan. Uning ortida bir inson qismati turgani, har bir peyzaj detali ortida esa real hayotiy muammo yoki to'siq bo'lgani kishini hayotsevarlikka, yaratishga undaydi.

Shukur Xolmirzaevning "Bandi burgut"i ham o'z ozodligi uchun intilishi, asirlikka ko'nikolmasligi va soxta burgutga qarshi kurashib qahramonlarcha jon berishi, bu bilan bolalar qalbida jasurlik, shaxs erki, ozodlik kabi fazilatlarni shakllanishiga turtki bergan. Shuning uchun ham burgutning vafotidan bolalar ta'sirlanadi, uni qachonlardir milliy qahramonlar ko'milgan joyga dafn etishadi.

Umuman olganda, hikoyalardagi shartli qismlar va ular mazmunidagi muammo, epik kechinma, g'oyaviy yo'nalish, tasvirdagi muvofiqlik kabilarni bir-biriga moslash juda qiyin kechadigan jarayondir. Chunki burgut hayoti, turmush tarzi va kurashining mantig'ini bilish yozuvchilardan uzoq yillik kuza-tish, o'rganish va sabr-toqatni talab etadi. Biz ko'rgan asarlarda muallif buning uddasidan chiqqan.

Dastlab yaratilgan hikoyada burgut obrazi odam va tabiat o'rtasidagi munosabat buzilishi sifatida asarga kirib kelgan bo'lsa, keyingilarida tabiat qonuniyatlari sabab ojiz qolgan burgutni ko'ramiz. Lekin har uchchalasida ham burgut mag'rur, erk, ozodlik uchun kurashuvchi obraz sifatida tasvirlangan.

Obrazlarning o'zini tutishi, badiiy asar doirasidagi harakati o'z mohiyatiga ko'ra, dinamikligi va tasvir uchun olingan paytdagi holatidan kelib chiqib, cheksiz o'zgaruvchanligi zamirida mualliflarning qat'iy, o'zgarmas g'oyalari, badiiy-estetik qarashlari yotibdi. Badiylikning ana shunday o'ziga xos qonuniyatlari borki, ulardan biri – bu shaklda o'zgaruvchanlik mazmunda esa o'zgarmaslikdir. Aslida har uchala hikoya ham shakl va mazmun birligi jihatidan o'ziga xos yaxlitlikka, puxtalikka ega. Yozuvchilar doimiy harakatdagi obrazlar, tasvirdagi harakatlar ostiga o'zlarining badiiy-estetik ideallaridan kelib chiqib qat'iy tamo-yil, o'zgarmas hayot qonuniyatlarini mohirlik bilan singdirib yuborishgan. Ana shu ziddiyatlar butunligi hikoyalarning badiiy strukturasini mukammal bo'lishini ta'minlagan.

Xullas, obraz tasavvurda, xayolda tug'iladigan mavhum tushunchalarning aniq va yaxlit ifodasini yaratishga xizmat qiladi. Bunda metafora, sinekdoxa, ramz, oksimoron kabi ko'chimlar, jonlantirish, mublag'a, sifatlash, ritorik so'roq, qarshilantirish, kabi ko'plab tasviriy vositalardan foydalaniladi. Natijada ijodkor o'ziga xos yangi badiylik yaratadi.

Nazorat savollari:

1. Obraz so'ziga ta'rif bering.
2. Obraz nimaga xizmat qiladi?
3. Obrazning spetsifik xususiyatlarini bilasizmi?
4. Badiiy obrazlarning qanday tasnifini bilasiz?
5. Badiiy obrazni qanday usullarda tahlil qilish mumkin.
6. Binar tahlil usuli deganda nimani tushunasiz?
7. Trinar tahlilning asosiy jihatlarini ayting.
8. Obrazlilik deganda nimani tushunasiz?
9. Badiiy obrazning estetik vazifasini bilasizmi?
10. Obrazlar kompozitsiyasi tushunchasini izohlang.
11. Burgut obrazi hikoyalarda qanday vazifalarni bajargan?

Mustaqil ishlash ushun topshiriq:

Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasida it obrazini tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Йўлчиев Қ. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. – Тошкент: Ma’rifat bitiklari, 2012. – 252 б.
2. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева З. Адабиётшунослик луғати. Қайта нашр. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 406 б.
3. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 33.
4. Милиев Сувонқул (Сувон Мели). Глобал илмий-бадиий талқин поэтикаси. Филология фанлари доктори (DSc.) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – 226 б.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.

11-MAVZU: USLUB VA TAHLIL MUAMMOLARI

Reja:

1. Uslub haqida umumiy ma'lumot
2. Uslubning individual va umumiy tushunchalari
3. Abdulla Oripov uslubi haqida
4. Erkin Vohidov uslubi
5. Uslub va ijodiy metod
6. Asar tahlili

Tayanch so'z va iboralar: *uslub, metod, kompozitsiya, kategoriya, shakliy unsur, individual uslub, antropologik xususiyat, ontologik tahlil, Abdulla Qahhor uslubi.*

Ma'lumki, barcha ijodkorlar hayotsevarlik, insonparvarlik, do'stlik, adolat, sadoqat, muhabbat, mehnatsevarlik kabi g'oyalarni qadim zamondan beri o'z asarlarida bir-biriga yaqin mavzularda, tilimizdagi mavjud nutq birliklari yordamida kuy-lab kelishadi. Lekin har gal bu asarlar biz o'quvchi, kitobxon-ga yangi asardek tuyuladi. Masalan, Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida va Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" ro-manidagi xalqparvarlik, adolat uchun kurash kabi asosiy g'oya-lar, sevgisi uchun kurashish mavzularida o'xshashlik bor. Yoki boshqa asarlarda ham shunday holatni kuzatish mumkin. Ma-salan, Hamid Olimjonning "O'zbekiston" qasidasi, A.Oripovning "O'zbekiston" qasidasi va M.Yusufning "Ulug'imsan" she'ri va-tanparvarlik g'oyasi haqida, oxirgi ikkita vatan urushi tarixi ha-qida bayon qiladi. Ammo ular boshqa-boshqa asar sifatida e'ti-rof etiladi. Shu yerda uslub degan tushuncha mazkur asarlarni farqlashga yordam beradi.

“Uslub” arabcha soʻz boʻlib, leksik jihatdan olganda “tartib”, “usul”, “yoʻsin”, “marom”, “tarz” kabi maʼnolarni anglatadi. Termin sifatida esa badiiylilikning muhim kategoriyasi sanaladi. Bunda badiiy asarni turli ifoda vositalari asosida qurilishini belgilovchi umumiy struktural tamoyil nazarda tutiladi. Demak asar uchun toʻplangan materiallarni yozuvchi badiiy-estetik niyati, maqsadidan kelib chiqib tuzishi uslubni anglatadi. Bunda har bir ijodkorning voqelikni badiiy idrok etish va ifodalashdagi oʻziga xos qiyofasi koʻrinadi va unga uslub deyiladi. Masalan, Abdulla Qahhor uslubida gaplar qisqa, maqollar koʻp, hajmi kichik, mazmunan teranlik kasb etadi. Buni “Bemor”, “Dahshat”, “Oʻgʻri” hikoyalari misolida kuzatish mumkin. Shukur Xolmirzaevda esa batafsil tasvir, kengroq bayon qilish va hajman kattalik boʻrtib turadi. Masalan, “Bandi burgut” hikoyasi hajm jihati-dan kattaligini keltirish mumkin.

Maʼlumki, hayotda hech qachon bir odam fikrlashi, bilimi, saviyasi, tushunchasi, dunyoqarashi bilan ikkinchisiga aynan oʻxshamaydi. Toʻgʻri, bir davrda yashaganligi, bir muhitda tarbiyalanganligi sabab baʼzi jihatlarda yaqinlik boʻladi. Ammo aynanlik boʻlmaydi. Chunki har bir odam borliqni oʻzicha anglaydi, tafakkur qiladi va ifodalaydi. Bu tabiatning oʻzgarmas qonuniyati sanaladi. Shu tamoyildan kelib chiqilsa, haqiqiy ijodkorlarning har biri oʻziga xos betakror badiiyat olamini yaratadi. Har bir ijodkor olamni oʻz tafakkur tarzi, tajribasi, hissiy angلامي, bilimi, maqsadi, ideali kabi qator omillardan kelib chiqib tushunadi, anglaydi. Bu esa fransuz olimi, tabiatshunos Lui Byufonning “odam uslubdir” degan mashhur sermaʼnoli, metaforik taʼrifini yaralishiga asos boʻlgan.

Adabiyotda uslub faqat shaxs “oʻzlik” bilan cheklanmaydi, faqat individual belgilarning yigʻindisi ham emas. Unda, albat-ta, “oʻzlik” ni vujudga keltirgan, oʻstirgan ijtimoiy muhitning

ta'siri bo'ladi, unda "shaxsiylik va umumiylik juda murakkab dialektik birlikda bo'lib, o'zaro shartlangan, bir – birini ifodalaydigan" tarzda voqea bo'ladi. Shunga asosan, romantik tasvir uslubi, realistik uslub, davr uslubi, zamonaviy uslub, milliy uslub, adabiyot uslubi, tasviriy san'at uslubi... degan sohalarning mavjudligini ham tan oladi. Masalan, hazrat Alisher Navoiyning "El netib topgayki meni, men o'zimni topmasam", – degan fikrida shaxs o'zligini topishi, boshqalardan ajralib turishi, xususan, badiiy ijodda ham o'z uslubini topishi, badiiy ifodada boshqalardan farqlanishi, shundagina qolganlar uni eshitishi, asarini o'qishi mumkinligi haqidagi mulohaza yashiringan. Demak, uslub bu – odam, uslub bu – ijodkorning o'ziga xosligi, kabi ta'riflarga mos keladi. Bu esa ijodkorning badiiy ifodada o'ziga xos yo'sini, individual uslubini ham nazarda tutadi.

Ijodkorning individual uslubini yuzaga keltiruvchi eng zarur omillardan yana biri – ijodkorning hayotni, yashash mazmun-mohiyatini, uning qa'ridagi hayotiy haqiqatni anglay olishi hamda zarur vaqtda badiiy ifodalay bilishida ham ko'rinadi. Chunki ijodkor inson sifatida borliqni, jumladan, insonni, jamiyatni, olamni, mavjudlikni anglar ekan, anglagan tushunchasini umuminsoniy g'oya va tamoyillar, o'zi mansub xalq ideali va davr qarashlari doirasida shakllantiradi. Demak, uslub ijodkorning borliqni badiiy anglashi, mavjudlik, hayot va olam ustida mulohaza yuritishi, idrok qilishi, ularning mohiyatidagi haqiqatni kashf etishi va so'z vositasida obrazli ifodalay olishini anglatadi. Anglangan ana shu badiiy-estetik yuklamalarni boshqalarga o'xshamaydigan tarzda ifoda qilishi uslubni bildiradi. Uslub doim shoir (yozuvchi)ning butun borlig'idan – tabiatidan kelib chiqadi va har bir yaratgan asarida ana shu o'ziga xos olamning hayotbaxsh nurini – insoniylashgan tuyg'ularini tiriltiradi, ko'p-ga ulashadi, ezgu tuyg'ular tarbiyachisi vazifasini o'taydi. Shu-

ning uchun ham uslub *“kuchsiz adib – yozg’uvchining asarlarida o’zini ochiq ko’rsata olmaydir. Kuchsiz yozuvchilarning uslublari bir-biriga o’xshab qoladir”* (Fitrat, 26-bet). *“Uslub zamon bilan o’zgargani kabi shaxs bilan ham o’zgaradir.* Hayot shoirni boyitgandek, tajribasini oshirganidek uning uslubini ham toбора sayqallashiga sabab bo’ladi. Lekin shoir(yozuvchi)ning *“o’zligi”* xuddi gen belgilaridek asardan asarga o’taveradi.

Fikr-mulohazalarimizni isbotini ko’rsatish maqsadida A.Oripov va E.Vohidov she’rlarining o’ziga xos belgilarini ajratib ko’raylik:

Abdulla Oripov: Kechinma chuqur falsafiylik bilan qorishib keladi.

*Eshilib, to’lg’onib ingranadi kuy,
Asrlar g’amini so’ylar munojot.
Kuyi shunday bo’lsa, g’amning o’ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod.*

Hayotning dramatik jihatlarini ta’sirli his-tuyg’u bilan tasvirlaydi.

*Kulma, nega kulasan,
Xijolat chekkanning holiga.
Nega qo’l tekkizding kambag’alning
O’g’ridan qolgan moliga.*

Romantik tabiatli, xayolotga boy lirik qahramoni bor. Bunga 60-70-yillarda yaratgan she’rlari misol bo’ladi. *“Bahor kunlarida”, “Kuz xayollari”, “Noma’lum qiz suratiga”, “Qani, nay ber menga do’stginam”, “Otello”, “Avlodlarga maktub”, “Kuzak shamollari”, “Noma’lum odam”* kabilar shular jumlasidandir.

Erkin Vohidov hayotni ko'proq yengil yumor va kulgi bilan ifodalashga usta, turli latifalari, hangoma sifat she'rlarini misol sifatida keltirish mumkin. Quyidagi lirik she'ri ham shu turkumga mansub:

*Bolalarni shaytonlardan qo'rqitmangiz,
Bobov keldi deb ko'rpaga berkitmangiz.
To ulg'ayib duch kelganda "bobov"larga,
O'xshamasin itdan qo'rqqan soqovlarga.*

Lirik qahramonining bag'ri kengligi, har bir voqelikni detallari bilan atroflicha tasvirlab she'rga kirita olishi bilan ajralib turadi. "Yoshlik devoni" ga kirgan g'azallari, jumladan, "Uzum" she'ri misol bo'la oladi.

*Termular shabnamli yaproq – ostida pinhon uzum.
Lablaringga yetmoq istab tong sahar giryon uzum.
Oftob mashshotasi tok sochini nuridan tarab,
Zangining bo'yinga osmish shodai marjon uzum.*

Ikki shoir ijodidagi bu kabi o'ziga xosliklar individual uslub hisoblanadi. Ular dunyoni o'zlariga xos tarzda idrok qilishdi va tasvirlashdi. Ana shu xususiyat uslubni belgilaydi. Bu tamoyil barcha yetuk ijodkorlarga xosdir.

Badiiy uslub har bir shoirning, har bir yetuk asarning, har bir davr adabiyotining o'ziga xos barcha xususiyatlarini qamrasa, badiiy metod muayyan guruhga mansub san'atkorlar ijodining umumiy va mushtarak barcha belgilarini o'zida tashiydi. Bu xususiyat va belgilar hayot materialini tanlash, umumlashtirish, baholash, aks ettirish borasidagi umumiylik va ayni paytda, ana shu umumiylikning yakka shaxs (shoir) talanti, qudrati

ila “pishib yetilishidir”. Ko‘rinadiki, garchi uslub va metod bir-biriga o‘xshamasa-da, lekin ular birlashganda, bir-biri bilan mushtaraklik kasb etganda voqeaga aylanadilar, ana shundagina ular yaratish xislatiga, ta’sirdorlik fazilatiga, go‘zallikni bunyod etishga qodirlik kasb etadi.

Bundan ko‘rinadiki, badiiy asar yaratilganidanoq, uslub ham, metod ham tug‘iladi. Nazariy adabiyotlarda aytilganidek, dastavval, romantizm, keyinchalik yoki to‘g‘rirog‘i XIX asrga kelib realizm dunyoga keldi degan tushuncha rad etiladi. Demoqchimizki, uslub va usul (metod) adabiyotning paydo bo‘lishi bilan bir vaqtda tug‘iladi. Faqat adabiyotning rivoji, kamolot sayin o‘sishi, g‘oyaviy badiiy kashfiyotlarning umumlashtirilishi va saboqlariga bog‘liq holda uslub ham, usul ham turfa xillik kasb etadi; jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlarga javob tarzida usul ham, uslub ham yangicha sifat kasb etib, bahor yanglig‘ qayta tug‘ilib boraveradi.

Ijodning ikki tipi sifatida dastlab telism va norealizm metodlari ajratiladi. Ular turli-tuman davrlarning, jamiyatlarning talablariga doimo javob berib kelmoqda, ko‘pincha, badiiy asarlarda ijodning bu janrlari qo‘shaloqlashgan bo‘ladi. Realistik asarda romantizmning xislatlari yordamchi vazifani bajarsa, romantik asarda realizmning unsurlari ham shunday vazifani o‘taydi. “Xamsa” (Navoiy)da ham, “Qiyomat” (CH.Aytmatov)da ham, “Yolg‘izlikda yuz yil” (G.G.Markes)da ham, “O‘tgan kunlar” (A.Qodiriy)da ham bu holat yaqqol ko‘zga tashlanilishi va barchaga ayonligi isbot talab etmaydi.

Yana shuni ta’kidlash lozimki, muayyan shoir ijodida, muayyan asarda yo romantizm, yo realizm doimo yetakchilik qiladi. Professor Abduqodir Hayitmetov ilmiy xulosalari ham shu hodisalarni isbot qiladi. Uningcha, Navoiyning asosiy metodi-romantizm, ayni paytda, uning Said Hasan Ardasheriga yozgan

maktubi, “Mahbub ul-qulub”, satirik gʻazallari va qitʼalari, “Lison ut-tayr”dagi baʼzi hikoyatlari realistik xarakterdadir.

Albatta, har bir sanʼatkorning “oʻziga xos”ligini unutmaslik kerak. Birida isyonkorlik, birida jamiyat bilan kelishib yashaydigan donolik ustun boʻlishi ham mumkin. Biri realliklarga chiday olmay, biri undan koʻra orzular dunyosida yashashi-oʻzini voqe qilishi ham tabiiydir.

Jumladan, Alisher Navoiy inson haqidagi orzu havaslarini akslantiruvchi asarlar yozgan boʻlsa, uning yosh zamondoshi Bobur oʻz zamoni voqea va odamlarini haqqoniy, real tasvirini beradi. Gʻ.Gʻulom, H.Olimjonlar voqelikni ulugʻlagan boʻlsalar, A.Qodiriy, Choʻlponlar bu voqelikdagi nohaqliklardan isyonga keladilar. Mirmuhsin, Gʻ.Gʻulom, Shukrullolarda jamiyat bilan kelishib yashash ustunlik qilsa, A.Oripov, E.Vohidovlarda bu jamiyatning kirdikorlarini fosh etish, yuksakroq voqelikni istash tuygʻulari kuchlilik qiladi va hokazo.

Norealizm tarkibiga realizmga kirmaydigan klassitsizm, romantizm, modernizm barcha yoʻnalish va oqimlar kiritiladi. Bu metodning bosh xislati “idealga moslab hayotni qayta yaratish” (V. Belinskiy)dir, yaʼni orzu qilingan voqelikni tasvirlashdir; uni goʻzal va mukammal hayot tarzida koʻrsatishdir; ana shu hayot qahramonlarining afsonaviy kuch-qudratga egaligini, moʻjizakorligini ideallashtirishdir. Esxilning “Prometey”, Sofoklning “Shoh Edip”, Evripidning “Elena”, Navoiyning “Xamsa”, Rustavelining “Yoʻlbars terisini yopingan pahlavon” kabi asarlarida odamlarning xayolda qanday boʻlishi kerak boʻlsa, shunday tasvirini berilgani ham yuqorida aytilgan bosh xislatni tasdiqlaydi. Jumladan, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod real shahzoda obrazi emas, balki, Navoiy orzu qilgan hukmdor timsolidir. U shahzoda boʻlishiga qaramay, hunar egallaydi, ilm-fanni chuqur oʻrganadi. Yoshligidanoq moʻjizakor

kuch-quvvatga ega bo'ladi, ming-minglab odamlar eplay olmagani ishlarni bajaradi. U teshasi bilan arman tog'i toshlarini xuddi pichoq sariyog'ni kesganday kesib, kanal qazadi; Xisravning minglab qo'shini ko'ngliga g'ulg'ula soladi, ularga bir o'zi bas keladi...

A.Oripov va Zebo Mirzoning ba'zi she'rlarida romantizm kuchli ekanligini ko'ramiz. Uning qahramoni mehru muhabbat rishtalari bilan bog'langanlar birga yashaydi yoki birga rixlat qiladi; bu vafoning, sadoqatning, insoniylikning, poklikning, niyatning yetukligi natijasidir; romantik tasvirning qudratidir.

Romantik metodning asosiy xususiyatlaridan yana biri har qanday jamiyat (quldorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializm) ning antigumanistik mohiyatini doimo fosh etish va qoralashdir. Ijodda va hayotda erkinlik, shaxs ozodligi va komilligi uchun kurashdir. Bu xususiyat hamma romantik ijodkorlar faoliyatida pafos darajasiga ko'tarilgan, o'lmaydigan ruh bag'ishlaydigan "hamma xalqlarda va hamma zamonlarda umumiy bo'lgan hodisadir" (V.Belinskiy).

REALIZM. Bu metodning bosh xislati: borliqni haqqoniyligi bilan qayta tiklash bo'lib, bu qonuniyat – adabiyotning tug'ili-shidanoq paydo bo'lgan bo'lib, uning tarixiy rivojlanish taraqqiyoti davomida to'xtovsiz tarzda sayqallashdi, yangi-yangi xususiyatlar dunyoga keldi, tobora boyib takomillashishda davom etmoqda.

Tarixda shaxs va jamiyat orasidagi ijtimoiy munosabatlarni bugungidek badiiy ta'sirchan va haqqoniy (sotsial va psixologik determinizm (shartlanganlik)ka asoslangani holda) aks ettirish darajasi bo'lmaganligi ayon, lekin, ayni paytda, bugungi darajaning yuzaga kelishida o'tmishdagi realizm poydevor bo'lgani ham haqiqatdir. Bobur, Maxmur, Turdi, Muqimiy, Furqat, Erkin

Vohidov, S.Sayyid, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo kabi shoirlar ijodi lirikadagi realizmning namunalaridir.

Realizmning estetik prinsiplaridan yana biri – hayot voqea – hodisalarini haqqoniy detal va tafsilotlar vositasida tipik xarakterlarni tipik sharoitda tasvirlashdir. Ana shu tasvir asosida kishilik jamiyati taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ijtimoiy – ma'naviy muammolar turishi, ular badiiy umumlashtirilishi, tipiklashtirilishi zarur.

Romantizm va realizm metodining barcha xususiyatlari, xislatlari haligacha voqe bo'lgan emas. Shundan bo'lsa kerakki, hech kim ularga mukammal ta'rifni ham bera olgani yo'q.

So'ngi paytda o'zbek she'riyatida “modernizm” atamasi ko'proq ishlatilmoqda. Jahon she'riyatida “postmodernizm”(eron, rus she'riyatida bunga misollar ko'p.) Lekin o'zbek adabiyotida bu atamalarga aniq javob topish mushkul. Chunki, modernizm tushkunlik, xudosizlik va an'anaviylikka qarama-qarshi ravishda Yevropada yuzaga kelgan yo'nalish bo'lib, uning yigirmaga yaqin oqimlari mavjud. Bizning xalqimiz nisbatan konservator, u o'z an'alariga sodiq, xudojo'y xalq. Shunday holatda modernizmning o'zbek adabiyotidagi o'rni katta bo'lmaydi. Ammo bitta-ikkita unsurlar uchrashi mumkin. Masalan, Faxriyorning “Geometrik bahor” she'riy turkumiga o'xshab ammo ular o'quvchiga singimaydi.

Umuman olganda, uslub va usullar ijodning muhim badiiyat masalasi bo'lib badiiy tahlilda doimo diqqat qilinishi zarur bo'lgan jihatdir.

Nazorat savollari:

1. Uslub va metod haqida tushunchangizni gapirib bering.
2. Struktural tamoyil nimani anglatadi?
3. Individual uslub deganda nimani tushunasiz?

4. A.Oripov va E.Vohidov she'rlarini taqqoslab ularning uslublarini aniqlang.

5. Romantizm metodini tushuntiring.

6. Realizm metodini tushuntiring.

7. Modernizm haqidagi fikringizni ayting.

8. Modernizmning qanday oqimlari mavjud?

9. Simvolizm nima?

10. Postmodernizm haqida tushuncha bering.

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

Bahodir Karimovning "Adabiyotshunoslik metodologiyasi" (T.: Muharriri, 2011. – 88 bet.) nomli qo'llanmasini o'qib, konspekt qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – T.: Muharriri, 2011. – 88 b.

2. Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2006. – 164 б.

3. Йўлчиев Қ. Постмодернист адиблар. – Фарғона, 2011.

4. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 364 б.

5. Поэтика: слов, актуал. терминов и понятий / [гл. науч. ред. Н.Д. Тамарченко]. – М.: Издательство Кулагиной; Intrada, 2008. – 358 с.

6. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 336 б.

12-MAVZU: LIRIK ASAR TAHLILI

REJA:

1. Mavzuning dolzarbligi
2. She'riy asarni tahlil qilishning usul va yo'llari
3. Lirik asarda ham syujet bo'lishi haqida
4. G'azal tahlili
5. Sonet tahlili

Tayan so'z va iboralar: *she'r, janr, kichik lirik janrlar, badiyat, obraz, tahlil usullari.*

Adabiyot o'qitish metodikasida she'riy asarlarni tahlil qilish muammosi so'nggi yillarda yanada ko'proq dolzarblik kasb eta boshladi. Bu bir tomondan she'riyatdagi ramziylik, ishoraviylik, serqatlamlilik kabi masalalar bilan bog'lansa, ikkinchi tomondan badiiy tafakkurda yuz bergan evrilishlar she'rning talqin va tahlilidagi variantlilikka olib kelmoqda. Masalan, Rauf Parfi, Xurshid Davron, Anvar Obidjon, Abdulla Sher, Farida Afro'z, Faxriyor kabi shoirlarning birlik va uchlik she'rlari o'quvchini fikrlashga undashi, qisqa shaklda teran mazmun ifodalashi bilan badiiy so'zga bo'lgan e'tiborning kuchayganini ko'rsatadi. Bu esa maxsus tayyorgarliksiz mutolaaga kirishishga unchamuncha o'quvchiga muammo bo'lishi tabiiydir.

Adabiyotshunoslikda she'riy asarlar tahlilida quyidagicha yo'l tutish odat tusiga kirgan. Aksariyat tanqidchi va adabiyotchilarimiz dastlab lirik asarning janriga xos xususiyatlariga e'tibor berishadi. Chunki g'azal, ruboiy, tuyuq, to'rtlik, ikkilik, birlik, uchlik she'rlar janr jihatdan o'zaro farqlanadi. Demak,

avvalo, she'rning janri aniqlab olingach, asar mazmuni va uning umuminsoniyligi, salmoqdorligi, xalqchilligi, milliyligi, tarixiyligi, zamonaviyligi kabi muammolarni hal etish lozim bo'ladi. Masalan, she'riy asar o'zining g'oyaviy mazmuni, mavzusi, muammosiga ko'ra yosh, millat, jins, diniy e'tiqod, ijtimoiy mansublik tanlamasligi kerak. Ya'ni she'riy asarda subyektiv olam yoki u orqali anglangan borliq tasvirlanadi. Subyektiv voqelikning esa moddiy chegarasi, to'sig'i bo'lmaydi. Masalan, Alisher Navoiyning g'azallaridagi lirik kechinma jinsi, yoshi, millatidan qat'iy nazar barcha inson uchun umumiylik kasb etadi.

Har bir she'rda bosh mavzu va yordamchi mavzu bo'ladi. Bosh mavzu asarning umumiy o'q ildizi sifatida asar tarkibidagi so'zlar badiiy-estetik funksiyasini tahlili natijasida yuzaga chiqadi. Yordamchi mavzu esa bosh mavzuni izohlaydi, to'ldiradi. Biroq ba'zan asosiy mavzu yordamchi mavzu bilan berkitilib, "kosa tagida nim-kosa", "gap tagida gap" tarzida aytiladi.

Asarning mavzusi tahlil qilinar ekan, uning problematikasi (muammo va muammolar tizimi) ham hal etilishi lozim. Masalan, O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning "*Halok qildi uni... xushxabar*" she'rini tahlil etish mumkin. She'r birlik janrida bitilgan. Mavzusi xushxabardan vafot etgan kishi haqida. G'oyasi esa insonparvarlik. Muammosi esa xushxabardan o'lmoq. Chunki xushxabardan o'lishning o'ziyoq kishini xushyorlikka undaydi. Hayotda shunday kishilar borki, biror muhim narsani kutib yashaydi va maqsadiga erishguncha faol hayot kechiradi. So'ngra esa avvalgi faolligi yo'qolib, o'z o'rnini boy beradi. Masalan, unvonga erishguncha izlangan odam unvon olgach, izlanmay qo'yadi. Bu Anvar Obidjonning yuqorida keltirilgan she'ridan anglashilgan dastlabki mazmundir. Yoki u kimningdir fojeasini kutgan bo'lsa, unga yaxshilik xabari yetib kelgan bo'lishi va hasad uni halok qilgan bo'lishi ham mumkin. Bu ikkinchi

mazmuniy qatlamdir. She'rdagi mazmuniy qatlamlarni anglashning ikki tomonlama qiyinchiligi bor. Birinchisi so'zlarning joylashishi bo'lib, shoir unga "halok qildi", "xushxabar" semantik belgilari orqali o'ziga xos ma'no yuklagan. Bir qarashda bu ikki belgining ma'nosi zid ekanligi kishini ajablantiradi. Lekin ana shu zidlashish yaxlit holda she'rdagi ma'no va kechinmaning dinamik tarzda o'sishini va yangi mazmunga aylanishini ta'minlaydi. Misradagi ko'p nuqta esa lirik qahramonning chuqur qayg'usi, kechinmasi, oniy holatini, lirik voqelikning vaqt va makon ko'lamini kengligini ifodalaydi. Ikkinchisi esa she'rning tuzilishidir. Shoir she'rni ongli ravishda ikki qismga ajratgan. Birinchisi, "halok qildi uni" jumlasini, ikkinchisi esa "xushxabar" so'zidan iborat. Ikkisini mazmuniy bog'lash uchun ko'p nuqtadan foydalangan. Bu bilan she'r lirik qahramonning qisqa oniy lahzadagi kechinmasini ham ikkiga ajratgan. Birinchisida, lirik qahramon vafot etgan yaqin kishisi haqidagi xabarni bersa, ikkinchisida, lirik qahramon qayg'usi, kuchli hayajoniga sabab bo'lgan voqelik ("xushxabar") nazarda tutilgan. Mazkur ohangda qisman ironiya ham uchraydi. Bu esa she'rga majoziy ma'no ham yuklaydi. Chunki she'rdagi fonetik-fonologik maydonda fonetik birliklar birlashib, badiiy-estetik vazifa bajargan. Ya'ni she'rdagi h, q, x tovushlarining o'zaro uyg'unligi she'rga hissiy-mazmuniy ta'sir imkonini bergan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, har qanday misrani ham lirik turga mansub deb bo'lmaydi. Chunki poeziyada so'z va ifoda usuli asosiy omil bo'lib, shu ikkisining ichki va o'zaro bog'liqligi natijasida lirik ohangdorlik paydo bo'ladi. Boshqacharoq aytganda, lirik subyektivlik bo'lishi lozim. Fitrat uni yurakchilik deb ataydi va vazn hamda qofiyaga solingan har qanday fikr she'r bo'lavermaydi, she'rda yurakchilik bo'lishi lozim, degan fikrni ilgari suradi.

Chunki “yurakchilik” va u orqali tasvirlangan borliq o‘quvchi hissiyotiga ta’sir o‘tkazadi. Bunda so‘z obrazga aylanishi, uning vazifalari his etilishi va bor deb tasavvur etilishi mumkin. Shunda she’riy nutq, she’r tili nasriy nutqdan, epik asar tilidan farq qiladi.

Qolaversa, badiiy asar yaratilish jarayonida muallifda yuz bergan ruhiy-psixologik o‘zgarishlar, mutolaa jarayonidagi o‘qish, o‘zlashtirish, tushunish, tushuntirish kabi subyektiv holatlar ham she’r tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi mulohazalarni umumlishtirib she’riy asarlar tahlilida quyidagi tahminiy rejani tavsiya etish mumkin:

1. Janrga xos xususiyatlar;
2. Mazmun va uning umuminsoniyligi, salmoqdorligi, xalqchilligi, milliyligi, tarixiyligi, zamonaviyligi kabilar;
3. Adabiy aloqa va ijodiy ta’sir;
4. An’ana va novatorlik;
5. Tipologik hodisa bor yoki yo‘qligi;
6. Asosiy g‘oya: g‘oyaviy mazmun;
7. Bosh mavzu;
8. Problematika;
9. Konflikt;
10. Tuyg‘u dialektikasi, tuyg‘uning dinamik ifodasi;
11. Tashqi taassurot va unga ichki reaksiya;
12. Ichki kechinma tabiati va estetikasi;
13. Ijtimoiy yoki shaxsiy ohangdorlikning ustunligi;
14. Asosiy obrazlarni qiyoslash va rivojlanishini o‘rganish:
 - a) o‘xshashligi(bir taxlitdaligi) bo‘yicha,
 - b) keskin farqlari, qarama-qarshiligi bo‘yicha,
 - v) vazifa va tushunchalar bo‘yicha yon-yanmalik, bog‘langanligi,
 - g) obrazlarning o‘zaro uyushib kelishi,

d) xulosa chiqarish, aniq bir fikrga kelish,

e) detal, uning turlari va poetik vazifasi.

15. Kompozitsiya va uning xususiyatlari;

16. She'riy asar tili;

17. Asosiy tasviriy vositalar: metafora, metonimiya, o'xshatish, allegoriya, kinoya, simvol, giperbola, litota, hazil, sarkazm, perifraza;

18. Intonatsion-stilistik figuralar: epitet, takror, antiteza, inversiya, ellips, parallelizm, ritorik so'roq, murojaat;

19. Asosiy ritmik xususiyatlar: a) metrik, sillabik yoki tonik ekanligi, b) she'r sistemalari: aruz (bahri, vazn), barmoq (turkumi, turoqlanishi, sodda vazn, qo'shma vazn) yoki erkin (satrlarning alohida turoqlanishi, hijolarning notekis kelishi);

20. Qofiya va uning turlari;

21. Band: (birlik, ikkilik, uchlik (musallas), to'rtlik (ruboiy, tuyuq), beshlik (muxammas) va boshqa;

22. Evfoniya (badiiy nutqning yoqimli bo'lishi);

23. Ijodkorning individual uslubi, ijodiy metodi.

Mazkur reja tavsivaviy xarakterga ega bo'lib, she'rni boshqa xususiyatlariga ko'ra tahlil, talqin etish ham mumkin. Biroq mumtoz she'riy janrlar tahlilida o'ziga xos yo'l tutilishi lozim. Fikrimizga Erkin Vohidovning "Uzum" radifli g'azali misol bo'la oladi:

Termular shabnamli yaproq – ostida pinhon uzum.

Lablaringga yetmoq istab, tong sahar giryon uzum.

Mazkur baytdagi birinchi misrada uzumning tasviri, ikkinchi baytda esa yor visoliga yetishmoq niyatida yig'layotgan uzum obrazi berilgan. Aslida bayt avvalida ham uzum detali shaxslantirilish orqali obrazga aylangan. Shapaloq yaproq va

uzum detallari birgalikda sharq ayolining go'zal holatini ifodalaydi. Ming andisha, ibo-yu, hayo hamda dilini o'rtayotgan sog'inch bilan ro'molini yuziga pana qilib, yor yo'liga ko'z qirini tashlayotgan ma'shuqa obrazi bor. U xuddi buyuk rassom Chingiz Ahmarovning "Yetti go'zal" turkum kartinalaridagi romantik go'zalga o'xshaydi.

Unda shoir o'zbek qizlarining charosdek tim qora ko'zlari ni uzum donasiga o'xshatish orqali yorning parallel ravishda ikki tasvirini bergan. Lekin bu yerda tasvir to'liq emas, shuning uchun shoir keyingi baytda tasvirlarni chizishni davom ettiradi:

*Oftob mashshotasi tok sochini nuridan tarab,
Zangining bo'yniga osmish shodai marjon uzum.*

Bu baytda esa tokning ta'rifi keltirilgan. "Oftob mashshotasi" so'z birikmasi bu yerda nur yordamida pardoz beruvchi, pardozchi ma'nosida kelib, tok sochini nuridan – tok novdalarining mehridan yaratib, tarbiyalab, zangi(uzum tanasi) ning bo'yniga uzumdan qimmatbaho toshdek, marjonlar osgan. Bunda, go'yoki, ishkomborliqqa o'xshaydi. Aslida shoir ishkombor vatan, oila timsolida ham bergan. Ular tarbiyalagan, nurdan yaratgan uzum qalbi boshqa bir nur – ishqqa tushgan. Ishqdan maqsad esa estetik ideal, komillik, hayotda o'z o'rnini topish kabilar bo'lishi mumkin. Bunday holatni anglagan lirik subyekt hamma yoqda uzum, ya'ni o'z hayot yo'lini izlayotgan va komillik sari intilayotgan odamlarni ko'rib harakatga tushmoqda:

*Toki ishkombor misli osmon, har tarafyulduz sochur.
Voh, ajab, bu ne sinoat, yer uzum, osmon uzum.*

Oshiq uzum endi vatani, oilasini tark etib ma'shuqasini izlab ketdi. Shu yerda shoir xalq og'zaki ijodidagi an'anaviy tasvir va bayon usulini mohirlik bilan qo'llab, g'azalning mumtoz badiyatini yanada oshirgan:

*Tark etib ko'shkin, savatga qo'ydi bosh, izlab seni
Charx urib bozor ichra bo'ldi sargardon uzum.*

Bu yerda bozor – makon, detal vazifani bajargan. Chunki bozor xalq istagi, tilagi amalga oshadigan joy sifatida sharq adabiyotida, jumladan, o'zbek xalq og'zaki ijodida ko'p ishlatilgan. Fikr isboti uchun "Ravshan" dostonidagi bozor tasviri va unda ma'shuqasini izlagan Ravshanni keltirish mumkin. Shuningdek, bozor ko'chma ma'noda dunyoni ham anglatadi. Lekin shoir unga yangi zamon o'lchovi bilan yondashgan. Ya'ni, "Kimki oshiolikni da'vo aylasa, shuldur jazo". Aniqrog'i shoir komillikka intilgan shaxs bozor – dunyoda sargardon bo'lishi, mashaqqatlar chekishi haqidagi fikrni ta'kidlagan. Lekin bu mashaqqatlar uning uchun so'nggisi emas. "Oqibat xum ichra bo'ldi mahkumi zindon uzum".

Inson bo'lishlik qismati naqadar qiyin va mashaqqatli ekani oddiy uzum detali va uning xalqimiz tomonidan yetishtirilishi, bozorda sotilishi, xumga solib, sharob qilish odati kabi jarayonlar bilan juda ta'sirli, xalqona ifodalar bilan go'zal tarzda ochib berilganki, beixtiyor E.Vohidovning g'azal janri imkoniyatlarini kengaytirganiga tan bermasdan iloj yo'q. Lekin shoir mahorati shu bilan tugagani yo'q:

*Xum ichida necha yil xun bo'lmoq erkan qismati,
Lablaringga yetdi oxir bir piyola qon uzum.*

Xum bu yerda o'z ustida tinimsiz izlanish, hayotda nimaga-dir bog'lanib, komillik loyini pishirish davri hamdir. Shunda u o'z maqsadi – xayolidagi badiiy-estetik timsol – ma'shuqaga yetishadi.

*Bir qadah gulgun sharob tutdim senga, bir xo'plading,
Toleyimdan voladurman, baxtidan hayron uzum.*

She'ning kompozitsiyasiga diqqat qilinsa, shu yergacha bayon qilingan tezis va antitezislar aniq maqsad sari soddalikdan murakkablikka qadar o'sib borgan. Mazkur o'rinda esa lirik subyektning o'ziga xos hayotiy xulosasi sifatida beriladi.

Oxirgi bayt esa lirik subyektning bevosita o'zi intilgan yoriga badiiy murojaati tarzida yangraydi:

*Ey dilorom, senga Erkin tutdi maydek she'rini,
Dil xumida necha yil qon bo'ldi bu devon – uzum.*

Bu yerda shoir ishq dardining mashaqqatlarini, inson kamolotining riyozatli yo'lini uzum detali orqali batafsil tasvirlagan. Birinchi mazmuniy struktura bo'yicha g'azal ma'shuqa va uning visoliga yetishish yo'lidagi mashaqqat haqida, ikkinchi mazmuniy qatlamda esa uzum ramziy ma'noga ko'chib lirik subyekt ideali, hayotiy maqsadiga yetishish yo'lidagi murakkabliklarni anglatadi. Demak, g'azalda biz kunda ko'rib, bilib va e'tibor qilmaydigan uzum va sharob detallari orqali insoniy muammo – oshiqliku komillik mashaqqatlari go'zal tasvirlangan. Natijada she'ning salmog'i, universalligi, originalligi ortgan. Ushbu g'azal ramali mussammani mahzuf vaznida yozilgan ammo, vaznida ba'zi saktaliklar ham bor.

Demak, g'azal tahlilini o'ziga xosligini ko'rdik. She'riyatimizga keyingi yillardagi adabiy aloqa va ijodiy ta'sir mahsuli sifatida

qaraladigan ba'zi lirik janrlar ham mavjudki, ular qatoriga sonet, ballada, oktava kabilarni kiritish mumkin.

“Sonet (*ital.sonetto, provanscha sonet – qo'shiq so'zidan*) – qat'iy she'r shakllaridan biri, shakl xususiyatlariga ko'ra, tasnif etiluvchi lirik janr. Sonet o'n to'rt misradan tarkib topib, ikkita katren va ikkita tersetni o'z ichiga oladi. Sonetning kanonik shakli ikki ko'rinishda bo'lib, “italyancha” variantida katrenlari *abab, abab*, tersetlari esa *cdc, dcd* (yoki *cde, cde*) tarzida; “fransuzcha” variantida *abba, abba* tersetlari esa *ccd eed* yoki *ccd, ede* tarzida qofiyalanadi. She'riyat tarixida sonetning kanonik talablaridan chekish hollari ham uchraydi. Jumladan, “ingliz” sonetida uchta katren va bitta distixdan tashkil topib, katrenlari *abab sdsd* efef tarzida kesishgan, distix esa *gg* tarzda juft qofiyalanadi”.

Demak, sonet o'zining kanonik shakllarini saqlab qolgan bo'lib, o'zgarishlar asosan, she'r bandlari doirasida amalga oshirilgan.

O'zbek she'riyatida barakali ijod qilayotgan Abdulla Sher sonetlari “italyancha” variantda bitilgan.

*Tun bo'yi vujuding kuyladi yonib,
Siyndalar qo'shig'i umrimni yoqdi.
Hatto oy botolmay, tongda ham boqdi
Yo'lidan adashib, quyoshdan tonib. [1.150]*

Mazkur parcha sonetning birinchi (ketren) bandi bo'lib, *abba* tarzda qofiyalangan. Kompozitsion jihatdan birinchi o'ringda turuvchi katrenda mazmunining mohiyati so'zlanadi, ya'ni u lirik kompozitsiyaning tezis qismi hisoblanadi. Unda ma'shuqa go'zalligi haqidagi umumiy fikrlar berilgan. Ikkinchi katrenda avvalgi bandedagi mavzu rivojlantirilib yuqori nuqtaga ko'tariladi.

*Tun bo'yi vujuding erkdan quvonib,
Daryodek buralib, ayqirib oqdi.
Ul ipak karvoni har yon uloqdi,
Qo'sh dovon ustida behol to'lg'onib.*

Band *abba* tarzda qofiyalangan, mavzusi esa ko'tarinkiligi, jo'shqinligi bilan ajralib turadi. Kompozitsiyasiga ko'ra, bu band ham tezisdir. Qolgan terset bandlarining birinchisida masalaning yechimi beriladi, so'nggi tersetda u xulosalanadi.

*Tun bo'yi o'xshading go'zal Zuhroga, —
Titragan falakning ziqna qo'lidan
Yulqinib tushdingmu dorilfanoga?!
Tun bo'yi somonsiz Somon yo'lidan
Sochqilar sochildi yetim ma'voga, -
Paridek keldingmu Oqqush ko'lidan?!*

Bu yerda ko'tarinki kayfiyat va Zuhro, Somon yo'li, Oqqush ko'li detallari she'rga romantik tus bersa, aynan, Oqqush ko'li rus bastakori Chaykovskiyning "Oqqush ko'li" baletiga, shoirning mazkur asardan ta'sirlanganiga ham ishora qiladi.

Ma'lumki, sonetda barcha qofiyalar o'ta jarangdor, tarxi toza, porloq bo'lishi shart. Qofiyalar tartibida ham o'ziga xosliklar mavjud. Unda mazmun bandlararo ma'lum izchillik bilan bayon etiladi. Sonetning ichki kompozitsiyasiga ko'ra, uning har bir bandi mustaqil she'r maqomida bo'lishi zarur. Sonet nazariyachilaridan biri Bexer sonetni badiiyatning eng yorqin dialektik ko'rinishlaridan biri deb atagan edi. "Sonetning dastlabki to'rt misrasini u tezis sifatida 1-katren, keyingi to'rtligini antitezis sifatida 2-katren va so'nggi ikki uchlikni sintez deb atadi. Balzak "muammo – o'sish – kulminatsiya – yechim" tarzida ham baholaydi".

Sonet janrida syujet masalasi haqida gap yuritsak, Abdulla Sherning har bir sonetida o'ziga xos voqealar aks etganini ko'ramiz. Birida voqelik dialog asosiga qurilgan bo'lsa, *"Ne qadim yo'ldir bu, uzundan-uzun"* deb boshlanuvchi sonet savol asosiga qurilgan [1.151], boshqasida mashuqaning tavsifi beriladi (*Sen oppoq daryosan, har bir titrog'ing*) [1.164], yana bir sonetda esa o'tmishda qolgan yorqin xotira tilga olinadi (*Hali ham esimda, yoz, cho'milganing*) [1.304]. Shoir sonetda turlicha mavzularni tilga olar ekan, avvalo, o'z ichki kechinmasini tuyg'ular va xayollar harakati asosiga quradi. Natijada lirik syujetda lirik qahramonning ma'lum xarakter qirralari aks etadi. Quydagi she'rda ham lirik qahramonning o'ziga xos xakteri gavalantirilgan.

– *Ne qadim yo'ldir bu, uzundan-uzun,
O'ng cheti vafo-yu, chap cheti jafu?*
– *Ul ishqdir, bir yon g'am, bir yonda safo,
Masnaviy baytidek juftlikdan mavzun.*

Lirik qahramon hayot, umr haqida o'z xayollaridan kechgan mulohazalarini lirik falsafiy tarzda, ritorik so'roq shaklida bayon qilyapti. Har bir so'roq ortida qahramonning aniq hayotiy tajribasi natijasida to'plagan bilimi, hayrati mavjud. To'g'ri, u tezisdir. Chunki bunday savolga ko'plab odamlar hayotlarida duch kelishgan. Javob ham shunga yarasha. Ya'ni umumiy savol, tezis. Lekin asosiysi lirik syujet uchun harakat bor. Nemis olimi Fridrix Gegel harakat bo'lmog'i uchun, asosan, xarakter talab qilinadi, deganida mana shu kabi individuallikni nazarda tutgan bo'lsa, ehtimol.

– *Bu qadim tarozu, ayt, sirli nechun,
Bir palla to'la baxt, bir palla xato?*
– *Ul ishqdir, bir yon shoh, bir yonda gado,
Bir misra Yusufdir, bir misra Majnun.*

Shoir o'zini qiynayotgan ziddiyatli holatga savol-javob tarzida, go'yo ikki odam qiyofasiga kirib yechim topishga intiladi. Ana shu yerda she'rdagi aniq ikki obraz va ularning qiyofasi gavdalanib, sonetda syujet yaratish aniq va ijobiy hal etilganiga guvoh bo'lamiz. Keltirilgan har ikkala band ham katren hisoblanib, *abba abba* tarzida qofiyalangan. Bu yerda ham umumiy savol va ularga umumiy javob bor. Voqealarda hali lirik subektni aniq muammosi yoki xulosasi ko'zga tashlanmaydi. Chunki shoir o'quvchisini o'zi yaratayotgan badiiy olamga va aytadigan gapiga tayyorlab olmoqda.

- Bu nedir, ko'z yoshda aks etar quyosh,
Kipriklar chapakda, kular qorachiq?*
- Bu ishqqa yetishgan, sevilgan bardosh.*
- Bu ne mil, har kuni necha bor «Chiq! Chiq!»*
- Deb o'zi oynadan bir chiqarmas bosh?*
- Bu ishqning ko'ksiga yo'nalgan sanchiq!*

Shoir she'r yozar ekan, unda ijtimoiy-falsafiy fikrlari qamrovini kengroq olishga harakat qiladi. Ko'z yoshidan quyoshgacha, eng qadim xalq afsonalaridagi oshiqlardan tortib she'r yozilayotgan davrgacha bo'lgan zamonni qamrab olishga intiladi, umuminsoniy masalalarni olib chiqadi.

Mazkur terset bandlarida ishqqa yetarlicha tarif berilgan va oshiq qalblarning baxtiyor qiyofasi chizib berilgan. Ularda baxtiyorlik davri yashaydi, ya'ni sonet janri mohiyatan ulkan bir tarixiy bosqichni bosib o'tadi. Yuqoridagi she'rda inson hayotining katta qismi juda qisqa va aniq tasvirlangan. Shu ma'noda sonetning kompozitsion qurilishida ham ma'lum ma'noda evrilishlar kuzatiladi. Xususan, sonet tarkibida savol-javob berilishi, ritorik so'roq, va takrorlar qo'llanilishi uning qat'iylash-

tirilgan shakli uchun noo'rindek tuyulsa-da, mazkur usul sonet janri misolida shoir izlanishining yana bir qirrasini namoyon etdi. Sonetdagi "muammo – o'sish – kulminatsiya – yechim" tuzilishiga rioya qilingan va mana shunday qat'iylikka amal qilib turib ham, bu shaklning original namunalarini yaratish ijodkor mahoratidan dalolat beradi.

«So'z san'atining spetsifik xususiyatini aniqlay olishda ichki, badiiy-psixologik omillar bilan bir qatorda – tashqi, ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotini ham hisobga olish lozim» bo'ladi [4.6]. Shunga ko'ra, sonet spetsifikasida ijtimoiy muhitning ta'siri ham sezilib turadi. Ayniqsa, syujet masalasi lirik turda ham zamon va makon masalasi bilan birgalikda tasvirlanadi, zamon va makon masalasi esa tasvir joy, sharoiti, vaqt va hajm bilan aloqador bo'ladi. Masalan:

*Biz yoqqan gulxandan osmonlar yondi,
Uchqundek uchdilar tillarang vaqtlar;
Shuladan titradi ulkan daraxtlar,
Chechaklar uyg'ondi, maysa uyg'ondi [1.198].*

Shoir o'zining ko'tarinkilik bilan kechgan baxtiyor onlarini tasvirlar ekan, o'zi yashagan makon va davrni, romantik tasvir asosida aniq chizgilarda beryapti. Shu yerda sonetdagi yuqori kayfiyat, baland ruh, aniq yo'nalish, lirik subyektivlik va peyzaj birlashib, she'rga o'ziga xoslik bag'ishlagan.

*Qalblar bir-biriga yana inondi,
Bir-birin quchdilar adashgan baxtlar,
Lablarni titratdi bo'salar, ahdlar,
Yulduzlar qiqirlab, hilol quvondi.*

Shoir qisqa satrlarda yulduz, hilol detali orqali ikki yoshning qalb to'ldinini, ishqdan masrur qalblarni aniq ifodalaydi. Qizig'i, ularni undoq edi, bundoq dedi, degan gap so'z va izhorini keltirmasdan, sof lirik tasvirda berish bilan go'zallik yaratgan.

*Oqargan chog'ida olisda tog'lar,
Tilga kirganida yam-yashil bog'lar,
Bu yangi dunyodan andak toldik biz.*

Tersetdagi makon va zamon masalasi lirik qahramonning bahorga ishorasini bildiradi. Lekin ana shu epik tasvirga yaqin belgilardan keyin lirik qahramon o'zining holatini bayon qiladi. Bu yerda syujetning yana bir jihati, ya'ni tabiat tasviri va ichki kechinma birlashganini kuzatish mumkin.

*Ohista quchoqlab bir-birimizni,
Yuzimizga bosib jim yuzimizni,
Borliqni uyg'otib, uxlab qoldik biz.*

Borliqni uyg'otuvchi kuch-qudrat sifatida o'zni tan olish, baxt va yaratish timsoli sifatida o'zni anglash sonetlardagi baland kayfiyat, katta estetik zavq talabi bilan yuzaga chiqadi. Natijada ular aniq voqeani aks ettiradi.

Umuman olganda, she'riy asar tahlilining usullari turlicha bo'lishi mumkin. Eng muhimi, she'riy asar mohiyatiga yetib borish va uni talqin eta bilish hamda she'rdagi insonning borliqni qanday idrok qilishi hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. She'riy asarda shakl va mazmun birligi tushunchasini izohlang.
2. Lirik she'rda voqelik qanday ifodalanadi?
3. Lirik she'rning yetakchi elementi nimalardan iborat?
4. Birlik janri haqida tushuncha bering.
5. She'rni tahlil qilishda nimalarga e'tibor berish lozim?
6. "Uzum" g'azali tahlilida mazmuniy kompozitsiya qanday ko'rinishda ekan?
7. Abdulla Sher sonetlari qanday asosga qurilgan?
8. O'zingiz yod olgan she'rni mantdagi tahlil rejasi yordamida tahlil qiling.

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

1. Matnda berilgan she'riy asarlar tahlilining tahminiy rejasini yodlang.
2. Alisher Navoiy g'azallaridan birini tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sulton, Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 256 b.
2. Yo'lchiyev Q. So'z koshonasi sirlari. – Toshkent: Info Capital Books, 2024. – 136 b.
3. Йўлчиев Қ. Кичик лирик шеър таҳлили. – Фарғона: ФДУ, 2018. – 72 б.
4. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: 2007. 260.
5. Сабирдинов А. Ойбек шеърлятида сўз ва образ. Тошкент: Akademnashr, 2010. – 96 б.
6. Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърляти. – Тошкент: Adib, 2012. – 304 б.

13-MAVZU: NASRIY ASAR TAHLILI

Reja:

1. Badiiy asarni tahlil qilish zarurati
2. Nasriy asarni tahlil qilishning usul va yo'llari
3. "Ibn Sino" qissasining tashqi kompozitsiyasi
4. Qissada syujet tarkibiy qismlarining joylashishi
5. Qissada peyzaj va portretning o'rni

Tayanch so'z va iboralar: *qissa, janr, kompozitsiya, asar tili, obraz, peyzaj, portret, nutq, tahlil usullari.*

Adabiyot o'qitish metodikasida nasriy asarlarni tahlil qilish muammosi so'nggi yillarda yanada dolzarblik kasb eta boshladi. Bu bir tomondan nasriy asarlarga bo'lgan talabning kuchayishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa badiiy tafakkurda yuz bergan evrilishlar nasriy asar talqin va tahlilida namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Masalan, Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam, Nurali Qobul, Nazar Eshonqul, Nabi Jalolidin, Nabijon Boqiy, Shahodat Isaxonova, Salomat Vafo, Qo'chqor Norqobil, Zulfiya Qurolboy qizi, Abduqayum Yo'ldoshev, Luqmon Bo'rixon, Ulug'bek Hamdam, Risolat Haydarova, Baxtiyor Abdug'afur, Shahodat Ulug' kabi yozuvchilar hikoya, qissa, roman, roman-epopeyalar yaratishdi. Bu asarlar bilan esa maxsus tayyorgarliksiz mutolaaga kirishish uncha-muncha o'quvchiga muammo bo'lishi tabiiydir. Chunki ularning qamrovi kengligi o'quvchidan maxsus tayyorgarlik talab etadi.

Adabiyotshunoslikda nasriy asarlar tahlilida quyidagicha yo'l tutish odat tusiga kirgan. Aksariyat tanqidchi, adabiyotchi-

larimiz dastlab nasriy asarning janriga xos xususiyatlariga e'tibor berishadi. Chunki hikoya, novella, qissa, roman, roman-epopeya, roman-pamfletlar janr jihatdan o'zaro farqlanadi. Demak, avvalo, asarning janri aniqlab olingach, asar mazmuni va uning originalligi, umuminsoniyligi, salmoqdorligi, xalqchilligi, milliyliigi, tarixiyligi, zamonaviyligi kabi muammolarni hal etish lozim bo'ladi. Chunki har qanday asar mazmuni o'zining g'oyaviy mazmuni, mavzusi, muammosiga ko'ra: yosh, millat, jins, diniy e'tiqod, ijtimoiy mansublik tanlamasligi kerak. Bundan tashqari avvalgi mavzuda keltirilgan lirik asar tahliliga oid tavsiyaning asosiy qismini epik asarlarga nisbatan ham qo'llash mumkin. Masalan, 1) janrga xos xususiyatlari; 2) mazmun va uning umuminsoniyliigi, salmoqdorligi, xalqchilligi, milliyliigi, tarixiyligi, zamonaviyligi; 3) adabiy aloqa va ijodiy ta'sir; 4) an'ana va novatorlik; 5) tipologik hodisa bor yoki yo'qligi; 6) asosiy g'oya: g'oyaviy mazmun; 7) bosh mavzu; 8) problematika; 9) konflikt; 10) epik kechinma tabiati; 11) kompozitsiya va uning xususiyatlari; 12) asosiy tasviriy ifoda va vositalar: metafora, metonimiya, o'xshatish, allegoriya, kinoya, simvol, giperbola, litota, hazil, sarkazm, perifriza; 13) ijodkorning individual uslubi, ijodiy metodi; 14) obrazlar tizimi; 15) syujet va h.k.

Fikrimiz isboti sifatida Mirkarim Osimning "ibn Sino" qissasini konseptual tahlil qilamiz. Asar Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyatiga oid bo'lib, asar kichik fasllarga ajratilgan. Bu tashqi kompozitsiya deyiladi. Har bir fasl alohida nomlanib, ularda fasldagi voqealar nisbiy tugallikka ega. Fasllar jami o'n bitta bo'lib, ular quyidagicha nomlangan: "Ma'rifat darvozasi", "Kitobga ixlos", "Xorazm bo'sag'asida", "Xatarli yo'l", "Dard va darmon", "Savdoyi shahzoda", "Hamadon safari", "Qamoqda", "Baxt va musibat" "Yangi shogird", "Umr daftarining so'nggi sahifasi"⁶⁴.

⁶⁴ Mirkarim Osim. Ibn Sino qissasi (qissa) www.ziyouz.com kutubxonasi. Keyingi sahifalarda katta qavsda kitob sahifasi ko'rsatiladi.

Keltirilgan fasllarning “Ma’rifat darvozasi”, “Dard va dardmon”, “Hamadon safari”, “Qamoqda” kabilari nisbatan kattaroq bo’lib, ular o’z ichida rim raqamlari bilan kichikroq qismlarga ajratilgan. Bu bilan yozuvchi qissadagi voqealar ketma-ketligidagi mantiqiy izchillikni buzmaslik, voqealar o’quvchi bolalarga osonroq yetib borishi va asar kompozitsiyasiga o’ziga xoslik bag’ishlash uchun shunday yo’l tutgan. Asar ichki kompozitsiyasidagi o’ziga xoslik syujet chizig’ining xronologik tartibda Ibn Sinoning bolaligidan umrining oxirigacha bo’lgan davrni qamrab olgani va ulardagi eng muhim deb bilgan voqealarni badiylashtirganligida ko’rinadi.

Qissa syujeti sodda va oddiylıkdan o’sib boradigan voqealarning mantiqiy izchilligi asosiga qurilgan. Eskpozitsiya vazifasida baqqol Mahmud Massoh (ya’ni tanobchi)ning kitob do’konı va uning holati tasvirlangan.

“Boqqol Mahmud Massoh xaridor kutib, oppoq cho’qqisoqolini qashib o’tiradi, ko’zlari o’tgan-ketganda. Uning do’konida odamning jonidan boshqa hamma narsa topiladi. Qand-novvot deysizmi, holva, sabzi, piyoz, guruch deysizmi – hammasi bor. Agar biror xaridorga attorlik buyumlari yoki igna, ip, mix va boshqa narsalar kerak bo’lib qolsa, boqqol o’rnidan turib do’kon orqasidagi hujradan ularni topib, olib chiqadi. Odatda erta bilan va kechqurun bozori biroz qiziydi-yu, tush paytida savdosotiq yotib qoladi. Bunday paytlarda ko’chadan kichik bolalar o’tsa, zerikib o’tirgan boqqol ularni chaqirib, qo’llariga ikkitadan yong’oq yoki ozroq shirinlik tutqazib, gapga soladi, keyin chopqillaganicha uyiga yugurgan norasidalar orqasidan jilmayib qarab qoladi”. [1] Qissadan olingan uchbu parchada baqqolning portreti chizilgan bo’lib, uning ichki olamidagi samimiylik, hayotsevarlik, sabr-toqati harakatlari sezilib turadi. Bir qarashda mumtoz Sharq oqsoqolining tipik tasviridek tuyuladi.

Biroq aynan shu odam qissadagi bosh qahramon, to'q-qiz yoshli Husayn (ibn Sino)ni ko'radi va uning otasi haqidagi ma'lumotlar – ismi Abdulloh ekanligi, soliqchi bo'lgani, obro'li, badavlat odamligi va Afshonada Qutayba jome' masjidini qurdirganligini bayon qiladi. Ekspozitsiyadagi mazkur xabarlar, avvalo, bosh qahramon Husayn (ibn Sino)ning tavsifini to'ldirsa, ikkinchidan u yashayotgan muhit, qishloq va oilasi haqida ham bir muncha ma'lumot beradi va o'quvchida tegishli tasavvur uyg'otadi. Bundan tashqari shu do'kon egasidan qadimgi yunon olimi, yer o'lchash ilmining bilimdoni Iqlibus, hadsa ilmi va uning ba'zi atamallari haqida ma'lumot o'rganadi.

Baqqol Mahmud Massoh ochiq chehra bilan aytgan mazkur gaplari Husaynga yoqib qolib, u tez-tez do'konga chiqadigan bo'ldi. Bu bir tomondan onasi va otasining to'qqizga kirgan o'g'li savdo qilishni o'rganishi va odam tanishiga bo'lgan rag'bat bo'lsa, ikkinchi tomondan bolaning ilmga bo'lgan ishtiyoqining ham belgisi edi. Baqqoldan o'rgangan ba'zi bir handasaviy shakllarni ortiga qaytib qog'ozga qoralab, baqqoldan o'rganganlarini mashq qilib o'tirganda otasi ko'rib qoladi va Husaynning ishidan mamnun bo'lib, Mahmud Massohni uyiga taklif etadi. Baqqol kelib, Husaynga ilmi riyoziy va handasadan dars bera boshlaydi.

Qissadagi voqealar shu tariqa tabbiy va oddiy tarzda rivojlanib, Husaynda dunyoviy ilm olish imkoni paydo bo'ladi. Ikki yil Mahmud baqqoldan ta'lim olgan Husayn ustozining mehrini qozondi, ba'zi o'rinlarda qiziqishi ortib bergan savollariga ustoz ham javob berolmay qoladi. Shundan so'ng otasi Husaynga, bor bilganlarini o'rgatganini uning esa ilmga rag'batini balandligini, shuning uchun, boshqa ustozga berib, o'qitishni taklif etadi hamda Buxoroga yaqinda kelgan yosh olim Abu Abdullo Notiliyni taklif qiladi. Shu tariqa yosh Husayn o'z yo'lida Notiliydan

falsafadan saboq ola boshlaydi. Uning huzurida u Arastuning mashhur metafizika asarini o'qib, tushunmagan joyini so'ray-verib, ustozining aqlini shoshirib qo'yadi. Bu asl tarixiy haqiqat bo'lib, Husayn bir o'qigan narsalarini yodlab olishdek kuchli xotiraga egaligi bayon qilinadi. Notiliy uning tabobat, falsafadan o'qigan kitoblariga javob topolmay oxiri ma'lum muddat o'tgach, uzrini aytadi va Husaynlarnikini takr etadi.

Mirkarim Osim Abu Ali ibn Sinoning hayotiga oid mazkur faktni badiiylashtirib, asarga singdirib yuborar ekan, bu yerda bolaning obrazini jonli, qadimgi o'zbek muhitidagi bola tarbiyasiga e'tibor va oilaning holatiga ham e'tibor beradi. Ota-sining devonda ishlashi, alohida kutubxonasi borligi, u yerda nodir kitoblar mavjudligi, onasi Sitorabonu va otasi o'g'lini doimo qo'llab turgani qayd etiladiki, bu bir farzand tarbiyalanib, kamol topishi uchun ko'pchilik yordam berishiga ishora qilinadi.

Mazkur fasl o'z ichida uchta qismlarga ajratilgan bo'lib, birinchisida Husaynning baqqol bilan tanishib, undan ta'lim olishi, ikkinchisida esa Abu Abdullo Notiliy saboqlarini olgani bayon qilinadi. Uchinchi qismda esa o'z davrining ko'zga ko'ringan olimi, mashhur tabib Abu Mansur Qamariyning uyiga borib, tib ilmidan saboq olishi tasvirlanadi. Tez orada bu yerda ham o'z ti-rishqoqligi, intiluvchanligi va zakovati bilan ustozining mehrini qozonadi. Ustozi unga yosh Jolinus deb murojaat qiladi. Bu shogird-dagi bilimni ko'rib hayratlangan Abu Mansur Qamariyning juda katta e'tirofi edi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Husaynning o'yinqaroqligi, sho'xligi, serg'ayratligi ikkita ustozi tomonidan deyarli bir xil baholanadi. Ya'ni Notiliy ham, Qamariy ham "Sho'xlik g'ayrat va shijoat belgisi" katta bo'lganda ham ilmga intilishi bashorat qilingandek bo'ladi. Fasl oxirida Mirkarim Osim ilm chamanining

tasvirida uning tikonlari ham borligini keltirib, kelajakdagi turli fojealarga ham ishora qiladi.

Boshqa asarlarida bo'lgani kabi yozuvchi bu qissasida ham peyzaj va portret usullari orqali obrazning ruhiyatini ochib berishdan unumli foydalangan. Quyidagi parchada dastlab peyzaj va so'ngra portretni asar kompozitsiyasiga tabiiy tarzda joylaganki, ular syujet voqealarining umumiy rivojidagi Husayn obrazi xarakteriga o'ziga xos belgi bo'ladi: "Yarim kecha, osmonda charaqlagan yulduzlar mast uyquda yotgan yerga nazar tashlab, bir-birlariga ko'z qisib qo'yishadi. Kunduzi bozorchilarning g'ala-g'ovuridan charchagan Buxoro sukunat qo'ynida orom olmoqda. Ahyon-ahyonda uzoqlardan dovul tovushi eshitiladi: tun posbonlari uyqudagi shaharni qo'riqlab yuradilar.

Shimol tomonga qaratib solingan baland bir ayvonning o'rtasida, xontaxta ustida miltillab yongan shamning sarg'ish nuri ostida o'n yetti-o'n sakkiz yoshdagi bir yigitcha mutolaa qilib o'tiradi. Uning qotmadan kelgan tiniq yuzida, katta-katta ko'zlarida zakovat nuri porlaydi. Nazari satrlar oralab yo'rg'alarkan, yer ostidan xazina topgan kishidek qo'llari asta titraydi, yuziga g'alati tabassum yuguradi, keng va yorqin peshonasida marjondek ter paydo bo'ladi. U butun koinotni unutgan, butun fikri satrlar orasiga yashiringan sirlarni topish tashvishida.[11]

Bu yerda dastlab keltirilgan osmon tasvirida yulduzlarning obrazli ifodasi va uning yer obrazi bilan uzviy yaxlitda, o'zaro munosabatda ekanligiga ishora qiluvchi badiiy ifoda, keyinroq, Husaynning 16-17 yoshdagi portretiga: katta porlagan ko'zi, keng peshonasi, qo'lini iyagiga tiragancha muk tushib o'tirishiga uyg'un holatda o'ziga xos go'zallikni aks ettiradi. Bunda Mirkarim Osim oddiy va sodda so'zlarni ma'no ko'shirish usulidan foydalangan holda yorqin obrazga aylantirar ekan, yulduzlarni yosh Husaynning katta porlagan ko'zlari bilan parallel ravishda

qo'llab, qissa zamiriga ko'tarinkilik pafosini singdirib yuboradi. Natijada asarni o'qigan o'quvchi qalbida ham ana shu holatga mehr uyg'onishi tabiiydir.

Bu yerda yozuvchi xuddi mahoratli rassomdek ish ko'radi. Borliqdagi obrazlar asarning asosiy maqsadi va muallifning maqsadidan kelib chiqib, rang, tasvir, kompozitsiya, ifodaviylik, nur va soyaning turli munosabatlarini o'rinli qo'llash orqali peyzaj yaratadi. Bu ayniqsa, kuni bilan ishlab charchagan Buxoroni ulkan mehnatkash obrazi sifatida berishida ko'rinadi. Yoki bolaning tasviri berilgan portretga diqqat qilsangiz, uning barcha a'zolarini emas, eng yorqinlarini xarakterining aniq bir qirrasini ko'rsatuvchilarini beradi.

Aslida "Portret fransuzcha so'z bo'lib, "tasvirlamoq" degan ma'noni bildiradi. Personajning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari) o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo'lmish tavsifning bir ko'rinishidir"⁶⁵. Masalan, qissada personajlarning tasvirlari ko'p bo'lib, ulardan biri o'smir Husaynning saroy kutubxonasiga kelgani, uni qarshilagan kitobdor va ana shu kutubxonada chiqqan yong'indan keyingi Husayn tasvirini kuzataylik: *"Oppoq soqoli ko'ksiga tushgan kitobdor ibn Sinoni mamnunlik bilan qarshi olib, o'z qo'l ostidagi boyliklari bilan uni tanishtirib chiqdi"*. [14]; *Ibn Sino xuddi yaqin bir kishisini ko'mib, qabristondan qaytgan kishidek boshini quyi solib, yarim-yorti kuygan bir necha kitobni qo'ltiqlagan holda uyiga jo'nadi...* [19]. Har ikkala tasvirda ham personajlarning ichki dunyosi, ruhiyatiga mos tasvir, xarakteriga xos qat'iyat;

⁶⁵ Курунов Д., Мамажонов З., Шералиев М., Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, Академнашр, 2010. – Б.237-226.

cholda esa bosiqlik, teran tafakkur seziladi; Husaynda esa shijoat, shiddat, qat'iyat berilgan.

Ko'plab manbaalarda peyzaj deyilganda tabiat tasviri tushuniladi. Biroq, u joy, ko'cha, xiyobon, qishloq tasviri ham bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, peyzaj deyilganda ochiq osmon ostidagi joy, makonning barcha tasvirini tushunish mumkin. Masalan, *“Olovning ozig'i kamaygan sari hovuri pasayardi. To'da-to'da kullar ustini qoplagan tutun kuyib, shakli qolgan qog'oz parchalari bilan shamolda asta tebranarkan, qurum isi har yoqqa taralardi”*. [19]

Bu yerdagi kutubxonaning yonib kul bo'lishi – joy tasviri, ya'ni peyzaj hisoblanadi. Bu yerda qissaning yong'indan avvalroq Husaynga gap otgan va undan butun kutubxonadagi kitoblarni o'qib, ular yongach tiklay olish qudrati borligiga ishora qilgan Husaynning niyatidagi bashorat ham bor. Ikkinchidan mazkur peyzajda Husaynning hech qanday kitob mangu emasligi u bir kuni johil odamlar tomonidan kul etilishi mumkinligi, shuning uchun, ilmni yodda saqlash lozimligi va Husayn asarlarni bir o'qishda yodlab olib, to'g'ri yo'l tutganiga ishora qiladi. Umuman olganda, mazkur tasavvur syujet voqealarini asoslaydi va uning keyingi rivojlanishiga turtki beradi.

Yozuvchi ko'p joylarda peyzaj va portretni (asosan, Husayn portretini) aralash qo'llab, o'zining usulini yaratadi. Qissa kompozitsiyasida peyzaj va portretdan aralash holda foydalanganini quyidagi parchada kuzatish mumkin: “Abu Ali Gurganj tomon yo'l olgan karvon bilan birga, ko'm-ko'k dalalar, qo'ylar o'tlab yurgan sarg'imtir cho'llar, qotib qolgan dengiz to'lqinlariga o'xshagan qumtepalar oshib, Xorazm poytaxtiga yetib keldi, karvonsaroyga tushib, nimqorong'u hujrada dam oldi. Ertasiga yuvinib-taranib, egniga olacha ipak to'nni kiyib oldi-da, xuddi

fuqaho qonunshunoslaridek sallasining pechini tomog'ining tagidan o'tkazib, o'ng yelkasiga tashladi" [21].

Badiiy asar tahlilida personaj portreti joy tasviri bilan uyg'unlikda o'ziga xos psixologik muammo, asar kompozitsiyasidagi ichki konfliktning ifodasi tarzida ham berilgani kuzatiladi. Buni quyidagi tasvirda kuzatish mumkin:

"Yuzi cho'l shamolidan biroz qoraygan, qotma, sog'lom gavalali, qirra burun Abu Ali eshikdan kirib salom berdi.

– Vaalaykum assalom. Fozil va olim kishilar to'plangan poytaxtimizga qadam qo'yishingiz bilan sizni qutlaymiz, – dedi vazir arab tilida. – Baytulhikmat sandig'idagi javohirlarga qimmatbaho duru gavharning kelib qo'shilishidan behad mamnunuz...miz...

Yosh olim uning tumtaraqli nutqiga sabr bilan quloq solib:

– Siz kabi ulug' odam mendek faqir va haqir musofirni mamnunlik bilan kutib olgani uchun boshim osmonga yetdi, – dedi sof arab tilida.

– Riyozat bo'yicha tengi yo'q olim Abu Nasr Iroq, ilmi hay'atda qadimgi yunon olimlari darajasiga erishgan Abu Rayhon Beruniy, mashhur tabib Abulxayr Xammor, faylasuf Abu Sahl Masixiy va boshqalar qatoriga kelib qo'shilganim uchun o'zimni baxtiyor hisoblayman..." [22]

Qissaning mazkur o'rnida dastlab Husaynning portreti berilib, uning uzoq yo'l yurgani, oftobda qorayib, anchayin azob chekkani berilar ekan, personajlar nutqi orqali muallif ularning teran fikrlari, ichki madaniyati va insonparvarligini ham bayon etadi. Bu ham badiiy mahoratni kashf etishning o'ziga xos uslub sifatida e'tirofga loyiq jihatdir.

Badiiy asar kompozitsiyasining qismi sifatida peyzaj, portret asardagi konflikt va syujet asosida yuzaga chiqadi. Masalan, Mirkarim Osim "Ibn Sino" qissasida qo'llagan peyzaj va portret-

larni tahlil qilganimizda shu narsa aniqlandiki, ularning ba'zilar syujetdagi voqealarning obraz harakati, xarakteri mahsuli sifatida yuzaga chiqqan. Boshqalari esa, jumladan, Abu Ali ibn Sinoning Gurganjga borib qolishi yosh olimning Buxorodagi islom ulamolari o'rtasidagi konflikt mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Bu bir tomondan obrazlarning zimmasidagi badiiy niyatning mayda tafsilot va detallar orqali ifodalanishiga imkon bersa, ikkinchi jihatdan asar kompozitsiyasidagi poetik masalalarning hal etilishiga ham yordam beradi. Natijada asar kompozitsiyasining badiiy mohiyati ochilsa, syujet voqealarining ma'lum bir qismidan keyin esa peyzaj va portret yordamida obrazning ruhiy holati, personaj sifatidagi maqsadi ko'zga tashlanadi. Masalan, yuqoridagi parchada ibn Sinoning Gurganjga kelishi uni bu yerda iliq kutib olinishi, eng muhimi buyuk olimlardan Abu Nasr Iroq, Abu Rayhon Beruniy, mashhur tabib Abulxayr Xammor, faylasuf Abu Sahl Masixiy va boshqalar bilan uchrashuvi haqida bayon qilinadi. Aslida ham hayotda bu ikki buyuk shaxslar uchrashgan, bu haqda qator tarxiy manbalarda qayd etilgan, biroq ularni qissadagi kabi jonli va asosli etib, bunday qissada yuritilayotgan voqealarning mantiqiy oqimiga amal qilishini muallifning shaxsiy yutug'i deyish mumkin.

Aslida Abu Ali ibn Sinodek buyuk shaxslar hayoti barcha zamonda ham, barcha mamlakatda ham og'ir va mashaqqatli kechgan. Turli davlat rahbarlari, hukmdorlar, hokimi hukamlar ularning iste'dodidan goh shaxsiy manfaati yo'lida goh esa boshqa maqsadlarda foydalanishga urinishgan. Natijada, ibn Sino umr bo'yi ko'chib yashashga majbur bo'lgan. Gurganjda ko'p yashab ulgurmasdan, G'azna shahriga yo'l olishga majbur bo'ladi. Xuroson va Hindistonni zabt etgan Mahmud G'aznaviy Gurganjda joylashgan Baytulhikma olimlarini o'z huzuriga chaqirgan edi. Abu Ali va Abu Sahl Xorazmshoh buyrug'i bilan

G'anaga yo'l olishadi. Qissaning "Xatarli yo'l" qismida ularning safari jonli va obrazlarning goh tahlikali, goh esa ko'tarinki kayfiyatini ifodalovchi voqealar qurshovida bayon etiladi: "Safarlarining to'rtinchi kuni ertalab qum sahrosini sukunat bosib, osmonda pirillab uchib yurgan to'rg'aylar ham, yerda sudralib yurgan kaltakesaklar ham g'oyib bo'lishdi. Ko'p o'tmay, qattiq shamol turib, yeru osmonni chang-to'zon qopladi, olamni qorong'ulik bosdi. Yo'lovchilar shamolni to'sib turgan qumtepaning orqasiga o'tib, otlarining jilovini ushlagan holda, ustlariga chakmonlarini yopib, mukka tushib yotdilar.

Oradan ikki soat o'tmay, qum bo'roni birdan to'xtab, hamma-yoqni og'ir sukunat bosdi, yo'lovchilar bosh ko'tarib, ustlaridagi chakmonlarini qoqishdi. Qum bo'roni yo'lni ko'mib yuborgan, yo'lboshchi hamrohlaridan battarroq yo'l bilmaydigan kishiga aylanib qolgan, u sheriklarini qayoqqa boshlab ketayotganini bilmas edi. Kun ko'tarilgan sari tomoqlar qaqrar, otliqlar bo'g'zi ingichka charm idishlarini og'izlariga tutib, bir qultum suv ichar, zo'rg'a qum kechayotgan otlarini asta qamchilab qo'yar edilar"[26].

Qissadagi hukmdorlar va oddiy kishilar o'rtasidagi ziddiyat bu ikki olim – Abu Ali va Abu Sahlarni hayot bo'roni sari boshlardi. Mazkur tasvirdagi bo'ron ularni kutib turgan hayot bo'roni, qamoq oldida tabiatning arzimagan o'yinidek tuyulardi. Yo'ldagi bu azobga chidolmay Abu Alining Xorazmda orttirgan yaqin do'sti Abu Sahl qumtepada vafot etadi.

Abu Ali ibn Sino esa Nishopur, Tus, G'azna shaharlarida ilm izlab, turli hukmdorlar-u, hokimlarning qosh-qovog'iga qarab, ularning istaklariga qarab yashashga majbur bo'lgan. To'g'ri bunday hayotning yaxshi tomoni ham bor edi. Bu avvalo, kerakli kitob va ilm ahli bilan yaqinda bo'lish, turli sinov va amaliyotlarni amalga oshirish mumkin edi. Biroq bunday hayotda er-

kinlik, erkin ilmiy tafakkur qilishga imkon cheklangan edi. Ray shahrida esa otasi erta vafot etgan va balogʻatga yetgunicha ona Saida rahbarligida hokimiyatni boshqargan savdoiy shahzoda Majduddavlagaga qoldi. Bu shahzoda ahloqsiz, hali ham yosh boʻladek fikrlovchi, masʼuliyatni his etmaydigan odam edi. Unda tushkunlik, yani melaxliya kasalligi borligi aniqlangach uni ibn Sino davolashga kirishadi. Lekin Gʻaznaviyning Rayga bosimi natijasida malika Saidaning taklifi bilan u yana safarga chiqadi. Chunki Rayda qolish uning uchun havfli boʻlib qolgan edi. Shu tariqa Abu Ali ibn Sino Hamadonga yoʻl oladi.

Yozuvchi Abu Ali ibn Sinoning butun hayotini qisqa asarga singdirib, uni badiiy qayta bayon etar ekan, imkon darajada hayotiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirishga qissa syujeti va kompozitsiyon qurilishini sodda va tabiiy, hayotiy ziddiyat va real voqealarga boy boʻlishini taʼminlagan. Natijada asar taʼsirli va ishonarli chiqqan.

Umuman olganda, nasriy asarlar tahlilida ham asarning shakl va mazmun birligi, obraz, obrazlilik, syujet, kompozitsiya, janr, obrazlar tizimi, asar tili, uslub va mahorat kabi masalalari orqali tahlil qilinsa, yaxshiroq samara beradi. Bundan tashqari asar mavzusi biografik boʻlsa, biografik metod asosida; ijtimoiy hayot bilan bogʻliq boʻlsa, sotsiologik tahlil; badiiyat masalasida struktural tahlil; personaj ruhiyati koʻproq berilgan boʻlsa psixologik tahlil; boshqa asar bilan qiyoslaganda esa tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanish asarning mohiyatini ochishda yaxshi samara beradi.

Nazorat savollari:

1. Nasriy asar tahlilida nimalarga diqqat qilish kerak?
2. Asar janri tahlilda qanday ahamiyatga ega boʻladi?
3. Nasriy asarda shakl va mazmun birligi tushunchasini izohlang.

4. Mavzuda tahlil qilingan qissadagi syujet elementlarini sanang.
5. Nasriy asar tahlilida qanday usul yoki metoddan foydalanish kerak?
6. Peyzajning asar badiiyatidagi ahamiyatini ayting.
7. Portret asarda qanday badiiy-estetik vazifa bajaradi?
8. Asar tilining badiiy tahlildagi ahamiyatini ayting.

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

Mirkarim Osimning qissalaridan birini o'qing va tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sulton. Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 272 b.
2. Ёқубов И. Бадий-эстетик сўз сехри. – Тошкент: Фан ва технология, 2011. – 172 б.
3. Норматов У. Ижодкорнинг даҳлсиз дунёси. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008. – 324 б.
4. Раҳимов А. Роман санъати. – Ф.: Фарғона, 2015. – 88 б.
5. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Тошкент. 2005. – 128 б.
6. Тўлаганова С. Абдулла Қодирий: Шахсият ва ижод. – Тошкент: Илм-зиё – заковат, 2021. – 204 б.
7. Қозоқбой Йўлдош. Жиловланмаган тафаккур маҳсули. – Тошкент: Tafakkur, 2023. – 628 б.
8. Қўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида бадий шартлилик. – Тошкент: Фан, 2020. – 248 б.

14-MAVZU: ADABIY JARAYON VA TALQIN (INTERPRETATSIYA)

Reja:

1. Adabiy jarayonni anglash muammosi
2. “Germenevtika” va “interpretatsiya”ning leksik va terminologik ma’nolari
3. Germenevtika – talqin nazariyasi
4. “Sharq germenevtikasi” xususida
5. Germenevtikaning metodologik imkoniyatlari
6. Interpretatsiya – badiiy matnni idrok qilish

Tayanch soʻz va iboralar: *Germenevtika, interpretatsiya, tushunish, talqin, talqin nazariyasi, tadbil, sharh, tafsir, badiiy matn, ilmiy tafsir, ilmiy sharh.*

Adabiy jarayon adabiyotshunoslikning muhim tarkibiy qismi boʻlib, oxirgi yillarda yaratilgan, yoki endigina yozilgan va hali siyohi qurib ulgurmagan, baʼzan oxiriga yetmagan asarlarni qamrab oladi. Shu orqali bugungi kunda ijodkorlar qanday asar yaratayotgani, shu orqali xalq badiiy tafakkuridagi evrilishlar, kishilarni oʻylantirayotgan muammolar, ularning yechimi haqida maʼlumot olish mumkin. Umuman olganda, esa adabiy jarayonni kuzatib kishilar maʼnaviy olami haqida tushuncha va tasavvurga ega boʻlinadi. Shu maʼnoda adabiy jarayonni doimo kuzatib borish muhim vazifalardan biri sanaladi. Lekin badiiy ijod bilan shugʻullangan barcha ijodkorni emas, balki xalq badiiy tafakkuri, did, saviyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan asarlarni olish lozim boʻladi. Bunda xalq orqasida nisbatan yax-

shi tanish, nisbatan kattaroq avlod ijodkorlaridan Muhammad Ali, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Nurali Qobul, Qo'ch-qor Norqobil, G'afur Po'latov kabi nosirlar, Xurshid Davron, Abdulla Sher, Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Fariza Afro'z, Zebo Mirzo, Tursun Ali kabi shoirlar yoki Jontemir, Oydinisa kabi yosh avlod vakillari ijodini tekshirish mumkin.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida o'zbek jamiyatidagi odamning botiniy olamida nimalar yuz bermoqda uni jahon xalqlari bilan solishtirganda qanday farqlar bor va ular nima asosida yuzaga chiqqanini bilish muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Bu millat, mamlakat va o'z taraqqiyotiga befarq bo'lmagan kishini tashvishga solishi kerak. Bugun biz hamma yoqda balandparvoz gaplar, o'zaro madhiyabozlik yoki keraksiz mavzularda asar yaratib, kitob chiqarganimiz bilan unda oddiy o'quvchining muammosini yoritib, ularni yechishning xolis usulini namoyon etmasak, adabiyotning asosiy vazifasidan chetga chiqqan bo'lamiz. Odamlarning bugun badiiy adabiyotdan yiroqlashganiga sabablardan biri aslida saviyasi past asar yaratayotgan "muallif"lar bo'lsa, ikkinchisi sifatida o'ta murakkab asar yoki boshqa yerlik kishilar muammosining badiiy ifodasining berilganini keltirish mumkin. Masalan, Faxriyorning "Geometrik bahor" she'rlar turkumini ko'pchilik tushunmaydi. To'g'ri adabiyotdagi ijodiy izlanish sifatida shoirning faoliyati kerak, chunki bir xil usul va ifodalarda yaratilgan asarlar o'quvchi didini pasaytirib, uni o'tmaslashtiradi hamda uni fikrlashdan to'xtatib qo'yadi. Bunga esa yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Hozirgi adabiy jarayonni kuzatar ekanmiz, badiiy asarlarining janriy jihatdan xilma-xilligi kishining e'tiborini tortadi. Xususan, epik janrlardan epopeya, roman, qissa, hikoya, novellaning turli tuman namunalari yaratilmoqda. Ayniqsa, tarixiy mavzularga murojaat kuchaygani kishini quvontiradi. Mu-

hammad Alining “Ulug’ saltanat” epopeyasi, Nurali Qobulning 24 jildlik “Temuriylar epopeyasi” hamda shu muallifning yetti jildidan iborat roman-pamfleti adabiyotimizda katta hodisa sanaladi. Xurshid Do’stmuhammad (“Donishmand Sizif”), Isajon Sulton (“Genetik”, “Alisher Navoiy”, “Bilga xoqon”), Shahodat Isaxonova (“Temuriy malikalar” turkum romanlari), Nabijon Boqiyning “Qizil toshbo‘ron” (hujjatli roman) kabi asarlari roman janrining yangi shakli sifatida tadqiqotga muxtoj asarlar sanaladi.

Hozirgi adabiy jarayonda ba’zi janrlar faollashib, ba’zilari takomillashib, ba’zilari esa kamroq qo‘llanib kelinmoqda. Jumladan, roman janri o‘zining mavzu va ifoda uslubini doimiy ravishda kengaytirib kelmoqda. Bugungi kunda biz romanning tarixiy, zamonaviy, fantastik, biografik, ma’rifiy, mistik, diniy, sarguzasht, monologik roman, dialogik roman kabi shakllari yoniga bimalol roman-pamfletni ham kiritishimiz mumkin. Chunki so‘nggi yillarda iste’dodli yozuvchi Nurali Qobul qator roman-pamfletlar yaratdi.

Aslida roman-pamflet deyilganda, romaniy tafakkur doirasi va uning badiiy-publitsistik ifodasi birinchi o‘rinda turishiga diqqat qilish shart bo‘ladi. Chunki voqelik keng ko‘lamda, turli tarixiy-ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy qatlamlarda tasvirlanar ekan, material ko‘pligi va uning barchasini bir roman doirasiga sig‘dirish qiyinligi, shuning uchun asosiy ifoda shakllarini stilizatsiya qilish va shu yo‘l bilan rivoya usuliga badiiy-ijtimoiy ruh, sarkazm, aforistiklik kabi xususiyatlarni kiritishga ehtiyoj sezadi. Romanda muallifning turli badiiy va noadabiy nutq shakllari, sarkazmi, ironiyasi, tanqidiy fosh etish, ijtimoiy-siyosiy guruhni inkor etish, tanqid etishdagi usullari faol bo‘lishi mumkin. Shu xususiyat uning roman-pamflet deyilishiga asos bo‘ladi. Chunki roman-pamfletda kundalik maishiy nuqt shakl-

lari, muallifning badiiy-falsafiy, axloqiy, milliy-tarixiy, ijtimoiy-siyosiy kabi qator qarashlari o'z ifodasini topadi. Masalan, Nurali Qobulning "Sukut suiqasdi yoxud Stalindan Saddamgacha (Birinchi kitob. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. 288 b.)" va "Suigasddan so'nggi sukut yoxud Chingizxondan Cherrchillgacha (Ikkinchi kitob. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 320 b.)" nomli roman-pamfletlarida davlar va jamiyat qurish nazariyasi hamda uning aniq davrlar misolidagi amaliyoti aks ettiriladi. Bunda muallif insoniyat idealidan kelib chiqib adolatli, yetuk kishilar baxtli saodatli yashashiga imkon beradigan jamiyat va davlarni nazarda tutadi. Shu yo'lda kurashgan kishilar va ularga qarshi bo'lgan qattiqqo'l, o'z shaxsini ustun qo'yuvchi, diktator yoki avtokrat rahbarlarni qo'yadi. Bunda Rossiya imperiyasi, sobiq Ittifoq, Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi kabi davlatlar yetakchilarining siyosiy faoliyati tahlil etiladi. Xususan, quyidagi parchada bir millat, bir xalq, bir din vakillarining ikkinchi davlati bo'lgan Qo'qon xonligini qonga botirib, evaziga mulozimlaridan yaxshi tilaklar kutgan Buxoro amiri Nasrulloxon va unga qarshi fikr aytgan shoir Hoziqning suhbatini keltirilgan:

"Yugurishib kelgan ikki mulozim shoirning ikki qo'lidan tutgancha, oyog'ini yerga tekkizmay amir huzuriga eltdilar.

– Ha, shoiri zamon! – dedi amir Hoziqqa tikraygan qoshlarini kerib, qisiq ko'zlarini yirib boqarkan. – Biz ne qadar sizga izzat-ikrom ko'rsatib, o'zimizga yaqin olsak, siz shu qadar jondordan hurkkan qo'ydek sapchib qochasiz. Hukmdorlarga yaqin yurmoq ham bir xayri alomatdir.

– Faqir kishi panadadir, amir hazratlari. Sulton tanigan it suyaksiz qolmas naqliga amal qilib, ayrim saroy saklari kabi o'zimizni duch kelgan yaloqqa uravermaymiz! – dedi Hoziq xiyol boshini egib.

– Men sizni huzurimga munozara etmoq uchun chorladim. Ko'rdingiz, biz azaliy dushmanimiz Qo'qon xonlari ustidan g'alaba qozonib, ul mamlakatni ham o'z tasarrufimizga kiritdik. Qani ana shu... g'alabamizga bag'ishlab bir fard ayting-chi?

*... Tavqi la'nat libosin kiyding bu dam,
Yecholmaysan endi qiyomatda ham". [204]*

E'tibor qilinsa, Buxoro amiri Nasrulloxon bir millat, bir dindagi ikkinchi bir hukmdorni o'ldirib, mamlakatni talagani, qancha odamlarning qonini to'kkani, yana qanchasini qul qilib, olib kelgani evaziga shoirdan maqtov so'rab olmoqda. Bu rahbarning ma'naviy qashshoqligi, qalb ko'zi yopiqligi, yurtida xo'rlik, zo'rlik, adolatsizlik kuchayganidan dalolat bermoqda. Mamlakatni rivojlantirish o'rniga xalq orasiga katta nifoq solgani ta'kidlangan. Ammo davlat rahbari bundan faxrlanmoqda, vijdoni qiynalmasdan shoirdan o'zini maqtashini so'ramoqda. Roman-pamfletda muallif rahbarning ma'naviy ojizligi yurtga kulfat keltirishini ko'rsatgan. Yurt kattalari ma'nan yetuk, yuksak ideallarga ergashmas ekan, bu yerda farovonlik, obodlik, taraqqiyot bo'lmasligini uqtiradi.

Roman-pamfletning "Marksni o'qigan Chingizxon yoxud to'q it ovga yaramas, och bachchag'ardan qoch bachchag'ar" deya uzun sarlavha qo'yilgan to'rtinchi bobida jamiyat boshqaruvida intellegensiyaning o'rne, jamiyatni ma'naviy taraqqiyotga yetaklovchi tafakkur qiluvchi, ongli qatlamga qilingan zug'um davlat boshqaruvida yakka-hokimlikka olib kelishini ta'kidlamoq maqsad qilingan. Buning uchun bobning ichida alohida nisbatiy mustaqillikka ega kompozitsiya va konflikt mavjud.

Bob ekspozitsiya vazifasidagi quyidagi parcha bilan boshlanadi: "Inson atalmish yaratiq shunday. U kitob o'qisa, izlansa va

bilmaganini o'rganishga intilsa, fikrlaydi, tafakkur etib, to'g'ri bir qaror qabul qilish salohiyatiga erishadi" [47]. Roviylar mazkur nutqi orqali mazkur bobda ilgari suradigan nuqtai nazarida millat o'ydinlari taqdiri, kitob mutolasi va kishi o'sib, ulg'ayishi uchun tafakkur qilish naqadar muhimligi yetakchilik qilishini ko'rsatgan. Aslida bu fikr bobning epigrafida ham berilgan. Xususan, birinchisi quyidagicha bo'lib, uning muallifi "Alen" deb ko'rsatilgan: "Yovuz kishilarning kuchi shundaki, ular o'zlarini yaxshiman deb hisooblashadi. Siyosatdagi shuhrat – nohaqlik uchun mukofot". Ingliz otasoz (maqol)idan olingan ikkinchi epigraf yanada aniqroq ifodalangan: "Kishi o'lgandan so'ng u haqdagi haqiqat aytiladi" [47]. Birinchi epigrafda yetuk siyosatchilar kitob o'qishlari, undan olingan bilimlarini o'zlarining yovuz niyatlari yo'lida, kishilarga zulm qilishda ularni och qoldirish, bir umr oddiy kundalik ehtiyoj mollari topish uchun ham tinimsiz ishlashga majbur qilish, ularni qo'rqitish orqali jamiyatni boshqarishda qo'llashlariga ishora bor.

Yozuvchi roman-pamfletda turli voqea-hodisalarni keltirar ekan ularni mustaqil davrlar qurish, odil rahbar yoki sog'lom fikr yuritadigan fuqaro qanday bo'lishi kerakligi asosida talqin etadi. Natijada roman-pamfletning zarurati yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, Isajon Sulton, Nabi Jaloliddin, Abduqayyum Yo'ldoshev, Zulfiya Qurolboy qizi, Luqmon Bo'rixon, Qo'chqor Norqobil, Risolat Haydarova kabi yozuvchilar roman, qissa, hikoyalari ham adabiy jarayonda alohida ahamiyatga ega. Ijodkorlar yaratgan badiiy asarning mazmun-mohiyatini o'quvchiga yetkazish ijodkor ilgari surayotgan badiiy-estetik idealni aniqlash adabiyotshunos, tanqidchi, tahlilchilar zimmasidagi vazifa sanaladi. Bunda asarlardagi obraz, detal, voqelikning talqini muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday izlanish jarayo-

nida tahlilchi asardagi u yoki bu hodisani, detal obrazni tushuntiradi, talqin qiladi va sharhlaydi.

Badiiy soʻz bir qaralganda oddiydek tuyлади, ammo u birinchi galda insoniyatning buyuk kashfiyoti boʻlib, badiiy adabiyotda asosiy vosita sanaladi. Ana shunday material asnosida yaratilgan matnni oʻrganish va talqin qilish esa uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Keyingi yillarda mumtoz matnlarni anglash, talqin va tahlil etishda yangicha uslub va usullar alohida mavqe qozonmoqda. Germenevtika shunday uslublardan biri va muhimidir. Uning kelib chiqishi va mazmun-mohiyati haqida taʼkidlangan.

Germenevtika grekcha “her-meneukos” soʻzidan olingan boʻlib, tushuntiruvchi, talqin etuvchi maʼnolarini anglatadi. Bir tomondan esa qadimgi yunon Germes mifiga taqaladi. Atama sifatida esa matn talqini nazariyasi, matnni tag maʼnolarini tushunish, izohlash, sharhlash kabi maʼnolarda ishlatiladi.

Germenevtika soʻzi yunon maʼbudi Germes nomidan olingan. Qadimgi yunon miflariga koʻra, Germes maʼbudlar xabar-chisi, u fikr tezligida, bir zum ichida Olimp togʻidan dunyoning eng chekkasiga yeta olgan. U yoʻlovchilar homiysi boʻlgan, hatto vafot etganlarni Aid (narigi dunyo) olamiga boshlab boradigan qudratga ega boʻlgan. Gapga chechan, odamlarni ishontira oladigan darajada chiroyli gapiruvchi Zevsning qoida va topshiriqlarini odamlarga yetkazuvchi vazifasini bajargan. Chunki maʼbudlar tili bilan odamlar tili oʻrtasida farq boʻlgan. Aynan, Germesning chaqqonligi va Zevsning gaplarni kishilarga toʻgʻri talqin qilib yetkazish qobiliyati keyinchalik germenevtikaga asos qilib olingan. Germenevtika talqin, tushuntirish, tadbil kabi maʼnolarda faol qoʻllaniladi.

Aslida qadimgi Sharq mumtoz adabiyotida tushuntirish, talqin qilish, izohlash, sharhlash, tadbil qilish kabi faoliyat bilan shugʻullanuvchi maxsus kishilar boʻlgan. Qadimgi diniy matn-

larni tafsirchilar izohlashgan. Badiiy matnlarni esa ilmi balogʻa egalari tushuntirishgan. Bu borada muhim oʻrin tutuvchi tafsir ilmi, balogʻat ilmi (ilmi balogʻa)da turli (diniy, badiiy,) matnlar mazmuni talqin, tushuntirish, sharhlash, izohlash, tadbil qilish kabi usullar orqali oʻquvchilarga yetkazilgan.

Aslida balogʻat ilmi Qurʼoni karimni tafsir qiluvchi musafir olimlarga zarur ilm boʻlib, u oʻz navbatida maʼoniy, bayon va badeʼ kabi uch turga boʻlinadi. Ular chiroyli va maʼnoli soʻzlash hamda yozishning ilmi sifatida ijodkor ahliga turfa xil qoida (norma-meʼyor)larni ham belgilagan. Masalan, maʼnoviyda maʼno ifodalash uchun jumlarlar tuzishda soʻzlarning xossalari oʻrganiladi; bayonda esa jumla va gaplarning tuzilish xossalari oʻrganiladi; badeʼda boʻlsa, jumalarni goʻzal koʻrinishda tuzish sanʼati oʻrganiladi.

Gʻarbdagi ritorika ilmining asoschisi Arastu (Aristotel, mil. av. 384-322) “Anglash va talqin etish” muammolarini tadqiqi uchun falsafa bilan uygʻunlashib ketguvchi “Peri hermeneias” (Germenevtika doirasi) risolasini yaratdi. Keyinchalik bu doira Abu Nasr Forobiy (873–950) nomi bilan qoʻllanila boshladi. Negaki, Arastu risolasini Forobiy “Al-Ibora” nomi bilan sharhladi va kengaytirdi. Vaqtlar oʻtishi bilan bu asar mantiq ilmiga oid kitoblar ichidan joy olgan.

Demak, Platon, Arastular qoʻllagan, Forobiy esa “Al ibora” shaklida takomillashtirgan “hermenevtik” (talqin qilish, taʼbirlash) atamasi bugungi kunda uch xil maʼnoda qoʻllanila boshladi.

Lekin interpretatsiya – talqin qilishning oʻziga xos nazariy asoslari mavjud. Talqin qilishning uslubi esa talqinlash usuli ichida shakllanadi. Masalan, bir matni talqini vaqt oʻtishi bilan anglanishi mumkin. Bu matn yaratilgan vaqtda anglashilmagan yoki baʼzi kishilar tushunmaydi, ammo vatq oʻtishi bilan anglab

qoladi. Bunda badiiy matndagi mazmuniy qatlamlarni ochiq-lash – mavjud bo'lgan bir anglam bir nechta yo'nalish bo'yicha izohlanadi. Masalan, Hamid Olimjonning ushbu satrlaridagi shabboda detalini talqin qilaylik:

*Derazamning ostida bir tup
o'rik oppoq bo'lib gulladi.
... Va shabodda qurg'ur ilk sahar
olib ketdi gulning totini.*

Birinchi o'rinda shabboda havoning tabiiy harakatini bildi-radi. Takror usuli orqali qo'llanganda esa yurt ziyolilarini, mil-lat taraqqiyotini anglatadi.

Talqin badiiy matn mohiyatini anglatuvchi usullarga egali-gini quyidagi she'rlarda kuzatish mumkin. Anvar Obidjon de-tal orqali katta ijtimoiy muammoni yoritgan.:

Miltiq nega o'zini otdi? [296]

Aslida miltiq qurol. Ammo lirik qahramonning teran ko'zi miltiqning yuragi borligi va obrazga aylanganini ilg'ab, o'q otishdan uning o'zi ham bezib, otilib ketganini sezgan. Miltiq obrazi sinchkov lirik qahramon nazarida ramziylikka ham ega. U jinoyatchi emas, balki odam qo'lida yovuzlik qurboniga aylangan, jabrlanuvchidir. Odamning tubanligidan o'q otishga mo'ljallangan miltiq ham zerikkan va u bu ishini tashlab ket-moqchi. Ammo ilojsiz. Ana shu ilojsizlik zahirida lirik qah-ramonning yovuzlikka qarshi kurash g'oyasi ilgari surilgan. She'rdagi soddalik va oddiy shakl o'quvchiga katta estetik zavq va ma'naviy tarbiya beradi. Kishini atrofidagi borliqqa te-ranroq qarashga, mehr-muhabbatli bo'lishga undaydi.

Xalq sotilmas, sotishar xalqni [115.244].

Mazkur she'rning shaklini ikkita so'z va ularning turli morfologik o'zgarishlari tashkil etgan. Bu narsa ularning mazmuniga ham ta'sir qilishi tabiiy. Agar she'rning struktural modelini bir necha qatlamli yadro deb qabul qilsak, uning tashqi qatлами so'zdir. Bir qarashda juda oddiy jarayondek tuyuladi, ammo chuqurroq tahlil qilinsa, ikkinchi qatlamda ijodkorning mazkur satrni yozish paytidagi fikr va tuyg'u mutanosibligiga guvoh bo'lamiz. Shu yerda u lirik qahramon sifatida qat'iy xarakterli ekanini namoyish qilgan. Uchinchi qatlamda esa hayotiy tajribasidan kelib chiqib, o'z xulosasini bayon qilgan. To'rtinchi qatlamda uning chinakam vatanparvarligi, beshinchi qatlamda esa o'z xalqiga ishonishi, oltinchi qatlamda xalqning tarixi, yettinchi qatlamda xalqning bag'rikenglik xususiyati, sakkizinchi qatlamda odamlarga xos salbiy holat ochilgan.

She'rdagi badiiy detal, obraz, mazmun serqirraligi san'atkorning boy tajribasidan oziqlanadi. Shuning uchun undagi mazmun universal, salmoqli, originaldir.

Xullas, germevntika – talqin nazariyasi, ma'noni anglatish ta'limoti bo'lib, aksariyat hollarda qadimgi matnlarni sharhlashda qo'llanilgan. Talqin asardagi obraz, detal, narsa, voqea kabilarni ramziy va metaforik asosda tushunishga yordam beradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Adabiy jarayon tushunchasini izohlang.
2. "Germevntika" atamasining leksik ma'nosini bilasizmi?
3. "Germevntika" atamasining termin sifatidagi ma'nosini aytting.
4. "Interpretatsiya"ning leksik va terminologik ma'nolari.
5. Badiiy asarni talqin etishdan maqsad nima?

6. Nima uchun Gernemevtika – talqin nazariyasi deyiladi?
7. Mumtoz adabiyotimizda germeneytika bo'lganmi?
8. Balog'at ilmi (ilmi balog'a) atamasini izohlang.
9. Balog'at ilmi turlarini bilasizmi?
10. Talqinning metodologik imkoniyatlarini bilasizmi?

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

1. Nazar Eshonqulning “Kubroning iti” hikoyasidagi it yoki “O'lik mavsum” hikoyasidagi o'qituvchi obrazini talqin qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гадамер Х. Истина и метод: Основы филос. герменевтики: Пер. с нем. / Общ. ред. и вступ. ст. Б. Н. Бессонова.— М.: Прогресс, 1988. – 704 с.
2. Ёқубов И. Бадиий матн ва эстетик талқин. – Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2013. – 152 б.
3. Жўрабоев О. Матннинг матнлиги сирлари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – 200 б.
4. Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. Т.: Фан. 2006.
5. Умунов Х. Бадиий ижод асослари. – Тошкент, Ўзбекистон, 2001.

15-MAVZU: DRAMATIK ASARNI TAHLIL ETISH MUAMMOLARI

Reja:

1. Adabiy turlar va tahlil masalasi
2. Dramatik turga xos tahlil jihatlari
3. “Samarqand sayqali” tarixiy dramasida obrazlar tahlili
4. “Tanho qayiq” dramasi tahlili

Tayanch soʻz va iboralar: *tahlil, adabiy tur, dramatik tur, tarixiy drama, zamonaviy drama, komediya, tragediya, obraz, badiiy nutq, dialog, monolog.*

Maʼlumki, Platon, Aristotel davridan boshlab, adabiy-badiiy asarlarni yirik adabiy turlar – epik tur, lirik tur, dramatik tur kabilarga ajratish anʼanasi mavjud. Ular orasidan dramaturgiya (dramatik tur) barcha badiiy asarlar gultoji degan taʼrifga sazovor boʻlgan. Lekin dramatik asarlar yaratilishi murakkabligi, ijroga koʻproq eʼtibor qaratilgani bilan nisbatan kamroq yaratiladi. Lekin badiiy tahlilda dramatik asarlarni tahlil qilishga ham katta eʼtibor qaratiladi.

Avvalo, aytish kerakki, oʻzbek adabiyoti dramatik asarlar xalq dramasi shaklida qadimdan mavjud boʻlgan. Ammo yangi tipdagi drama, komediya, tragediyalar yaratishni XX asr boshlarida jadid dramaturglari M. Behbudiy, Hamza, A. Qodiriylar boshlab berishgan. 1913-yilda maxsus “Turon” truppasi tashkil etilib, unda turli asarlar sahnalashtirilgan. Bu esa dramatik asar uchun rejissyor, aktyorlar, sahna, yoritish uskunalari, kiyimlar, parda, maxsus joy kabi alohida talab bilan bogʻliqligini bildiradi.

di. Biz bu yerda dramatik asarni faqat badiiy asar nuqtai nazaridan tahlil qilamiz.

Asar birinchi o'qilgandayoq uning qaysi turga mansubligi aniq bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, badiiy asarning qaysi turga mansubligi tahlil tarziga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, dramatik asarlarni struktural tahlildan ko'ra linvistik tahlili yaxshi samara beradi. Epik asarlar ayniqsa, roman yoki epopeya matni katta hajmli bo'lgani uchun ularda tahlilning barcha usul va yo'llari yaxshi samara berishi mumkin. Chunki epik ko'lamdorlik, syujetning ko'p chiziqli, obrazlarning ko'p tarmoqli bo'lishi roman tahlilida murakkab tahlil usullarini qo'llashni taqazo etadi. Shunday bo'lsa-da, deyarli barcha badiiy asarlarda badiiy-estetik va etik-axloqiy, obraz va obrazlilik, an'ana va novatorlik, shakl va mazmun birligi masalalari yagona muammo sifatida o'rganilishi mumkin.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida dramatik asarlar nisbatan kamroq yaratilmoqda. Borlarida esa folklor elementlar ko'pligi bilan ajralib turadi. Shunday bo'lsa-da, Usmon Azim ("Kunduzsiz kechalar" (Cho'lpon haqida), "Adibning umri" (Oybek haqida), "Tohir va Zuhra"), Erkin Xushvaqtov ("Qirmizi olma", "Chimildiq"), G'ofur Shermuhammad ("Quduq tubidagi faryod", "Pariqishloq afsonasi", "Ko'zlarida holi bor"), Erkin A'zam ("Tanho qayiq"), Iqbol Mirzo ("Samarqand sayqali"), Gulnora Rahmon ("Sipohiyalar xonadoni") kabi dramaturglarning asarlari e'lon qilingan.

Dramatik turga mansub asar, xususan, drama tahlili epik turga yaqin bo'ladi, shuning uchun, janr xususiyatlari, asardagi personajlar xarakteri, qahramon nutqi, avtor remarkasi, mavzu va g'oya kabi jihatlarni epik asardagi singari tahlil qilish mumkin. Biroq, dramalar sahnada ijro uchun mo'ljallanganligi hamda unda tavsifiy qismlar, peyzaj, portretlar batafsil bo'lmasligi

hamda muallif, asosan, personajlar harakati orqali fikr yuritishga to'g'ri kelishi tahlilchidan sahna qoidalarini ham bilishni talab qiladi. Dramada dastlab asar janri va tuzilishi haqida ma'lumot beriladi. Masalan, "Samarqand sayqali" (Bir pardali, sakkiz ko'rinishli drama)⁶⁶.

Keyin esa dramada ishtirok etuvchilar, ularning asardagi vazifasi, portreti, yoshi, kasbi haqida alohida izohda beriladi:

"Qatnashuvchilar:

1. Alisher Navoiy – 24-28 yoshlarda.
2. Mo'ysafid – nuroniy chol, 90 yoshlarda.
3. Abu Lays Samarqandiy – Navoiyning ustoz.
4. Ahmad Hojibek – Samarqand hokimi.
5. Sohib Siddiq – Ahmad Hojibek saroyiga Hirotdan yuborilgan josus.

6. Davlatshoh Samarqandiy – shoir, tarixchi.
7. Mir Qarshiy – shoir.
8. Mavlono Riyoziy – shoir.
9. Yusuf Safoiy – Navoiyning saboqdoshi, shoir.
10. Xiramiy Qalandar – shoir.
11. Said qutb Samarqandiy – shoir.
12. Mirzobek – Navoiyning shogirdi, shoir.
13. Sharpa – Navoiyni ta'qib etuvchi kimsa.
14. Qiz – Abu Lays Samarqandiyning qizi, 18 yoshlarda.
15. Feruza – Abu Lays Samarqandiyning jiyani.

Eshik og'asi, mug'aniy, sipohlar, karvon ahli, o'tkinchilar, navkarlar va hokazolar. Voqealar 1465-1469-yillarida Samarqandda bo'lib o'tadi⁶⁷.

Mazkur ro'yxat drama haqida dastlabki ma'lumotlarni beradi. Unda asosiy qahramon Alisher Navoiy ekanligi, aynan uning

⁶⁶ Иқбол Мирзо. Самарқанд сайқали. // Шарқ Юлдузи, 2016 йил № 3. – Б. 57.

⁶⁷ Yuqoridagi manbaa. O'sha bet.

Samarqanddagi hayoti haqida syujet qalamga olingan. Ishtirokchilar haqida ma'lumotdan ko'rinmoqdaki, asarda konflikt ham bo'ladi, chunki bu dramatik asar talablaridan biri, shuning ushun josus va sharpa obrazlari asarga kiritilgan. Shuningdek, Navoiy va uning Abu Lays Samarqandiyning qizi o'rtasidagi muhabbat haqida ham fikr yuritilishini anglash mumkin. Chunki tarixiy manbalarda ana shu haqda ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, asardagi voqea yuz beradigan makon va vaqt haqida ham ma'lumot berilgan. Demak, dramaning struktura (tashqi kompozitsiya)sida obrazlar haqida ma'lumot, syujet yuz beradigan joy va zamon haqida aytilgan.

Yuqorida sanalgan personajlarning ichida nuroniy chol, Ahmad Hojibek, Abu Lays Samarqandiy, Mirzobek kabi obrazlar statik xarakterga ega bo'lib, barchasi Navoiyga yaqin do'st va xayrixoh kishilar sanaladi. Ammo Sohob Siddiq, Riyoziy obrazlari orqali siyosatning quli, ikkiyuzlamachi shaxs obrazi ham berilgan. Xususan, drama boshida Alisher Navoiyni Samarqandda iliq kutib olgan Ahmad Hojibekka nisbatan Sohob Siddiq ta'na gaplarni aytadi. Riyoziy esa Navoiyning vatan haqidagi *"G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish"* deb boshlanuvchi mashhur ruboiysi haqida *"Shoir janoblari nazarda tutgan "Oltin qafas" nima, tikan qayerda? Bu maskan siz uchun qafas bo'ldimi?"* [67] deya salbiy fikr bildiradi, turkiy tilda she'r bitishning imkonini yo'q, deya ta'na qiladi va Navoiy bilan tortishib qoladi.

Aslida, asar boshidan birinchi ko'rinish so'ngida aynan Sohob Siddiq Alisherbekning ortidan kuzatuvchi qo'yib, uni dushman ekanligi va kerak bo'lsa o'ldirishga izn beradi [61]. Keyinroq, Samarqand hokimiga bu hokimlikni unga podshoh berganligini, Alisher unga, podshohga qarshi odamlarning jiyanini ekanligini ta'na qiladi. Ahmad Hojibek Alisherbekka yaxshi munosabatda bo'lganligi uchun *"Abu Said Mirzo sizni xo'b siy-*

lab, Samarqand mulkini etmish inoyat. Haqqini ado qilmay bu muruvvatning. Uning dushmaniga iltifot etmak Sulton g'azabini qo'zg'atar shaksiz"[62] deya unga dakki beradi. Quyidagi parchada esa Alisherbekka nisbatan sovuq muomalada bo'lganligi keltirilgan: *"Alisherbek chiqib ketishi bilan Sohob Siddiq tutaqib kirib keladi.*

Sohob Siddiq (*jahldan duduqlanib*):
Siz... Siz... men hayronman... bunchalar
Oson ilindingiz uning domiga?
Dili bilan tili boshqa-boshqadir,
Bir kun dushmanligin ko'rsatar ayon. [65]
 Navoiy: *Bir kunda muncha ko'p voqe' va mujda...*
 Sohob Siddiq: *Sherpanja shahzoda Sulton Husayn*
Egallamish Hirot toju-taxtini,
Muborak bo'lsin bu muzaffariyat!
Do'stingiz chorlamish sizni yoniga. [83]

Parchalardan ko'rinadiki, Sohob Siddiq xarakterli va o'ta xavfli kishi bo'lib, uning Alisher Navoiyga bo'lgan munosabati drama davomida ijtimoiy voqelik ta'sirida o'zgarib borgani ni kuzatish mumkin. Demak, mazkur obraz xarakteriga ko'ra, dinamik obraz bo'lib, asar konfliktini ham hosil qilgan hamda ziddiyatni yuzaga keltirgan. Bu esa drama syujetiga qisman taranglik olib kirgan.

Mazkur drama she'riy yo'l bilan yozilgan bo'lib, barcha ma'lumotlarni biz, asosan, personajlar dialogidan, remarkalardan olamiz. Asar muqaddima va sakkiz ko'rinishdan iborat bo'lib, muqaddimada Alisherbekning Hitordan Samarqand sari yo'lga chiqishi, karvon haqida fikrlari keltiriladi va yetakchi obrazning monologi keltiriladi. Unda o'sha davr ijtimoiy-siyosiy vaziyatiga obrazning munosabati namoyon bo'lgan:

*Bu olam mulkida hamma yo'lovchi,
 Sayyohdir dunyoga kelgan har odam.
 Manzil-marohilga yetgunicha to
 Yetaklagay uni qismat karvoni.
 Menday darbadarni yo'l azobimas
 Javobsiz savollar horitar, ezar...
 Nechun odamimas odam bolasi
 Nechun bir-birining qoniga tashna?
 Aziz va mukarram yaralmish banda
 Nechun Tangriningmas, nafsining quli?
 Qachon osoyishta bo'lgay yer yuzi?[58]*

Drama she'riy usulda bayon qilingani uni she'riy tahlil yaqinlashtirib tahlil qilish imkonini ham yaratadi. Xususan, yuqoridagi monologda ritorik so'roq va ichki psixologik ziddiyat kuchli ekanligiga ishonitirishga harakat qilinadi. Lekin obrazning turgan makoni va real makon mazkur monolog keltirili-shiga unchalik mos kelmagandek taassurot qoldiradi. Chunki bunda shovqin shahardan, bu haqda fikr yuritish uchun sokin go'sha yoki boshqacharoq muhit bo'lganda ishonarli chiqar edi.

Aslida shoirning monolog orqali Alisherbek ruhiyatini ochishga urinishini ijobiy baholash kerak. Drama so'ngida ham Alisher Navoiyning sevgan kishisi qolayotgani, Samarqandga qaytishi, Vatan haqidagi fikrlari singdirilgan she'riy nutq keltiriladi. Ammo, unda ham dramaga xos bo'lgan lirik keskinlik kamroqdek tuyuladi. To'g'ri, keltirilgan lirik parchalarni aniq aktyor va rejissyor mahorati orqali sahnada yoritisa, muallif ko'zda tutgan badiiy-estetik yuklama ortishi va asar badiiy jihatdan yetuk bo'lishi mumkin. Chunki dramadagi psixologizm, xususan, Alisher ruhiyatini ifodalash uchun tasvir va nutq ifodasi antiteza, keskin dramatik tasvirlar joriy qilinishi kerak edi. Aslida drama tarixiy dalil va ma'lumotlar doirasi-

dan chiqib ketolmay qolganligi asarning saviyasiga soya solgan, deyish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Badiiy asarni turlarga ko'ra tahlil qilishda nimalarga e'tibor qilish kerak?
2. Dramatik asar tahlili qanday amalga oshadi?
3. Dramatik asar kompozitsiyasi haqida tushuncha bering.
4. Dramatik asarda dialogik nutqning asosiy vazifasi nimada?
5. Monologik nutq nimani ko'rsatadi?
6. Remarklarning dramatik asardagi o'rnini bilasizmi?
7. Dramadagi konfliktning vazifasi nimalardan iborat?
8. Komediya nutqiga xos xususiyatlarni bilasizmi?
9. Tragediyadagi yetakchi xususiyatni ayting.

Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

G'afur Shermuhammadning "Ta'ziyadagi to'y" dramatik asarini tahlil qiling (Ўзбек драматургияси уфқлари. Пьесалар. – Тошкент: Adabiyot, 2020. – Б.295-328.

Foyadalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qo'ziboyeva L.S. Mustaqillik davri o'zbek dramalarida inson va borliq muammosi. Filol. fan. b. Falsafa doktori (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent, 2025. – 52 b.
2. Sulton. Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 272 b.
3. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: Учебное пособие. – 3-е изд. –М.: Флинта, Наука, 2000. – 248 с.
4. Иқбол Мирзо. Самарқанд сайқали. // Шарқ Юлдузи, 2016 йил № 3. – Б. 57-84.
5. Қуронов Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 128 б.
6. Тўплам. Ўзбек драматургияси уфқлари. Пьесалар. – Тошкент: Adabiyot, 2020. – 512 б.

MAVZULAR BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. “Badiiy tahlil asoslari” fanining asosiy maqsadi nima?

a) Talabada adabiyot o'qitish metodologiyasiga oid ko'nikmani shakllantirish.

b) Talabaga adabiyot nazariyasi, adabiy jarayon, adabiyot tarixi, zamonaviy yozuvchi va shoirlar haqida ma'lumot berish, lirik va epik asarlarni tushunishni o'rgatishdan iborat.

c) Talabaga badiiy asarni tanlash, o'qish va badiiy asar yaratishning usul va yo'llarini o'rgatish.

d) Talabaga voqelikni badiiy idrok etish va uni ifodalash, badiiy-ijodiy jarayon, ijodkor psixologiyasi, badiiy asar tushunchasi, badiiy asar funksiyalari, asarni tahlil va talqin etish usuli, vositalari kabi poetik masalalarni aniqlashni o'rgatish.

2. “Badiiy tahlil asoslari” fani qaysi predmetlar bilan chambarchas bog'liq?

a) Adabiyot tarixi, adabiy jarayon, psixologiya.

b) Adabiy jarayon, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, estetik, falsafa.

c) Estetika, folklor, tarix, adabiyot tarixi, adabiy jarayon, siyosatshunoslik.

d) Psixologiya, tilshunoslik, falsafa, adabiyotshunoslik nazariyasi.

3. Mazmunning tarkibiy qismini ko'rsating.

a) Ideal, mavzu, g'oya, muammo, kechinma;

- b) Obraz, ideal, mavzu, nutq, janr;
- c) Mazmun, mavzu, shakl, muammo, g'oya, ideal;
- d) Obraz, kechinma, mavzu, nutq, muammo.

4. ...badiiy g'oyani ifodalash uchun tanlangan hayotiy material, voqea va vaziyatlarning mantiqiy majmuasi sanaladi.

- a) Badiiy-estetik ideal;
- b) Asar mazmuni;
- c) Problematika;
- d) Tematika.

5. "...menimcha, munaqqid hal etishi lozim bo'lgani va asosiy masala – ushbu asar chindan ham nafismi, ushbu asar avtori chindan ham shoirmi – shuni aniqlashdan iborat" – degan fikrlar muallifini toping.

- a) Abdurahmon Sa'diy;
- b) O. Sharafiddinov;
- c) U. Normatov;
- d) V.G. Belinskiy.

6. Interpretatsiya nima?

- a) Talqin
- b) Tahlil
- c) Sharh
- d) Tanqidchilik

7. Asarning mantig'i va estetik xosligini anglashga yo'naltirilgan kuchli hissiy-intellektual faoliyat bu...

- a) Asarni sharhlash;
- b) Ilmiy tahlil;
- c) Og'zaki tahlil;
- d) Talqin va tahlil.

8. Struktural tahlil bosqichlaridan qaysi biriga "matnning barcha unsurlarini yoppasiga tekshirish, bunda matnni tashkil etgan unsurlarga shunchaki umumiy miqdor deb emas, yaxlit butunlik sifatida yondashish" deb ta'rif berilgan?

a) Integratsiya

b) Aksiomashtirish

c) Assotsiatsiya

d) Identifikatsiya

9. “Tahlil bu matn bo‘ylab qilingan sayr”– degan so‘zlar kimga tegishli?

a) Ozod Sharafiddinov

b) Qozoqboy Yo‘ldoshev

c) Rolan Bart

d) Yuriy Lotman

10. “Adabiyot so‘zini tuzukkina anglamoq uchun san‘at ham go‘zal san‘at degan so‘zlarni ta‘rif qilib o‘tish lozimdir. San‘at lug‘atda hunar demakdirkim: bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir. ...

a) Abdurauf Fitrat

b) Izzat Sulton

c) Hegel

d) N.Chernishevskiy

11. “Tahlil adabiy asarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va jo‘n tushunish o‘rniga fikran ma’noli qism va unsurlarga bo‘lib qabul etishni ko‘zda tutadigan ilmiy faoliyatdir”. Mazkur fikr muallifini toping.

a) D. Quronov

b) G.N. Taranosova

c) G. Pospelov

d) Izzat Sulton

12. Arabchadan olingan bo‘lib “halollash, eritib yuborish” degan ma’nolarni bildiradigan atamani toping.

a) Sharh

b) Tahlil

c) Talqin

d) Tanqid

13. “...agar she‘r bir so‘z bilan chegaralansa, birinchidan, bu holatda so‘z alohida she‘rga barobar, ikkinchidan, agar u ajratib yozilgan bo‘lsa, she‘rning kuchi va qamrovini kuchaytiradi, bu esa asosiy belgilarni jonlantiradi” degan fikrni kim aytgan?

- a) Atoulloh Husayniy b) Izzat Sulton
c) Yuriy Lotman d) Yuriy Tinyanov

14. “Adabiy asarning yozilgan hamda o’rganilayotgan paytdagi badiiy va hayotiy mantig’i hamda estetik o’ziga xosligini anglashga yo’naltirilgan intellekt-hissiy faoliyat.” Qaysi tahlil turiga ta’rif berilgan.

- a) Filologik tahlil
b) Psixologik tahlil
c) Qiyosiy tahlil
d) Struktural tahlil

15. “Qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga ko‘ra, badiiy asar tahlili quyidagi turlarga bo‘linadi: ...” To‘g‘ri javob qaysi bandeda berilgan?

- Asar tahlilining ma’rifiy va tarbiyaviy turi mavjud.
- Badiiy-estetik va o’quv didaktik singari ikki turi mavjud.
- Tarbiyaviy va ilmiy (filologik) singari ikki turi mavjud.
- Ilmiy(filologik), o’quv didaktik singari ikki turi mavjud.

16. Ilmiy bilishning eng ko'p qo'llaniladigan usulini belgilang.

- a) tushunish
b) analiz
c) sintez
d) his etish

17. “Sintetik tahlil ...” Nuqtalar o‘rniga zarur javobni qo‘ying.

- a) ...ya'ni bo'laklamay, butunicha idrok etishdir.
b) ...ya'ni, parchalab, qismlarga ajratib tahlil etish.
c) ...ya'ni faqat asosiy qismlarni idrok etishdir.
c) ...ya'ni, bu soxta tahlil usuli bo'lib, o'zini oqlamagan.

18. Lirik she'r shakli deganda nimani tushunasiz?

- a) Obraz, mavzu, ideal, kechinma, problatika.

b) Mavzu, ideal, kechinma, muammo, lirik qahramon va boshqalar.

c) Lirik kompozitsiya, band, qofiya, vazn, badiiy ifoda vositalari va boshqalar.

d) Kompozitsiya, syujet, mavzu, ideal, kechinma, muammolar tizimi.

19. Avtobiografik tahlilda birinchi o'rinda nimalarga diqqat qilinadi?

a) Avtobiografik tahlil u qadar katta ahamiyatga ega emas.

b) Muallif tarjimai holi va uning badiiy asarga qanchalik real ifodalangani hamda badiy-estetik vazifasiga ega.

c) Tadqiqotchining aniq maqsadidan kelib chiqib ish ko'riladi.

d) Tarixiy haqiqat va badiiy to'qima masalasiga, tarixiy, real voqealar tasviriga.

20. Badiiy nutq qanday tarkibiy qismlarga ega bo'ladi?

a) Badiiy asar nutqi, nasriy, mazmuniy nutq, sochma, tizma nutq.

b) Monologik nutq, dialogik nutq, she'riy nutq, bayon va b.;

c) Muallif nutqi, personaj nutqi, dialogik nutq, monologik nutq, polilogik nutq kabilar.

d) Rovi nutqi, hikoya qiluvchi nutqi, personaj nutqi.

21. "Badiiy g'oya..." To'g'ri ta'rifni toping.

a) ...asarda ilgari surilgan mafkuralar asosi.

b) ...asardagi an'ana va novatorlikni anglatadi, badiiy idealning asosini namoyon etadi.

c) ...badiiy mazmunning muhim komponenti bo'lib, asardan kelib chiqadigan umumlashma obrazli, umumlashma fikrning mohiyatini aks ettiradi.

d) ...mazmun tarkibiy qismiga daxldor unsur bo'lib, asarning mazmunini to'ldiradi, serqatlam bo'lishini ta'minlaydi.

22. Badiiylikning birinchi kategoriyasi haqida umumiy ta'rifni belgilang.

a) Obraz va obrazlilik so'z san'atining alohida xususiyati sanaladi. Shunga asosan, badiiy obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasidir.

b) Har qanday asardagi o'xshatish, badiiy san'atlar, janr, asar tili badiiylik hisoblanadi.

c) Obraz va uning tasviri badiiylik sanaladi.

d) Asar tilidagi o'ziga xos ifoda, badiiy uslub badiiylikning birinchi ifodasi.

23. 1. Tarixiylik tamoyili. 2. Tizimlilik tamoyili. 3. Estetik asoslarning ustuvorligi. 4. Emotsionallik tamoyili. Yuqoridagi tamoyillar qaysi qatorga mansub?

a) Asar strukturasi tarkibi.

b) Badiiy asar tahlilining ilmiy tamoyillari.

c) Voqelikni tasvirlashning usullari va tamoyillari.

d) Obrazning badiiy-estetik vazifalari.

24. Fanning bosh maqsadini bajarish birinchi galda talabada ... shakllanishiga e'tibor berishni taqozo etadi. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni qo'ying.

a) voqelikni badiiy-estetik tushunish, uni idrok etish va badiiy ijod qilish iste'dodni his etish, anglash kabi ko'nikmalarni paydo qilish;

b) badiiy asar ijtimoiy ong shakli sifatida xalq, jamiyat dunyoqarashi, umuminsoniy g'oyalar, milliy qadriyatlar, an'analarni o'zida ifoda etishi orqali xalq botiniy olamining ko'rsatkichi

ekanligida tahlilning ahamiyati muhimligi haqida ma'lumot berish;

c) poetik masalalar: dispozitsiya, kompozitsiya (fabula, sujet), arxitektonika, obrazlar kompozitsiyasi, nuqtai nazar kompozitsiyasi, asar tili, shakl va mazmun birligi kabi jihatlarni anglash;

d) a, b, c javoblar to'g'ri.

25. Badiiy asar degandan nimani tushunasiz?

a) Betakror ma'naviy go'zallik ulashuvchi, mazmuni eskirmaydigan, salmoqdor va original asar badiiy asar sanaladi.

b) O'quvchilar yetuk deb tan olgan mualliflarning nashrdan chiqqan asari.

c) "Badiiy asar" birikmasidagi birinchi so'z doimiy yangidek turuvchi topilma, yangilik degan ma'nolarni bildiradi. Asar esa "iz", "belgi" demakdir.

d) Ijodkorning ma'lum ruhiy-ijodiy faoliyati mahsuli, olamni anglash, badiiy idrok etish jarayonida ijodkor ruhiy olami va borliqni yaxlitlik ila aks ettiradigan asardir.

26. O'zbek adabiyotshunoslik fanida badiiy tahlilning tarixiy-ilmiy asoslari qaysi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan?

a) Rudakiy, Navoiy, Rabg'uziy, Forobiy, Beruniy.

b) Forobiy, Ibn Sino, Atoulloh Husayniy, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur.

c) M. Koshg'ariy, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur.

d) Barcha javoblar to'g'ri.

27. Badiiy asar ustida izlanuvchi, qidiruv olib boruvchi faoliyat turkiy manbalarda qaysi so'z bilan ifodalangan?

a) Bitikchi

b) Baxshi

c) Tiliklik

d) Biligchi

28. “Har qanday fanning ilmiylik darajasi uning matematiklashish darajasiga tengdir”, – degan fikr muallifini aniqlang?

- a) N. Viner
- b) A. Fitrat
- c) D. Lixachev
- d) A. Bushmin

29. Qaysi javobda badiiy g‘oyaga to‘g‘ri javob berilgan?

- a) Badiiy g‘oya ijtimoiy g‘oyalar majmui bo‘lib, ko‘pligi mafkura deyiladi.
- b) Badiiy asarning mavzusini ochib berishga xizmat qiluvchi mazmuniy element.
- c) Badiiy mazmun komponenti bo‘lib, asardan kelib chiqadigan obrazli, umumlashma fikrning mohiyatini aks ettiradi.
- d) G‘oya mazmunning tarkibiy qismi bo‘lib, ijodkor niyatidan kelib chiqib, ba‘zan asarda bo‘lmasligi ham mumkin.

30. Quyidagi bandda qarg‘ish nima maqsadda qo‘llanilgan?

*“Eshiklarni yig‘lab yopdim, eshigingni yopgin yor,
Men-ku seni suyib topdim, sen Xudodan topgin yor.”*

- a) “Xudodan topgin yor” qarg‘ishi badiiy-estetik vazifa bajaradi: “Xudo senga omad, baxt bergan edi. Biroq, sen buni bilma- ding, endi Xudodan izla” deyilgan.
- b) “Xudodan topgin yor” qarg‘ishi banddagi aruz vaznining ruknini to‘ldirish maqsadida qo‘llanilgan.
- c) “Xudodan topgin yor” qarg‘ishi “seni suyib topdim” jum- lasi bilan mazmuniy ziddiyatga kirishgan, xolos.
- d) “Xudodan topgin yor” qarg‘ishi xalq qo‘shiqlarida uchra- b turadigan badiiy tasviriy vositalardan sanaladi.

31. “Adabiyotshunoslik lug‘ati” ushbu asar mualliflarini aniqlang?

- a) Q. Yo‘ldoshev, D. Qur‘onov;
- b) D. Qur‘onov, S. Mamadaliyeva, Q. Yo‘ldoshev;
- c) U. Normatova, Q. Yo‘ldoshev;
- d) D. Qur‘onov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva.

32. “Olamda mening tasavvurlarimdan bo‘lak hech narsa yo‘q”. Ushbu xitob muallifini aniqlang.

- a) Fridrix Nitshe
- b) Gyote
- c) Ch. Aytmatov
- d) Bernardo Silva

33. O‘zbek adabiyotida ilk marotaba yozilgan, 23 jild-dan iborat “Temuriylar epopeyasi” muallifini aniqlang.

- a) Muhammad Ali
- b) Normurod Norqobilov
- c) Nurali Qobul
- d) Nazar Eshonqul

34. O‘zbek adabiyotidagi ilk “Adabiyot nazariyasi” nomli asar kimning qalamiga mansub?

- a) Izzat Sulton
- b) Matyoqub Qo‘shjonov
- c) Bahodir Sarimsoqov
- d) Azim Rahimov

35. “Dunyotepaning devi”, “Savob”, “Azob”, “Kechikkan turnalar” kabi hikoyalar muallifi kim?

- a) Muhammad Ali
- b) Normurod Norqobilov
- c) Nazar Eshonqul
- d) Nurali Qobul

**36. Yozuvchining hikoyalarida cho‘ponlar hayoti, tog‘-
u, toshlar tasviri, chorvador xalqning turmush tarzi, yax-**

shi-yomon kunini birga baham ko'rib yashaydigan turli xil kishilarning badiiy ifodasini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ta'rif qaysi ijodkor haqida ketmoqda?

- a) Shukur Xolmirzayev
- b) Normurod Norqobilov
- c) Nurali Qobul
- d) Nazar Eshonqul

37. Badiiy tahlilda milliy roman qanday ichki shakllarga ajratiladi?

- a) roman-dilogiya, roman-trilogiya, roman-pentalogiya, roman-tetralogiya, rivoyat-roman, mistik-roman;
- b) polifonik roman, ilmiy-fantastik roman, ma'rifiy-biografik roman, esse-roman, roman-pamflet;
- c) roman-istehzo, roman-mushohada, roman-publitsistika, «mini-roman», roman-mif;
- d) barchasi to'g'ri.

38. Badiiy obrazning spetsifik xususiyatlarini aniqlang.

- a) Salmoqdorlik, milliylik, shartlangan, asoslanganlik, originallik.
- b) Individlasmalangan umumlasmal, ratsional, emotsional, metaforik, assotsiativlik.
- c) Badiiylik, salmoqdorlik, hissiylik, aforistiklik, aniqlik, ishonarlilik.
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

39. Badiiy obrazning keng tarqalgan tasnifi quyidagicha bo'ladi:

- a) predmetlilik darajasi; umumlashtirish darajasi; tasvir va ifoda qatlamlari munosabatiga ko'ra;
- b) salbiy, ijobiy, ironik, bosh obraz, ikkinchi darajali obraz, detal-obraz;

- c) detal obraz, voqea-hodisalar obrazi, tip;
- d) badiiylik, badiiy moduslik darajasiga, ifodasiga ko'ra, ijodiy metodiga ko'ra.

40. "Manera" nima?

- a) Ijod
- b) Muallif
- c) Usul
- d) Qobiliyat

41. Badiiy tahlilga kim: "...tahlil – bu matn bo'ylab qilingan sayr", – deb ta'rif bergan?

- a) Roland Bart
- b) B. Vavilov
- c) Fitrat
- d) A. Sokolov

42. "Majnuntol tagiga o'tqazing meni, Men uchun yig'lasin, men yig'lab bo'ldim." Misralar muallifi kim?

- a) A. Oripov
- b) E. Vohidov
- c) U. Nosir
- d) Mirtemir

43. "Tilla baliqcha" she'ridagi baliqcha obrazi nimani bildiradi?

- a) Bir tomonlama fikrlovchi odam;
- b) Olam haqida keng fikr yurituvchi shaxs;
- c) Asl haqiqatni bilmagan, fojeaviy shaxs;
- d) Lirik qahramon oddiy odam.

44. Asarni yozilish sabablari va variantlarini yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish usuli qaysi?

- a) Genetik
- b) Funktsional
- c) Falsafiy
- d) Tinologik

45. “Badiiy tahlil asoslari” fanining asosiy maqsadi nima?

a) Talabaga voqelikni badiiy idrok etish va uni ifodalash, badiiy-ijodiy jarayon, ijodkor psixologiyasi, badiiy asar tushunchasi, badiiy asar funksiyalari, asarni tahlil va talqin etish usul, vositalari hamda qator poetik masalalarni aniqlashni oʻrgatish.

b) Badiiy asarni tanlash, oʻqish va badiiy asar yaratishni oʻrgatish.

c) Talabaga adabiyot nazariyasi, adabiy jarayon, adabiyot tarixi, zamonaviy yozuvchi va shoirlar haqida maʼlumot berish, lirik va epik asarlarni tushunishni oʻrgatishdan iborat.

d) Talabada adabiyot oʻqitish metodologiyasiga oid koʻnikmani shakllantirish.

46. 2016 yilda yozilgan “Badiiy tahlil asoslari” kitobining mualliflari kimlar?

a) Ortiqboy Abdullayev, Bahodir Karimov.

b) Umarali Normatov, Qozoqboy Yoʻldoshev.

c) Qozoqboy Yoʻldosh, Muhayyo Yoʻldosh.

d) Islom Yoqubov, Qahhorjon Yoʻlchiyev.

47. Adabiyotning bosh vazifasi nima?

a) Hayotni real tasvirlash.

b) Hayotga tayyorlash.

c) Insonshunoslik.

d) Hayotsevarlik.

48. “Badiiy tahlil asoslari” fani qaysi fanlar bilan chambarchas bogʻliq?

a) Adabiy jarayon, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, estetika, falsafa.

- b) Psixologiya, tilshunoslik, falsafa, biologiya.
- c) Estetika, folklorchilik, tarix, anatomiya.
- d) Adabiyot tarixi, adabiy jarayon, siyosatshunoslik.

49. Adabiyotshunoslikning asosiy tarkibiy qismlari qaysilar?

- a) Adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid.
- b) Manbashunoslik, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid.
- c) Adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, matnshunoslik.
- d) Adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, xronologiya.

50. "Naturalizm" atamasiga quyidagi javoblarning qaysi birida aniq javob berilgan?

- a) Inglizchada "tabiiy" degan ma'noni anglatadi.
- b) Lotinchada "tabiiy" degan ma'noni anglatadi.
- c) Fransuzchada "metod" degan ma'noni anglatadi.
- d) Arabchada "aniq javob" degan ma'noni anglatadi.

51. Adabiy tilga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni aniqlang.

- a) Xalq uchun tushunarli bo'lgan til.
- b) Xalqlar uchun umumiy, tarjimasiz tushunarli til.
- c) Tartibga solingan, hamma xalqlarga tushunarli til.
- d) Muayyan millatning me'yorlashgan, ma'lum tartibga solingan tili.

52. Drama asarlari tahlilida qaysi belgilarni hisobga olish zarur?

- a) An'anaviylikni va sahnaviy bilimdonlikni;
- b) Dramada muallif ishtirokini;
- c) Dramatizmni;
- d) Adabiyot va teatr munosabatini.

53. Adabiyotda syujet qanday usullarda yaratiladi?

- a) Faqat badiiy to'qima asosida;
- b) Badiiy to'qima va tarixiy fakt asosida;
- c) Tarixiy fakt;
- d) Ig'vo asosida.

GLOSSARIY

Absurd (lotincha – soxtalik, bema’ni, mantiqsiz) – muayyan narsa, voqea yoki xulosalarning ichki ziddiyati, mantig’i noto’g’ri, soxta, yasama ekanligini anglatuvchi falsafiy tushuncha. XIX asr oxiri, XX asr boshlarida G’arbiy Yevropa adabiyoti va san’atida hayotiy voqelikning real haqiqatga mos kelmasligini, ma’lum g’oya va ta’limotlar soxta ekanligini, odamlar noto’g’ri yo’ldan ketayotganligini bildirish uchun ishlatilgan. Modernizmning oqimlaridan biri. Ko’proq Fransiya adabiyotida yetakchilik qilgan. San’atda buyuk rassom Salvodar Dali asarlari misol bo’la oladi. Absurd g’oyalarining ildizlari mumtoz adabiyotda ham uchraydi. Zamonaviy lirikada Bahrom Ro’zimuhammad, Abduvali Qutbiddin she’rida absurd uchraydi. *Muzlagan sut qaynab toshar paqirda, / Saksovul barg yozdi birdan. / Sen keldingmi? / Mening sevgim.* (A.Q.)

Adabiy tur – adabiy asarlarning badiiy nutq, obrazlar tizimi, real tasvir tamoyillariga farq qiladigan yirik guruhi nomi: epik tur, lirik tur, dramatik tur. Liro-epik tur, paremik tur, satirik tur kabi taklif etilgan, ammo uncha ommalashmagan shakllari ham uchraydi.

Allegoriya (majoz) (yunoncha “allegoria” – “boshqacha ifodalash”) – mavhum fikrni yoki hodisani konkret obraz sifatida ifodalash usuli, obrazlilik turi. Masalan: tulki – ayyorlik, bo’ri – yutqich, sodda va aldanuvchan.

Aruz she’r tizimi – kvalitativ (tovushlar sifatiga) xususiyatga asoslangan she’riy vaznlar majmui. Yaqin va o’rta sharq xalqlari orasida, jumladan, arab, fors, o’zbek she’riyatida keng tarqalgan. Arab lirikasida qadimdan mavjud bo’lgan. Nazari-

ya asosini Halil ibn Ahmad ishlab chiqqan. O'zbek aruzu arab aruzidan farq qiladi. Birinchi o'zbek aruzi nazariyotchisi hazrat Alisher Navoiy sanaladi. U kishi "Mezon-ul avzon" (baznlar o'lchovi) risolasini yaratgan.

Quyidagi bayt aruz she'r tizimining ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan:

Ter-mu-lar-shab/nam-li-yap-roq- / os-ti-da pin /hon-u-zum.

- V - - / - V - - / -v - - / - V -
Fo i lo tun / fo i lo tun / fo i lo tun /fo i lun
Lab-la-ring-ga yetmoq istab tong sahar giryon uzum.

- V - - / - V - - / -v - - / - V -
Fo i lo tun / fo i lo tun / fo i lo tun /fo i lun

(E.Vohidov)

Badiiy to'qima – ijodiy tasavvur, fantaziya mahsuli bo'lib, real mavjudlikka nisbatan yangi san'at asariga xos xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Badiylik - san'at va estetikaning eng muhim kategoriyasi. Birinchi galda san'at (jumladan, so'z san'at)ining borliqni idrok qilish va ifodalash shakli, shu jihati bilan u fandan farq qiladi. Ikkinchidan, badiylik badiiy asarning estetik yetuk ekanligining belgisi hisoblanadi. Shundan kelib chiqilsa, asarda badiylik turli darajada bo'ladi.

Barmoq she'r tizimi – turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan, kvantativ (tovushlar miqdori, misradagi turoqlar soniga asoslanadi) xususiyatga ega she'riy o'lchov tizimi. Satrlardagi tovushlar miqdorini barmoq bilan sanash imkoni bo'lgani uchun barmoq nomi bilan ataladi. Ko'pincha 7, 9, 11 bo'g'inli turkumlari faol hisoblanadi.

Kim-ga-dir yax-shi-gap / ayt-dik bi-ro-dar / 6+5=11

Kim-dir- bir- u-mr-ga / ran-jib-ham-ket-di./ 6+5=11

(A.Oripov)

Kompozitsiya (lot. tuzilish, joylashtirish) – badiiy asarning shakliy tomoni hisoblanib, asarda muallif diqqat markazi, ijodiy konsepsiyasining yaxlit va yaqqol ifodasi, asar nutqiy, voqeaviy va obrazlar tizimining o‘zaro mutanosib joylashuvini nazarda tutadi. Asardagi qismlar, mayda unsurlar aniq maqsad yo‘lida shunday mahorat bilan joylashtirilishi kerakki, undan biror narsa olinsa, asar badiiyligiga shakliy mukammalligiga putur yetadi. Bu esa kompozitsiya tasvir me‘yori, xarakter zarurati, badiiy nutq mezonini kabilarga qat’iy amal qilishni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, kompozitsiya syujet kompozitsiyasi, obrazlar kompozitsiyasi, badiiy nutq kompozitsiyasi kabi turlarga ajratilishi mumkin. Bundan tashqari, mazmuniy kompozitsiya (tezis-antitezis, sintez, xulosa), ritmik kompozitsiya kabi ko‘rinishlari ham mavjud.

Konflikt – badiiy asar ta’sirchanligi, asar badiiyligini ta’minlashga xizmat qiluvchi unsurlardan biri. Syujet tizimida yaxshi yuzaga chiqadi. Bunda u ikki yoki bir nechta personajlar o‘rtasidagi to‘qnashuv, ziddiyat, munosabatlar shaklida bo‘lishi mumkin. Bu ikki obrazning ziddiyati salmog‘iga qarab qisqa yoki butun asar davomida yuzaga chiqishi mumkin. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagida Zumrad va Qimmatning qisqa ziddiyati berilgan. “O‘tkan kunlar” romanida esa Otabek va Xomid konflikti asarning deyarli asosiy qismini egallagan. Bundan tashqari, konflikt personaj va muhit, guruh, jamiyatdagi qatlam shaklida ham bo‘lishi mumkin. Masalan, Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturudiy” romanida imom Moturudiy va mo‘tazaliychilar oqimi vakillari o‘rtasidagi konfliktni olish mumkin. Shuningdek, personaj (ko‘pincha, bosh qahramon)ning ichki konfliktidir. Bunda u o‘zining u yoki bu fikriga qarshi fikr bildiradi, o‘zi bilan o‘zi bahsga kirishadi. Masalan, O.Yoqubovning “Mirzo Ulug‘bek” romanidagi Mirzo Ulug‘bek obrazini misol qilsak bo‘-

ladi. Shunga ko'ra, konfliktning uchta turi bor, buni yuqorida sanash mumkin.

Mayto'ra – islomgacha bo'lgan turkiy miflarda kishiga olov yoqishni, madaniy hayotni o'rgatgan ma'bud nomi, odam homiysi. Yunoncha Prometeyning sinonimi.

Mif (yunoncha - so'z, hikoya, tasavvur, tushuncha) - ibtidoiy davr kishilari ongi va tushunchasida inson, tabiat, jamiyat va koinotning paydo bo'lishi bilan bog'liq hodisalarning aks etishini ifodalovchi asar turi, folklor janri. Mifda tabiat va jamiyat hodisalari, shuningdek, g'ayritabiiy hodisalar, afsonaviy qahramonlar, devlar, qushlar, bahaybat hayvonlar, jin va hokazolarining obrazlari timsolida umumlashtirilib tasvirlanadi. Masalan, "Olamning yaratilishi" mifida islomgacha bo'lgan davrdagi qarashlar aks ettirilgan.

Obraz, badiiy obraz – adabiyot va san'atning fikrlash shakli. Odamning borliqni, makonni, joyni, voqea-hodisani olam va odam munosabati kabilarni badiiy idrok etish vositasi, badiiylilikning birinchi kategoriyasi hisoblanadi. Badiiy obraz ikki xil ma'noda ishlatiladi: 1) keng ma'noda badiiy asardagi jamiyat, davr, joy, voqea, hodisa tasviri. Masalan, "O'tkan kunlar" romanida XIX asr o'zbek jamiyatining yaxlit obrazi aks ettirilgan; 2) tor ma'noda ma'lum badiiy-estetik funksiyani ifodalashdagi aniq obraz, masalan, Sh.Rahmonning "Birovning guli" she'ridagi gul, chumchuq obrazlari bir she'r doirasida aniq shaxsni, hodisani ifodalaydi.

Obrazlilik – san'at, jumladan, so'z san'atining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, borliqda (dispozitsiya)dagi barcha voqea, hodisa, narsa, jism, shaxs, hayvonot olami kabilarni asarga olib kirishda ularga badiiy tasviriy va ifoda vositalari yordamida yangi vazifa yuklash natijasida badiiylilikni ta'minlash usulining umumiy nomi. Shamol – o'yinqaroq bolakay. Bu yerda shamol

sho‘x, beg‘araz, samimiy bolaga o‘xshatilgan. Bu yerda obrazlilik bor.

Ong oqimi – hikoya qilish shakli, ichki monolog variantlaridan biri. Unda roviy nutqi erkin assotsiativ, ixtiyoriy ketma-ketlik, ko‘pincha, mantiqiy bog‘lanmasdan tashkil etiladi. Natijada, inson real psixologik vaziyati, holati, affekti bevosita ifoda qilinadi. M.Prust nasrida butun ong mavjudligining muxtorligi, boshqalardan ajralib turishini, J.Joysda esa kishi hayotining ichki va tashqi shakllaridagi konfliktlarning yaxlitligini ta‘minlashi bilan ajralib turadi. X.Do‘stmuhammadning “Vasiy” hikoyasida bayon ong oqimiga misol bo‘la oladi.

Poetika (yunonchada “Poietike” – mahorat bilan yaratish so‘zidan) – san‘atning mohiyati, maqsadi va vazifalarini, uning voqelikka bo‘lgan munosabatini, borliqni badiiy idrok etish va ifodalash kabi masalalarni badiiy-estetik jihatdan tadqiq etuvchi soha – adabiyot nazariyasi. Tor ma’noda esa aniq adabiy hodisaning yuzaga kelish omili, aniq asardagi vazifasi, takomillik kabi ilmiy-nazariy muammolarni tadqiq etuvchi soha. Masalan, janr poetikasi, obraz poetikasi, badiiy nutq poetikasi kabi.

Polifoniya – ko‘p-ovozlilik, struktur prinsip. M.M.Baxtin, M.F. Dostoyevskiy romanlaridagi badiiy yaxlitlik tipini tavsiflash uchun ishlatgan. Bunda badiiy matndagi har bir personaj o‘zaro katta dialogik munosabatga kirishadi. Asar esa o‘quvchi bilan aloqada bo‘ladi. Shu ma’noda har personaj o‘quvchi bilan nisbiy munosabatga kirishib, o‘z qarashi va fikrini kitobxonga yetkazadi. Struktural poetikaning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Qissa – bosh qahramon taqdiri yordamida hayotning u yoki bu qirralarini, yoxud qahramon hayotining muhim pallalarini rivoyaviy usul bilan aks ettiruvchi epik janr. Unda qamrov bir yoki ikki syujet liniyasiga ega bo‘ladi. Bosh qahramon hayoti-

ning eng muhim pallasi badiiy tahlil etiladi. Masalan, Nurali Qobulning “Sening bolalik osmoning” qissasi.

Ritm – badiiy adabiyotda badiiy nutqning doimiy xususiyatining, xarakterli ifodalarining takrorlanishini bildiradigan tushuncha. Boshqa tomondan olganda, bir xil o'lchovdagi nutqiy birliklarning ma'lum vaqt oralig'ida takrorlanishi nazarda tutiladi. Keyingi xususiyati she'riyatda yaxshi yuzaga chiqadi. Lekin nasriy nutqda ham ritm bo'ladi.

Simvol, badiiy ramz (yunon. “symbolon” – belgi, shartli belgi) – belgili xususiyatiga ko'ra obraz shakli. Ammo u ishora qilish, leksik ma'nosi boshqa mazmunga ko'chish, unga yangi ma'no ifodalash xususiyatini beradi. Bunda metafora, metonimiya usullaridan faol foydalaniladi. Ammo badiiy ifodadan belgi ekanligi, nimadir anglatishi bilan farq qiladi. Ammo ko'p ma'noлик xususiyati bilan belgidan farq qiladi: Sariq atirgul – ayriqlik ramzi, qizil – hissiyot, jo'shqinlik ramzi.

Stilizatsiya (fr. “stylisation”(style) – tarzlashtirish, yo'singa solish, usul) – yozuvchi tomonidan biror kishi uchun xarakterli bo'lgan bayon qilish yo'sini orqali rivoyat qilish usuli bo'lib, unda yozuvchi ma'lum ijtimoiy muhit yoki davr kishilariga xos stilistik tizimga o'tadi. Bu esa yozuvchiga turli nutq tizimlarining o'ziga xos omuxtasidan foydalangan holda individual uslubini yaratish imkonini beradi. Yozuvchi ijtimoiy taraqqiyotning turli madaniy bosqichlarida faol qo'llanilgan nutq vosita va usullarini qo'llashi, avval mavjud bo'lgan rivoyat, ertak, masal, qissa janriga xos syujet kompozitsiyasini qayta ishlashi va o'zining badiiy ifoda vositalari bilan yangicha ifodalashi yoki turli ijtimoiy tabaqaga mansub kishilarning nutq usullarini birlashtirib bitta badiiy-estetik vazifani bajarishda foydalanishi mumkin. Stilizatsiya uch turli ko'rinishda bo'ladi: 1) yozuvchi bir nechta yozuvchiga yoki metodga oid yetakchi elementlarni

birlashtirib, alohida rivoyat usulini yaratishi; 2) bir janr mashhur bo'lgan voqeani boshqa bir janrga aylantirish tarzi: Sizif haqidagi antik mifni Xurshid Do'stmuhammad "Donishmand Sizif" romani asosida qayta yaratgani; 3) tarixiy stilizatsiya – o'tmish davrga xos badiiy xususiyat, ruh va shakl yoki uslubiy shakllarni zamonaviy aspektda ifodalash. Bu yerda qadimgi stilning badiiy-estetik vazifasi yangilanadi.

Struktural tahlil – badiiy matn qismlarining o'zaro muvofiqligi hamda munosabatini tahlil etish usuli, lingvopoetikada ko'p ishlatiladi. Uning struktural poetikadan katta farqi bor.

Struktural poetika – nazariy adabiyotshunoslikda XX asrning ikkinchi yarmida salmoqli ahamiyatga ega bo'lgan soha. Bunda badiiy matnning turli qismlari zimmasidagi badiiy-estetik vazifaga oid masalalar o'rganiladi. U struktural tahlildan farq qiladi.

Vazn (arabcha – o'lchov, tarixi: ko'pligi mavzun – tartibga solingan) – she'riy nutqni nasriy nutqdan ajratib turuvchi ritmik birlik. Masalan: barmoq vazni, aruz vazni, erkin vazni kabi.

Xarakter – obraz turlaridan biri bo'lib, adabiyot va san'atda biror jihati bilan boshqalardan ajratib tasvirlangan inson obrazi tushuniladi. Masalan, "Dahshat" hikoyasidagi Unsun shaxsiy erki uchun kurashgani va jasurligi, o'limdan qo'rqmasligi bilan xarakterlanadi. Shu ma'noda, Unsun xarakteri yozuvchining dunyoqarashlaridagi, botinidagi idealini ifodalagan.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-MAVZU: KIRISH. ADABIYOTSHUNOSLIKDA TAHLILNING ILMIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	8
2-MAVZU: BADIY ASARNI ILMIY O'RGANISH VA UNING VAZIFALARI	18
3-MAVZU: BADIY ASAR STRUKTURASI VA UNI TAHLIL QILISH	31
4-MAVZU: BADIY ASARDA MAZMUN VA SHAKL BIRLIGI	42
5-MAVZU: ASAR TEMATIKASI VA UNI TAHLIL ETISH	56
6-MAVZU: MUAMMOLAR TIZIMI TAHLILI	66
7-MAVZU: TASVIRLANAYOTGAN OLAM.....	76
8-MAVZU: BADIY NUTQ TAHLILI	88
9-MAVZU: KOMPOZITSİYALAR TAHLILI	98
10-MAVZU: BADIY OBRAZLAR TIZIMI.....	112
11-MAVZU: USLUB VA TAHLIL MUAMMOLARI.....	133
12-MAVZU: LIRIK ASAR TAHLILI	143
13-MAVZU: NASRIY ASAR TAHLILI.....	158

14-MAVZU: ADABIY JARAYON VA TALQIN (INTERPRETATSIYA)	171
15-MAVZU: DRAMATIK ASARNI TAHLIL ETISH MUAMMOLARI	182
MAVZULAR BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:	189
GLOSSARIY	203

Q.V. YO'LCHIYEV

BADIIY TAHLIL ASOSLARI

Darslik

Muharrir: Madina Abdusamatova
Badiiy muharrir: Muhiddin Xoldarov
Sahifalovchi: Ilmira Adilova



Litsenziya raqami: №097911, 04.07.2023-yilda berilgan.
Bosishga 2026-yil 28-yanvarda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$, Shartli bosma tabog'i 12,32.
Cambria garnituras. Ofset usulida bosildi.
Adadi 100 nusxa.

"InfoKapitalBooks" nashriyoti, 100100 Toshkent sh., Olmazor tumani,
Universitet MFY, Talabalar ko'chasi, 5/1-uy
Tel.: (+998 71) 241-32-21, Mob.: (+998 99) 899-89-11.
Elektron pochta qutisi: info@kapitalbook.uz
Telegram kanalimiz: [infokapitalbooks](https://t.me/infokapitalbooks)